

44.102  
E-33

Nasiba Erxonova  
Zuhra Ro'ziyeva

TARBIYACHILIK KITOBIDIR

# MATEMATIKA



0 1 2 3 4  
5 6 7 8 9  
+ - =

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida elementar matematik ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha ta’limiy faoliyat ishlanmalari

Barcha yosh guruhlariga tavsiya etiladi



F-33.  
Nasiba ERXONOVA, Zuhra RO'ZIYEVA

**TARBIYACHI KITOBI**  
**MATEMATIKA**



ZAMIN NASHR  
Toshkent-2020



**UO‘K 373.2.016:51**

**KBK 74.102**

**E 84**

Nasiba ERXONOVA, Zuhra RO‘ZIYEVA. **“Tarbiyachi kitobi. Matematika”**. Amaliy qo‘llanma. – Toshkent.: “Zamin nashr”, 2020. –bet.

**Taqrizchilar:**

**Shoyista Sodiqova**, Nizomiy nomidagi TDPU “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

**Dilfuza Azizova**, Samarqand viloyati Maktabgacha ta’lim Boshqarmasi mutaxassisi

**Feruza Yo‘ldosheva**, Shayxontohur tumanidagi 448-MTT metodisti

Ushbu qo‘llanma “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarida belgilangan elementar matematik malakalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida har bir bolada sodda matematik malakalarni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ta’limiy faoliyat beshta asosiy yo‘nalishni qamrab olinadi:

1. Geometrik shakllar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlar shakllantirish.
2. Fazoda mo‘ljal olish ko‘nikmalarini hosil qilish.
3. Vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
4. Miqdor-kattalik haqida tasavvurlar hosil qilish.
5. Son-sanoq haqida tushunchalar hosil qilish.

Mazkur amaliy qo‘llanmada umumiy guruhlarda olib boriladigan elementar matematika bo‘yicha ta’limiy faoliyat natijasida bola o‘rganishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar mujassamlashtirilgan.

Ahamiyatlisi, qo‘llanmadagi ta’limiy faoliyat ishlanmalari tarbiyachilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va multimedia vositalaridan unumli foydalanishga undaydi. Kitob 4 bo‘limdan iborat bo‘lib, kichik, o‘rta, katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladigan elementar matematika bo‘yicha yillik mavzularni qamrab olgan.

ISBN 978-9943-5893-5-3

© N.Erxonova, Z.Ro‘ziyeva.

© “Tarbiyachi kitobi. Matematika”

© “Zamin nashr” nashriyoti, 2020



# KICHIK GURUH



## KUBIK VA G'ISHTCHALARDAN "BOG'CHA QURAMIZ" O'YINI ORQALI PREDMETLARNI GURUHLASHGA O'RGATISH

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilar keng-tor, chamalash, mo'ljal olish, kvadrat va uchburchakni farqlashni o'rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** bitta va ko'p so'zining ma'nosini anglaydi, shakllarning nomlanishini o'rganadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda diqqat va mehnatsevarlik qobiliyati rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** kubik g'isht, yog'ochdan g'ishtchalar, sanoq cho'plar, turli xil o'yinchoqlar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, biz hozir qayerdamiz?

**1-bola:** – Biz hozir bog'chadamiz.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bog'chada biz nimalar qilamiz?

**2-bola:** – Bog'chada o'ynaymiz, qo'shiq aytamiz, rasm chizamiz.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri, demak, bog'chada biz rivojlanamiz. Bilasizlarmi bolajonlar, bugun guruhimizga mana bu quyoncha bizdan yordam so'rab kelibdi. Uning bog'chasi o'rmonda yuz bergan dovul tufayli buzilib ketibdi. Bechora quyoncha endi bog'chaga borolmasdan zeri-kayotgan ekan. Biz quyoncha uchun bog'cha qurib, unga yordam beramizmi?

**3-bola:** – Albatta, yordam beramiz.

**Tarbiyachi:** – Aytingchi bolajonlar, bog'chani qayerga qurish mumkin? Tepagami, pastgami yoki shkafning tepasigami?

**3-bola:** – Bog'chani yerga, ochiq joyga qurish mumkin.

**Tarbiyachi:** – Bog'chani nimalardan quramiz?

**4-bola:** – G'isht, qum, yog'ochdan.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, g'ishtning shakli qanday ekan?

**5-bola:** – G'isht to'rtburchak shaklda.

**Tarbiyachi:** – Yana nimalar to'rtburchak shaklda?



**Bolalar javobi:** – Uyning, stolning, kitobning, daftarning, gilamning... shakli to'rtburchak shaklida.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, uchburchakning uchta, to'rtburchakning esa to'rtta burchagi bo'larkan. *(Tarbiyachi qo'lidagi shakllar yordamida bolalarga tushuntiradi).*

**Tarbiyachi:** – Kelinglar, quyonchaning bog'chasiga poydevorni men qo'yib beraman *(Tarbiyachi bog'cha poydevorini kubiklardan qo'yib beradi).* Endi, mana bu aralash kubiklarning to'rtburchak va uchburchak shakldagilarini ajratamiz. To'rtburchakning ko'rib turganingizdek, to'rtta burchagi, uchburchakning esa uchta burchagi bo'ladi.

*(Bolalar shakllarni ikkiga ajratadi).*

### **Bolalar uchun amaliy ish:**

**Tarbiyachi:** – Endi to'rtburchak kubiklar yordamida bog'chaning devorini qurishga kirishing.

*(Bolalar bog'cha devorini qurishadi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, birgalikda bir zumda quyonchaning bog'chasi devorini qurdingiz, endi mana bu kubiklardan foydalanib, bog'chaning tomini uchburchak shaklida quramiz.

*(Bolalar bog'cha tomini qurishadi).*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar! Keling, endi bog'cha binosi qismlarini sanaymiz: men qurgan poydevor – birinchi qism, siz qurgan devor – ikkinchi va tomi – uchinchi qism hisoblanadi.

**Quyovoy:** – Rahmat bolajonlar, bog'cham judayam chiroyli chiqdi. Endi qishning sovug'ida ham, yozning issig'ida ham hecham qo'rqmayman. Bu yerda boshqa do'stlarim bilan maza qilib o'ynayman.

**Tarbiyachi:** – Quyovoy, aytchi, bog'changning atrofida yana nimalar bo'lishini xohlaysan?

**Quyovoy:** – Bog'chamning atrofida gullar, mevali daraxtlar, ertak qahramonlarining haykalchalari bo'lishini istardim.

**Tarbiyachi:** – Unda biz sening bog'chang atrofini mana bu o'yinchoqlar yordamida bezatamiz.

*(Bolalar mashinalar va o'yinchoqlarni bino atrofiga joylashtirishadi).*

**Tarbiyachi:** – Quyovoyning bog'chasini qo'riqlash uchun mana bu sanoq cho'plardan foydalanib, panjara yasaymiz. Toki yovvoyi hayvonlar



bog'chaga kirib, Quyovoyga zarar yetkazishmasin.

*(Tarbiyachi sanoq cho'plar bilan ishlashda bolalar bilan sanash amaliyotini o'tkazadi).*

### **O'rganganlarni mustahkamlash uchun "Sehrli qopcha" o'yini:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi men sizlarni qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markaziga taklif qilaman. Bu yerda bugun o'rgangan ma'lumotlarimizni mustahkamlaymiz. Qani, mana bu sehrli qopchadan shakllarni olamiz va uning nomini aytamiz, marhamat.

*(Bolalar shakllarni olib, ularning nomini va rangini aytadi. Hamma shakllar yig'ulgach, ularni har bir bola birma-bir sanab chiqadi).*

### **"DO'KON QURAMIZ" O'YINI YORDAMIDA GURUHDAN PREDMETNI AJRATISHGA O'RGATISH**

#### **Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda geometrik shakllar haqida tushuncha paydo qilish, qurilish materiallari haqida tushuntirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning qurish-yasashga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va qo'l ishi yordamida ularda mayda motorikani rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** guruh bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, boshqalarga yordam berish tuyg'usini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** do'kon tasvirlangan suratlar, kubiklar, daraxt va gullar o'yinchoqlari, uchburchak va to'rtburchak shakllar.

#### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, qiziquvchan bolajonlarim! Bugungi mashg'ulotimizda biz sizlar bilan birga do'kon quramiz. Qani, bolajonlar kim biladi, do'kon nima?

**1-bola:** – Do'konda hamma narsalar sotiladi. Biz u yerdan konfetlar, sharbatlar sotib olamiz.



**Tarbiyachi:** – Do‘kon qanaqa xom-ashyodan quriladi, qani kim javob beradi?

**2-bola:** – Do‘kon g‘ishtdan quriladi, eshigi esa yog‘ochdan ham bo‘lishi mumkin.

**Tarbiyachi:** – Unda mana bu suratlarga qarang. Suratda bir, ikki, uch qavatli do‘konlar ko‘rsatilgan. Ana shu suratlardan bittasini tanlashimiz kerak. Bolalar, qaysi suratni tanlaysizlar? Kim birinchi qo‘lini ko‘tarsin, kim ikkinchi, kim uchinchi?

Demak, bir qavatli do‘kon qurishga ko‘p ovoz berildi. Shunday qilib, do‘konimiz bir qavatli bo‘ladi.

**3-bola:** – Tarbiyachi opa, bu do‘konda nimalar sotiladi?

**Tarbiyachi:** – Do‘konimizda bolalar uchun o‘yinchoqlar sotiladi. Sizlar o‘yinchoqlarni yaxshi ko‘rasizlarmi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Xo‘p, unda do‘konimizning rangi qanaqa bo‘ladi?

**Bolalar:** – Pasti yashil, tomi qizil rangda.

**Tarbiyachi:** – Judayam yaxshi. Unda hozir yashil rangli kubiklar yordamida har biringiz uch donadan kubik qo‘yasiz va do‘konni qurib olamiz. *(Bolalar kubiklar yordamida do‘konni qurishadi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla bolajonlar, ana endi do‘konning yoniga nimalar qo‘shimcha qilishimiz mumkin?

**4-bola:** – Daraxtlar, gullar, dam olib o‘tirish uchun o‘rindiq ham qo‘yishimiz mumkin.

**5-bola:** – Men dadam bilan do‘konga borganimda ko‘pincha mashinani qo‘yish uchun joy qidirib qolamiz. Menimcha, do‘konimiz yoniga mashinalar turar joyi qurishimiz kerak.

**Tarbiyachi:** – Judayam o‘rinli fikr aytding, bolajon. Bo‘lmasa, hozir mashinalar turar joyi quramiz, keyin esa o‘yinchoq daraxtlar va gullar bilan do‘konning atrofini bezatib qo‘yamiz.

*(Bolalar avval mashinalar uchun garaj qurishadi, keyin esa gullar va daraxtlar bilan do‘kon atrofini bezatishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar endi do‘konimizni birorta nom bilan nomlashimiz kerak. Qani, kim qanday nom taklif qila oladi?

**6-bola:** – Chiroyli o‘yinchoqlar do‘koni.

**7-bola:** – Baxtli bolalar do‘koni.



**8-bola:** – Eng yaxshi do‘kon.

**9-bola:** – Bolalarning quvonchi.

**Tarbiyachi:** – Haqiqatan ham, o‘yinchoqlar har bir bolaning xursandchiligiga quvonchiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun do‘kon nomini “Bolalarning quvonchi” deb nomlay qolamiz. Qani, endi kim aytadi, do‘konda kimlar ishlaydi?

**10-bola:** – Sotuvchilar.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri, sotuvchilar do‘konda ishlashadi. Endi biz sizlar bilan sotuvchi va xaridor o‘yinini o‘ynaymiz. Qani kim sotuvchi bo‘ladi?

**11-bola:** – Men.

**Tarbiyachi:** – Judayam soz. Hozir sizlar bilan qurish-yasash va konstruksiyalash markaziga boramiz va u yerda men turli shakllar tayyorlab qo‘yganman. Sotuvchimiz peshtaxta yoniga boradi. O‘yin shartiga ko‘ra, qiz bolalar uchburchak shakldagi, o‘g‘il bolalar to‘rtburchak shakldagi buyumlarni sotib olishlari kerak bo‘ladi.

*(Bolalar qurish-yasash va matematika markazida sotuvchi va oluvchi o‘yinini tarbiyachi ishtirokida o‘ynashadi).*

**Tarbiyachi:** – Sotuvchimiz judayam ziyrak ekan, u xaridorga aynan men aytgan shakllarni sotdi. Xaridor bo‘lgan bolajonlarimizga ham ishtiroklari uchun rahmat deymiz. Uyda ota-onangizdan do‘konda yana kimlar ishlashi haqida so‘rab bilib keling.

## **“MENING KROVATIM” O‘YINI ORQALI VAQT HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH**

**Ta’limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilar makonda o‘z joyini aniqlay oladi, mo‘ljal olishni o‘rganadi va to‘rtburchak shakli haqidagi bilimlari mustahkamlanadi;

**Rivojlantiruvchi:** keng va tor, katta va kichik so‘zining ma’nosini anglaydi, shakllarning nomlanishini o‘rganadi, kun va tun tushunchalarini anglaydi;

**Tarbiyaviy:** g‘amxo‘rlik va tartiblilik sifatlari rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** qurilish materiallari, katta hajmdagi plastmassa



g'ishtchalar, lego va boshqalar, turli xildagi rangli shakllar, qo'g'irchoq, ikki xil hajmdagi krovat, multimedia vositasi.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun guruhimizga ikkita qo'g'irchoq mehmonga kelishibdi. Qarang, Lolaxon katta ekanmi? Barnoxon katta ekanmi?

**1-bola:** – Lolaxon katta ekan. Uning qo'llari ham, oyoqlari ham katta.

**Tarbiyachi:** – Kelinglar, endi qo'g'irchoqlar bizga do'st bo'lishi uchun ularga yoqimli so'zlar aytamiz hamda ularning sanashni bilishini tekshirib ko'ramiz.

**2-bola:** – Sizlar chiroylisizlar, bir.

**3-bola:** – Sizlar yoqimtoysizlar, ikki.

**4-bola:** – Sizlar tartiblisizlar, uch...

*(Bolalar tarbiyachi va qo'g'irchoqlar yordamida sanash mashqini o'tkazadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi qo'g'irchoqlarni mehmon qilamiz va ularni shokolad, yog', qand, non bilan siylaymiz.

*(Bolajonlar shokolad, yog', qand, nonning shakli qandayligini aytishadi).*

**Tarbiyachi:** – Qo'g'irchoqlar charchaganga o'xshaydi, keling ularni krovatlarga yotqizamiz. Lolaxon uchun katta krovatni tanlang.

*(Bolalar katta krovatni ko'rsatishadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi Barnoxon uchun kichik krovatni tanlang va ularning farqini ayting.

**Bolalar javobi:** – Katta krovat keng va uzun, kichik krovat esa tor va kalta.

*(Qo'g'irchoqlar krovatga yotqizilgach, multimedia vositasida alla eshittiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, demak, Lolaxon katta krovatga, Barnoxon kichik krovatga mos kelarkan. Sizning uyingizdagi krovatingiz qanday: kattami, kichikmi?

*(Bolalar javob berishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, siz kechasi qorong'u tushganda krovatingiz-



ga yotib orom olasiz. Aytingchi, chizning oilangiz necha kishidan iborat va uyingizdagi hamma krovatlar sonini sanang.

*(Bolalar oila a'zolariga mos holda krovatlar sonini sanaydi).*

### **Bolalar uchun amaliy ish:**

**Tarbiyachi:** – Endi qo'g'irchoqlarimiz uxlaganidan foydalanib, mana bu katta va kichik kubiklardan minora quramiz. Minoraning poydevoriga katta, devor qismiga esa kichik kubiklarni ishlatamiz.

*(Bolalar jarayonda kubiklar sonini sanaydi).*

### **O'rganganlarni mustahkamlash uchun "Donalab sana" o'yini:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qurgan minoramizning kubiklarini birgalikda donalab sanaymiz va katta kubiklarni mana bu stolga, kichik kubiklarni bu stolga taxlaymiz: bitta kubik, ikkita kubik, uchta kubik...

## **O'RTOQLARIM UCHUN ZINACHA**

### **Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** qo'l barmoqlarini ishlatish yordamida bola nutqini rivojlantirish, uning chamalash va mo'ljal olish ko'nikmalarini o'stirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolada mantiqiy fikrlashni kuchaytirish, uning tasavvurini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do'stona muhitda ishlash ko'nikmasini shakllantirish, bir-birini hurmat qilishga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** lego, o'yinchoq g'ishtchalar, zinalar tasvirlangan video lavhalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening quvnoq va qiziquvchan bolajonlarim! Kayfiyatingiz qanday?

*(Bolalardan jilmayib, xursandchiligini bildirish so'raladi).*

**Bolalar:** – Assalomu alaykum, yaxshi.



**Tarbiyachi:** – Bugungi ta’limiy faoliyatimizda o’rtoqlarimiz uchun jinacha yasashimiz kerak. Hozir hammangiz monitorga qarang.

*(Monitorda yo’laklardagi, uy va binolarga kiraverishdagi zinalar tasvirlangan video namoyish etiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, zina bizga nima uchun kerak?

**Bolalar:** – Tepaga ko’tarilish va pastga tushish uchun.

**Tarbiyachi:** – Endi Aytingchi, bolajonlar, bizga do’stlar nima uchun kerak?

**1-bola:** – O’rtoqlarimiz bilan biz zerikmaymiz, birga o’ynaymiz, birga rasmlar chizamiz.

**2-bola:** – O’rtoqlarimiz bizga hamma narsada yordam beradi, birga mashqlar qilamiz, ashulalar aytamiz, o’yinchoqlarimizni bir-birimizga berib turamiz.

**Tarbiyachi:** – O’rtoqlarimiz bizning mehribonimiz. Do’stlik ham xuddi zina kabi bosqichma-bosqich rivojlanadi. Bugun sizga shunchaki tanish bo’lgan o’rtoq ertaga siz bilan do’stlashadi, birga rivojlanadi. Siz uni har kuni ko’rgingiz keladi, u ham siz bilan suhbatlashganda, yoningizda bo’lganida yayraysiz. Do’stlik birinchi qadamdan boshlanadi, demak, zinani ham birinchi kubik qo’yib yasashdan boshlaymiz. Buning uchun bizga nima kerak?

**3-bola:** – G’ishtlar, turli o’lchamdagi kubiklar.

**Tarbiyachi:** – Kelinglar, bolalar, do’stimiz uchun zina qurayotganda uning har bir pillapoyasini qo’yamiz. Masalan, birinchi pillapoyaga uchta kubik qo’yamiz, ikkinchi pillapoyaga ikkita va uchinchi pillapoyaga bitta kubik qo’yamiz. Faqat zinapoyamizdan o’yinchoqlar o’tayotganida yiqilib ketmasligi uchun judayam e’tiborli bo’lishimiz, zinapoyaning chetlari tekis silliq bo’lishiga e’tibor qilishimiz zarur bo’ladi.

Mana, uch pillapoyali zinamiz tayyor bo’ldi. Endi esa har bir pillapoya uchun bittadan yaxshi so’z aytamiz. Qani, kim do’stiga qanday tilak bildiradi?

**4-bola:** – Do’stim, doim sog’ bo’l.

**5-bola:** – Do’stlaring ko’p bo’lsin.

**6-bola:** – Chin do’sting faqat bitta bo’lsin.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, zina qayerlarda ko’proq bo’ladi?

**7-bola:** – Ko’p qavatli uylarda.



**Tarbiyachi:** – Qayerda zina kamroq bo‘ladi?

**8-bola:** – Xonadonlarda kamroq bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Zinapoyadan odamlar ko‘p o‘tadimi yoki kammi?

**9-bola:** – Zinapoyadan odamlar ko‘p o‘tadi.

**Tarbiyachi:** – Kimning do‘sti ko‘p bo‘ladi?

**Bolalar:** – Yaxshi odamning do‘sti ko‘p bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Qanday bolalarning do‘sti kam bo‘ladi?

**Bolalar:** – Boshqalar bilan ko‘p urushadigan, qizg‘anchiq bolalarning do‘sti kam bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, do‘stlik ham zinalar kabi mustahkam bo‘lishi uchun yillab vaqt o‘tadi. Zinapoyadan tushib chiqayotganda ehtiyotkorlik qoidalariga rioya qilishi zarur. Ya‘ni zinalardan tushib chiqayotganimizda bitta-bitta zinadan yurishimiz, zinalarda sakramasligimiz zarur.

### “KUZGI MAYDONCHALAR” O‘YINI ORQALI KO‘P, KAM TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** bolalarga kuz fasli haqida tushuncha berish, ularni kuzgi o‘zgarishlarga tayyorlash;

**Rivojlantiruvchi:** kuzgi maydonchani ahamiyatini tushuntirish orqali toza havoda ko‘proq bo‘lishning foydaliligini tushuntirish. O‘yinchoqlardan maydoncha qurish orqali ularning mayda motorikasini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** har bir faslning o‘ziga xosligini tushuntirish, shakllarni farqlashga o‘rgatish, tasavvur doirasini kengaytirish.

**Kerakli jihozlar:** legolar, kuzgi barglar suratlari, daraxtlar suratlari, kubikchalar, legolar.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, qadrdon bolajonlarim! Hozir o‘lkamizda kuz fasli. Xo‘sh, kim aytadi, kuzda barglarning rangi qanday bo‘lar ekan?



**1-bola:** – Barglar sariq rangga kiradi, ular to‘kiladi.

**Tarbiyachi:** – Bu faslda yana qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?

**2-bola:** – Mevalar pishadi, kunlar sovuq bo‘ladi, yomg‘ir yog‘adi.

**Tarbiyachi:** – Kelinglar, hozir sizlar bilan birga kuzgi bog‘cha maydonchasini quramiz. Bolajonlar, maydonchada nimalar bo‘ladi?

**3-bola:** – Maydonchada o‘rindiqlik bo‘ladi, kuzgi ayvoncha bo‘ladi, kuzgi ayvonchani tomi yopiq bo‘ladi. Ayvoncha atrofi turli haykalchalar bilan bezatiladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, qani, ayvonchani qanday rangdagi kubiklardan quramiz?

**Bolalar:** – Ayvonchani och havorangli kubiklardan quramiz.

**Tarbiyachi:** – Maydonchani tomi uchun qanday rang tanlaymiz?

**Bolalar:** – Maydonchani tomini jigarrangli kubiklardan quramiz.

**Tarbiyachi:** – Maydoncha to‘rtburchak shaklda quriladi, undan bolalar kirishi uchun eshikka alohida joy qoldiriladi.

(Bolalar kubiklardan maydoncha qurishadi, tarbiyachi ularga namuna bo‘lishi uchun bolalar maydonchasi suratini ilib qo‘yadi).

**Tarbiyachi:** – Bolalar, maydonchani qurayotganda, e‘tiborli bo‘ling, devorlar mustahkam, bir-birini qulaymaydigan bo‘lishi zarur. Mana, maydonchani qurib bo‘ldingiz, endi Aytinchilik, uni nimalar bilan bezatishimiz mumkin?

**4-bola:** – Ayvoncha ichiga o‘rindiqlik qo‘yamiz. O‘rindiqlik yoniga o‘yinchilik ayiqchalar, koptok qo‘yib qo‘yamiz.

**Tarbiyachi:** – Qani, bo‘lmasa, mana bu ertak qahramonlari haykalchalaridan tanlang va maydoncha atrofiga qo‘yib qo‘ying.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mavzuni mustahkamlash uchun qurish yasash va matematika markazida turli rangli qog‘ozlardan kuzgi barglarni ko‘p miqdorda kesib olamiz va ularni maydoncha shifiga yopishtirib qo‘yamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Tasavvur qiling, siz qushchalarsiz. Qish yaqinlashayotgani uchun boshqa o‘lkalarga uchib ketmoqchisiz. Aytmoqchi, qushning qanotini nimaga o‘xshatish mumkin?

**5-bola:** – Uchburchakka.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri. Endi o‘rnimizdan turamiz, qo‘llarimizni



xuddi qanotlardek tasavvur qilamiz va uchamiz.

(Bolalar tarbiyachi ko'rsatganidek qilib qo'llarini tepaga ko'tarib, pastga tushirib, uchish harakatini bajaradilar).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, uchganimizda bu o'lkaga tinchlik tilab, minnatdorchilik bildirib uchishimiz kerak.

Rahmat, senga hur o'lka, bag'ringda maza qildik, xush qol.

Bahorda qaytguncha omon bo'l.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, uchayotganimizda kuzgi maydonchamizni ko'rdim, judayam chiroyli qurilibdi. Demak, kelajakda sizlardan yaxshi quruvchilar yetishib chiqadi.

## KUZGI HOSILNI YIG'ISH UCHUN YUK MASHINASI O'YINI ORQALI GEOMETRIK SHAKLLAR BILAN TANISHTIRISH

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilar buyumlarni turlarga ajratishni, farqlashni o'rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** kam va ko'p so'zining ma'nosini anglaydi, shakllarning nomlanishini o'rganadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda mehnatsevarlik, tirishqoqlik qobiliyati rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** ijodiy qurish-yasash uchun lego to'plami, butun va yarimta g'ishtlar (plastmassa), katta kubiklar, o'yinchoq yuk mashinasi, multimedia vositasi, mevalar mulyaji.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, kuz faslida dalada qanday ishlar amalga oshiriladi?

**Bolalar javobi:** – Meva va sabzavotlar yig'ib olinadi, paxta teriladi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu aralash holdagi meva va sabzavotlarni turiga qarab ajratamiz.

*(Bolalar mevalarni alohida, sabzavotlarni alohida stolga qo'yadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi men sizlarni polizga taklif qilaman. Bu



yerdagi poliz turlarini birgalikda sanaymiz: pomidor, bodring, qovun, tarvuz, qovoq, turp, sholg'om...

*(Bolalar poliz mahsulotlarini turiga qarab ajratadi va sonini sanaydi).*

**Tarbiyachi:** – Endi menga eng katta pomidor va eng kichik pomidorni, eng katta tarvuzni va eng kichkina tarvuzni ko'rsating.

*(Bolalar shu tariqa sabzavotlarni turiga, hajmiga, soniga ko'ra ajratadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlarni mevali boqqa taklif etaman. Bu yerda mevalar g'arq pishibdi. Qani, birma-bir mevalar nomini va rangini aytamiz.

*(Bolalar olma, anor, behi, yong'oq, xurmo, uzum mevalarini bir-biridan ajratadi va rangini aytadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar aytingchi, meva-sabzavotlar pishib, yetilgach, qayerga va qanday jo'natiladi?

*(Bolalar javobi).*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, kattalar mehnati haqida ko'p narsalarni bilarsiz. Meva va sabzavotlar hosili yuk mashinalarida quritish uchun hamda sharbatlar, konserva mahsulotlari tayyorlash uchun zavodlarga olib boriladi. Biz ularni qishda maza qilib iste'mol qilamiz, vitaminlaridan bahramand bo'lib, tanimiz kuchga to'ladi.

Aytingchi, hosilni yig'ib olishda yordam beradigan yuk mashinasi qanday shaklda bo'ladi.

*(Bolalar yuk mashinasi to'rtburchak shaklida, g'ildiraklari doira shaklida bo'lishini aytishadi).*

### **Bolalar uchun amaliy ish:**

**Tarbiyachi:** – Mana bu yog'och g'ishtchalar va legolardan yuk mashinasi yasaymiz va unga hosilni yuklaymiz.

*(Bolalar geometrik shakllardan foydalanib, yuk mashinasi yasaydi va bitta, kam, ko'p tushunchalariga mos keluvchi meva va sabzavotlarni ortadi).*

*(Ekranida esa hosil yig'ish jarayoni aks etgan videofilm namoyish etiladi va tarbiyachi tomonidan sharhlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi meva va sabzavotlar haqida yodlagan



she'rlarimizdan aytamiz.

*(Bolalar she'rlar aytishadi).*

*(Tarbiyachi bolalarga bitta stol ustida meva, bitta stol ustida sabzavotlarni joylab, bog'dagi mevalarni sanashni va polizdagi sabzavotlarni sanashni taklif qiladi. "Qanday sabzavotni olding?", "Nechta sabzavot olding?" kabi savollarni berib, tarbiyalanuvchilarni faollashtiradi).*

Bolalar meva-sabzavotlarni yig'ib mashinaga ortadi va yuk mashinasi insonlar mehnatini yengillashtirayotganini tarbiyachi misollar yordamida tushuntiradi .

### **O'rganganlarni mustahkamlash uchun "Sirli quticha" o'yini:**

**Tarbiyachi:** – Mana bu sirli qutichada sirli mevalar yashiringan. Hozir ularni birma-bir olib, foydali xususiyatlarini aytamiz.

**1-bola:** – Bu olma mevasi, u shirin, dumaloq bo'ladi, rangi esa qizil, yashil va sariq...

**2-bola:** – Bu behi mevasi. Uning hidi yoqimli, rangi sariq, juda foydali.

**3-bola:** – Bu kartoshka. Undan mazali ovqatlar tayyorlanadi. Rangi sariq, qizil, shakli dumaloq.

**4-bola:** – Bu pomidor. Uning shakli dumaloq, rangi qizil, salatlar tayyorlaymiz.

*(Shu tariqa o'yin davom ettiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Endi qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markaziga o'tib, plastilinlardan meva va sabzavotlar shaklini yasaymiz.

*(Bolalar o'zlari xohlagan meva va sabzavotlar shaklini yasaydi. Tarbiyachi jarayonda bolalarga yasalayotgan mevalarning foydali xususiyatlari haqida gapirib beradi. Bolalar yasagan meva-sabzavotlarining katta yoki kichikligini, rangini gapirib beradi).*

Multimedia vositasi orqali mayin kuy qo'yiladi.

### **NON MASHINASI YASASH ORQALI DOIRA HAQIDA TUSHUNCHA BERISH**

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga non foydali mahsulot ekanligi haqida



shuncha berish, mashinalar haqida umumiy ma'lumot berish, qurilmalari materiallaridan mashina yasash ko'nikmalarini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** o'yinchoq mashina yasash jarayonida bolalarda diqqatni rivojlantirish, shakllarni farqlashga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** non aziz ne'mat ekanligini uqtirish, nonni isrof qilmaslikka o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** qurish yasash uchun lego to'plamlari, qurilish materiallari, o'yinchoq mashinalar, non mashinalari suratlari.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolalar, bugun biz siz bilan birga non mashinasi faoliyati bilan tanishamiz. Hozir sizlarga mashinalar rasmini ko'rsataman, sizlar uni ko'rgach, menga uning qanday mashina ekanligini aytib berasizlar.

*(Tarbiyachi, yuk mashinasi, tez tibbiy yordam mashinasi, yengil mashina va non tashiydigan yuk mashinasi suratlarini ko'rsatadi, bolalar esa ularning nomini aytib berishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytinglar-chi, non pishirish uchun nimalar kerak?

**1-bola:** – Nonga un va suv qo'shiladi. Uni biz har kuni ertalab mahallamizdagi nonvoy bobodan xarid qilamiz.

**2-bola:** – Biz esa do'kondan sotib olamiz. Do'konga har kuni katta mashinada har xil nonlar olib kelinadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mashinani kim haydaydi?

**3-bola:** – Mashinani haydovchi haydaydi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir men sizlarga turli shakllardagi kubiklar beraman va biz siz bilan birgalikda non mashinasini yasaymiz. Mashina qanday shaklda bo'ladi?

**4-bola:** – Mashina to'rtburchak shaklda va uning to'rtta g'ildiragi bor.

**Tarbiyachi:** – G'ildiraklar aylana shaklda bo'ladi. Bolajonlar, aytinglar-chi, aylana shaklida yana nimalarni misol qilib keltira olasiz?

**5-bola:** – Koptok, doira, tarvuz, mashinaning ruli.

**Tarbiyachi:** – Non tashiydigan mashinani qurish-yasash va konstruksiyalash markazida yasaymiz. Qani, buning uchun qanday rangdagi va shakldagi kubiklardan foydalanamiz?



**6-bola:** – Kulrangdagi va to‘rtburchak shakllardan foydalanamiz.

**Tarbiyachi:** – Mana bu suratda non mashinasi tasvirlangan. Marhamat, mana shu suratga qarab siz ham non mashinasining o‘yinchoq‘ini yasashingiz mumkin.

*(Bolalar suratga qaragan holda non tashiydigan yuk mashinasini yasaydilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mashina kattami yoki g‘ildiragimi?

**Bolalar:** – Mashina katta.

**Tarbiyachi:** – Bolalar mashinaning ruli kattami yoki non kattami?

**Bolalar:** – Mashinaning ruli katta.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, non mashinasining xizmatini judayam bebafo deyishimiz mumkin. Agar non tashuvchi mashina bir kun ishga chiqmay qolsa yoki o‘z vaqtidan kechikib kelsa, juda ko‘pchilik xonadonlar nonsiz qoladi. Shuning uchun ham non pishiruvchilar vaqtida non pishirishi, tashuvchilar vaqtida yetkazib kelishi kerak.

**7-bola:** – Tarbiyachi opa, biz ertalab turganimizda non tayyorgina pishgan bo‘ladi. Aytingchi, nonvoy akalarimiz kechqurun uxlashmaydimi?

**Tarbiyachi:** – Nonvoylar kechqurun xamir qorib qo‘yishadi va erta tongda hamma shirin uyqudaligidayoq nonlarni yasab pishirishadi. Ular ham tunda uxlashadi, faqat hamma singari ko‘p emas, kamroq uxlashadi. Shuning uchun ham nonni hammamiz avaylashimiz va qadrlashimiz zarur.

**Tarbiyachi:** – Ta‘limiy faoliyatimiz so‘ngida biz mashina o‘yinini o‘ynaymiz. Tasavvur qiling, siz ruldasiz va yo‘lda ketayapsiz. O‘tirib olamiz va qo‘llarimizni xuddi rulga qo‘ygandek harakatlanamiz. Ora-orada signal chalib qo‘yishimiz ham mumkin. Faqat bu o‘yinda bir-birimizga xalal bermasdan o‘ynashimiz talab etiladi.

## **PAXTA TERISH MASHINASI YASASH ORQALI KVADRAT BILAN TANISHTIRISH**

**Ta‘limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilar kam va ko‘p tushunchasini farqlaydi, mo‘ljal olishni o‘rganadi va shakllar haqidagi bilimlari mustahkamlanadi;

**Rivojlantiruvchi:** shakllarning nomlanishini o‘rganadi;



**Tarbiyaviy:** kattalar mehnatini tushunish, mehnatsevarlik tushunchalari rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** Ijodiy qurish, yasash uchun lego to'plamlari, qurilish materiallari, g'ishtlar va yarim g'ishtlar, multimedia vositasi, paxta mulyaji va paxta terish maketi.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun guruhimizda nima o'zgarish ro'y beribdi?

*(Bolalar o'yin maydonchasiga ko'p miqdordagi paxta keltirilganini aytadi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bu paxtalarni bobodehqonlar bahor, yoz, kuz oylarida tinmay parvarish qilishadi va ularni omborlarga yuborishadi. *(Multimedia vositasi orqali paxta yig'im-terimi jarayoni ko'rsatiladi).* Paxta ikki xil usulda yig'ib olinadi: qo'lda terish mumkin va paxta terish mashinasi orqali yig'ib olish mumkin. *(Paxta terish mashinasi o'yinchog'i yoki mulyaji ko'rsatiladi).* Qani kim aytadi, paxtadan nimalar olinadi?

**1-bola:** – Paxtadan kiyimlar tikiladi.

**2-bola:** – Paxtadan ip olinadi.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri, egnimizdagi kiyimlar, iplarning ko'pchiligi paxtadan olinadi. Shuningdek, paxta chigitidan yog', sovun olinadi. *(Rasmlari ko'rsatiladi).*

Bugun biz uchun juda zarur mahsulot bo'lgan paxtani yig'ib olishda dehqon boboga yordam beradigan paxta terish mashinasini mana bu yog'och g'ishtchalar va kubiklar yordamida yasaymiz. Buning uchun mana bu namunadagi paxta terish mashinasiga qarab, kubiklarni taxlaymiz.

*(Bolalar paxta terish mashinasi uchun qancha kubik ketganligini sanaydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, paxta terish mashinasi dehqonlar mehnatini yengillashtirishini bilib oldik, qani kim paxta haqida she'r biladi?

**1-bola:** –

Chanoqlarda

Oppoq paxta,

Kulib turar,



Qanday baxt-a!

**2-bola:** –

Erkalanib

Tebranadi,

Yal-yal yonib

Tovlanadi.

**3-bola:** –

– Rahmat senga,

Aziz dehqon!

Uyding bizdan

Ulkan xirmon.

**4-bola:** –

Mehnatingdan

Oltin bo‘ldik,

Chanoqlarga

Lim-lim to‘ldik.

**Tarbiyachi:** – Barakalla bolajonlar, mana paxta terish mashinasini bir pasda yasab bo‘ldingiz. Endi dam olish daqiqasi o‘tkazamiz.

Bir, ikki, uch,

O‘ng yonga boq.

Bir, ikki, uch,

Chap yonga boq.

*(Bolalar harakatni 6 marta takrorlaydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi paxta terish mashinasi uchun ishlatilgan shakllarning nomini aytamiz.

**4-bola:** – Mashinani yasashda to‘rtburchak, uchburchak va aylanadan foydalandik.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri, endi mana bu paxtaoy rasmida nimalar tasvirlanganini aytamiz. U yerda nechta terimchi bor ekan? Qancha paxta terish mashinasi tasvirlangan? Paxtalar qancha ekan?

*(Bolalar javobi tinglanadi va paxtaning bitta chanog‘ida to‘rtta bo‘lmasi bo‘lishi, ko‘plab barglar bo‘lishi rasm asosida tushuntiriladi).*



## **POYEZD YASASH MISOLIDA DOIRA VA KVADRAT HAQIDAGI BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH**

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda qurish-yasash materiallaridan mustaqil foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kubiklarni ustma-ust va yonma-yon qo'yishni o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlash, diqqat va qo'l motorikasini rivojlantirish;

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda transport vositalari haqida tushuncha paydo qilish.

**Kerakli jihozlar:** turli mashinalar rasmlari, turli rangdagi va hajmdagi kubiklar, doira shakllari, legolar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, bilimga chanqoq sho'x va zukko bo-lajonlarim. Bugungi ta'limiy faoliyatimizni topishmoq bilan boshlaymiz.

Cho'zilib yotar narvon,

Undan o'tar uy-karvon.

Qani, kim aytadi, bu nima?

**1-bola:** – Bu temir yo'l va poyezd.

**Tarbiyachi:** – Ofarin, juda topqir ekansiz. Endi aytinglar-chi, poyezd umuman qanday vazifani bajaradi?

**2-bola:** – Poyezd yo'lovchilarni bitta shahardan boshqa shaharga olib boradi.

**Tarbiyachi:** – Poyezd ko'p odamlarga xizmat qiladimi yoki kammi?

**3-bola:** – Poyezd ko'p yo'lovchilarga xizmat qiladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, mana bu qo'limdagi o'yinchoq poyezd. Xo'sh, u qanaqa rangda ekan?

**Bolalar:** – Poyezd qora rangda ekan.

**Tarbiyachi:** – Poyezdning nechta vagoni bor ekan?

**Bolalar:** – Poyezdning uchta vagoni bor ekan.

**Tarbiyachi:** – Poyezdning bitta vagonini olib tashlasam, unda nechta vagon qoladi?



**Bolalar:** – Ikkita vagon qoladi.

**Tarbiyachi:** – Poyezd vagonida nechta oyna bor ekan?

**Bolalar:** – Ikkita.

**Tarbiyachi:** – Oynalar qanday shaklda ekan?

**Bolalar:** – Oynalar to‘rtburchak shaklda ekan.

**Tarbiyachi:** – Endi esa mana bu suratdagi poyezdlarga yaxshilab qaranglar. Birinchi suratda odamlar tashiydigan poyezd tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchi suratda yuk tashiydigan poyezd tasvirlangan.

Hozir hammangiz yoningizga qo‘yilgan kubikchalar yordamida o‘z poyezdingizni yasang.

*(Bolalar kubiklardan poyezd o‘yinchog‘i yasashadi, tarbiyachi kerakli joyda ularga yordam berib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, poyezdingiz judayam chiroyli chiqibdi. Endi aytinglar-chi, poyezd yoniga nimalarni qo‘shimcha qilib joylashimiz mumkin?

**4-bola:** – Svetofor, yelim daraxtchalar, odamchalarni qo‘yib chiqishimiz mumkin.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, svetofor poyezd uchun nimaga kerak?

**5-bola:** – Svetofor poyezdlarga qachon to‘xtash va qachon yurish kerakligini eslatib turadi.

## SVETOFOR YASASH MISOLIDA GEOMETRIK SHAKLLAR HAQIDAGI BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** bolalarga svetofor haqida tushuncha berish, ularni ranglarini farqlashga o‘rgatish, mantiqiy fikrlanishini va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarning nutqini rivojlantirish, ularning tasavvurini kengaytirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** qog‘oz, quyoncha o‘yinchog‘i, chorraha maketi qurish-yasash jihozlari, svetofor tasviri, svetofor maketi, rangli doirachalar

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**



**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, quvnoq va qiziquvchan do‘stlarim! Hozir sizlarga bir topishmoq aytaman, sizlar esa uning javobini topasizlar.

Yo‘l ko‘rsatar hammaga,

Doim uch xil chiroq.

E‘tiborsiz bo‘lsa kim,

Ko‘zlarimga deydi boq.

**1-bola:** – Bu topishmoqning javobi svetofor.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri. Mana hozir sizlarga svetoforning make-tini olib ko‘rsataman. Xo‘sh, bolajonlar uning nechta dumalog‘i bor ekan?

**2-bola:** – Uchta.

**Tarbiyachi:** – Uchta dumaloq qanday ranglarda ekan?

**3-bola:** – Yuqoridagisi qizil, o‘rtadagisi sariq va eng pastdagisi yashil rangda.

**Tarbiyachi:** – Biz qizil rangda bo‘lgan yana nimalarni bilamiz?

**4-bola:** – Qizil rangli olma, qizil bosh kiyim, qizil koptok ham bo‘lishi mumkin.

**Tarbiyachi:** – Xo‘p, sariq rangli yana nimalarni bilasiz?

**5-bola:** – Sariq rangga sariq barg, sariyog‘, qo‘g‘irchoqning sariq sochlari.

**Tarbiyachi:** – Judayam topqir ekansizlar, qani kim yashil rangli narsalarga misol ayta oladi?

**6-bola:** – Yashil rangga barg, qurbaqa, yashil rangli mashinani misol qila olamiz.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri. Ana endi mana bu yerga o‘rnatilgan chorrahaga qarang. Svetofor, odatda, mashinalar qatnovini tartibga solish uchun o‘rnatiladi. Mana, bu svetoforning qizil rangi. Qizil rang qanday shaklda ekan?

**Bolalar:** – Doira shaklida.

**Tarbiyachi:** – Ana shu qizil rang yonganida mashinalar to‘xtashi kerak. *(Tarbiyachi mashina o‘yinchog‘ini yurgiza turib to‘xtatadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi sariq rang yonganida esa mashinalar hushyor bo‘l degan ishorani biladilar va yurish uchun tayyor bo‘ladilar. Yashil rang esa aynan mashinalarga yurish mumkin degan ma‘noni bildiradi. Yana piyodalar uchun ham svetofor bor bo‘lib, u faqat qizil va yashil rangda bo‘ladi.



Bunda qizil rang yonganida piyodalar to'xtab turadilar, yashil rang yonganida esa yo'lning piyodalar uchun belgilangan joyidan o'tib olishlari kerak bo'ladi. Mana bu suratda piyodalar yo'lakchasi tasvirlangan.

*(Tarbiyachi bolalarga piyodalar yo'lakchasining suratini ko'rsatadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, nima deb o'ylaysizlar, o'rmondagi hayvonlarga svetofor kerakmi?

**7-bola:** – Tarbiyachi opa, o'rmonga svetofor kerak emas. U yerda hayvonlar mashina haydamaydi. Demakki, svetoforga ehtiyoj ham yo'q.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir ta'limiy faoliyatimizni mustahkamlash uchun qurish-yasash va matematika markaziga o'tamiz. U yerdagi svetoforlarning ayrim ranglari joyida emas ekan, shuning uchun siz doira shakldagi ranglarni aynan o'z joyiga yelim yordamida yopishtirib chiqasiz.

## “TEZ YORDAM” MASHINASINI YASASH ORQALI PREDMETLARNI TAQQOSLASHGA O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** tez yordam mashinasi bilan tanishadi, qurilish materiallaridan mashina yasashni o'rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** tez yordam mashinasining vazifasi nimaligini bilib oladi, guruhda o'zaro yordam berib ishlashni o'rganadi;

**Tarbiyaviy:** o'zaro hamdardlik tuyg'ularini kurtak orttirib, bir-biriga yordam berish ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** qurilish materiallar, katta hajmdagi legolar, tez yordam mashinasi.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening sevimli bolajonlarim! Bugungi mashg'ulotimizni bir she'r aytish bilan boshlamoqchiman.

Buvin juda mehribon,

Kelishimiz kutadi.

Bir kun borsak to'satdan,

Boshin sekin ushladi.



“Tez yordam”ni chaqirdi,  
Dadajonim bir pasda.  
Chiroqlari charaqlab,  
Mashina keldi tezda.  
Oq xalatli shifokor,  
Biram chaqqon, mehribon.  
Buvijonim ko‘zlari  
Chaqnab ketdi-ku shu on.  
–Diydordan xursand bo‘lib,  
Erkalanibsiz onam.  
Nevarangiz quchsangiz,  
Sog‘ayasiz chunonam.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, she‘rdan kim nimani tushundi?

**1-bola:** – Bir bolaning buvisi kasal bo‘lib qolgani uchun unga “Tez yordam” mashinasi chaqirishibdi. Tez yordam kelganidan keyin bolakayning buvisi ancha tuzalib qolibdi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, “Tez yordam” mashinasi qanaqa mashina?

**2-bola:** – U bemorlarga tezda yordam beradi.

**Tarbiyachi:** – Kim ko‘rgan, mashinaning tashqi ko‘rinishi qanaqa?

**3-bola:** – Mashina to‘rtburchak shaklda.

**Tarbiyachi:** – Mashinaning rangi qanaqa?

**4-bola:** – Mashina oq rangda.

**Tarbiyachi:** – “Tez yordam” mashinasida bitta shifokor bo‘ladi. Gohida uyda bemorga yordam kerak bo‘lsa, uni shifokorga olib borgandan ko‘ra “Tez yordam” mashinasini chaqirgan ma‘qul. Chunki mashina ham tez keladi, ham bir zumda birinchi yordamni ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, keksalar va yosh bolalarning tobi bo‘lmaganida judayam qulay usul hisoblanadi. Mashinada shifokor bemorga yordam berish uchun kerakli bo‘lgan dori vositalarini bitta qutichaga solib olib yuradi. Mana bu ko‘rib turganingiz “Tez yordam” mashinasining o‘yinchoq varianti. Hozir sizlar bilan birga mana shu o‘yinchoqqa qarab o‘zimiz bitta “Tez yordam” mashinasini yasaymiz.

*(Tarbiyachi bolalarni qurish yasash va matematika markaziga taklif qiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mashina yasash uchun bizga qanday shakllar



kerak bo'ladi?

**5-bola:** – To'g'ri to'rtburchak va dumaloq shakllari kerak bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Unda mana bu mashina maketiga qarab siz mashina yasaysiz.

*(Bolalar mashina maketini tarbiyachi kuzatuvida yasaydilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, biz "Tez yordam" mashinasini chaqirayotganda 103 raqamiga qo'ng'iroq qilishimiz kerak bo'ladi. Shuning uchun men hozir 103 raqamini siz yasagan mashinaga yopishtirib qo'yaman.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kim hayotda "Tez yordam" mashinasini ko'rgan?

**6-bola:** – Men ko'rganman. O'shanda biz mashinada ketayotgandik. "Tez yordam" tepasidagi rangli chiroqchasini yoqib o'tayotganida hamma mashinalar unga yo'l bergandi.

**Tarbiyachi:** – Haqiqatdan ham tepadagi qizil chirog'ini yoqib ketayotgan "Tez yordam"ni ko'rganida unga yo'ldagi boshqa mashinalar yo'l berishi, iloji bo'lsa, u svetoorning qizil chirog'iga ham to'xtamay o'tib ketish huquqiga ega.

### “KO'PRIK QURISH” ORQALI UZUNLIK BO'YICHA TAQQOSLASHNI O'RGATISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** legolarni katta kichikligini ajratishga o'rganadi, mo'ljal olish, shakllarni farqlashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** ko'prikning vazifasini tushuntirish, kubiklardan ko'prik qurish asosida mayda motorikani rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda birga ishlash malakasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** ko'priklar rasmi, turli hajmdagi kubiklar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizga quruvchi bobo mehmon bo'lib kelibdilar. Ularga nima deymiz?

**Bolalar:** – Assalomu alaykum.

**Tarbiyachi:** – Quruvchi bobo sizlarga ko'p suratlar olib kelibdilar va



ular bugungi mavzuni yoritishda bizga yordam beradilar.

**Quruvchi bobo:** – Bolajonlar, mana bu suratda nimalar tasvirlangan?

**1-bola:** – Ko‘priklar.

**Quruvchi bobo:** – Ko‘priklar mashinalar yurishi uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Ko‘prik qurishdan oldin uning loyihasi chiziladi.

*(Quruvchi bobo ko‘prik loyihasini oddiy qilib bolalar guvohligida chizadi).*

**Bolalar:** – Bobo, loyiha chizmasa nima bo‘ladi?

**Quruvchi bobo:** – Agar loyiha chizmasak, bu ko‘prik yaxshi bo‘lmaydi. Biz odamlar va mashinalar xavfsizligini ta‘minlash uchun pishiq-puxta ish ko‘rishimiz, nomigagina harakat qilmasligimiz zarur.

**2-bola:** – Ustidan og‘ir yuk o‘tganida ko‘prik qulab ketmaydimi?

**Quruvchi bobo:** – Har bir ko‘prikka uning qancha og‘irlik ko‘tara olishi va uning ustidan qaysi mashinalar o‘tishi mumkin yoki mumkin emasligi yo‘l belgilari bilan ko‘rsatilgan bo‘ladi. Agar ko‘prikka ruxsat berilganidan ko‘p yuk yuklansa, albatta, u qulab tushadi.

Kelinglar, hozir buni qurish-yasash va matematika markazida sinab ko‘ramiz.

*(Quruvchi bobo va bolalar ko‘prik qurishadi va uning ustiga ko‘prikdan kattaroq o‘yinchoq yuk mashinasini yurgizib ko‘rishadi).*

**Tarbiyachi:** – Ana, quruvchi bobongiz to‘g‘ri aytgan ekanlar. Ko‘prik ruxsat berilganidan ko‘p yukni ortganida qulab tushdi. Demak, ko‘prikni ham xuddi yo‘llardek ehtiyot qilish, ortiqcha yuklama yuklamaslik zarur ekan. Qani endi, ko‘prikni boshqatdan quramiz va unda o‘ziga mos mashinalarni yurgizib ko‘ramiz.

*(Bolalar quruvchi bobo bilan birgalikda ko‘prik qurishadi).*

**Tarbiyachi:** – Ana, endi bu ko‘prikda ham mashinalar qatnovini hosil qilamiz. Qani uchta mashina olib yurgizamiz.

**Tarbiyachi:** – Mashinalardan birini olib tashlasam nechta mashina qoladi?

**Bolalar:** – Ikkita.

**Tarbiyachi:** – Agar ikkitasini olib tashlasam-chi?

**Bolalar:** – Bitta.

**Tarbiyachi:** – Juda to‘g‘ri. Bolajonlar, bugun sizlarning bir-biringizga yordam berib ishlashingizni ko‘rib judayam xursand bo‘ldim. O‘zaro yor-



dam ham xuddi ko'prik singari odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Doim orangizdagi ahillik yo'qolmasin.

## ERTAK QAHRAMONLARIGA UY QURISH MISOLIDA KENGLIK VA UZUNLIK HAQIDAGI BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** kubiklarning katta-kichikligini farqlashga o'rgatish, kubikdan uycha qurishni o'rgatish, qurilish materiallarini rangi shakliga qarab ajrata oladi;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarga o'zaro hamdardlik tuyg'usini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** do'stlikning qadriga yetish, atrofdagilarga yordam berish tuyg'ularini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** katta-kichik kubiklar, hayvonchalarning o'yinchoqlari.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, qadrli bolajonlarim! Bizning ertalabdan mana bu ayiqvoy kutib turgan ekan. Kelinglar, undan so'raylikchi, bizda nima ishi bor ekan?

**Ayiqvoy:** – Bolalar, o'rmonda katta dovul turib mening uylarimni buzib tashladi. Hozir qish fasli, men esa endi qayerda uxlashni bilmayapman. Sovuqda qaltirab ketdim. Menga yordam berolmaysizlarmi?

**Bolalar:** – Albatta, senga yordam beramiz. Biz senga eng chiroyli uycha qurib beramiz.

**Tarbiyachi:** – Unda ayiqpolvonimizning kattaligiga qarang va qurilish xom-ashyosini ham kattalaridan tanlang.

**1-bola:** – Ayiqpolvon, sen uyingni qanday rangda bo'lishini istaysan?

**Ayiqpolvon:** – Menga ko'proq oq rang yoqadi. Qishda ham qorlar orasida bilinmayman, bermalol bahorgacha jon saqlayman.

**2-bola:** – Tarbiyachi opa, unda biz hozir oq rangli kubiklardan tanlaymiz.



**Tarbiyachi:** – Ayiqpolvon, uychangni o‘rmonni qaysi tomonida bo‘lishini istaysan?

**Ayiqpolvon:** – Menga o‘rmonning chap tomoniga qurilgani ma’qul. Chunki o‘ng tomonda hayvonlar ko‘p yurishadi va mening qishki uyqumga xalal berishadi.

*(Tarbiyachi nazoratida bolalar ayiqpolvon uchun uycha qurishadi).*

**3-bola:** – Tarbiyachi opa, ayiqpolvon uychasiga kirib ko‘rsin.

*(Ayiqpolvon uychasiga kirib ko‘radi).*

**Ayiqpolvon:** – Judayam shinam uycha bo‘libdi, ichiga kirganimdan keyin sirayam tashqariga chiqqim kelmay qoldi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, nazarimda uyning yoniga nimadir yetmayapti? Sizlar nima qo‘yishni xohlardinglar?

**Bolalar:** – Uychaning atrofini panjara bilan o‘rasak, uyning yoniga bi-  
rorta daraxt qo‘ysak chiroyli bo‘lar edi.

**Tarbiyachi:** – Panjara uchun bizda yelim cho‘plar bor, ular yordamida bemalol panjara qura olamiz. Faqat aytinglar-chi, panjaraning rangi qanday bo‘lishini istaysiz?

**4-bola:** – Panjara to‘q ko‘k rangda bo‘lsa chiroyli bo‘ladi.

*(Bolalar uycha atrofini panjara bilan o‘raydilar).*

**Tarbiyachi:** – Nechta daraxt qo‘ysak chiroyli bo‘ladi? Kim qanday fikrda?

**5-bola:** – Ikkita daraxt qo‘ysak, yana ayiqpolvon uchun asal xumini ham yaqinroq olib kelib qo‘ysak-chi.

**Tarbiyachi:** – Juda o‘rinli taklif. Qani, bo‘lmasa, daraxtlarni uycha yoniga qo‘yib qo‘yamiz. Bolalar, ayiqpolvonning xumi qanday rangda ekan?

**6-bola:** – Xumcha sariq rangda ekan.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri, bolalar shu guruhimizda sariq rangli yana nimalar bor? Birma-bir sanab bera olasizmi?

**7-bola:** – Quyoshchanning surati, limon, sariq rangli kubiklar, sariq rangli olma bor.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir sizlarga hayvonlar nomini aytaman, sizlar esa qaysi hayvon katta, qaysinisi kichikligini aytib berishinglar kerak.

Ayiq.... (olmaxondan katta)

Bo‘ri ... (tipratikandan katta)

Mushuk... (sichqondan katta)



Kuchuk... (toshbaqadan katta)

**Tarbiyachi:** – Judayam to‘g‘ri. Shu bilan bugungi ta‘limiy faoliyatimizni yakunlaymiz.

## BOLALAR O‘YINGOHI YASASH ORQALI BALANDLIK HAQIDA TUSHUNCHA BERISH

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** kubiklarni katta-kichikligiga qarab farqlashga, qurilish materiallarini rangi shakliga qarab ajrata olishga o‘rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning tasavvur va fikrlash doirasini kengaytirish;

**Tarbiyaviy:** o‘yingohlarning bolalar salomatligiga foydaliligi, har kuni toza havoda sayr qilishning ahamiyatini bildirish.

**Kerakli jihozlar:** yirik qurilish materiallari, legolar, o‘yingoh suratlari.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, sevimli bolajonlarim! Bugun sizlar bilan hammangiz yaxshi ko‘radigan o‘yingohlar haqida suhbatlashamiz. Mana bu suratlarga qarang, unda nimalar tasvirlangan?

**1-bola:** – Suratda bolalar uchun o‘yingoh tasvirlangan.

**Tarbiyachi:** – O‘yingoh uchun nimalar kerak deb o‘ylaysiz?

**2-bola:** – O‘rindiqlar, turli ertak qahramonlari haykalchalari, bolalar shug‘ullanishi uchun sport anjomlari.

**Tarbiyachi:** – Judayam to‘g‘ri. Aslida o‘yingoh bizga nafaqat kayfiyatni ko‘taruvchi, balki bizning salomatligimizga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan ajoyib maskan bo‘lib xizmat qiladi. Biz har kuni ertalab o‘yingohda quyosh nurlaridan bahramand bo‘lishimiz, kechki vaqtda ham toza havoda sayr qilishimiz zarur. Turli o‘yinlar o‘ynash jarayonida bizning tanamiz o‘sadi, o‘zimiz maza qilib yayraymiz. Qani, hozir ana shunday o‘yingoh yasash uchun qurish-yasash va matematika markaziga o‘tamiz va u yerdan aynan o‘zimizga zarur narsalarni olib olamiz.

*(Bolalar markazdan qurilish legolari, daraxtchalar, gullar, o‘rindiq,*



*haykalchalar, koptok va turli o'yinchoqlarni oladilar).*

**Tarbiyachi:** – Agar hamma tayyor bo'lsa, unda biz bolalar uchun o'yingoh qurishni boshlaymiz. Aytinglar-chi, biz nechta o'yingoh quramiz?

**1-bola:** – Biz bitta o'yingoh quramiz.

**Tarbiyachi:** – Bitta ko'pmi yoki ikkitami?

**2-bola:** – Albatta. ikkita ko'p.

**Tarbiyachi:** – O'yingohda ko'p bolalar o'ynashadimi yoki kammi?

**3-bola:** – O'yingohda ko'p bolalar o'ynashadi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, o'yingoh qurarkanmiz unda, albatta, daraxtlar va gullar bo'lishi zarur. Undagi har bir qurilma va o'yinchoq, albatta, bolalar uchun xavfsiz materialdan tayyorlangan bo'lishi shart. Siz o'yingohda qanday rangdagi o'yinchoqlar, qurilmalar bo'lishini istaysiz?

**4-bola:** – Menga yashil, siyohrang, pushti ranglardagi buyumlar yoqadi.

**Tarbiyachi:** – Bo'lmasa, o'rtoqlaringiz o'yingoh qurayotgan vaqtda siz o'sha rangli gullarni va o'yinchoqlarni tanlab bering.

*(Bolalar kubiklar yordamida o'yingoh quradilar, unga o'rindiqlik ham qo'yadilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, o'yingohga bolalar kim bilan birga keladilar?

**Bolalar:** – Ota-onalari, bobo-buvilari bilan birga keladilar.

**Tarbiyachi:** – Unda ana o'sha bobo-buvi va ota-onalarning o'yinchoqlarini o'yingohga olib kelib qo'yamiz. Bolalar, endi o'yingohga mavzui-mizning asosiy qahramonlari – bolalarning o'yinchoqlarini olib kelamiz. Men sezayapman, agar bu o'yinchoq bolalar tilga kirganida sizlardan ana shunday o'yingoh qurib berganingiz uchun judayam minnatdor bo'lar edi. Qarab ko'rsam, o'yingohimizda koptoklar kam ekan. Aytinglar-chi, bitta o'yingohda bitta koptok yetadimi?

**Bolalar:** – Yo'q.

**Tarbiyachi:** – Unda nechta koptok bo'lishini istaysizlar?

**Bolalar:** – Ikkita yoki uchta.

**Tarbiyachi:** – Bolalar koptok qanaqa shaklda?

**Bolalar:** – Koptok dumaloq shaklda.

**Tarbiyachi:** – Mana, men koptoklarni oldim, ularning rangi qanaqa ekan?

**Bolalar:** – Koptoklar qizil rangda ekan.



**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri. Bolajonlar, o‘yingohga qaysi fasl bo‘lishidan qat‘i nazar har kuni ota-onangiz yoki bobo-buvingiz bilan kuniga bir marta bo‘lsa ham keling. Ana shunda siz jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lasiz.

## QO‘G‘IRCHOQ UCHUN KIYIM SHKAFI YASASH

**Ta‘limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilar keng-tor, chamalash, mo‘ljal olish, kvadrat va uchburchakni farqlashni o‘rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** katta va kichik so‘zining ma‘nosini anglaydi, shakllarning nomlanishini o‘rganadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda tartiblilik va mehnatsevarlik qobiliyati rivojlantiradi.

**Kerakli jihozlar:** Turli ko‘rinishdagi va kattalikdagi legolar va shkaf rasmining namunasi, turli xil o‘yinchoqlar.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar biz uyimizda kiyimlarimizni nimaga taxlab qo‘yamiz?

**1-bola:** – Shkafga taxlab qo‘yamiz.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri. Qarang, mana bu qo‘g‘irchoqning kiyimlari juda tartibsiz bo‘lib ketibdi, keling, avval unga ism qo‘yib olamiz. *(Bolalar taklif qilgan ism tanlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Balli, qo‘g‘irchog‘imiz Fazilatxonga kiyimlari uchun shkafcha yasab beramiz. Buning uchun men sizlarga shkaf qanday bo‘lishini ko‘rsataman.

*(Rasmlı kartochkalar yordamida bolalarga kiyim shkafi namunalari ko‘rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Endi mana bu legolardan hamma o‘zi shkaf yasaydi.

*(Jarayon bajarilayotganda tarbiyachi kiyim shkafini tartibli saqlash, kiyimlarni taxlab qo‘yish zarurligi haqida aytib o‘tadi).*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bolajonlar, har biringizning shkafingiz chiroyli chiqdi. Endi qanday shakldagi legolardan foydalanganimizni aytamiz.



*(Bolalar javobi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, aytingchi, uyimizdagi shkaflar rangi qanday?  
*(Bolalar javobi).*

### **O‘rganganlarni mustahkamlash uchun “Turiga ajrat” o‘yini:**

**Tarbiyachi:** – Hozir biz siz bilan “Turiga ajrat” o‘yinini o‘ynaymiz. Bunda siz ustki kiyimlar, bosh kiyim va oyoq kiyimlar tasvirlangan kartochkalarni turiga qarab ajratishingiz kerak.

*(Kiyim-boshlarni turiga ajratish o‘yinida faollik ko‘rsatgan bolalar rag‘batlantiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizlar yasagan shkafchalarni ko‘rib, Fazilatxon juda xursand bo‘ldi va kiyimlarini doimo tartibli saqlashga va‘da bermoqda. Keling, endi kiyim uchun shkaflardan boshqa turlarini ham o‘rganaymiz. Qarang, mana bu *(rasm ko‘rsatiladi)* shkafda kitoblar taxlangan. Bu qanday shkaf?

**2-bola:** – Kitoblar uchun shkaf.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri. Mana bu rasmda qanday shkaf tasvirlangan?  
*(Oshxona jihozlari joylashtirilgan shkaf ko‘rsatiladi).*

**3-bola:** – Bu oshxona shkafi, unga idish-tovoqlar taxlab qo‘yiladi.

**Tarbiyachi:** – Albatta, endi mana bu javon nima uchun moslanganini kim aytadi?

*(Bola oyoq-kiyimlar taxlangan javonning nomini va unga poyabzal qo‘yilishini aytadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi aytingchi, mana bu kitob javonida nechta bo‘lma bor ekan?

*(Bolalar javondagi bo‘lmalarni sanaydi).*

**Tarbiyachi:** – Turli o‘yinchoqlar taxlangan shkafni nima deb ataymiz?  
*(O‘yinchoqlar uchun shkafligini bolalar aytadi).*

**Tarbiyachi:** – Hozir yasagan kiyim shkaflarini mana bu stolga taxlab, ularning sonini sanaymiz.

*(Sanoq amaliyoti bajariladi).*

## **KATTA KICHIK ARCHALAR YASASH ORQALI PREDMETLARNI TAQQOSLASH**



### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda tasavvur va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish, shakllarni bir-biridan ajratishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** uchburchak shaklini farqlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** qurilish materiallarining uchburchak shakllari, legolar yoki kartondan turli o'lchamdagi uchburchak shakl namunalari, archa surati.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening chaqqon va ziyrak bolajonlarim! Bugun biz siz bilan katta va kichik archalar yasashni o'rganamiz. Qani archa haqida kim qanaqa she'r biladi?

**1-bola:** –

Men archaman,

Archaman.

Men xursandman

Barchadan.

Atrofimda aylanib,

Hech charchamang,

Charchamang.

**Tarbiyachi:** – Rahmat, bolajon. Endi mana bu suratdagi archalarga diqqat bilan qarang.

*(Tarbiyachi ko'p va kam archalar suratini ko'rsatadi).*

**Tarbiyachi:** – Bu suratdagi archalar bir-biridan nimasi bilan farq qilayapti?

**2-bola:** – Birinchi suratda archalar ko'p, ikkinchisida esa kam.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, bolajonlar archalar qanday rang va shaklda ekan?

**3-bola:** – Archa yashil rangda va uchburchak ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, archalarni qishin-yozin bir xil kiyimda deb ta'riflaymiz. Aslida ular nafaqat atrofga go'zallik baxsh etib turadi, balki ignabarglari ham bemorlarga shifo beradigan kuchga ega. Hozir sizlar bilan qurish-yasash va matematika markaziga o'tamiz va u yerda kat-



ta va kichik archalar yasaymiz. Siz uchun oldindan tayyorlab va qirqib qo'yilgan archa shaklidagi karton bo'laklariga yashil rangli qog'ozlarni yopishtirib qo'yasiz. O'g'il bolalar katta archaning ranglarini yopishtiradi, qiz bolalar esa kichik archaning ranglarini yopishtiradi.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida markazga o'tib, u yerda archaning rangini kartonga yelim yordamida yopishtirishadi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi esa yasagan archalarimizni guruhimizning ikki tomoniga, ya'ni o'ng va chap tomonidagi derazalarga yopishtirib qo'yaman. Ular yaqinlashib kelayotgan bayram Yangi yilni bizga eslatib turadi.

*(Bolalar tarbiyachiga archalarni uzatib turishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi aytinglar-chi, uchburchakda nechta burchak bor?

**Bolalar:** – Uchta.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Endi aytinglar-chi, uchburchakdan boshqa yana qanaqa shakllar bor?

**Bolalar:** – To'rtburchak, dumaloq shakllari bor.

**Tarbiyachi:** – To'rtburchak shakliga misol keltira olasizlarmi?

**4-bola:** – Bizning krovatimiz, eshigimiz to'rtburchakka misol bo'la oladi.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri. Shu bilan bugungi ta'limiy faoliyatimizga yakun yasaymiz.

## CHANA YASASH YORDAMIDA PREDMETLARNI GURUHLASH, ULARNI AJRATISH BO'YICHA BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilar keng-tor, chamalash, mo'ljal olish, to'rtburchakni farqlashni o'rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** katta va kichik so'zining ma'nosini anglaydi, makeda mo'ljal oladi. Mayda qo'l motorikasi rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda zavqlanish, harakat qilish qobiliyati rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** Qurilish materiallari, konstruktorlar, chana surati, AKT, suratlar.



### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir o'lkamizda qaysi fasl?

**1-bola:** – O'lkamizda qish fasli.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, kumush qish fasli o'zining go'zalliklarini namoyish qilyapti. Bu faslning o'ziga xosliklari nima ekan?

**2-bola:** – Qor yog'adi, hamma yoqni oppoq qor qoplaydi, bolalar qorbobo yasaydi, qorbo'ron o'ynaydi. Chanada uchadi...

**Tarbiyachi:** – Barakalla, men sizlarni hozir qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markaziga taklif qilib, u yerda legolardan foydalanib chana yasaymiz. Buning uchun, avvalo, chana rasmi tasvirlangan surat va foto rasmlarni ko'rib olamiz.

*(Bolalar surat va foto rasmlarni sharhlaydi).*

**Tarbiyachi:** – Aytingchi, chananing g'ildiragi bo'larkanmi?

**Bolalar:** – Yo'q, silliq bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Agarda chananing g'ildiragi bo'lsa, nima yuz beradi?

**Bolalar:** – Qorda sirpanmaydi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, juda zukko bolalar ekansiz, endi qorda mazza qilib uchish uchun chana yasaymiz.

*(Bolalar amaliy ish bajarayotganda qish manzarasi tasvirlangan videofilm namoyish etiladi. Topshiriqni bajargan bolalarni rag'batlantiradi, qiynalayotgan bolalarga yordam beradi).*

**Tarbiyachi:** – Ofarin, endi qish haqida yodlagan she'rlarimizni aytamiz.

*(Bolalar faslga mos she'rlarni aytishadi).*

### **O'rganganlarni mustahkamlash uchun “Ortiqchasini top” o'yini:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qarang sizlar yasagan chanada uchish uchun Qor malikasi guruhimizga tashrif buyuribdi. Uning bizga savollari bor ekan. Keling, ularga birgalikda javob beramiz.

Qor malikasi chana, qo'lqop, basseyn surati tasvirlangan kartochkani ko'rsatadi. Bolalar ortiqcha surat sifatida basseynni tanlaydi.

Yozgi ko'ylak, jemfer, palto...



Chana, qorbobo, tosh...

Qor, yomg'ir, tosh...

O'yin shu tariqa davom etadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar aytingchi, qishda qanday o'yinlar o'ynaladi?

**4-bola:** – Qorbo'ron, qorbobo yasash, chanada uchish...

*(Qishgi o'yinlar ta'svirlangan suratlarni ko'rishga bolalar san'at markaziga taklif etiladi).*

**Tarbiyachi:** – Keling, endi mana bu chana rasmi tasvirlangan kartochkalar ortidagi savollarga javob beramiz.

Kartochkalar ortida 3 ta chana qo'shilgan 1 ta chana, 5 ta chanadan ayrilgan 2 ta chana kabi misollar rasmi tarzda berilgan bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi har birimiz mana bu oq qog'ozlarni g'ijimlab, sun'iy qor yasaymiz. Ularni bir-birimizga otib, o'ynab, zavqlanamyiz.

## TANK VA MASHINA YASASH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarning qo'l motorikalarini rivojlanadi, legolar orqali shaklni xosil qilishni o'rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarda kasblarga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularning tasavvurini kengaytirish;

**Tarbiyaviy:** o'g'il bolalarda harbiy sohaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish.

**Kerakli jihozlar:** legolar va konstruktorlar, tank va mashina o'yinchoqlar va rasmlar, AKT.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening bo'lajak Vatan himoyachilarim! Bugun biz siz bilan tank va mashina yasashni o'rganamyiz. Qani, orangizda kimdir mashina haqida she'r biladimi?

**1-bola:** – Men Nasiba Erxonovanning "Mashina" nomli she'rini aytib beraman.

Xizmatdamiz odamga,



Qulaymiz "Tez yordam"ga.  
Ichim, tashim baquvvat,  
Ko'rkamdirman hamma vaqt.  
Yo'lovchilar kutadi,  
Rulim ushlar qanday baxt.  
Zil-zambil yuklar tashish,  
Hammaga ham osonmas.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, judayam chiroyli she'r ekan. Hozir hammangizni e'tiboringizni monitordagi videolavhaga qaratmoqchiman.

(Monitorda tank va mashinaning ishlash jarayoni videolavhada ko'rsatiladi).

**Tarbiyachi:** – Qani kim videolavhadan nimani tushundi?

**1-bola:** – Ushbu videolavhada tank va mashina boshqarish tasvirlangan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, tankni kim boshqaradi?

**Bolalar:** – Harbiylar tank haydaydi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, harbiy bo'lishning ham o'ziga yarasha qiyinchiliklari bor. Hozir siz tomosha qilgan tank yoki mashinalarni boshqarish uchun judayam katta bilim va ziyraklik talab etiladi. Hozir sizlarda tank va mashina haqida to'liqroq tasavvur hosil bo'lishi uchun o'yinchoq mashinalar va tanklarni yurgizib ko'ramiz. Qaranglar-chi, guruhimizda tank o'yinchoqlari ko'p ekanmi yoki mashinami?

**Bolalar:** – Xonamizda mashina o'yinchoqlari ko'p ekan.

**Tarbiyachi:** – Mashinalarning rangi qanaqa ekan, tanknikichi?

**Bolalar:** – Tank yashil rangda, mashinalarimiz esa ko'k rangda ekan.

**Tarbiyachi:** – Hozir har birimiz mashina va tankni yerda yurgizib ko'ramiz va taassurotlarimiz haqida o'rtoqlashamiz.

*(Bolalar tankni va mashinalarni yurgizib ko'rishadi).*

**Tarbiyachi:** – Xo'sh, kimda qanday fikr bor?

**2-bola:** – Mashina yurzigish tank yurgizishdan ko'ra osonroq ekan.

**3-bola:** – Menga ko'proq tank yurgizish yoqdi.

**Tarbiyachi:** – Mashinani kim boshqarishini bilasizmi?

**4-bola:** – Haydovchi mashinani boshqaradi.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Mashinani yurgizayotganda qaysi tomonlarga burish mumkin ekan?



**5-bola:** – Mashinani o‘ngga, chapga, oldinga va orqaga yurgizish mumkin ekan.

**Tarbiyachi:** – Mashinani kunduzi boshqarish kechqurun boshqarishdan ko‘ra ancha osonroq.

**Tarbiyachi:** – Mashinaning g‘ildiragi va ruli qanday shaklda?

**Bolalar:** – Mashinaning ruli va g‘ildiragi aylana shaklida ekan.

**Tarbiyachi:** – Siz katta bo‘lganingizda tank boshqarasizmi yoki oddiy mashinami, doim yodda tuting, siz xato qilishingiz mumkin emas. Har bir yo‘lovchining xavfsizligi uchun ham o‘zingiz javob berasiz. Tank boshqarishda esa mas‘uliyat yanada ko‘payadi. Shuning uchun ham yoshlikdanoq mashinalar tuzilishini o‘rganib boraveringlar. Uyda ota-onangizdan mashinalar qanday nomlanishini bilib kelasiz.

## “MENING XONA JIHOZLARIM” O‘YINI ORQALI KO‘P KAM TUSHUNCHALARINI MUSTAHKAMLASH

**Ta’limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilar keng-tor, chamalash, mo‘ljal olish, shakllarni farqlashni o‘rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** baland va past so‘zining ma’nosini anglaydi, makonda mo‘ljal oladi. Mayda qo‘l motorikasi rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda uy jihozlarini tartibli saqlash va ulardan to‘g‘ri foydalanish haqida tushunchalar rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** qurilish materiallari, lego, turli hajmdagi karton qutilar, xona jihozlari tasvirlangan suratlar.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu suratlarni kuzating va unda nima tasvirlanganini gapiring.

*(Bolalar mebellar va boshqa jihozlar nomlarini aytadi: shkaf, stol, stul, divan, kreslo, kompyuter...)*

**Tarbiyachi:** – Balli, endi aytingchi, bu jihozlarni atrofimizdagi nimalardan yasasak bo‘ladi?

*(Bolalar kubiklar va legolar yordamida yasash mumkinligini aytishadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi kim, nimani yasashini aniqlab olamiz...

*(Bolalar xohishiga qarab yasaladigan xona jihozlarini tanlaydi. Amaliy*



*ish vaqtida tarbiyachi bolalarga yasashga yordam beradi va qiynalغان tarbiyalanuvchilarni faollashtirishga e'tibor qiladi).*

**Tarbiyachi:** – Ofarin, har biringiz yasagan jihoz judayam chiroyli chiqdi. Endi ularning hammasini jamlab, qo'g'irchog'imiz xonasini bezatamiz. (Qo'g'irchoqning uyi bolalar tomonidan jihozlanadi. Bunda tarbiyachi stulni shkaf tepasiga qo'yishi mumkinmi? Kompyuterni krovat tagiga joylash mumkinmi? Shkafni stol ustiga qo'ysa bo'ladimi? Krovatni stol ostiga qo'yish mumkinmi kabi rivojlantiruvchi savollar bilan bolalar bilimlarini sinaydi).

### **O'rganganlarni mustahkamlash uchun “Ko'pmi kam?” o'yini:**

**Maqsad:** Tarbiyalanuvchilarga «ko'p», «kam», «bitta», «ko'proq» kabi so'zlarning ma'nosini misollar orqali tushuntirish.

Tarbiyachi bolalardan xonada nima ko'p, nima kamligini so'raydi. Misol uchun, stullar ko'p, stol bitta. Kitoblar ko'p, doska bitta kabi so'zlar bilan bola xonadagi narsalarni bir-biriga solishtiradi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar barakalla, sizlar nima qayerdaligini juda yaxshi bilarkansiz. Keling, endi stulning oyog'i nechtaligini sanaymiz. (*Bolalar sanaydi*).

Endi esa stolning oyog'i nechtaligini sanaymiz... (*Jarayon shu tariqa davom etadi*).

Endi aytingchi, stolning oyog'i uchta bo'lsa, u o'z o'rnida tura oladimi? Krovatning bitta oyog'ini olib qo'ysak nima bo'ladi? (*Bu kabi savollarga bolalar javob beradi*).

**Tarbiyachi:** – Endi esa aytingchi, xona jihozlariga chizsak, yozsak, oyoqlarini sindirsak nima bo'ladi?

**2-bola:** – Uyimiz xunuk bo'ladi, oyog'i yo'q stol va stullardan, krovatdan foydalana olmaymiz...

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri, biz jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishimiz kerak. Keling, endi xona jihozlari haqida yodlagan she'rlarimizni aytamiz.

**3-bola:** –

Krovatim – orom kursim,

Shirin uyquga chorlar.



Pardek yumshoq yostig'im,  
Tushlarimga kirarlar.

**4-bola:** –

Kompyuterdir bilag'on,  
Sirga to'la – bilaman.  
Lekin yaxshi o'qisam,  
Undan a'lo bo'laman.

## “DO‘STIMNING ORZUSIDAGI UY” O‘YINI ORQALI SON – SANOQ HAQIDA TUSHUNCHA BERISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** qurilish materiallari bilan tanishish, kubik g'ishtchalardan bir-biriga moslagan holda yasashni o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** uylar haqidagi tasavvuri kengayadi, bir qavatli va uch qavatli uy haqida tushunchaga ega bo'ladi;

**Tarbiyaviy:** do'stlikning ahamiyatini tushunish, o'zaro hamdarlik tuyg'usini shakllantirish.

Kerakli jihoz va materiallar: qurilish materiallari, lego konstruktorlar, turli hajmdagi karton qutilar, rasmi kitobchalar.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, men sizlarga hozir uylarning suratini ko'rsataman, sizlar ularning farqini aytib berishingiz kerak.

*(Tarbiyachi uylarning suratini ko'rsatadi).*

**1-bola:** – Rasmdagi uylar uch xil. Birinchisi bir qavatli, ikkinchisi ikki qavatli, uchinchisi uch qavatli.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri. Bolajonlar, sizning do'stingiz bormi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Kimning nechta do'sti bor?

**2-bola:** – Meniki bitta.

**3-bola:** – Meniki ikkita.

**Tarbiyachi:** – Do'stingiz bo'lgani yaxshi. Siz u bilan vaqtingizni yaxshi o'tkazasiz, zerikishga vaqtingiz qolmaydi. Bolajonlar, kelinglar bu-



gun eng yaxshi do'stimiz uchun uning orzusidagi uyni quramiz. Qani, kim do'stining orzusidagi uyni qanday ifodalaydi?

**4-bola:** – Mening do'stimning orzusidagi uy uch qavatli, katta, tashqarisida mevali daraxtli bog'i ham bor.

**5-bola:** – Mening do'stimning orzusidagi uy ikki qavatli, o'rtacha kattalikda tashqarisida hovuz va tebranma o'rindig'i bor.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, biz qaysi uyni yasaymiz?

**Bolalar:** – Ikki qavatli, tashqarisida hovuzi va tebranma o'rindiqli uyni tanlaymiz.

**Tarbiyachi:** – Unda ta'limiy faoliyatimizni qurish-yasash va matematika markazida davom ettiramiz va u yerda do'stimiz uchun uy quramiz. Uyning rangi qanaqa bo'ladi?

**5-bola:** – Do'stim uyining devorlari ko'k, tomi esa qora bo'lishini istaydi.

**Tarbiyachi:** – Demak, ko'k va qora rangdagi kubiklar yordamida uy qurishni boshlaymiz. Sizlarga yordam bo'lishi uchun bitta uyning rasmini ko'rsataman. Ana shu suratga qarab ikki qavatli uyni qurish mumkin. Faqat e'tiborli bo'linglar, uyda deraza va eshik uchun joy ortib qolishi kerak.

*(Bolalar ikki qavatli uy qurishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, uyning tomi qanday shaklda bo'ldi?

**Bolalar:** – Uyning tomi uchburchak shaklda bo'ldi.

**Tarbiyachi:** – Do'stingizni chindan ham juda yaxshi ko'rar ekansiz. Endi mana shu uyga yana bir qavat qo'shsak, u necha qavatli bo'ladi?

**Bolalar:** – Uy uch qavatli bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Agar uydan bir qavatini olib tashlasamchi?

**Bolalar:** – Ikki qavatli.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri. Endi do'stimiz orzusidagi uy atrofiga yana nimalarni qo'shimcha qilishimiz mumkin?

**6-bola:** – Do'stimiz orzusidagi uy atrofiga biz kuchukchaning uyini qo'yamiz, chunki do'stimizning ajoyib kuchugi bor. Yana tovuqlar uchun ham qafascha qo'yib qo'ysak bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Kuchukchaning uyi qanday shaklda bo'ladi?

**Bolalar:** – Kuchukchaning uyi to'rtburchak shaklda bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Yana nimalar qo'ysak do'stimiz xursand bo'ladi?

**Bolalar:** – Yana gullar va tebranma o'rindiq o'yinchog'ini qo'ysak



do'stimiz quvonadi.

**Tarbiyachi:** – Unda gullar va tebranma o'rindiqni uy atrofiga joylashtiramiz. Bolajonlar, do'stingizni judayam yaxshi ko'rganingiz uchun uyning ko'rinishi ajoyib chiqibdi. Do'stlik ham aslida uy qurishdek gap. Bitta g'ishtni qo'ygach, ikkinchisini qo'yganingiz singari asta-sekin mustahkamlanib boraveradi.

## “KUCHUKCHAGA UYCHA YASAYMIZ”. SHAKLI BIR XIL, O'LCHAMI HAR XIL BO'LGAN SHAKLLAR BILAN TANISHTIRISH

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilar keng-tor, chamalash, mo'ljal olish, kvadrat va uchburchak kabi shakllarning katta va kichik hajmdagilarini farqlashni o'rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** past va baland so'zining ma'nosini anglaydi, shakllarning nomlanishini o'rganadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda hayvonlarga g'amxo'rlik, ularga ozor bermaslik xususiyatlari rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** Qurilish materiallari, lego, konstruktorlar, qutilar, rasmi kitobchalar, kuchukcha o'yinchog'i va AKT.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hayvonlarga ozor bermaslik, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish deganda nimani tushunamiz?

**1-bola:** – Hayvonlarga vaqtida suv, ovqat bersak, ular insonlarga do'st, mehribon bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri, aytingchi, kimning uyida qanday hayvon bor?

*(Bolalar javobi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun yo'lda kelayotsam, mana bu kuchukcha uychasini topolmay, adashib qolgan ekan. Unga uycha qurib berib, yordam beramizmi?

Bolajonlar xohishi asosida kuchukchanning uychasi uchun joy tanlanadi.



**Tarbiyachi:** – To‘rt oyoqli do‘stimizning nomi yo‘lbars ekan. Kelinglar, yo‘lbarsga o‘zi sig‘adigan hajmda katta va u o‘ynashi uchun kichkinagina uycha yasaymiz.

*(AKT orqali itlarning turli zotlari slaydi ko‘rsatiladi).*

Bolalar bir xil shakldagi turli katta va kichkina legolarni uycha yasash uchun tanlaydi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, it qanday ovoz chiqaradi?

*(Bolalar kuchukchanning ko‘rsatish orqali nafas mashqi o‘tkaziladi).*

**Tarbiyachi:** – Kelinglar, mana bu rasmdagi kuchuk uychasiga qarab, uning qanday qismlardan tashkil topganini bilib olamiz.

**3-bola:** – Uycha ikki qismdan iborat: bino va tom.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, uychaning shakli qanday ekan?

**4-bola:** – To‘rtburchak.

**Tarbiyachi:** – Tomining shakli?

**5-bola:** – Uchburchak.

**Tarbiyachi:** – Kuchukcha uyiga kirib olishi uchun yana nima yasashimiz kerak?

**6-bola:** – Eshik.

**Tarbiyachi:** – Legolarning eng kattasini binoning qaysi qismiga ishlatamiz?

**7-bola:** – Bino qismi uchun.

**Tarbiyachi:** – Ofarin, hamma savollarga to‘g‘ri javob berdingiz. Endi uychani yasashdan oldin barmoq mashqi o‘tkazib olamiz:

Qo‘llarimiz ochamiz,

Quyosh kabi...

Samolarni quchamiz,

Bulut kabi...

Bir, ikki, uch, – deya

Qo‘lda chapak chalamiz...

*(Bu mashqdan so‘ng bolalar uycha yasashga taklif etiladi. Bolalar ikki guruhga bo‘linadi va birinchi guruh kichik lego konstruktordan, ikkinchi guruh esa yirik lego konstruktordan uycha yasashga kirishadi. Tarbiyachi amaliy ishdan chetda turgan bolalarni faollashtirishga e‘tiborli bo‘ladi).*

**Tarbiyachi:** – Balli bolajonlar, ikkala guruhning uychasi ajoyib chiqdi.



Kuchukcha sizlardan juda xursand bo'ladigan bo'ldi.

### **O'rganganlarni mustahkamlash uchun "Nimaning bolasi?" o'yini:**

Tarbiyachi birorta hayvonning nomini aytadi, bolalar esa uning bolasini aytishlari kerak. Masalan, tuya – bo'taloq, ot – toychoq, echki – uloqcha, it – kuchukcha, qo'y – qo'zichoq.

*(Ushbu o'yin orqali bolalar nafaqat hayvonlar bolasining nomlanishini, balki hayvonlar katta, bolalari kichkina bo'lishini tarbiyachi rahbarligida birma-bir aytishadi).*

### **BALAND VA PAST KUBIKCHALARNI FARQLASHGA O'RGATISH**

#### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Ta'limiy:** baland-past, katta-kichik kabi tushunchalarni misollar yordamida o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni chamalashga, mo'ljal olishga o'rgatish.

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** yirik hajmdagi o'yinchoq qurilish materiallari, AKT.

#### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, mana bu yerdagi oldindan qurilgan uylarga qarang. Ular nimasi bilan farq qiladi?

(Bolalar kubiklardan qurilgan uylarga qarashadi).

**1-bola:** – Birinchi uy baland, ikkinchi uy pastroq.

**2-bola:** – Birinchi uy kattaroq, ikkinchisi esa kichikroq.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kelinglar hozir sizlar bilan bir o'yin o'ynaymiz. Men balanddagi narsalar nomini aytsam, siz qarsak chalasiz, agar pastdagi narsa nomini aytsam, unda indamaymiz.

*(Tarbiyachi quyidagi so'zlarni o'qiydi: osmon, yer, quyosh, yulduz, tarbiyalanuvchilar esa ulardan balanddagining nomini eshitib, qarsak chaladilar, pastdagida esa indamaydilar)*

**Tarbiyachi:** – Endi faoliyatimizni qurish-yasash va matematika marka-



zida davom ettiramiz. Bu yerda katta va kichik o'yinchoqlar qo'yib qo'yilgan. Siz katta o'yinchoqlarni o'ng tomonga, kichik o'yinchoqlarni chap tomonga ajratib qo'yishingiz kerak bo'ladi.

*(Bolalar o'yinchoqlarni katta va kichikligiga qarab o'ng va chap tomonga taxlab qo'yadilar).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, mening chaqqon bolajonlarim! Endi aytingchi, mana bu suratdagi daraxt balandmi yoki gul?

**Bolalar:** – Daraxt baland.

**Tarbiyachi:** – Samolyot qayerda uchadi? Poyezd qayerda yuradi?

**Bolalar:** – Samolyot osmonda – balandda uchadi, poyezd pastda – yerda yuradi.

**Tarbiyachi:** – Qushlar qayerda uchadi, toshbaqa qayerda yuradi?

**Bolalar:** – Qushlar osmonda tepalikda uchadi, toshbaqa pastda yerda sudralib yuradi.

**Tarbiyachi:** – Baliq kattami yoki akula?

**Bolalar:** – Akula.

**Tarbiyachi:** – Olma kattami yoki tarvuz?

**Bolalar:** – Tarvuz.

**Tarbiyachi:** – Telefon kattami yoki televizormi?

**Bolalar:** – Televizor.

## DERAZALI UYCHA YASAYMIZ

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilar keng-tor, chamalash, mo'ljal olish, to'rt-burchakni farqlashni o'rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** katta va kichik so'zining ma'nosini anglaydi, makonda mo'ljal oladi. Mayda qo'l motorikasi rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda insonlar turmush tarzi haqida tushuncha hosil bo'ladi, kattalar mehnatini kuzatadi va taqlid qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** Qurilish materiallari, konstruktorlar, yog'och g'ishtchalar, AKT, suratlar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, biz yashayotgan uylarni kimlar



quradi?

**1-bola:** – Quruvchilar quradi.

*(Tarbiyachi multimedia vositasi orqali uylar qurilishi aks etgan video namoyish etadi).*

**Tarbiyachi:** – Judayam to‘g‘ri, endi aytingchi, uylarimizda deraza bo‘lmasa nima bo‘ladi?

**2-bola:** – Qorong‘u bo‘ladi, yorug‘ tushmaydi.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri, shuning uchun uylarda deraza bo‘lishi shart. Shuning uchun bugun biz quradigan uyhamiz yorug‘ va shinam bo‘lishi uchun derazali qilib quramiz. Aytingchi, uylarni nimalardan qurish mumkin?

**3-bola:** – G‘ishtdan va betondan qurish mumkin.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi marhamat qilib mana bu legolardan foydalanib derazali uycha quramiz.

*(Amaliy ish tugagach, bolalardan uycha derazasini nimalar bilan bezatish mumkinligi so‘raladi).*

**Bolalar javobi:** – Parda bilan bezash mumkin, xona gullari qo‘ysa bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Sizlar qurgan uyda nechta deraza bor?

**4-bola:** – Ikkita.

**Tarbiyachi:** – Endi uycha haqida yodlagan she‘rlarimizni aytamiz.

**5-bola:** –

Shinam uycha

Shinamgina uychada

Yashaymiz ahil-inoq.

Otam-onam, opam, men,

Do‘stdan ko‘ra yaqinroq.

Hovlimizni supurar,

Opam erta tongdanoq.

Derazadan nur kirar,

Pardani ochgandayoq.

**Tarbiyachi:** – Ofarin, endi uyhamizning atrofiga daraxtlar o‘tqazamiz. Hamma o‘zi uchun uchtadan daraxt konstruktorelarni olsin va uycha hovlisiga o‘rnatsin.



*(Bolalar tasavvuriga ko'ra uycha hovlisini bezatishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar aytingchi, katta uy uchun ko'p lego ketadimi, kichkina uy uchun ko'p lego ketadimi?

**6-bola:** – Katta uy uchun ko'p lego kerak bo'ladi, kichkina uy uchun esa kam.

**Tarbiyachi:** – Juda to'g'ri, uyga borganingizda ota-onangizdan quruvchilar mehnati haqida yana so'rab oling. Yangi uylar mahalla va shaharlarga chiroy bag'ishlaydi. Sizlar qurgan uycha esa guruhimiz chiroyiga chiroy qo'shmoqda.

## O'Z UYINGNI O'ZING TOP

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilar katta-kichik, chamalash, mo'ljal olish, kvadrat va uchburchak kabi shakllarning katta va kichik hajmdagilarini farqlashni o'rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** diqqat va xotira rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda mustaqillik, tasavvur qilish xususiyatlari rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** qurilish materiallari, lego, konstruktorlar, qutilar, rasmlı kitobchalar va AKT.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar hamma o'zining uyini ta'riflasinchi!

**1-bola:** – Bizning uyimiz g'ishtdan qurilgan, to'rtta xonasi bor.

**2-bola:** – Biz ko'p qavatli uyda yashaymiz.

**Tarbiyachi:** – Demak, hammaning o'z uyi bor. Kelinglar, hozir mana bu legolardan foydalanib men namunada ko'rsatganim kabi uylarni tanlaydi va quradi.

*(Tarbiyachi 4 xildagi legolardan qurilgan uy rasmi namunasini bolalarga ko'rsatadi va ulardan bolalar o'z xohishiga ko'ra tanlab, o'sha rasm asosida uy qurishadi. Bunda bolalarga taklif qilinayotgan uylarning biri to'rtburchak, birida uchburchak, yana birida kvadrat shakllari ustunlik qiladi).*



**Tarbiyachi:** – Rahmat bolajonlar, uychalar bir-biridan chiroyli chiqdi. Endi hamma o‘zining uyini ta’riflasin, kimning uyi qanaqa?

**3-bola:** – Mening uyim to‘rtburchak. Tomi esa uchburchak. Derazasi to‘rtburchak.

**4-bola:** – Mening uyimning derazasi yumaloq, tomining rangi yashil, devori qizil rangda.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markaziga o‘tib, mana bu aralash geometrik shakllardan o‘z uyingizni qurish uchun tanlang.

*(Bolalar rangli shakllardan tanlab, uy proyektini oq qog‘ozga yopishtiradi).*

**Tarbiyachi:** – Ofarin bolalar, bu uychalaringizni guruhimiz ko‘rgazma doskasiga ilib qo‘yamiz va uni ota-onangizga namoyish qilamiz.

Endi o‘z tasavvuringizdagi uycha qanday ekanligini, kelajakda qanday uy qurmoqchi ekanligingizni birma-bir aytib bering.

*(Bolalar javobi tinglanadi).*

Bolalarga uycha shaklidagi kartochkalar tarqatiladi. Kartochka orqasida 2 ta uycha qo‘shuv belgisi 1 ta uycha, 3 ta uycha qo‘shuv 1 ta uycha, 3 ta uycha ayiruv 1 ta uycha, 3 ta uycha ayiruv 2 ta uycha shaklidagi misollar beriladi va bolalardan og‘zaki javob berishi so‘raladi.

## DOIRA, KVADRAT VA UCHBURCHAK SHAKLLARINI FARQLASHGA O‘RGATISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarda geometrik shakllar haqida tushuncha paydo qilish, ularni farqlashga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalar nutqini rivojlantirish, ulardagi mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bir-biriga yordam berishni o‘rgatish, o‘zaro hamdardlik tuyg‘usini rivojlantirish.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**



Qor yoqqanda bo'ralab,  
Olam uxlaydi go'yo,  
Oq cho'ponga o'ralib.  
Go'zal bahor kelganda  
Qishning ko'rpsin otdi.  
Uyqudagi olamni  
Kulib-kulib uyg'otdi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla. Endi, esa menga bahorda qanday o'zgarishlar bo'lishi haqida kim ayta oladi?

**2-bola:** – Bahorda quyosh chiqadi, daraxtlar barg chiqaradi.

**Tarbiyachi:** – Daraxtlar ko'p barg chiqaradimi yoki kammi?

**3-bola:** – Daraxtlar ko'p barg chiqaradi.

**4-bola:** – Yana bahorda qushlar boshqa o'lkalardan uchib kelishadi.

**Tarbiyachi:** – Qushlar ko'p uchib kelishadimi yoki kammi?

**5-bola:** – Ko'p qushlar uchib kelishadi.

**Tarbiyachi:** – Endi esa men bitta topishmoq aytaman, sizlar uning javobini topasizlar?

Oq g'ozim uchdi ketdi,  
Ichagini cho'zdi ketdi. Bu nima?

**Bolalar:** – Bu varrak.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi aytinglar-chi, varraklar qaysi faslda uchirildi?

**Bolalar:** – Bahorda.

**Tarbiyachi:** – Varrak qanday rangda bo'ladi?

**Bolalar:** – Har xil rangda, yashil, ko'k, oq, siyoh rangda bo'lishi mumkin.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, varrakni ko'rinishidan nimaga o'xshatish mumkin?

**Bolalar:** – Qushga.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, varrak balandda uchadimi yoki pastda?

**Bolalar:** – Balandda.

**Tarbiyachi:** – Endi sizlar bilan qurish-yasash va matematika markaziga o'tamiz va u yerda birgalikda varrak yasaymiz.

*(Qurish-yasash va matematika markazida tarbiyachi yordamida varrak yasaladi).*



**Tarbiyachi:** – Bolalar varragimiz judayam chiroyli chiqdi. Istasangiz hozir uni bog'chamiz maydonchasiga olib chiqib, birga uchiramiz.

*(Tarbiyachi va bolalar maydonchaga chiqib, varrakni uchirib ko'rishadi. Jarayonda bolalar varrakning pastda yoki balandda uchayotganini kuzatadi, mo'ljal olish ko'nikmasi rivojlanadi).*

## DOIRANI IKKI BO'LAKKA BO'LISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda doira shakli haqida kengroq tasavvur hosil qilish;

**Rivojlantiruvchi:** shakllarni bir-biridan farqlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** guruh bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qiziquvchan bolajonlarim! Bugungi ta'limiy faoliyatimizda biz sizlar bilan doira va uni ikkiga bo'lish usullari haqida suhbatlashamiz. Qani, kim aytadi, hozir guruhimizda doira shaklida nimalar bor?

**1-bola:** – Koptok, stol, lagan, likopchalar bor.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Hozir sizlar bilan bir o'yin o'ynaymiz. Men bir nechta gaplar o'qiyman. Agar gapim to'g'ri bo'lsa qarsak chalasizlar, agar xato qilsam unda polni taqirlatasizlar.

Mening koptogim to'rtburchak. *(Bolalar polga tepadilar)*

Bog'chamizda doira shaklida stol bor. *(Bolalar qarsak chaladilar)*

Men bugun uchburchak shakldagi o'yinchoq archa ko'rdim. *(Bolalar qarsak chaladilar)*

Uyimizdagi gilam to'rtburchak shaklda. *(Bolalar qarsak chaladilar)*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlar bilan qurish-yasash va matematika markaziga o'tamiz. U yerda ertak qahramonidan sevimli qizimiz Zumradoyning gilamini Qimmat ko'p joylaridan kesib tashlab ketibdi. Biz o'sha gilamning kesilgan joylariga o'ziga mos shaklni yopishtirib, yamab qo'yamiz.

*(Bolalar katta gilam shaklidagi kartonning kesilgan joylariga o'ziga mos geometrik shaklni qo'yib, yelimlab chiqadilar).*



**Tarbiyachi:** – Bu ishingizdan Zumradoy rosa xursand bo‘ladigan bo‘ldi-da. Ayingchi, gilamni yamash uchun qanday shakllardan foydalandingiz?

**Bolalar:** – Uchburchak, to‘rtburchak, doira shakllaridan foydalandik.

**Tarbiyachi:** – Gilamning umumiy ko‘rinishi qanday shaklda ekan?

**Bolalar:** – Doira shaklida ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi biz siz bilan bir tajriba o‘tkazamiz. Mana bu doira shakli. Uni qog‘ozda ikkiga bo‘laman. Qanday shakl hosil bo‘ldi?

**Bolalar:** – Yarim doira.

**Tarbiyachi:** – Yarim doiraga qanday misollar keltira olasiz?

**Bolalar:** – Yarim oy, olmaning yarmisi.

**Tarbiyachi:** – Siz quyoshning botishini hech tasavvur qilganmisiz? Quyosh botayotganida ham goho doiraning teng yarmi botib, teng yarmi tepada qoladi. Demak, doiraning ikkita yarmi bir xil shaklga ega ekan.

**2-bola:** – Tarbiyachi opa, to‘rtburchakni ikkiga bo‘lsak ham ularning yarmi bir xil bo‘ladimi?

**Tarbiyachi:** – Ha, to‘rtburchakni ikkiga bo‘lsak ham ularning yarmi bir xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bolajonlar, mana bu aralash kartochoqning yarim doira shaklidagilarini topamiz.

**2-bola:** – Bog‘cha opa, bu yerda faqat yarim doiralar bor ekan.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu qutichadan hamma o‘z doirasining yarmini topsin.

*(Bolalar qo‘lidagi yarim doira rangiga qarab, geometrik shakl yarmini topishadi).*

## KICHKINALAR VA KATTALAR

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** bolalar buyumlarning xususiyatlariga ko‘ra taqqoslashni, buyumlar guruhidan umumiy o‘xshashlikni topishni o‘rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** chamalash, solishtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyati oshadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarning nutqi rivojlanadi, bir-biriga yordam berishni o‘rganadi.



erakli jihozlar: katta kichik kubiklar, o'yin...

### o'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, qadrdon bolajonlarim! Bugungi davzuimizning nomi “Kichkinalar va kattalar”. Xo'sh, kattalar va kichmalarga kim qanday misol keltira oladi?

**1-bola:** – Men akamdan kichikman.

**2-bola:** – Men singlimdan kattaman.

**Tarbiyachi:** – Barakalla. Endi esa mana bu samolyotlarga qarang. Men bu stol ustiga katta samolyotlarni qo'yib qo'ydim. Sizlar esa ana shu katta samolyotlar tagiga kichik samolyotlarni qo'yishinglar kerak.  
(Bolalar katta samolyotlarning tagiga kichik samolyotlarni qo'yib qo'yadilar).

**Tarbiyachi:** – Bolalar katta samolyotlar nechta?

**Bolalar:** – 5 ta.

**Tarbiyachi:** – Kichik samolyotlar-chi?

**Bolalar:** – 5 ta.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Endi qo'llarimizga qaraylikchi, bitta qo'limizda nechta barmoq bor ekan?

**Bolalar:** – 5 ta.

**Tarbiyachi:** – Endi esa qurish-yasash va matematika markaziga o'tamiz. Bu yerda qopda turli shakllar aralashib yotibdi. Har biringiz qopga qo'lingizni solib, undan bitta shaklni olasiz va uning nimaligini aytishdigani yoniga joylashtirishi kerak.  
(Bolalar qopcha ichiga joylangan shakllardan birma-bir oladilar va uning nomini aytib, o'ziga o'xshagan shakl yoniga qo'yadilar).

**Tarbiyachi:** – Qoyil, siz men o'ylagandan ham topqirroq chiqdingiz. Endi esa sizlar bilan “O'zing davom ettir” o'yinini o'ynaymiz. O'yin shartiga ko'ra, men bitta gap boshlayman, sizlar uning davomini aytishdigiz kerak.

Masalan, o'rik shaftolidan... (kichik)

Mashina velosipeddan... (katta)

Ona qizidan... (katta)



qotib qolayapman. Mushugim va kuchukcham ham uychasiz qolishdi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kelinglar, qurish-yasash va matematika markaziga o'tib, u yerda Zumradoy uchun uycha quramiz. Hozir uychalar tasvirlangan suratlardan ko'rsataman. Qani Zumradoy, senga bu uychalardan qaysinisi yoqdi?

**Zumradoy:** – Menga bir qavatli, ikkita derazali uy yoqadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, uyda deraza va tomdan boshqa yana nima bo'ladi?

**Bolalar:** – Eshik.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, uyni qaysi kasb egalari quradi?

**Bolalar:** – Quruvchilar.

**Tarbiyachi:** – Mana, bu qo'limdagi g'ishtni ko'rdingiz? U qanday shaklda ekan?

**Bolalar:** – To'rtburchak shaklda.

**Tarbiyachi:** – Endi bo'lmasa, to'rtburchak shakldagi g'ishtlardan uyning poydevorini quramiz. Uyimiz to'rtburchak shaklda bo'ladi.  
(*Tarbiyachi poydevor quradi, bolalar poydevor ustiga devor quradilar*).

**Tarbiyachi:** – Devorni bir xil kubiklardan chiroyli qilib quribsiz, endi uyning qaysi qismini qurishimiz kerak?

**Bolalar:** – Tom qismini.

**Tarbiyachi:** – Tom qismini qanday rangdan quramiz?

**Bolalar:** – Qizil rangdan quramiz.

**Tarbiyachi:** – Tomimiz qanday shaklda bo'ladi?

**Bolalar:** – Uchburchak shaklda.

(*Bolalar uyning tomini ham qurishadi*).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, Zumradoy uyining yoniga yana nimalar qo'yish mumkin?

**Bolalar:** – Uy yoniga daraxtlar, gullar, o'yinchoqlar qo'yish mumkin.

**Tarbiyachi:** – Nechta daraxt qo'yganimiz ma'kul?

**Bolalar:** – Uyning to'rt tomoniga to'rtta daraxt qo'yamiz, shunda chiroyli ko'rinadi.

**Tarbiyachi:** – Gullarchi?

**Bolalar:** – Gullarni sanamasdan ko'p qilib qo'yib chiqamiz. Gullar hamma joyga chiroy baxsh etadi.



**Tarbiyachi:** – Hozir sizlar bilan “To‘g‘ri ta’lim”imiz. O‘yin shartiga ko‘ra, men so‘zlar aytaman, sizlar esa unga mos aytishinglar kerak.

Stol – ... (to‘rtburchak)

Oy – .... (dumaloq)

Televizor... (to‘rtburchak)

Javon ... (to‘rtburchak)

Archa ... (uchburchak)

## UYIMIZ UCHUN MEBEL YASAYMIZ O‘YINI ORQALI MO‘LJAL OLISHGA O‘RGATISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** shakllar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, keng-tor, chamalash, mo‘ljal olish, kvadrat va uchburchakni farqlashni o‘rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, bitta va ko‘p so‘zining ma’nosini anglaydi, shakllarning nomlanishini anglatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda diqqat va mehnatsevarlik qobiliyati rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** qurilish bloklari, lego, konstruktor.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, bolajonlar! Bugungi ta’limiy faoliyatimiz uyimiz uchun mebel yasash mavzusiga bag‘ishlanadi. Aytinglar-chi, aslida mebellar nima uchun kerak?

**1-bola:** – Mebellar bizga qulaylik yaratadi. Masalan, javonga kiyimlarni taxlab qo‘yamiz, kitob javoniga kitoblarni taxlaymiz. Stol ustiga ovqat qo‘yamiz, stullarning ustiga o‘tiramiz.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kim birorta mebel haqida she’r biladi?

**2-bola:** – Men bilaman.

Shkafchamning ichida,

Kiyimlarim taxma-tax.

Bosh kiyimim tepada,

Qishkilari ham bir saf.



Saranjom bo'lmasa gar,  
Eshigin ochgim kelmas.  
Shuning uchun har safar,  
Taxlayman, malol kelmas.

**3-bola:** – Tarbiyachi opa, men ham kitob javoni haqida she'r aytsam maylimi?

**Tarbiyachi:** – Albatta, sening she'ringni ham eshitamiz.

**3-bola:** –  
Kitoblarim javonda,  
Taxlangandir bir qator.  
Ertagu she'r, hikoya,  
Hammasidan ko'plab bor.

Javonchanning yonida,  
Qo'g'irchog'im o'tirar.  
Kitob o'qib bersam gar,  
Ko'zchalari yaltirar.

**Tarbiyachi:** – Barakalla. Qani, endi aytinglarchi, kimning uyida qanday mebellar bor?

**4-bola:** – Mening uyimda shkaf, stol, stul bor.

**5-bola:** – Biznikida kitob javoni, stol va stullar, televizor qo'yish uchun kichik stolcha ham bor.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kelinglar, hozir xonamizdagi mebellarni qanday ekanligini tahlil qilamiz. Mana bu ko'rib turganingiz javon. U qanday shaklda ekan?

**Bolalar:** – To'rtburchak shaklda.

**Tarbiyachi:** – Javonning nechta eshigi bor ekan?

**Bolalar:** – Ikkita.

**Tarbiyachi:** – Javonda nechta qator bor ekan?

**Bolalar:** – Uchta.

**Tarbiyachi:** – Guruhimiz xonasida nechta eshik bor ekan?

**Bolalar:** – Uchta.

**Tarbiyachi:** – Qurish-yasash va matematika markazida sizlar bilan karton bo'laklaridan javon yasaymiz. Xo'sh, javon uchun qaysi rangni tan-



laysizlar?

**Bolalar:** – Jigar rangni.

**Tarbiyachi:** – Judayam yaxshi. Unda mana bu to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi karton bo‘laklarini bir-biriga men ko‘rsatgandek qilib yelimlaysiz.

*(Bolalar tarbiyachi ko‘rsatganidek qilib yelimlashadi, bosqichma-bosqich javon qismlarini yelimlab tayyorlashadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, javon ham xuddi uydek. Faqat kiyimlarimiz yoki kitoblarimizning uyi deyishimiz mumkin.

Shuning uchun ham javonni ham har doim tartibli saqlashimiz kerak. Yana uning ustiga chizib, yoki o‘yib olishimiz mumkin emas.

## “LIKOPCHA YASAYMIZ” O‘YINI ORQALI GEOMETRIK SHAKLLAR HAQIDAGI BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** shakllar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, keng-tor, chamalash, mo‘ljal olish, kvadrat va uchburchakni farqlashni o‘rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, bitta va ko‘p so‘zining ma’nosini anglaydi, shakllarning nomlanishini anglatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda diqqat va mehnatsevarlik qobiliyati rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** doira shaklida qirqilgan karton, rangli qog‘ozlar, yelim, o‘yinchoq idish-tovoqlar.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum bolajonlar. Ta’limiy faoliyatimizni topishmoq bilan boshlaymiz.

O‘zi bitta,

Qulog‘i to‘rtta. Bu nima?

**Bolalar:** – Bu qozon.

**Tarbiyachi:** – Onalari tokchadan tushsa,

Bolalari yugurib keladi. Bu nima?

**Bolalar:** – Choynak, piyola.

**Tarbiyachi:** –



Ro'parada turibdi,  
Yuzi dumaloq, lo'ppi.  
Bir qulog'i bor, bir burni,  
Boshiga kiygan do'ppi. Bu nima?

**Bolalar:** – Bu choynak.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, men nimalar haqida topishmoq aytdim.

**Bolalar:** – Oshxona buyumlari haqida.

**Tarbiyachi:** – Qaysi buyum haqida topishmoq aytmadim?

**Bolalar:** – Likopcha haqida.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, likopcha qanday shaklda bo'ladi?

**Bolalar:** – Doira shaklida.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, biz tarelkaga nimalar solamiz?

**Bolalar:** – Ovqat solamiz, mevalar, shirinliklar solamiz.

**Tarbiyachi:** – Sizlar qanday likopchalarni ko'rgansizlar?

**1-bola:** – Tarbiyachi opa, men to'rtburchak shakldagi likopchani ham ko'rganman, doira shaklidagi likopchani ham ko'rganman.

**Tarbiyachi:** – Xo'sh, to'rtburchak va doiraga nimalarni misol qilib ayta olasizlar?

**2-bola:** – Doiraga koptok, doira, olma.

**3-bola:** – To'rtburchakka xontaxta, stol, kompyuter, televizor.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi faoliyatimizni qurish-yasash va matematika markazida davom ettiramiz. Bu yerda oldindan tayyorlab qo'yilgan rangli dumaloq shakldagi qog'ozlarni karton ustiga yelim yordamida yopishtirib chiqamiz.

(Qurish-yasash va matematika markazida karton ustiga dumaloq shakldagi doiralar yopishtirib chiqiladi).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ushbu likopchalarning qaysi rangdavisini nima uchun ishlatamiz?

**4-bola:** – Qizil rangdavisini mevalar, yashil rangdavisini shirinliklar, oq rangdavisini ovqat solish uchun ishlatamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, katta likoplarni nimaga, kichik likoplarni nimaga ishlatamiz?

**Bolalar:** – Katta likopchada ovqat solamiz, kichik likopchaga esa shirinliklar solamiz.

**KUBIKLARDAN TELEVIZOR VA KOMPYUTER YASASH  
YORDAMIDA PREDMETLARNI O'LCHAMINI ANIQLASHGA**



## O'RGATISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** shakllar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, keng-tor, chamalash, mo'ljal olish, kvadrat va uchburchakni farqlashni o'rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlashga o'rgatish, bitta va ko'p so'zning ma'nosini angelaydi, shakllarning nomlanishini anglatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda diqqat va mehnatsevarlik qobiliyati rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** televizor va kompyuterning suratlari, karton va rangli qog'ozlar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, bolajonlar, sizlarga bitta savol bermoqchiman. Mana bu suratda nimaning rasmi tasvirlangan?

(Tarbiyachi televizorning suratini ko'rsatadi).

**Bolalar:** – Televizor.

**Tarbiyachi:** – Televizor qanaqa shaklda ekan?

**Bolalar:** – To'rtburchak shaklida ekan.

**Tarbiyachi:** – Televizor enli ekanmi yoki ensiz?

**Bolalar:** – Enli ekan.

**Tarbiyachi:** – Televizor bizga nimaga kerak?

**Bolalar:** – Biz televizorda multfilmlar ko'ramiz, musiqalar eshitamiz.

**Tarbiyachi:** – Uyingizda nechta televizor bor?

**Bolalar:** – Bitta.

**Tarbiyachi:** – Televizorni kattalar ko'radimi yoki kichkinalar?

**Bolalar:** – Televizorni kattalar ham, kichkinalar ham ko'radi.

**Tarbiyachi:** – Endi esa mana bu suratdagi narsa nima ekanligini topingchi?

**Bolalar:** – Bu kompyuter.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri. Kompyuter qanaqa shaklda ekan?

**Bolalar:** – Kompyuter to'rtburchak shaklda.

**Tarbiyachi:** – Kompyuter bizga nimaga kerak?

**1-bola:** – Kompyuterda biz kinolar ko'ramiz, o'yinlar o'ynaymiz, akamunda yozadilar, dadam esa qandaydir chizmalar chizadilar.



**Tarbiyachi:** – Haqiqatdan ham kompyuter bugungi kunga kelib hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Kelinglar, hozir qurish-yasash va matematika markazida televizor yasaymiz. Bolalar, aytinglarchi, televizorning nechta burchagi bor?

**Bolalar:** – To‘rtta.

**Tarbiyachi:** – Televizor ekrani uchun qanday rang tanlaymiz?

**Bolalar:** – Och havorang.

(Tarbiyachi va bolalar birgalikda oldindan tayyorlab qo‘yilgan karton va qog‘ozlar yordamida televizor yasashadi).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana televizorimiz tayyor bo‘ldi. Endi uni xonaning qayeriga qo‘yamiz, o‘ng tomongami yoki chap tomongami?

**Bolalar:** – O‘ng tomonga.

**Tarbiyachi:** – Televizorni balandga qo‘yamizmi yoki pastga?

**Bolalar:** – Televizorni balandga qo‘yamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolalar televizorni o‘ng tomondagi javonning tepasiga qo‘ydik.

### **O‘rganganlarni mustahkamlash uchun “Xatoimni top” o‘yini:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlar bilan “Xatoimni top” o‘yinini o‘ynaymiz. Bunda men birorta gap o‘qiyman, sizlar esa xatoimni topishinglar kerak.

Men televizorni har kuni ko‘tarib yuraman. (Xato)

Gullar kompyuterning ustida turishi kerak. (Xato)

Kompyuter to‘rtburchak, quyosh esa uchburchak. (Xato)

Bizning stolimiz to‘rtburchak shaklda. (To‘g‘ri)

Menda aylana shaklidagi doira bor. Uni chalish menga yoqadi. (To‘g‘ri)



A decorative border of pink mathematical symbols surrounds the central text. The symbols include numbers (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9), arithmetic operators (+, x, =, /), and a percent sign (%).

# O'RTA GURUH



## 5 GACHA SANAYMIZ. MEN YASHAYDIGAN UY

### **Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga 5 sonining hosil bo'lishi haqida tushuncha berish, 5 ichidagi sonlarni farqlashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bitta va ko'p so'zining ma'nosini anglab, 5 gacha bo'lgan sonlarni farqlaydi, amaliy mashq yordamida tasavvurini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda diqqat va e'tiborlilik qobiliyati rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** sanoq cho'plar, turli xil kartochkalar, magnitli 5 gacha bo'lgan sonlar, AKT.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Aziz bolajonlarim, diqqatingizni monitorga qarating. Suratda nechta ayiqchani ko'ryapsiz?

*(Monitorda bitta ayiqcha rasmi ko'rsatiladi).*

**Bolalar:** – Bitta.

**Tarbiyachi:** – Endi-chi?

**Bolalar:** – Uchta.

**Tarbiyachi:** – Ayiqchalar soni 3 ta bo'lishi uchun bitta ayiqchaga yana nechta ayiqcha qo'shilgan?

**Bolalar:** – 2 ta.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, ayiqchalar soni 5 ta bo'lishi uchun nima qilishimiz kerak?

**1-bola:** – Yana 2 ta ayiqcha qo'shishimiz kerak.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri, endi monitorga qarang.

*(Monitorda 5 ta ayiqcha rasmi ko'rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, o'rmon erkatoyi Tulkixon mana bu xaltachada 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlarni olib kelibdi. Lekin ularni tartib bilan joylashni bilmayotgan ekan. Biz unga yordam beramizmi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** –Tulkixon, qani, qopchangdagi sonlarni mana bu stolga to'k, bizning bilag'on bolalarimiz senga bajonidil yordam beradi.

*(Bolalar magnitli sonlarni doskaga yopishtirishadi).*



**Tarbiyachi:** – Ofarin, endi mana bu savat ichidan 5 ta shirin kulcha va 5 ta somsani olib, Tulkixonga sovg'a qilamiz, toki u o'rmonga ketguncha qornini to'ydirib olsin.

*(Bolalar yeguliklar sonini sanab, Tulkixonga beradi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi aytingchi, sizning qo'shnilaringiz bormi? Ular sizga yordam beradimi?

**2-bola:** – Mening qo'shnim Olim, u men bilan do'st.

**3-bola:** – Bizning qo'shnimiz Feruza, u menga o'yinchoqlarini berib turadi.

**Tarbiyachi:** – Judayam yaxshi, sizlarning qo'shningiz bo'lganidek, sonlarning ham har birining o'z qo'shnisi bor. Qani aytingchi, 1 sonining qo'shnichi qaysi son?

**4-bola:** – 1 sonining qo'shnisi 2.

**Tarbiyachi:** – Endi aytingchi, tana a'zolarimizning qaysilari 2 ta?

**5-bola:** – Qosh, ko'z, quloq, qo'l, oyoq.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, 2 sonining qo'shnilarini topamiz.

**6-bola:** – 2 soni 1 va 3 sonlari bilan qo'shni.

**Tarbiyachi:** – 3 sonining qo'shnilarini aytingchi.

**7-bola:** – 2 va 4 uch sonining qo'shnilaridir.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi 5 sonining qo'shnilarini aytamiz.

**8-bola:** – 4 soni 5 ning qo'shnisi.

*(Javoblarni bolalarga monitordagi suratlarga qarab aytadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlarga bir topishmoq aytaman:

Bir maydonda besh polvon,

Bir-biriga esh polvon.

Bo'lar ular birlashsa,

Tog'ni yanchar pahlavon.

Xo'sh, bu nima?

**Bolalar:** – Qo'l va beshta barmog'imiz.

**Tarbiyachi:** – Ofarin, Endi birma-bir barmoqlarimizni sanaymiz.

*(Sanoq amaliyoti o'tkaziladi).*

**Tarbiyachi:** – Endi stollarimizga joylashib, har birimiz sanoq cho'plar-ni olamiz. *(Har bir bolaga beshtadan sanoq cho'p qo'yiladi).* Ulardan uchburchak va to'rtburchak shakllarini yasaymiz.

*(Jarayonda tarbiyachi bolalarga to'rtburchak uchun nechta sanoq*



*cho'p ketishini va uchburchak uchun qancha ketishini so'rab, bolalar bilimlarini mustahkamlaydi va rag'batlantiriladi).*

Dam olish daqiqasi:

Bir, ikki, uch,  
Samolarga uch.  
Bir, ikki, uch,  
Bulutlarni quch.

O'rganganlarni mustahkamlash uchun "Sonini top" o'yini:

*(Har bir bolaga rasmi kartochkalar jamlanmasi beriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qo'lingizdagi kartochkalardagi mevalar sonini toping va uni o'z soni qarshisiga qo'ying.

*(Topshiriqdan so'ng yana bir bor magnitli raqamlar yordamida sanash amaliyoti o'tkaziladi).*

## O'NG VA CHAP. DARVOZA QURAMIZ

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda o'ng va chap, mo'ljal olish ko'nikmalarini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning o'ng va chapda joylashuvini farqlaydi, fazoda mo'ljal olishni o'rganadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda diqqat va mehnatsevarlik qobiliyati rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** Daraxt maketi, turli xil o'yinchoq mashinalar, uy maketlari, garaj, kartochkalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hammamiz yonimizdagi do'stimizga qarab jilmayamiz va o'ng tomonimizdagi do'stimizga olma mulyajini beramiz.

*(Bolalar o'ng tomondagi o'rtoqlariga mevani birma-bir berishadi va bitta olma butun guruh bo'ylab aylanib chiqadi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi chap tomonimizdagi o'rtog'imizga nok mulyajini beramiz.



*(Bolalar chap tomondagi do‘stiga nok mulyajini birma-bir beradi).*

**Tarbiyachi:** – Demak bolalar, biz turgan joydan bu tomonda joylashganlari o‘ng tomonimiz bo‘ladi, bu tarafimizda joylashganlari chap tomonimizda bo‘ladi. Endi o‘ng va chap qo‘limizni bir-biriga urib, chapak chalamiz va bir-birimizni olqishlaymiz. Qarsak chalganda nimalarni his qildik?

**Bolalar:** – Kayfiyatimiz ko‘tarildi, xursand bo‘ldik.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu daraxt maketiga qarang. Nimalarni ko‘ryapsiz?

**1-bola:** – Bargsiz daraxtni.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir biz bu daraxtni barglar yordamida bezatamiz. Endi aytingchi, daraxtning o‘ng tomonida nima, chap tomonida nima bor?

**2-bola:** – Daraxtning o‘ng tomonida darvoza, chap tomonida mashina bor.

**Tarbiyachi:** – Mana bu 5 gacha bo‘lgan sonlar yozilgan barglarni daraxtning o‘ng tomonidagi shoxlariga, rangli barglarni esa chap tomonidagi shoxlariga yopishtiramiz.

*(Bolalar amaliy ish jarayonida daraxtning o‘ng va chap tomonini farqlashni o‘rganadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi bir qiziqarli o‘yin o‘ynaymiz. Men gaplarni o‘qiyman. Sizlar agarda to‘g‘ri bo‘lsa, o‘ng oyog‘ingizni, noto‘g‘ri bo‘lsa, chap oyog‘ingizni do‘ppillatasiz.

Olma to‘rtburchak shaklida (chap oyoq)

Chumchuq vovullaydi (chap oyoq)

Doira dumaloq shaklda (o‘ng oyoq)

Uchburchakning to‘rtta buragi bor (chap oyoq)

3 sonidan keyin 4 soni keladi (o‘ng oyoq)

**Tarbiyachi:** – Rahmat, juda faol qatnashdingiz, endi yana bir qiziqarli topshiriq bor. Unga ko‘ra, qiz bolalar mana bu stoldagi qizil lentalarni o‘ng qo‘liga taqadi, o‘g‘il bolalar esa ko‘k rangli lentalarni chap qo‘liga taqishadi.

*(Bolalar amaliy ish jarayonida o‘ng va chapni farqlaydi, bolalarga tarbiyachi yordam beradi).*



## 5 ICHIDA TAQQOSLAYMIZ. SHAHAR KO'CHALARIDAGI UYLAR

### **Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlar haqidagi tasavvurini mustahkamlash, shu sonlarni o'zaro qiyoslash;

**Rivojlantiruvchi:** ikki guruhdagi buyumlar soniga qarab, ularning miqdorini aniqlaydi va taqqoslaydi, kam-ko'pligini, katta-kichikligini topadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda diqqat va hamdardlik hissi rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** Do'kon maketi, sabzi mulyajlari, tarqatma kartochkalar, koptok, AKT.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Hozir men sizlarga bir she'r aytaman.

Tashlab ketdi egasi,

Yomg'irda qoldi quyon.

Tusha olmay kursidan,

Jiq-jiq ho'l bo'ldi quyon.

Xo'sh, she'rimiz qahramoni kim ekan?

**Bolalar:** – Quyon.

**Tarbiyachi:** – Topdingiz, bolajonlar, guruhimizga Quyonvoy mehmonga kelibdi. Xush kelibsiz Quyonvoy.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mehmonimizning quloqlari nechta ekan?

**1-bola:** – 2 ta.

**Tarbiyachi:** – Ko'zlarichi?

**2-bola:** – 2 ta.

**Tarbiyachi:** – Demak, Quyonvoyning ko'zlari va oyoqlari soni teng ekan. Men sizlarga aytsam, Quyonvoy sanashni bilmas ekan. Unga yordam beramizmi?

**Bolalar:** – Ha.

*(1 dan 5 gacha bo'lgan sonlar ichida sanash amaliyoti takrorlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar ekranga qarang. U yerda nimani ko'rayapsiz?



*(Ko'cha va uning ikki tomonidagi uylar rasmi ko'rsatiladi).*

**Bolalar:** – Uylar rasmini ko'rayapmiz.

**Tarbiyachi:** – Endi aytingchi, o'ng tomondagi uylar nechta ekan? Chap tomondagichi?

**3-bola:** – O'ng tomonda 2 ta uy bor ekan, chap tomonda 3 ta.

**Tarbiyachi:** – Uylar nimasi bilan farqlanarkan?

**4-bola:** – O'ng tomondagi uylar kattaroq va balanroq, chap tomondagi uylar kichikroq va pastroq qurilgan ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qaysi tomonda uylar soni ko'p ekan?

**Bolalar:** – Chap tomondagi uylar soni ko'p ekan.

**Tarbiyachi:** – Judayam yaxshi, endi sizlar bilan "Do'konda" o'yini o'ynaymiz. Hozir hammangizga sonlar yozilgan tarqatma kartochkalar beraman. Sizlar do'kondan kartochkangizdagi songa mos o'yinchoqlarni olishingiz mumkin. Masalan, kartochkangizda 1 yozilgan bo'lsa, 1 ta o'yinchoq olasiz.

*(Amaliy ish bolalarning sonlarga mos o'yinchoqlarni olishi bilan davom etadi, tarbiyachi kuzatadi. Faol qatnashganlar rag'batlantiriladi. Shu payt Quyonvoyning menga ham yordam bering degan ovozi eshitiladi. Bolalar diqqati qahramonga qaratiladi).*

**Quyonvoy:** – Bolalar, qarang, men ikki qo'limdagi sabzilar sonini bilolmayapman.

*(Bolalar Quyonvoyning o'ng qo'lida 2 ta, chap qo'lida 3 ta sabzi borligini aytishadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi aytingchi, Quyonvoyning qaysi qo'lidagi sabzilar ko'p?

**4-bola:** – Chap qo'lidagi sabzilar ko'p.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, Quyonvoy sizdan juda mamnun bo'ldi, endi mana bu savatdagi aralashib ketgan koptoklarni katta-kichikligiga qarab ajratamiz. Katta koptoklarni o'ng tomonga, kichiklarini chap tomonga ajrating.

*(Bolalar koptoklarni ajratib, ikkala tomondagilari sonini tenglashtiradi).*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, endi mana bu sanoq cho'plarning qizil ranglisidan 5 ta, yashil ranglisidan 5 ta sanab oling. Ularni stol ustiga qo'ying. Endi aytingchi, qaysi rangdagi sanoq cho'plarning soni ko'p?



**5-bola:** – Ikkala tomondagi sanoq cho‘plar soni bir xil.

**Tarbiyachi:** – Rahmat, bolajonlar, bugun mashg‘ulotda judayam faol ishtirok etdingiz!

### ENI VA BO‘YIGA KO‘RA QIYOSLAYMIZ

**Ta’limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilar eni va bo‘yiga ko‘ra predmetlarni solishtirishni o‘rganadi;

**Rivojlantiruvchi:** kattadan kichikka, kichikdan kattaga qarab predmetlarni tartiblay oladi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda diqqat va mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** Qo‘g‘irchoq, qo‘g‘irchoq uchun ko‘ylaklar, uzun va kalta lentalar, tarqatma kartochkalar, AKT.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, monitorga qarang va u yerdagi uychalarni eslab qolishga harakat qiling.

1. Katta uycha, qizil.
2. O‘rtacha kattalikdagi uy, sariq.
3. Kichik uy, ko‘k.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana bu hayvonlarga qarang va ularga qaysi uycha mos kelishni ayting.

(Monitorda ayiq, tulki va mushuk surati ko‘rsatiladi).

**1-bola:** – Katta qizil uychani ayiq polvonga berish kerak.

**Tarbiyachi:** – Nima uchun?

**2-bola:** – Chunki u keng va katta.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, sariq uycha nimaga mos?

**3-bola:** – Sariq uycha tulkiga mos.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri, eng kichik uychaga kim sig‘adi?

**4-bola:** – Mushukcha.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi menga sizlarning yordamingiz kerak. Guruhimizga kelgan tikuvchi opa mana bu qutichada kesilgan mato



bo'laklarini olib kelibdi. Ularni katta-kichikligiga qarab, taxlab bersangiz, ularni birlashtirib, Buratino uchun kiyim tikarkan.

(Bolalar mato bo'laklarini eni va bo'yining o'lchamiga qarab, tartib bilan taxlaydi).

Dam olish daqiqasi:

Men chumoliman...

Men ayiqman...

Men filman...

Men olmaxonman...

Men bo'riman...

Men quyonchaman...

*(Bolalar tarbiyachi aytgan hayvonlarga mos holatda quchog'ini ochadi yoki kichikligini bildiradi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, dam oldingizmi, kayfiyatingiz ko'tarildimi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Endi xonani yaxshilab kuzatamiz va buyumlarni solishtiramiz:

Kitob javoni kengmi yoki kiyim shkafi?

Yo'lak kengmi, xona kengmi?

Deraza kengmi, eshik kengmi?

Gilam kengmi, stol kengmi?

Televizor kengmi, kompyuter kengmi?

*(Bolalar savollarga javob berish jarayonida tarbiyachi tomonidan tushunchalar mustahkamlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Rahmat bolajonlar, endi mana bu rangli qog'ozlardan keng va tor lentalar kesib, oq qog'ozga yelimlaymiz.

## **DOIRA, KVADRAT, UCHBURCHAKLARNI PAZLDAN YIG'ISH**

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda doira, kvadrat, uchburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do'stlik, o'zaro hamjihatlik tuyg'ulari rivojlanadi.



di, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, pazllar, doira, kvadrat, uchburchak shakllari, kartochkalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Aziz bolajonlarim, monitorga qaraymiz. Nimani ko'rayapsiz?

**1-bola:** – Doira, uchburchak, to'rtburchak.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi shu shakllarga misollar aytamiz.

**2-bola:** – Doira ko'ptokka o'xshaydi.

**3-bola:** – Archa uchburchakka o'xshaydi.

**4-bola:** – Kitob to'rtburchakka o'xshaydi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla bolajonlar, endi sizlarga shu shakllar haqida ertak aytib beraman.

Bir kuni shakllar mamlakatida uchburchak, to'rtburchak va doira o'zaro bahslashib qolibdi. Uchburchak “men hammadan zo'rman”, debdi. To'rtburchak esa:

– Eng zo'ri, men-ku! – debdi.

Shunda doira bir chetda indamasdangina, jilmayib qo'yibdi. Shu payt bu mamalakatda adashib qolgan qizcha kelib, shakllardan uyini topishda yordam so'rabdi. Uchala shakl ham u yoq, bu yoqqa qarashibdi-yu, lekin qizchaga yordam bera olmabdi. Shunda shakllar o'zaro maslahatlashib, bir butun mashina bo'lishga kelishibdi. Doira g'ildirak vazifasini o'tabdi, to'rtburchak mashinaning asosiy qismi, uchburchak esa rul aylanasiga ustun bo'libdi. Qizchani shu holatda bir zumda uyiga eltib qo'yishibdi. Shu-shu bu shakllar bir-biri bilan ahil-inoq yashasharkan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, diqqat qiling, mana bu qopchalarni sichqoncha don yemoqchi bo'lib, teshib tashlabdi. Teshikchalar har xil shaklda ekan, hozir sizlarning qo'lingizga turli shakllarni beraman va ulardan qaysi biri mos kelsa, o'sha shaklni qopcha teshigiga yopishtirasiz. Kim qaysi shaklni ishlatganini aytib beradi.

*(Bolalar amaliy ish davomida geometrik shakllarni yopishtiradi, tarbiyachi bolalarni yo'naltiradi).*

Dam olish daqiqasi:

Tarvuzim bor urug'siz,



Pichoq bilan kesilmas.  
Kesganingda ham uni,  
Maza qilib yeb bo'lmas.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar topishmoqning javobini topingchi.

**5-bola:** – Bu ko'ptok.

**Tarbiyachi:** – Juda to'g'ri, endi juft bo'lib saflanamiz va mana bu ko'ptoklarni bir-birimizga otamiz. Har birimiz ko'ptokni otganda bitta geometrik shakl nomini aytamiz.

O'rganganlarni mustahkamlash uchun mashq:

**Tarbiyachi:** – Barakalla bolajonlar, men hozir doskaga geometrik shakllarni yopishtiraman. Sizlar qatorda qaysi shakl tushib qolganini topishingiz kerak.

### **PREDMETLARNING QALIN-YUPQALIGINI QIYOSLASH**

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda predmetlarning hajmi haqidagi bilimlarni mustahkamlash, qalin va yupqani farqlashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning hajmiga qarab ajratadi, diqqati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda kuzatuvchanlik, o'zaro yordam berish tuyg'ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlash doirasi kengayadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, qalin va yupqa buterbrod mul-yaji.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qo'limdagi ko'ptokni men sizlarga otib, so'z aytaman, sizlar esa uning teskarisini aytasiz:

Katta – kichik

Baland – past

Uzun – qisqa

Qalin – yupqa



*(jarayonda tarbiyachi bolalarga soʻzlarni topishda yordam beradi).*

**Tarbiyachi:** – Endi sizlarga qalin va yupqa haqida tushuncha beraman. Buning uchun monitorga qarang.

*(AKT vositasida qalin kitob va yupqa kitob koʻrsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Qalin kitob nimaning hisobiga bunday koʻrinish olgan?

**1-bola:** – Varaqlari koʻp, yupqa kitobning esa varaqlari kam.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, mana bu daftarlarni solishtiringchi.

**2-bola:** – Koʻk daftar qalin ekan, qizili esa yupqa.

**Tarbiyachi:** – Toʻgʻri, hozir men sizlarga soʻzlarni aytaman, sizlar ularning davomini aytasiz.

Boʻgʻirsoq ... (dumaloq)

Sanoq choʻp ... (ingichka)

Daftar ... (yupqa)

Kitob ... (qalin)

**Tarbiyachi:** – Endi ikki guruhga ajralamiz va birinchi guruh tanasi qalin daraxt rasmini chizadi, ikkinchi guruh tanasi yupqa daraxt rasmini chizadi.

*(Amaliy ish bajarilayotganda tarbiyachi bolalar uchun namuna taklif etadi).*

Dam olish daqiqasi:

Bir-birimizning qoʻlimizni ushlab doira shaklini hosil qilamiz. Koʻzlarimizni yumgan holda katta sharni chuqur nafas olgan holda puflaymiz. Bu mashq besh-olti marta takrorlanadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ancha tetiklashdikmi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Unday boʻlsa, endi qoʻlimdagi qalin va yupqa buterbrod mulyajlariga qarang. Qaysi biri yupqa? Qaysi biri qalin?

**3-bola:** – Oʻng qoʻlingizdagi qalin, chap qoʻlingizdagi yupqa.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu sharflarga qarang, qaysi biri yupqa, qaysi biri qalin?

**2-bola:** – Qizil sharf qalin, yashil sharf yupqa.

**Tarbiyachi:** – Juda bilagʻon bolalar ekansizlar, endi men soʻzlar aytaman, siz ularning qaysi biri qalinligini aytasiz:

Palto qalinmi yoki koʻylak?

Koʻylak qalinmi yoki jemfer?



*(Bolalarning shu kabi savollar yordamida o'rganganlari mustahkamlanadi).*

## **DOIRA, KVADRAT, UCHBURCHAK. QOG'OZDAN KOROBKA YASAYMIZ**

### **Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda doira, kvadrat, uchburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash, bu shakllarni atrofdan topishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati, kuzatuvchanligi rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasi rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, doira, kvadrat, uchburchak shakllari, koptok, kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Mening qiziquvchan bolalarim, hozir sizlar bilan bir o'yin o'ynaymiz. Men uy-ro'zg'orda ishlatiladigan, hammamiz biladigan buyumlar ta'rifini aytaman. Sizlar esa, o'sha buyumning nima ekanligini topishingiz kerak. Tayyormisiz?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Bu o'yinchoq hamma bolalarda, shuningdek bog'chamizda ham bor. U dumaloq shaklda va turli ranglarda bo'lishi mumkin. O'g'il bolalar u bilan futbol o'ynaydilar. Bu nima?

**1-bola:** – Bu koptok.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri topdingiz, koptokning burchagi bormi?

**2-bola:** – Koptokning burchagi yo'q, shuning uchun ham u bema'lol dumalaydi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi 2-savolga o'taman. Bu buyum to'rtburchak shaklda, taxtadan yasalgan bo'ladi. Uning ustiga dasturxon yozamiz, yeguliklarni qo'yamiz, aka va opalarimiz daftar-kitoblarini qo'yib dars qilishi mumkin. Odatda, bu buyumning atrofiga ko'rpachalar solib qo'yamiz. Bu nima?

**3-bola:** – Bu xontaxta.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, xontaxtaning nechta burchagi bor?



**4-bola:** – Xontaxtaning 4 ta burchagi bor.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, oxirgi savolimga o‘taman. U uchburchak shaklida, uylarning, binolarning tepa qismi hisoblanadi. Xo‘sh, bu nima?

**5-bola:** – Bu uchburchak tom.

**Tarbiyachi:** – Uchburchakka yana nimalarni misol keltirishimiz mumkin?

**6-bola:** – Archa, kiyim ilgich, yana somsani ham uchburchak qilib tugish mumkin.

**Tarbiyachi:** – Rahmat, sizlar bu uchta shaklni bir-biridan ajrata oldingiz, endi uch guruhga bo‘linamiz va mana bu uchta savatchadan 1-guruh doiralarni, 2-guruh to‘rtburchaklarni, 3-guruh uchburchaklarni ajratib olib, stolimizga qo‘yamiz va sonini sanaymiz.

*(Har bir shakl beshtadan qo‘yiladi).*

**Tarbiyachi:** – Hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz:

Quyunchadek sakraymiz,

Tepada qo‘llarimiz.

Do‘p-do‘p qadam bosamiz,

Quyoshjonga yetamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar endigi topshiriqni bajarish uchun ikki guruhga bo‘linamiz va stoldagi rangli shakllarning juftini topib, oq qog‘ozga yelimlaymiz.

*(Amaliy ish jarayonida bolalar har bir shaklning o‘z juftini topadi va mashq oxirida shakllar sonini sanaydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kundalik hayotimizda karton qog‘ozidan yasaladigan qutichalarni ko‘p ko‘rgansiz. Xo‘sh, ularga nimalar solinadi?

**7-bola:** – Shirinliklar, o‘yinchoqlar, sovg‘alar.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri, men sizlarga hozir kvadrat shaklida kesilgan kartonlardan korobka yasashni ko‘rsataman.

*(Jarayon birgalikda amalga oshiriladi).*



## 6 SONI. KUBIKLAR YORDAMIDA 6 ICHIDA AMALIY ISH

### **Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda son-sanoq haqidagi bilimlarni mustahkamlash, 6 ichida sonlar bilan mashqlarni bajara olish ko'nikmasini rivojlantirish, geometrik shakllarni farqlashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** diqqati rivojlanadi, sonlarni tartiblay oladi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda kuzatuvchanlik, o'zaro yordam berish tuyg'ulari rivojlanadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, 6 gacha magnitli sonlar, mevalar mulyaji.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar biz shu kungacha nechchigacha sanashni bilardik?

**Bolalar:** – Beshgacha sanashni bilamiz: 1, 2, 3, 4, 5.

**Tarbiyachi:** – Men sizlarga hozir Erkin Vohidovning “Ukamning jangi” nomli she'rini o'qib bermoqchiman:

Ukam minib “saman ot”ini  
“Qilich” ushlab chiqibdi jangga.

Beshta dushman samolyotini,  
Yiqitdim deb maqtandi menga.

Avvaliga kuldim rosa ham,  
Hazildir deb ukam so'zlari.

So'ng hovliga chiqib qarasam,  
Yotar edi besh o'lik ari.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, she'rda nimalar 5 ta tasvirlangan ekan.

**1-bola:** – 5 ta samolyot va 5 ta ari.

**Tarbiyachi:** – Hozir beshgacha bo'lgan sonlarning qo'shnilarini eslab, aytib bering.

**2-bola:** – 1 ning qo'shnisi 2, 2 ning qo'shnisi 3, 3 ning qo'shnisi 4, 4 ning qo'shnisi 5.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi monitorga qarang va anorlar sonini sanang (6 ta anor rasmi ko'rsatiladi). Qo'lingizdagi sonlar jamlanmasida



raqamlar aralashib ketgan. Sizlar ularni tartib bilan joylang.

*(Bolalar ishi kuzatiladi).*

Endi hozir men sizlarga kartochkalarni ko'rsatib, savol beraman. Siz esa qo'lingizdagi raqamlardan foydalanib, shu sonlarni ko'rsatasiz.

Svetoforming chiroqlari nechta? (3 raqami ko'rsatiladi)

Ko'zlarimiz nechta? (2 raqami ko'rsatiladi)

Burnimiz nechta? (1 raqami ko'rsatiladi)

Mashinaning g'ildiragi nechta? (4 raqami ko'rsatiladi)

Qo'l barmoqlarimiz nechta? (5 raqami ko'rsatiladi)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, 5 gacha bo'lgan barcha sonlarni eslab qolib-siz, endi 6 raqamini bilish uchun shu sonlar qatnashgan misollarni monitor yordamida ko'rib chiqamiz.

*(6 ta tort rasmi ko'rsatiladi. Keyingi rasmda 5 ta, undan keyingisida 4 ta... shu tariqa davom ettiriladi. Navbatdagi slaydda aralash suratlar ko'rsatiladi va tarbiyachi ular ichidan 6 ta predmet tasvirlangan suratni topishni so'raydi).*

**Tarbiyachi:** – Hozir sizlarga kartochkalar tarqataman, unda har xil predmetlar va sonlar yozilgan. Qaysi son qaysi predmetga mos kelsa, qalam yordamida birlashtirasiz.

*(Amaliy ish tarbiyachi nazoratida olib boriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar guruhimizga qo'g'irchoq Lolaxon kelib, sizlarni kuzatib turibdi. Lolaxon xush kelibsiz? Nimaga kayfiyatingiz yo'q?

Lolaxon: – Oyim uyga mehmon kelishini aytdilar. Menga 6 ta mehmonning har biriga bir donadan sanab olma, anor, nok, limon olib kelishimni tayinladilar. Men esa 6 ta meva qancha bo'lishini bilmayapman. Bu yerdagi bolalar juda bilag'on ekan, menga yordam berisharmikan?

**Tarbiyachi:** – Albatta, senga yordam beramiz. Qani bolajonlar, mana bu meva to'la savatdan 6 tadan olma, anor, nok, limonlarni ajratib, Lola-xonga beringchi.

*(Bolalar mevalarni donalab sanaydi).*

**Tarbiyachi:** – Endi hammamiz doira bo'lib o'tirib olamiz va doskaga qaraymiz. Men 6 gacha magnitli sonlarni turli joylarga yopishtiraman, sizlar esa qaysi son yetishmayotganini topasiz.

*(Jarayonda tarbiyachi 2 va 4 sonlarini tushirib qoldiradi. Bolalar yo'q sonlarni topgach, sonlarni joyiga qo'yadi).*



**BIR XIL, QALIN, YUPQA.**  
**QIYOSLASH YORDAMIDA BUYUMLARNI TURIGA AJRATISH**

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda bir xil, qalin, yupqa haqidagi bilimlarni mustahkamlash, bu shakllarni atrofdan topishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, chamalaydi, diqqati, kuzatuvchanligi rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda o'zaro hamjihatlik tuyg'ularini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, qog'oz va kartonlar, ro'molcha bilan sochiq, qo'g'irchoq uchun kiyimlar, kartochkalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, tikuvchi opamiz qo'g'irchoqlar uchun bir nechta kiyimlar tikib berdilar. Kelinglar, ularni hozir qalin va yupqaligiga qarab ajratib olamiz va guruhdagi qo'g'irchoqlarga kiydiramiz.

*(Bolalar qalin va yupqa kiyimlarni ikki guruhga ajratadi).*

**Tarbiyachi:** – Qaysi kiyimlar yupqa ekan?

**1-bola:** – Yozgi ko'ylak, ro'mol, yubka, kofta yupqa ekan.

**2-bola:** – Kurtka, bosh kiyim, shim, jemfer qalin ekan.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi mana shu kiyim-boshlarni birma-bir sanaymiz.

*(Amaliy ishda bolalarning sanash malakalari mustahkamlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar kiyimlar haqida she'r bilamizmi?

**Bola:** – Ixchamgina paltocha,  
Sovuqdan asrar meni.

Mo'ynasi bor momiqdan,

Sog'-omon asrar meni.

Yoz kelganda avaylab,

Oyim olib qo'yadi.

Bo'yim o'sib ketsa gar,

Ukam olib kiyadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi qo'limdagi sochiqqa va yerdagi gilamga



qarang. Ularning qay biri qalin, qay biri yupqa?

**Bolalar:** – Gilam qalin, sochiq yupqa.

**Tarbiyachi:** – Qo‘limdagi qog‘ozga va kartonga qarang. Qaysi biri qalin?

**Bolalar:** – Karton qalin.

**Tarbiyachi:** – Endi aytingchi, karton qalinmi yoki taxta bo‘lagi?

**Bolalar:** – Taxta kartondan qalin.

**Tarbiyachi:** – Endi mana bu ikki xil rangdagi kubikchalarga qarang. Qaysi biri yupqa?

**Bolalar:** – Qizil rangdagi kubik qalin, yashil rangdagi kubik yupqa.

**Tarbiyachi:** – Barakalla bilag‘onlar, endi monitorga qarang va qalin-yupqa predmetlarning nomini va sonini ayting.

**3-bola:** – 4 ta g‘isht.

**4-bola:** – 3 ta daftar.

**4-bola:** – 5 ta sovun.

**Tarbiyachi:** – Judayam to‘g‘ri, endi guruhdagi buyumlarni qalin, yupqaligiga qarab o‘zaro solishtiramiz.

**Bolalar:** – Shkaf javondan qalinroq.

**Bolalar:** – Sochiq pardadan qalinroq.

**Bolalar:** – Devor eshikdan qalinroq.

**Bolalar:** – Eshik oynadan qalinroq.



## AJOYIB XALTACHA YORDAMIDA KUN VA TUN TUSHUNCHALARINI TO'G'RI QO'LLASHGA O'RGATISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda kun va tun tushunchalarini paydo qilish, ularda vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlashga o'rgatish, mo'ljal olish, chamalash ko'nikmalarini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'zaro hamjihat bo'lishga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kun va tun haqida suratlar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizni bitta hikoya bilan boshlamoqchiman. Ushbu hikoyaning muallifi Raim Farhodiy.

“Ahmad tongda uyg'ondi-yu, yugurib hovliga chiqdi. Qarasa, baroq mushugi unga qarab kelyapti. Boshini egib oyoqlari ostida erkalana boshladi:

– Miyov-miyov!

Ahmad hayron bo'lib turdi-da, yo'lida davom etdi. Shunda tong shamoli g'uvillab, unga ergashdi. Daraxt yaproqlarini shitirlatib, kuylay boshladi:

– G'uv-g'uv...

Qayerdandir bir chumchuqcha uchib kelib, daraxt shoxiga qo'ndi. So'ngra Ahmadga qarab sayray boshladi:

– Chiriq-chiriq-chiriq...

Ahmad qushchaning qo'shig'ini berilib tangladi-da, yana yo'lga tushdi. Qarangki, qadrdon kuchugi – Qoplon inidan chiqib qoldi. U ham to'ppa-to'g'ri Ahmadning oldiga chopib keldi. Dumini likillatib, vovulladi:

– Vov-vov-vov!

Ahmad hovuz bo'yiga keldi. Suvda g'oz va o'rdaklar suzib yurishardi. Ular qirg'oqqa yaqinroq kelib, ovoz chiqarishdi:

– G'oq-g'oq-g'oq!

– G'a-g'a-g'a!

Shu payt qo'shni uyning eshigi ochilib, Nigora ko'rindi. U jilmayib:



– Salom, Ahmad! – dedi.

– Salom, Nigora! – javob berdi Ahmad ham.

Shundagina u yo‘lda uchratgan do‘stlari – mushuk, shamol, Qoplon, g‘oz va o‘rdaklarning unga nima deyishganini tushunib oldi”.

Bolalar, erta tongda aytiladigan bu so‘zning qanday so‘z ekanligini bilasiz-a?

**Bolalar:** – Bu salom.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, tongda yana qanday ishlar bajaramiz?

**1-bola:** – Tongda yuzimiz va tishlarimizni yuvamiz, nonushta qilamiz va bog‘chaga kelamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolalar kunduzi bizga nimalar ko‘rinadi?

**2-bola:** – Kunduz kuni bizga uydagi va bog‘chadagi hamma narsalar ko‘rinadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu sehrli xaltachada suratlar bor. Men bu suratlarni sizga ko‘rsataman va sizlar bu suratda nimalar tasvirlanganini aytib beringlar. Bu tasvirlar kunga tegishlimi yoki tungaligini topasizlar.

**1-bola:** – Rasmda oqshom va oy suratlari tasvirlangan. Bu tunga tegishli.

**2-bola:** – Ikkinchi rasmda quyosh chiqib turibdi. Bu kunduzi.

**3-bola:** – Uchinchi rasmda oila a‘zolari ovqat yeyishyapti. Derazadan oy ko‘rinib turibdi, demak, bu tun.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlarga gaplar o‘qiyman, sizlar rost bo‘lsa qarsak chalasizlar, noto‘g‘ri bo‘lsa, yerga urasizlar.

Tongda oymoma chiqadi.

Tunda quyosh bo‘ladi.

Kunduzi ovqat yeymiz.

Tunda uxlaymiz.



## XONA BUYUMLARI ASOSIDA OLDINGA-ORQAGA, O'NGGA-CHAPGA TUSHUNCHALARINI MUSTAHKAMLASH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** xonadagi buyumlar asosida oldinga-orqaga, o'ngga-chapga tushunchalarini mustahkamlash, bolalarni makonda mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** mebellar yordamida masofani farqlashga o'rgatish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mehnat-sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, poyezd maketi, xatjild, kartochkalar, geometrik shakllar.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, men xonaning qayerida turibmiz.

**Bolalar:** – Xonaning o'rtasida.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi kuzating, mana bir qadam orqaga yurdim. Endi bir qadam oldinga yurdim, endi bir qadam o'ng yonga, endi bir qadam chap tomonga. Hozir hammamiz o'rnimizdan turib, mana shu harakatlarni takrorlaymiz.

*(Amaliy harakatlar takrorlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Ekranga qaraymiz va unda qaysi ertak qahramonlari ko'rsatilayotganini aytamiz.

**Bolalar:** – Bobosholg'om.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi aytingchi, qaysi qahramon kimning orqasida turibdi.

**1-bola:** – Boboning orqasida kampir, kampirning orqasida nevara, nevaraning orqasida kuchuk, kuchukning orqasida mushuk, mushukning orqasida sichqon turibdi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi keyingi slaydga qarang, qatorda qaysi qahramonlar yo'qolib qolibdi.

*(Slaydda kampir va sichqon yo'qolib qolgani ko'rsatiladi).*

**2-bola:** – Qatorda kampir va sichqon yo'qolib qolibdi.



**Tarbiyachi:** – Kampir va sichqonning o‘rni qayerda edi?

**3-bola:** – Kampir cholning orqasida, nevaraning oldida edi.

**4-bola:** – Sichqon mushukning orqasida edi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, to‘g‘ri, endi jami qahramonlar sonini sanaymiz.

**Bolalar:** – Qahramonlar soni oltita.

**Tarbiyachi:** – Rahmat, endi dam olish daqiqasi o‘tkazamiz.

Bir – qo‘llarimiz oldinga,

Ikki – qo‘llarimiz tepaga,

Uch – qo‘llarimiz yonga,

To‘rt – qo‘llarimiz pastga.

*(Harakatlar 3-4 marta takrorlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi mana bu shkafga qarang, shkaf eshikning oldidami, yonidami?

**2-bola:** – Shkaf eshikning yonida.

**Tarbiyachi:** – Barakalla. Endi mana bu poyezdga qarang. Kelinglar, eslab qolishga harakat qiling, birinchi vagonida Alisher, 2-vagonida Sevara, 3-vagonida Nodir, 4-vagonida Vasila ketayotgan bo‘lsin.

*(Poyezd vagonlari ustiga o‘g‘il va qizlar rasmi qo‘yiladi).*

Endi aytingchi, Sevara qaysi vagonning orqasida ketayapti?

**3-bola:** – Sevara Alisherning orqasida ketayapti.

**4-bola:** – Nodir Sevaraning orqasida ketayapti.

**5-bola:** – Vasila Nodirning orqasida ketayapti.

**Tarbiyachi:** – Juda to‘g‘ri, aytingchi. kim kimning oldida ketayapti?

**6-bola:** – Alisher Sevaraning oldida ketayapti.

**7-bola:** – Sevara Nodirning oldida ketayapti.

**8-bola:** – Nodir Vasilaning oldida ketayapti.

**Tarbiyachi:** – Rahmat, bolajonlarim, bugungi mashg‘ulotda juda faol ishtirok etdingiz!



## QO'G'IRCHOQ LOLAXON ISHTIROKIDA VAQT HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** bolalarning vaqt haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularda ertalab, kunduzi va kechqurun haqida tushuncha paydo qilish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularda topqirlikni rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma kartochkalar, qo'g'irchoq.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun guruhimizga qo'g'irchoq Lolaxon ke-libdilar. Lolaxonga nima deymiz?

**Bolalar:** – Assalomu alaykum.

**Tarbiyachi:** – Lolaxon nimaga xomush ko'rinyapsan?

**Lolaxon:** – Menga dadam kun, tun va kunduzi haqida gapirib bergan-dilar. Men esa ularni eslab qololmadim. Dadam kechqurun kelganimda o'rgatganlarimni to'g'ri aytib bersang sendan xursand bo'laman degandi-lar. Endi nima bo'ladi? Bolalar menga yordam bera olarmikan?

**Tarbiyachi:** – Albatta, yordam berishadi. Qani Lolaxon, sen ham bo-lajonlarimiz davrasiga qo'shilib o'tir va biz senga bilganlarimizni o'rga-tamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, monitorga qaranglar-chi, u yerda nima tasvir-lanibdi?

**Bolalar:** – Quyosh tongda osmonda ko'rinayapti.

**Tarbiyachi:** – Tongda nima qilamiz? Mana bu rasmlar ichidan aynan tongga mos suratlarini toping va uni izohlab bering.

**1-bola:** – Biz ertalab tishlarimizni yuvamiz

**2-bola:** – Biz tongda nonushta qilamiz. Oyilarimiz ko'chani supuradi-lar.

**3-bola:** – Biz ertalab o'rinlarimizni yig'amiz va bog'chaga boramiz. Ota-onamiz ishga ketadilar.

**Tarbiyachi:** – Lolaxon, ertalab yana nima qilishimiz mumkin?



**Lolaxon:** – Biz ertalab badantarbiya bilan shug‘ullanishimiz mumkin.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, yana monitorga qaranglar. Unda nima tasvirlangan ekan?

**4-bola:** – Monitordagi suratda kunduzi ko‘rsatilgan.

**Tarbiyachi:** – Qayerdan bildingiz?

**5-bola:** – Chunki bu yerda dasturxonga ovqat qo‘yilyapti, osmondagi quyoshning nurlari charaqlab chiqib turibdi. Maktabdan qaytib kelgan bola papkasini qo‘yyapti.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kunduzi biz yana nima qilamiz?

**6-bola:** – Tushlik qilamiz, o‘yinlar o‘ynaymiz.

**Tarbiyachi:** – Lolaxon, sen kunduzi haqida yaxshi tushunib oldingmi?

**Lolaxon:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi monitordagi so‘nggi suratga e‘tibor beringlar. Unda nimalar tasvirlangan?

**7-bola:** – So‘nggi suratda kechqurun tasvirlangan.

**Tarbiyachi:** – Buni qayerdan bildingiz?

**8-bola:** – Suratda oy tasviri bor. Xonada bola krovatda uxlayapti. Ana shundan bilib oldim.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir sizlarga uch xil rangdagi kartochkalar tarqataman. Biri havorang ertalabni bildiradi, ikkinchisi zarg‘aldoq rang kunduzni ifodalaydi, uchinchisi to‘q ko‘k rang kechqurunni bildiradi. Men gaplar aytaman, qaysi biri qaysi vaqtga to‘g‘ri kelsa, ana o‘sha kartochkani ko‘tarasizlar.

Men badantarbiya qilaman (ertalab)

Men tushlik qilaman (kunduzi)

Men uxlayman (tunda)

Men o‘yin o‘ynayman (kunduzi)

Men o‘rnilarimni yig‘ib qo‘yaman (ertalab)

Men nonushta qilaman (ertalab)

**Tarbiyachi:** – Endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Bir, ikki tong otdi, (qo‘llar tepaga)

Quyosh bobo uyg‘otdi. (qo‘llar pastga)

Uch, to‘rt deb peshin bo‘ldi, (chuqur nafas olinadi)

Bir qaragam kun botdi. (nafas chiqarib yuboriladi)



**Tarbiyachi:** – Bolalar, har doim erta turgan kishining kuni barakali fayzli bo'ladi. Shuning uchun ham ta'limiy faoliyatimizni Valentin Berestovning "Erta tongda" nomli she'ri bilan yakunlamoqchiman.

### ERTA TONGDA

Erta tongda,  
Erta tongda,  
Baliq ovi bo'lar soz.  
Erta tongda,  
Erta tongda,  
Bulbul kuylar xushovoz.  
Erta tongda,  
Erta tongda,  
Quyosh yerni oqlaydi.  
Erta tongda,  
Faqatgina  
Dangasalar uxlaydi.

### 10 SONI BILAN TANISHTIRISH

#### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda 10 gacha bo'lgan sonlarni sanash malakalarini mustahkamlash, 10 soni bilan tanishtirish, son-sanoq ko'nikmalarini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** sonlar haqida tushunchalarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, diqqatni, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonli kartochkalar, magnitli sonlar.

#### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, biz nechchigacha sanay olamiz.

*(Bolalar qatordan bir qadam oldinga chiqib sanashadi: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10) .*



**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi doskaga yopishgan songa qarangchi, uning boshqa sonlardan farqi nimada ekan?

**Bolalar:** – 2 ta raqamdan iborat ekan.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa to‘g‘ri, 10 soni ikkita – 1 va 0 raqamlaridan iborat. Endi 1 soni yo‘qolib qoldi, bu yerda nima qoldi?

**Bolalar:** – 0 raqami qoldi.

**Tarbiyachi:** – Endichi? (0 raqamini olib qo‘yadi).

**Bolalar:** – 1 soni qoldi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, 10 sonidagi 1 va 0 raqamlari doimo o‘zaro qo‘l ushlab yuradi. Agarda ular alohida bo‘lib qolsa, 10 soni bo‘lmay qoladi.

*(1 va 0 raqamlari qo‘l ushlab turgan surat monitorda ko‘rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Ana endi monitordagi hayvonlar sonini sanaymiz.

*(Har bir hayvon surati tagiga raqam yozilgan).*

**Tarbiyachi:** – Olqishlaymiz, endi mana bu sirli kitobni ochaylikchi, uning ichida 10 soni haqida nimalar deyilibdi.

*(Kitobdan 10 soni haqidagi ertakni o‘qib beradi).*

“Qadim zamonda 1 soni 0 sonini uyiga mehmonga chaqiribdi.

– Kechirasan, 0, men seni ko‘ngildagidek mehmon qilolmayapman. Chunki men bir o‘zim yashaganim uchun, uyimda bir donagina piyola va bir donagina shirinlik bor, – debdi.

0 esa:

– Afsuski, men ham senikiga quruq qo‘l bilan keldim, – deb xomush tortibdi.

– Topdim, – deb suyunib ketibdi 1. – Kel, bitta tarelkada shirinlik yeymiz va bitta tarelkada choy ichamiz, – deb 0 ning yoniga o‘tiribdi.

Shunda stolda 10 ta piyola, 10 ta tarelkada 10 ta shirinlik paydo bo‘libdi.

– Mo‘jiza, mo‘jiza, – deb suyunibdi 1 va 0. – Biz ikkalamiz birlashsak, 10 sonini tashkil qilamiz, – deb quvonibdi.

Shunda 1 soni yugurib ko‘chaga chiqib, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 sonlarini mehmonga taklif etibdi. Afsuski, sonlar:

– 1, senikiga mehmonga bormaymiz, chunki sening uyingda faqatgina bittagina piyola bilan bittagina shirinlik bor. Borib nima qildik, – deya lab burishibdi.



– Yo‘q, yanglishayapsiz, avval shunaqa edi, endi esa butunlay boshqacha, biz 1 soni va 0 soni birlashdik. Biz endi 10 miz. Uyimizda ham 10 ta piyola va 10 ta shirinlik bor, – debdi.

Raqamlar hammasi ishonqiramay 10 sonining uyiga kiribdi. Qarasaki, haqiqatan ham stolda 10 tadan shirinlik va piyolalar turgan ekan. Shunda barcha sonlar yangi 10 soni tashkil bo‘lganidan xursand bo‘lib ketishibdi, ular yangi 10 sonini safiga qo‘shib, shundan beri quvnoq yashashayotgan ekan”.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar ertak qiziq ekanmi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Endi menga aytingchi, 8 bilan 10 soni o‘rtasida qaysi son bor?

*(Monitorida 8 va 10 sonlari ko‘rsatiladi).*

**Bolalar:** – 9 soni.

**Tarbiyachi:** – Aytingchi, mana bu tarelkalardagi olmalarni qo‘shsak qaysi soni hosil bo‘ladi?

*(Olmalar soni tarbiyachi tomonidan quyidagicha o‘zgartirib ko‘rsatiladi: 4+6, 5+5, 3+7, 2+8, 9+1...).*

**Tarbiyachi:** – Endi esa 10 ta olmadan ayirib ko‘ramiz: 10 ta olmadan 3 tasini olib tashlasak, tarelkada nechta olma qoladi?

*(10-2, 10-1, 10-3, 10-4, 10-5, 10-6, 10-7, 10-8, 10-9... shaklida davom ettiriladi).*



## MITTI QUSHCHA YORDAMIDA VAQT HAQIDA TASAVVUR UYG'OTISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** kecha, bugun, ertaga so'zlarining ma'nosini tushuntirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarning vaqt haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularni chamalashga, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, quyosh va oy suratlari.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizda kecha, bugun, ertaga kabi so'zlarning ma'nosini tushunib olamiz. Undan oldin aytinch-i, sizlar bog'chaga qachon keldingiz?

**Bolalar:** – Biz bog'chaga bugun keldik.

**Tarbiyachi:** – Kecha kim kelgan edi?

**Bolalar:** – Kecha ham hammamiz kelgan edik.

**Tarbiyachi:** – Qani kim biladi, bugungi kun tugab, uyga borasizlar, tunda uxlaysizlar. Keyin tun o'z o'rnini qaysi kunga bo'shatib beradi?

**Bolalar:** – Tun o'z o'rnini ertaga bo'shatib beradi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kecha kim uyida qanday ish qildi? Eslay olasizlarmi?

**1-bola:** – Men kubiklardan uycha qurdim.

**2-bola:** – Men rasmlı kitobchani rangli qalamlarda bo'yadim.

**3-bola:** – Men pazllardan mashina yig'ib qo'ydim.

**4-bola:** – Men buvimga uy yig'ishtirishda yordam berdim.

**5-bola:** – Men oyimga uchburchak somsa tugishlariga yordamlashdim.

**Tarbiyachi:** – Juda soz, qani bugun nima qilasizlar?

**6-bola:** – Bugun biz mehmonga ketamiz.

**7-bola:** – Bugun oyim bilan birga ertak kitob sotib olamiz.

**Tarbiyachi:** – Judayam yaxshi, endi sizlar bilan birga “Teskarisini top” o'yinini o'ynaymiz.

Men bitta so'z aytaman, sizlari uning qarama-qarshi ma'noligini aytishinglar kerak.



Kun – tun.

Ertalab – kechqurun.

Uzun – qisqa.

Baland – past.

Ko‘p– kam.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, monitorga diqqatingizni qarating, unda qushcha tasvirlangan. Qushchani yonida uchta xaltacha turibdi. Bitta xaltachasi bo‘sh, qolgan ikkitasi esa to‘la. Bundan nimani tushunish mumkin?

**Bolalar:** – Qushcha kecha donini yeb bo‘lgan, bittasini bugun yeydi, bittasini erta uchun olib qo‘yadi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, endi aytinglar-chi, qush qachon uyg‘onadi?

**Bolalar:** – Ertalab.

**Tarbiyachi:** – Biz qachon uyquga ketamiz?

**Bolalar:** – Kechqurun.

**Tarbiyachi:** – Yana qachon bog‘chaga kelasizlar?

**Bolalar:** – Ertaga.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri.

## MEBELLAR YORDAMIDA FAZODA MO‘LJAL OLISHGA O‘RGATISH

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** xonadagi buyumlar asosida oldinga-orqaga, o‘ngga-chapga tushunchalarini mustahkamlash, bolalarni fazoda mo‘ljall olishga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** mebellar yordamida masofani farqlashga o‘rgatish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, kuzatuvchanlik tuyg‘ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, geometrik shakllar, mebellar maketi.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlar bilan bir qiziqarli o‘yin o‘ynay-



miz. Buning uchun ikki guruhga bo'linib olamiz. Mana bu tovuqning jo'jachalari har tomonga tarqalib ketibdi. Ular onasini topisha olmayapti. Jo'jachalar guruhimizning har qayerida don izlab yurishibdi. Jo'jachani topgan bola uni qayerdan topganini aytishi shart. Birinchi bo'lib 1-guruh jo'jachalarni topib keladi.

**1-bola:** – Men jo'jachani shkafning yonidan topdim.

**2-bola:** – Men jo'jachani o'yinchoqlar orasidan topdim.

**3-bola:** – Men jo'jachani eshikning orqasidan topdim.

**4-bola:** – Men jo'jachani stolning ostidan topdim.

**5-bola:** – Men jo'jachani stulning ustidan topdim.

**6-bola:** – Men jo'jachani kitob javonining orqasidan topdim.

**7-bola:** – Men jo'jachani doskaning oldidan topdim.

**8-bola:** – Men jo'jachani deraza oldidan topdim.

**9-bola:** – Men jo'jachani gilamning ustidan topdim.

**10-bola:** – Men jo'jachani kubiklar ichidan topdim.

*(O'yin 2-guruh bilan ham shu tariqa davom ettiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, har biringiz jo'jachalarning qayerda don izlab yurganini to'g'ri topdingiz. Ona tovuq bolalarini topib berganingiz uchun sizlarga rahmat aytayapti. Kelinglar, jo'jachalar sonini sanaymiz.

*(10 ta jo'jani har bir bolaga alohida-alohida sanash buyuriladi).*

**Tarbiyachi:** – Endi monitorga diqqatingizni qarating va mebellarning qayerda joylashganini ayting.

*(Monitor da suratlar ko'rsatiladi).*

**1-bola:** – Shkaf devorning oldida turibdi.

**2-bola:** – Legolar stulning orqasida turibdi.

**3-bola:** – Stol doskaning orqasida turibdi.

**4-bola:** – Doska kitob javonining yonida turibdi...

*(Shu tariqa xona jihozlarining joylashuvini bolalar birma-bir aytib chiqishadi).*

## 10 SONI ICHIDA SONLARNI TAQQOSLASH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarning 10 gacha bo'lgan sonlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash;



**Rivojlantiruvchi:** bolalarning mo'ljallanish, shamallash haqidagi bilimlarini boyitish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** hamjihatlikda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonlar, sanoq cho'plar.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum bolajonlar. Qani aytingchi, biz qaysi sonlarni o'tdik?

**1-bola:** – Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n.

**Tarbiyachi:** – Juda soz. Endi shu sonlarni qo'shnilari bilan birga sanab beringlar-chi.

**2-bola:** – Birning qo'shnisi ikki, ikkining qo'shnisi uch, uchning qo'shnisi to'rt, to'rtning qo'shnisi besh, beshning qo'shnisi olti, oltining qo'shnisi yetti, yettining qo'shnisi sakkiz, sakkizning qo'shnisi to'qqiz, to'qqizning qo'shnisi o'n.

**Tarbiyachi:** – Endi diqqatingizni monitorga qarating. Undagi likopchalarda nima nechtdan tasvirlangan?

**3-bola:** – Birinchi likopchada oltita olma bor.

**4-bola:** – Ikkinchi likopchada sakkizta nok bor.

**5-bola:** – Uchinchi likopchada o'nta banan bor.

**Tarbiyachi:** – Yana diqqatingizni monitorga qarating. Unda nima bor?

**6-bola:** – Monitorda yettita karam, beshta sabzi va oltita piyoz bor.

**Tarbiyachi:** – Yettita karamni o'nta qilishimiz uchun unga yana nechta karam qo'shamiz?

**7-bola:** – Yana uchta karam qo'shamiz.

**Tarbiyachi:** – Beshta sabzini o'nta qilish uchunchi?

**8-bola:** – Yana beshta sabzi qo'shamiz.

**Tarbiyachi:** – Oltita piyozni o'nta qilishimiz uchunchi?

**9-bola:** – To'rtta piyoz qo'shamiz.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, judayam to'g'ri aytdinglar. Bolajonlar, hozir sizlarga sanoq cho'plar tarqataman, ulardan o'n sonini hosil qilib beringlar.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida o'n sonini hosil qiladilar).*



**Tarbiyachi:** – Endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. (*Men qaysi sonni she’rda aytsam sizlar o‘sha sonni kartochkada baland ko‘tarasizlar*)

Men o‘ndirman sonlarning shohi,  
To‘qqiz mening eng yaqin ukam.  
Sakkiz ham o‘zicha g‘olib,  
Yettiga teng kelolmas hecham.  
Oltini ham suyaman juda,  
Beshga esa gap yo‘qdir doim.  
To‘rt kamtarin, sodda jigarim,  
Uchga esa biroz uzoqman.  
Ikki mening qondoshim og‘am,  
Bir bilan esa bir tanu jonman.

**Tarbiyachi:** – Sizlarga bir savol beraman. O‘n soniga mos bizda ikkita tana a‘zoning bolalari bor. Ular nima?

**10-bola:** – Ikkita qo‘l va undagi beshtadan barmoqlarimiz.

**Tarbiyachi:** – Barakalla. Bugungi ta‘limiy faoliyatda judayam faol ishtirok etdinglar.

### BUYUMLAR YORDAMIDA MIQDOR KATTALIK (TOR, TORROQ, KENG, ENG KENG) HAQIDA TUSHUNCHA BERISH

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** kubiklar, yog‘och g‘ishtchalar, lentalar yordamida bolalarda keng, kengroq, tor, torroq tushunchalarini mustahkamlash, chamalash va mo‘ljal olishga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** kuzatuvchanlikka o‘rgatish, diqqat va xotirasini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, mehribonlik tuyg‘ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, geometrik shakllar, lentalar, rangli qog‘oz.



## **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu rangli qog'ozdan kesib tayyorlangan lentalarni kuzating.

*(Bolalarga eng keng, kengroq, torroq va tor qilib kesib, oq qog'ozga yopishtirilgan turli rangdagi lentalar ko'rsatiladi).*

**1-bola:** – Qizil rangdagi lenta eng keng, chunki u hammasidan katta, keng va uzun.

**2-bola:** – Yashil rangdagi lenta qizil lentadan torroq, lekin sariq rangdagi lentadan kengroq.

**3-bola:** – Sariq rangdagi lenta yashil rangdagi lentadan torroq, lekin ko'k rangdagi lentadan keng.

**4-bola:** – Ko'k rangdagi lenta eng tor va kichkina.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri, lentalarning joylashuvini bilib oldingiz. Endi monitorga qarang, unda ayiqpolvon va quyoncha bor. Ularning qay biriga qaysi sochiqni beramiz?

**5-bola:** – Ayiqpolvonga keng va uzun sochiqni beramiz, chunki u katta.

**6-bola:** – Quyonchaga tor va kalta sochiqni beramiz, chunki u kichkina.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi dam olish daqiqasi o'tkazamiz:

Xonamiz keng, chiroyli (quloch ochiladi)

Orasta va tartibli (qo'l barmoqlari ishlatiladi)

*(Holat 5-6 marta takrorlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi stoldagi suratlarga qarang va har bir hayvonchanning katta-kichikligiga qarab, ularning o'z choyshablarini tanlab bering.

*(Bolalar har bir hayvonchanning gavdasiga mos choyshabni qalam yordamida bir-biriga tegishlilikini bildiruvchi chiziq tortishadi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla bolajonlar, endi yog'och g'ishtlarni avval sanaymiz, undan keyin eng kenglarini 1-savatga, kengroqlarini 2-savatga, torlarini 3-savatga, eng torlarini 4-savatga ajratamiz. Buning uchun to'rt guruhga bo'linamiz va bir-birimizga xalaqit bermagan holda ishlaymiz.

*(Bolalar turli kenglikdagi g'ishtlarni ajratishadi).*



## DOIRA VA OVALNI AJRATISHGA O'RGATISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarning kvadrat, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, doira haqidagi bilimlarini mustahkamlash, oval shakli haqidagi tasavvurlarini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarda tasavvur, mustaqil ijod qilish ko'nikmalari shakllanadi;

**Tarbiyaviy:** guruh bo'lib ishlash ko'nikmasi rivojlanadi, kuzatuvchanlik qobiliyati shakllanadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar, geometrik shakllarning rangli qog'ozdan kesilgan shablonlari (har bir bolaga yetarli miqdorda).

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, monitorga diqqatingizni qarating. Mana bu 1-qator qo'ziqorinlarning shapkasi doira shaklida, 2-qatordagi qo'ziqorinlarning shapkasi sal uzunchoqroq, ya'ni oval shaklida.

*(Oval va doira maketi ko'rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Oval bilan doira nimasi bilan farqlanar ekan?

**Bolalar:** – Doira dumaloq, oval uzunchoq.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi yana monitorga qarang. Birinchi qizning ko'ylagida qanday shakl bor?

**Bolalar:** – Oval.

**Tarbiyachi:** – Ikkinchi qizning ko'ylagida qanday shakl bor?

**Bolalar:** – Doira.

**Bolalar:** – Barakalla, endi stolga o'tirib, onajonlarimiz uchun guldasta yasaymiz. Buning uchun oq qog'ozning o'rtasiga sariq doira shaklini yopishtiramiz va doiraning atrofiga gulning barglari, ya'ni qizil ovalarni yelimlaymiz.

*(Amaliy ish tarbiyachi tomonidan kuzatiladi va yordam beriladi, rag'batlantiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, bir pasda onajonlarimiz uchun chiroyli gul yasadik. Aytingchi, gulimizda qanday shakllardan foydalandik?



**Bolalar:** – Oval va doira.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi men sizlarga doira va oval haqida ertak aytib beraman.

“Bir kuni doira va oval bahslashib qolishibdi.

– Mening do‘stlarim juda ko‘p, seniki esa kam, masalan, velosipedning g‘ildiragi, koptok, tarelka, qozon... (bolalardan misollarni davom ettirish so‘raladi), – deb gerdayibdi doira.

Oval esa mening ham do‘stlarim senikidan kam emas, masalan, tuxum, kivi, limon... (bolalardan misollarni davom ettirish so‘raladi), – deya qosh chimiribdi. Doira va ovalning onalari bu bahsni eshitib, farzandlariga tanbeh berishibdi:

– Sizlar ikkingiz qarindoshsizlar, bahslashish o‘rniga do‘stlashib, orzu qilishni o‘rganing, – deyishibdi.

Shunda doira dunyodagi eng katta basseyn bo‘lishni orzu qilibdi. Oval esa dunyodagi eng katta sport maydoni bo‘lishni orzulabdi. Shunday qilib oval bilan doira do‘stlashib, orzu qilishda davom etibdi va ularning do‘stlari kundan-kunga ko‘payaveribdi”.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bu ertakdan xulosa shuki, oval va doira geometrik shakllar ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shakllardir.

## SONLAR BILAN YOZISH AMALIYOTI (7 SONIGACHA)

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarda 10 gacha bo‘lgan sonlarni sanash malakalarini mustahkamlash, 10 soni bilan tanishtirish, son-sanoq ko‘nikmalarini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** sonlar haqida tushunchalarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, diqqatni, kuzatuvchanlik tuyg‘ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonli kartochkalar, magnitli sonlar.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, biz nechchigacha sanay olamiz.

**Bolalar:** – 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, biz sonlarning sanalishini juda yaxshi bilib oldik. Endi ularning yozilishini ham o‘rganib olamiz.

*(Dokaga 10 gacha bo‘lgan magnitli sonlar yopishtirib qo‘yiladi va 7 soni alohida qo‘yiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, 7 sonini hamma belida belbog‘i bor son deyishadi.

*(Dokada 7 sonining yozilishi ko‘rsatiladi).*

Endi stolga o‘tirib, har biringiz varaqdagi sonlarning ustidan qalam bilan yurgizib chiqing. Avval 7 sonining shapkasi, keyin tanasi, keyin esa belbog‘ini yozib olamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolalar aytingchi, 7 sonini qayerlarda uchratamiz?

**Bolalar:** – Kamalakning rangi 7 ta, hafta kunlari 7 ta.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bu son qatnashgan judayam ko‘p ertaklar ham bor.

Monitorga qarasangiz shu ertaklar qahramonlari suratlari ko‘rinadi. Siz ularning qaysi ertak qahramoni ekanligini topishingiz kerak.

*(Bolalar ertak qahramonlarini topishadi).*

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri. biz yettigacha hamma sonlarning qanday yozilishini kuzatamiz va varag‘imizga yozamiz.

*(Bolalar shablon asosida 7 gacha sonlarni yozishadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi esa o‘rnimizdan turib, sonlarning yozilishini yodga olib, havoda qo‘llarimiz orqali sonlarni yozamiz.

*(Bolalar tarbiyachi harakatlarini takrorlaydi.)*

## GEOMETRIK SHAKLLARNI TOPISHGA O‘RGATISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** geometrik shakllar haqidagi o‘tilganlarni mustahkamlash. Bolalarda ijodkorlik, tasavvurni kengaytirish;

**Rivojlantiruvchi:** shakllarni farqlashga o‘rgatish, buyumlardagi shakllarni topa olishni o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, geometrik figuralar.



## Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, monitorda birma bir suratlar qo'yiladi, sizlar uni qaysi geometrik shaklga o'xshashini aytishinglar kerak. Kelishdikmi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Unda boshladik. Monitorda laganning rasmi ko'rsatila-yapti. Xo'sh, u nimaga o'xshaydi?

**Bolalar:** – Doira shakliga.

**Tarbiyachi:** – Doira shakliga o'xshash yana nimalarni bilasizlar?

**1-bola:** – Qurt, doira musiqiy asbobi, oy, quyosh, likopcha.

**Tarbiyachi:** – Xo'sh, ikkinchi suratda nima tasvirlanibdi?

**2-bola:** – Mushukcha tasvirlanibdi.

**Tarbiyachi:** – Mushukchani qanday shaklga o'xshatish mumkin?

**3-bola:** – Dumaloqqa.

**Tarbiyachi:** – Mushukning qulog'i qanday shaklda deyishimiz mumkin?

**4-bola:** – Mushukning qulog'i uchburchak shakliga o'zshaydi.

**Tarbiyachi:** – Monitorda tuxumning rasmi ko'rindi. Uni qaysi geometrik shaklga o'xshatamiz?

**5-bola:** – Oval shakliga.

**Tarbiyachi:** – Monitorda gugurt rasmi ko'rinyapti. U qaysi shaklga o'xshaydi?

**6-bola:** – U to'g'ri to'rtburchakka o'xshaydi.

**Tarbiyachi:** – Monitorda uying tomi ko'rinyapti, u qaysi shaklga o'xshaydi?

**7-bola:** – U uchburchakka o'xshaydi.

**Tarbiyachi:** – Monitorda oyna tasviri ko'rinyapti, u qaysi shaklga mos?

**8-bola:** – U kvadrat shakliga mos.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar bilan amaliy mashq bajaramiz. Men sizlarga uchadan kartochka tarqataman. Sizlar uchburchakni sariq rangga, to'rtburchakni yashilga, doirani ko'k rangga bo'yashinglar kerak bo'ladi.

*(Tarbiyachi nazoratida amaliy mashq bajariladi.)*



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Men sizlarga geometrik shakllar suratini ko‘rsataman. Ularda nechta burchak bo‘lsa, shuncha marta qarsak chalasizlar.

*(Uchburchak, to‘rtburchak, kvadrat shakllari ko‘rsatiladi va bolalar uch, to‘rt marta qarsak chaladilar.)*

**Tarbiyachi:** – Endi men ayrim buyumlarga ta‘rif beraman, sizlar uning nimaligini aytishinglar kerak.

U to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda, xontaxtaga solinadi. (dasturxon )

Unga har kuni yuz artamiz, kvadrat shaklda. (sochiq)

Unga har kuni ovqat solamiz, doira shaklida. (likopcha)

Unda ovqatni og‘zimizga solamiz, shakli ovalga o‘xshaydi (qoshiq)

Uni ochsakkina uyga kira olamiz, to‘rtburchak shaklda. (eshik)

### VAQT HAQIDA TASAVVUR UYG‘OTISH (KUN-TUN, ERTALAB-KECHQURUN)

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilarning vaqt haqidagi tushunchalarini boyitish, ularni chamalashga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** kun qismlarini farqlashga o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish, mehnat-sevarlik tuyg‘ularini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, suratlar.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir kunning qaysi qismi?

**Bolalar:** – Ertalab.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, ertalabdan keyin qaysi qism keladi?

**Bolalar:** – Kunduzi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kunduzidan keyin qaysi qism keladi?

**Bolalar:** – Tun.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, ertalab qanday yumushlar bajaramiz?

**1-bola:** – Ertalab butun borliq uyqudan uyg‘onadi, qushlar sayraydi, quyosh chiqadi, biz bog‘chaga boramiz. Badantarbiya qilamiz, ko‘cha



hovlilarni supuramiz, uy yumushlariga yordamlashamiz.

**Tarbiyachi:** – Yana nimalar qilishimiz mumkin?

**2-bola:** – Gullarga suv quyamiz, qushlarga don beramiz.

**Tarbiyachi:** – Gullarga suvni ertalab qo‘yamiz, qushlarga bir marta suv beramiz, qushlarga donni yana qaysi vaqtlarda beramiz?

**3-bola:** – Qushlarga donni kunduzi ham, kechasi ham beramiz.

**Tarbiyachi:** – Shunda qushlar bir kunda necha marta don yerkan?

**Bolalar:** – Uch marta.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kunduzi qanday yumushlarni bajarish mumkin?

**4-bola:** – Sayrga chiqish mumkin, o‘yinlar o‘ynash mumkin, biroz uxlab, dam olish ham mumkin.

**Tarbiyachi:** – Xo‘sh, kechqurun qanday yumushlar bajaramiz?

**5-bola:** – Kechqurun hamma uyda bo‘ladi, televizor ko‘ramiz, otalarimiz bilan birga o‘yin o‘ynaymiz, akalarimiz dars tayyorlaydilar, keyin uyquga ketamiz.

**Tarbiyachi:** – Kun o‘z o‘rnini tunga bo‘shatib berganini qaysi belgilar orqali bilishimiz mumkin?

**6-bola:** – Tunda ko‘chada odamlar kamayadi, hamma ishdan uyiga kelgan bo‘ladi, hammayoq jim-jit, ko‘chalarda mashinalar ham kamaygan bo‘ladi. Tunda quyosh o‘z o‘rnini oyga bo‘shatib beradi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, tunda oyning yonida yana nimalar hamrohlik qiladi?

**Bolalar:** – Yulduzlar.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri, tun malikasi oy yonida yulduzlar doim qo‘riqchilik qiladilar. Kelinglar, hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Ertalab quyosh bobo

Erkalab turtar meni. (Ikki qo‘limizni tepaga ko‘taramiz)

Kunduzi mizg‘ib ol deb

O‘zi uxlatar meni. (Ikki kaftimizni o‘ng tomonga yonboshlatib, boshimizni qo‘limiz ustiga qo‘yamiz)

Tunda esa oymoma

Menga alla aytadi. (qo‘limizga qo‘g‘irchoq bordek uni uxlatamiz)

Do‘stim agar bilsang sen

Ular menla yotadi.



**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi diqqatingizni monitorga qarating. Monitorda dumaloq shakli berilgan. Uning yarmi oq va yarmi to‘q ko‘k rangda. Bizning bir kunimiz ham xuddi shunday kun va tunga bo‘linadi. Biz sog‘lom bo‘lib baquvvat o‘shimiz uchun kunduzi ham biroz mizg‘ib olamiz, kechqurun ham ertaroq o‘rnimizga yotamiz.

Hozir doskaga aynan monitordagi kabi katta doira matoni yopishtiraman. Sizlar esa stolga qo‘yilgan suratlardan ana shu matoga kun va tunga moslab yopishtirib chiqasizlar.

*(Amaliy mashq davomida o‘tilganlar mustahkamlanadi, tarbiyachi bolalarga yo‘naltiruvchi savollar berib turadi)*



# KATTA GURUH



## “MAKTAB”, “BOG‘CHA” MAVZULARI ASOSIDA 1 DAN 10 GACHA TO‘G‘RI SANASHNI MUSTAHKAMLASH

### **Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** maktab va bog‘cha mavzularini o‘tish yordamida o‘tilganlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** bolalar predmetlarni 10 gacha tartib bilan sanashni o‘rganadilar, ularda ijodkorlik tuyg‘usi rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda o‘zaro guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, koptok, geometrik figuralar, tarqatma materiallar.

### **Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ta‘limiy faoliyatimiz avvalida diqqatingizni monitorga qarating. Unda qaysi sonlar tasvirlangan ekan?

**Bolalar:** – Unda bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n sonlari tasvirlangan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar bizda qaysi tana a‘zoimiz bittadan?

**1-bola:** – labimiz bitta, burnimiz bitta, boshimiz bitta.

**Tarbiyachi:** – Qaysi tana a‘zolarimiz ikkitadan?

**2-bola:** – Ko‘z, qosh, quloq, qo‘l va oyog‘imiz ikkitadan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bir faslda nechta oy bor?

**3-bola:** – Bitta faslda uchta oy bor.

**Tarbiyachi:** – Bir yilda nechta fasl bor?

**4-bola:** – Bir yilda to‘rtta fasl bor.

**Tarbiyachi:** – Maktabda bolalar oladigan eng yaxshi baho qaysi?

**5-bola:** – 5.

**Tarbiyachi:** – Ikkita qo‘limiz, ikkita oyog‘imiz va ikkita qulog‘imizni qo‘shsak nechchi bo‘ladi?

**6-bola:** – 6 bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bir haftada nechta kun bor?



**7-bola:** – 7 kun bor.

**Tarbiyachi:** – 7 dan keyin qaysi son keladi?

**8-bola:** – 8 soni keladi.

**Tarbiyachi:** – Sakkizga nechchini qo‘shsak 10 hosil bo‘ladi?

**9-bola:** – Sakkizga ikki sonini qo‘shsak o‘n soni hosil bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar bog‘chani bitirgach qayerda o‘qiysiz-llar?

**Bolalar:** – Maktabda.

**Tarbiyachi:** – Monitorga qaranglar, unda sinf xonasining tasviri bor. Qaranglarchi, eniga partalar nechtadan qo‘yilibdi?

**Bolalar:** – Uchtadan.

**Tarbiyachi:** – Har bir partada nechtadan o‘quvchi o‘tiribdi?

**Bolalar:** – Ikkitadan.

**Tarbiyachi:** – Uchta partadagi o‘quvchilar sonini qo‘shib hisoblasak nechchi bo‘ladi?

**Bolalar:** – Oltita.

**Tarbiyachi:** – Agar beshta partadagi o‘quvchilar sonini qo‘shib chiqsakchi.

**Bolalar:** – O‘nta.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kelinglar sizlar bilan hozir bitta o‘yin o‘ynaymiz. Hammamiz doira shaklida turib olamiz, men koptok otaman va bitta sonni aytaman. Koptokni ilib olgan bola shu sondan keyin keladigan sonni aytishi kerak.

*(Tarbiyachi bolalarning hammasi bittadan son aytgunicha o‘yinni davom ettiradi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bir oilada bobo-buvi, ota-ona va bir nabira yashasharkan. Ular tongda nonushtaga ikkitadan tuxum pishirib yemoqchi bo‘lishibdi. Darvoqe, tuxum qanaqa shaklda?

**Bolalar:** – Oval shaklida.

**Tarbiyachi:** – Lekin muzlatkichni ochib qarashsa, unda oltitagina tuxum qolgan ekan. Nabira do‘konga yana tuxum sotib olishi uchun otlanibdi. Aytinglar-chi, oilaning har bir a‘zosi ikkitadan tuxum yeyishi uchun yana nechta tuxum kerak?

**Bolalar:** – To‘rtta.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bizning bog‘chamiz qanaqa?



**Bolalar:** – Chiroyli, ikki qavatli, uchta binodan iborat.

**Tarbiyachi:** – Tasavvur qiling, bizning mahallada ana shunday bog‘chadan beshta va yana beshta maktab bor. Ularning jami sonini qo‘shsak nechta bo‘ladi?

**Bolalar:** – O‘nta bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri. Bugun ta‘limiy faoliyatimizga juda faol qatnashdinglar, keksalarimiz duo qilganlaridek, biringizga o‘ng, o‘ngingizga ming bersin.

## KVADRAT VA TO‘G‘RI TO‘RTBURCHAK SHAKLLARIDAN SHAHRIMIZDAGI ZAMONAVIY UYLARNI QURAMIZ

**Ta‘limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilarda kvadrat va uchburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi, chamalashni o‘rganadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik tuyg‘ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o‘rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak shakllarining kartondan yasalgan maketi, kartochkalar.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun guruhimizga kvadrat va to‘g‘ri to‘rtburchak tashrif buyurishibdi. Hozir ular she‘riy yo‘l bilan o‘zlarini ta‘riflashmoqchi.

Kvadrat:

– Hamma burchagim birdek,

Unutmagin Bashorat.

To‘rt tomonim ham tengdir,

Nomimdir mening – kvadrat.

To‘g‘ri to‘rtburchak:

– Ikki uzun, ikki kalta,

Jam bo‘ladi bir tanda.



Eslab qolgin har bir choq,  
Menman – to‘g‘ri to‘rtburchak.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar ko‘rdingizmi, kvadratning hamma tomonlari teng ekan. Shuning uchun uning hamma burchaklari ham bir xil.

*(Maketlar orqali kvadratning tomonlari va burchaklari ko‘rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Endi to‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlarini diqqat bilan kuzatamiz. Qarang, unda ham to‘rtta burchak bor, faqat uning tomonlari ikki xil. Shuning uchun to‘g‘ri to‘rtburchak uzun yoki yapaloq bo‘lishi mumkin.

*(Maket orqali to‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlari turlicha bo‘lishi ko‘rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Endi stolga o‘tirib olamiz va oldingizdagi kartochkalar-dan nechitasi kvadrat, nechitasi to‘g‘ri to‘rtburchak ekanligini sanab, yo-zamiz.

*(Bolalar ishini tarbiyachi nazorat qilib boradi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla bolajonlar, endi monitorga qaraymiz va buyumlarning qaysi biri to‘g‘ri to‘rtburchakka, qaysi biri kvadratga o‘xshashini topamiz.

*(Monitorda g‘isht, kitob, kompyuter monitori, televizor, deraza, eshik kabi suratlar ko‘rsatiladi va bolalar predmetlar shakli geometrik figuraga o‘xshashligini topadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlarga qiziqarli savollar beraman, siz-lar o‘ylab, javob berasiz.

1. 3 ta mushukning nechta burni bor?
2. 2 ta sichqonning nechta qulog‘i bor?
3. “Oltin” so‘zida qaysi son yashiringan?
4. Tug‘ilgan kuningiz bir yilda necha marta keladi?
5. Uchburchakning nechta burchagi bor?

*(Savollar yordamida bolalar bilimlari mustahkamlanadi).*

## 10 TAGACHA BO‘LGAN QURILISH MATERIALLARI ASOSIDA UY QURISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarda 10 gacha bo‘lgan sonlarni sanash malakalarini



mustahkamlash, 10 soni ichida amallarni bajartirish, son-sanoq ko'nikmalarini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** sonlar haqida tushunchalarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, xotirasini charxlash;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, diqqatni, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonli kartochkalar, magnitli sonlar, katta-kichik legolar to'plami.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qarang bugun guruhimizga Bilmasvoy tashrif buyuribdi, uning bitta aybi bor ekan. U hamma sonlarni bilarkan, tanirkan-u, lekin ularning o'rnini almashtirib qo'yarkan. Bugun Bilmasvoyga sonlarni tartibi bo'yicha eslab qolishida yordam beramizmi?

**Bolalar:** – Ha.

*(Bolalar qo'liga kartochkalar tarqatiladi. Unda sonlar yozilgan bo'lad. Har bir bola raqamiga qarab joyini egallaydi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi hamma qo'lidagi kartochkasini o'zaro bir-biri bilan almashsin.

*(Bolalar kartochkalarini almashadi).*

Endi hamma yana raqamiga ko'ra joyini egallasin.

*(Bolalar 10 gacha bo'lgan sonlar tartibida qator turishadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi men doskaga 1 dan 10 gacha bo'lgan magnitli raqamlarni yopishtiraman. Diqqat bilan kuzatib turing.

*(Tarbiyachi 3, 7 sonlarini qoldirib ketadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hamma raqamlarni to'g'ri yozdimmi, Bilmasvoy sen ham doskaga diqqat bilan qara?

**Bolalar:** – Yo'q, 3 va 7 raqamlarini qoldirib ketdingiz.

**Tarbiyachi:** – Ofarin, endi Bilmasvoyni sinab ko'ramiz.

*(2-3 marta shu tariqa raqamlar "yo'qolib qoladi" va Bilmasvoy ham sonlarning joylashuv o'rnini bilib oladi).*

**Tarbiyachi:** – Endi hammamiz qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markaziga o'tib, mana bu 10 ta kubiklardan uy quramiz.

*(Bolalar devor uchun 4 ta, eshik-rom uchun 3 ta, tom uchun 3 ta kubik-*



*dan foydalanadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi hamma qurgan uyida nechta kubik ishtirok etganini kuzatadi.

### **QO‘G‘IRCHOQ UCHUN UY YASASH ORQALI FAZOVIIY TASAVVURLARNI MUSTAHKAMLASH (O‘NG-CHAP, OLDINDA-ORQADA, UZOQDA-YAQINDA)**

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** uycha yasash misolida bolalarda fazoviy tasavvurlarni kengaytirish;

**Rivojlantiruvchi:** mashqlar asosida mo‘ljall olish va chamalash qobiliyati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** o‘zaro yordam berish, boshqalarni tushunish ko‘nikmasi shakllanadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, qo‘g‘irchoq, kartochkalar, katta yo‘nalishni bildiruvchi maketlar.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta‘limiy faoliyatimizda bitta mehmon bor. U ham bo‘lsa Oliyaxon ismli qo‘g‘irchoq. Oliyaxon, nima bo‘lganini o‘zing aytib beraqol.

**Oliyaxon:** – Mening uyimda don judayam ko‘p edi. Sichqonchalar uni kemirib, yetmaganiga uyimning poydevorini ham yeb qo‘yishibdi. Menga katta va zamonaviy uy qurib bering.

**Tarbiyachi:** – Albatta, biz senga yordam beramiz. Qani, hozir xonamizdan sening uying uchun joy tanlaymiz. Uychang derazaga yaqin bo‘lsinmi yoki eshikka?

**Oliyaxon:** – Bilmasam, bolalar nima maslahat berisharkan?

**Bolalar:** – Derazadan sovuq kirishi mumkin. Uyni devorga yaqinroq joyga quramiz.

**Tarbiyachi:** – Uy qurish uchun qayerdan geometrik shakllar olamiz?

**Bolalar:** – O‘ng tomondagi javonning pastida geometrik shakllar bor. Hozir ularni olamiz va uychani yasaymiz.



*(Bolalar uycha uchun kerakli geometrik shakllarni oladilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, uychaning devorini qurib oldik. Endi tomni uning qaysi qismiga joylashtiramiz?

**Bolalar:** – Tomni uyning tepa qismiga joylashtiramiz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, uyning eshigini qaysi qismiga o‘rnatgan ma’qul?

**Bolalar:** – Uyning oldi tomoniga eshik o‘rnatamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi stol ustiga terib qo‘yilgan turli predmetlarni olib keling. Va ularni joylashtirish asnosida nimani qayerga qo‘yish yaxshiligini aytib bering.

**1-bola:** – Uyning old tomoniga gullar qo‘yamiz, u uyni chiroyli qilib turadi, orqa tomoniga mevali daraxtlar qo‘yamiz.

**2-bola:** – Uyning o‘ng tomoniga ertak qahramonlari yig‘ilganda o‘ynashlari uchun maydoncha quramiz.

**3-bola:** – Uyning chap tomoniga esa sport bilan shug‘ullanuvchilar uchun sport maydoni qo‘yamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. O‘ng deganda turamiz, (tikka turiladi)

Chap deganda yuramiz. (chap tomonga bir qadam tashlanadi)

Oldinga qadam tashlab, (oldinga yana bir qadam)

Orqaga bir qaraymiz. (orqa tomonga qayrilamiz)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qo‘g‘irchoq Lolaxon, biz yo‘qligimizda sehrgar bobo kelib bitta sovg‘a tashlab ketgan ekanlar. Faqat uni xonaning qayeriga qo‘yganlarini monitorda ketma-ket ko‘rsatiluvchi yo‘nalishlar yordamida aniqlaymiz. Demak, diqqatimizni monitorga qaratamiz.

*(monitorda avval o‘ngga, keyin chapga, keyin yuqoriga yo‘nalishi ko‘rsatiladi va bu sovg‘a javonning tepasi ekanligini bildiradi).*

**Tarbiyachi:** – Javonning tepasiga sehrgar bobo quticha tashlab ketibdi. Mana, qutichani ochamiz va unda chiroyli gullar bor ekan. Oliyaxon, bu gullar senga, ularni olib kirib uyingni o‘ng tomonidagi stol ustiga qo‘yib qo‘y.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana bu mashinani uyiga yetib olishi uchun yordam berishimiz kerak. Diqqat bilan qaraymiz, mashina qaysi tomonda, uning uyi, ya’ni garaj qaysi tomonda?

**4-bola:** – Mashina chap tomonda, uning uyi o‘ng tomonda.



**Tarbiyachi:** – Mashinaning oldida nimalar bor?

**5-bola:** – Mashinaning oldida turli geometrik figuralar bor, ular mashinaning yo‘lini to‘sib turibdi.

**Tarbiyachi:** – Demak, mashinaning yo‘lini to‘sib turgan geometrik shakllarni yo‘ldan olib tashladik. Mashinaning orqasida nima bor ekan?

**6-bola:** – Mashinaning orqasida yana bitta mashina bor ekan.

**Tarbiyachi:** – Mashina yurishiga orqadagi mashina xalal beradimi?

**7-bola:** – Yo‘q, mashinaning yurishiga orqadagi mashina xalal bermaydi.

**Tarbiyachi:** – Unda mashinani qanday yurgizsak u garajjiga yetib oladi.

**8-bola:** – Mashinani o‘ng tomonga yurgizsak uning uyiga yetib boramiz.

### **BOLALAR MAYDONCHASI MISOLIDA ERTALAB, KUNDUZI, KECHQURUN, TUN KABI TUSHUNCHALARNI MUSTAHKAMLASH**

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarning vaqt haqidagi tasavvurlarini boyitish, ularda ertalab, kunduzi va kechqurun haqida tushuncha paydo qilish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, ularda topqirlikni rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarni tartibli bo‘lishga o‘rgatish, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma kartochkalar, legolar to‘plami.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun guruhimizga oltin baliqcha tashrif buyurgan. Buning sababi, oltin baliqcha dengizda yashagani uchun u kun bilan tunning farqiga bormas ekan. Kelinglar, unga ertalab, kunduzi, kechqurunni farqlab olishiga yordam beramiz.

*(Monitorda bolalarning bog‘cha-maktabga borayotgan surat ko‘rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, aytingchi, bu qaysi payt?



**Bolalar:** – Ertalab.

**Tarbiyachi:** – Ertalabligini qanday bildik?

**Bolalar:** – Chunki bolalar maktabga, bog'chaga ertalab boradi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bilag'onlarim. Endi "Bu qaysi payt?" o'yinini o'ynaymiz. Stolda sutkaning turli vaqtlari tasvirlangan suratlar qo'yilgan. Men ertalab desam, siz shu paytga mos suratni tepaga ko'tarasiz, kunduzi yoki kechqurun desam ham shu vaqtga mos suratni ko'rsatasiz. O'yinimiz sharti tushunarlimi?

*(Tarbiyachi ertalab deganida bolaning yuzini yuvayotgan suratni ko'rsatishadi, kunduzi deganida quyosh tepada charaqlab turgan suratni, kechqurun deganida quyosh ufqqa bosh qo'yayotgan payt, tun deganida hayvonchalar uxlayotgan suratni ko'rsatishadi).*

**Tarbiyachi:** – Oltin baliq, sen ham sutka qismlarini bilib oldingmi?

**Oltin baliq:** – Bilib oldim, dengizda kun-tun degan tushuncha yo'q, lekin bu bolalar juda aqlli ekan, bir pasda bu haqda bilib oldim.

**Tarbiyachi:** – Hozir bolajonlarning zukkoligini yana bir bor sinab ko'ramiz.

*(Tarbiyachi gaplarni o'qiydi, to'g'ri bo'lsa, qo'lini ko'taradi, noto'g'ri bo'lsa qo'lini tushiradi).*

1. Ertalab quyosh uyqudan uyg'onadi. (to'g'ri)
2. Kunduzi osmonga oy chiqadi. (noto'g'ri)
3. Kechki payt odamlar tushlik qilishadi. (noto'g'ri)
4. Kechasi odamlar uxlaydi. (to'g'ri)
5. Bolalar tunda maydonchada o'ynashadi. (noto'g'ri)
6. Bolalar ertalab bog'chaga borishadi. (to'g'ri)

**Tarbiyachi:** – Barakalla, hamma to'g'ri va noto'g'ri gaplarni topdiniz. Endi bolalar maydonchasi qurib, unda bolalar qaysi payt o'ynashini aytamiz.



## MEVA VA SABZAVOTLAR YORDAMIDA 10 DAN 1 GACHA TESKARI SANASHNI O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda 10 dan 1 gacha teskari sanash ko'nikmasini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarda mustaqil fikrlar, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** Sanoq cho'plar, AKT, tarqatma materillar, kartochkalar.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizda biz sizlar bilan o'tilgan mavzuni qiziqarli mashqlar yordamida mustahkamlaymiz. Qani, hamma ta'limiy faoliyatga tayyormi?

**Bolalar:** – Ha, tayyormiz.

**Tarbiyachi:** – Monitorga qarang. U yerda mevalar va sabzavotlar tasvirlangan. Qani, sanab ko'ringchi, mevalar soni nechta ekan? Sabzavotlarchi?

**1-bola:** – Mevalar soni 10 ta ekan. Sabzavotlar soni ham 10 ta ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir hammangizga meva va sabzavotlar kartochkalarini tarqataman. Sizlar uning ichidan meva suratini mevaga, sabzavot suratini sabzavotga ajratasiz. Va har bir meva surati va sabzavot suratining soni nechtaligini aniqlanglar.

**Bolalar:** – Mevalar soni ham, sabzavotlar soni ham 10 donadan ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qani, 1 dan 10 gacha sanaylikchi.

**Bolalar:** – Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n.

**Tarbiyachi:** – Endi sonni teskarisiga sanab ko'raylik.

**Bolalar:** – O'n, to'qqiz, sakkiz, yetti, olti, besh, to'rt, uch, ikki, bir.

**Tarbiyachi:** – Endi diqqatingizni monitorga qarating. Undagi suratda moychechak tasvirlangan. Hozir hammamiz qog'ozdan monitorga qarab



moychechak yasaymiz. Moychechakning o‘rtasi qanaqa shaklda ekan?

**Bolalar:** – Dumaloq shaklda ekan?

**Tarbiyachi:** – Moychechakning birinchi bitta gulini ulaymiz, keyin ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi, to‘qqizinchi, o‘ninchisini yopishtiramiz. Qani, hamma yopishtirayaptimi?

*(Bolalar tarbiyachi ishtirokida gulni yasaydilar)*

**Tarbiyachi:** – Endi esa moychechakning gullarini o‘ninchisidan boshlab bo‘yab chiqamiz.

*(Bolalar tarbiyachi nazoratida gullarni bo‘yab chiqadilar)*

**Tarbiyachi:** – Endi esa yigitlar o‘n qadam, sonma-son qadam tashlab yuramiz. Qizlar esa o‘ndan ortga teskari sanab, ortga yuramiz.

*(Amaliy mashq jarayonida tarbiyachi bolalarga yordam berib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi esa mana bu savollarga javob bering.

O‘n soni to‘qqizdan oldinmi yoki keyin?

Yettiga uchni qo‘shsak qaysi son hosil bo‘ladi?

Beshga beshni qo‘shsak nechchi bo‘ladi?

O‘ndan ikkini ayirsak, qaysi son hosil bo‘ladi?

## “MATEMATIKA MAMLAKATI”DA TAYOQCHALARDAN TURLI SHAKLLAR HOSIL QILISHNI O‘RGATISH

**Ta’limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarda kvadrat va uchburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi, chamalashni o‘rganadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik tuyg‘ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o‘rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, lego konstruktorlar, sanoq cho‘plar, tayoqlar, kartochkalar.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta’limiy faoliyatimizni “Matematika mamlakati”da olib boramiz. Mana bu sirli tayoqchalar bizga bu mamlakat-



da yo'l ko'rsatkich vazifasini o'taydi. Keling, monitorga qarab, geometrik shakllar haqidagi bilimlarimizni mustahkamlab olamiz.

*(Monitorda kvadrat, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak, doira, oval shakllari ko'rsatiladi. Tarbiyachi bolalardan har bir shaklning joylashgan o'rnini so'raydi).*

**1-bola:** – Doira uchburchakning yonida turibdi.

**2-bola:** – Kvadrat doiraning orqasida turibdi.

**3-bola:** – To'rtburchak ovalning pastida turibdi.

**4-bola:** – Oval uchburchakning chap tomonida turibdi.

**5-bola:** – Doira kvadratning o'ng tomonida turibdi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, biz bu sehrli diyorning bitta ko'prigidan o'tdik. Endi mana bu tayoqchalardan har xil shakllarni yasaymiz. Buning uchun uch guruhga bo'linib olamiz. 1-guruh kvadrat, 2-guruh uchburchak, 3-guruh to'rtburchak yasaydi.

*(Amaliy ishni tarbiyachi nazorat qilib boradi).*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, hamma topshiriqni to'g'ri bajardi. Endi biroz murakkabroq ko'prikdan o'tishimiz kerak. Buning uchun ikki guruhga bo'linamiz va musobaqa tashkil etamiz. Bunda 1-guruh 7 ta tayoqchadan 2 ta kvadrat yasashi kerak, 2-guruh esa 7 ta tayoqchadan 3 ta uchburchak yasashi kerak. Bir, ikki, uch, boshlandi.

*(Bolalar topshiriqni bajarishga kirishadi. Tarbiyachi faol bolalarni rag'batlantirib, ortda qolayotgan bolalarga yordam beradi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizlar matematika mamlakatidagi shakllarning qanday yasalishini yaxshi bilib olibsiz. Shuning uchun hammaning stuli to'g'risiga 3 ta, 4 ta, 5 ta, 6 tagacha sanoq cho'plarni qo'yib chiqdim. Shu sanoq cho'plarni sanab, undan keyin shu cho'plardan qanday shakl hosil bo'lsa, o'shani yasaymiz. Masalan, kimdadir 3 ta sanoq cho'p bo'lsa, uchburchak yasashi mumkin...

*(Bolalar shakllarni yasab, nechta sanoq cho'pdan qanday shakl yasash mumkinligini bilib olishadi).*

**Tarbiyachi:** – Qoyil, mana matematika mamlakatining barcha ko'priklarini bosib o'tdik. Endi esa sevimli bog'chamizga qaytamiz.



## MATEMATIK DIKTANT. NARSALARNI TENG QISMGA BO'LISHNI O'RGATISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda 10 gacha bo'lgan sonlarni sanash malakalarini mustahkamlash, predmetlarni teng ikkiga bo'lib ko'rsatish orqali tasavvurlarini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** sonlar haqida tushunchalarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, xotirasini charxlash;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, diqqatni, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonli kartochkalar, magnitli sonlar, kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, monitorga diqqatingizni qarating va unda nimalarni ko'rayapsiz?

**1-bola:** – Butun olma va yarimta olma.

**2-bola:** – Butun limon va yarimta limon.

**3-bola:** – Butun tarvuz va yarimta tarvuz.

**4-bola:** – Butun kartoshka va yarimta kartoshka.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, barcha meva va sabzavotlarning nomini, butunini, yarmini to'g'ri aytdingiz. Endi qo'limdagi doira shaklidagi rangli qog'ozni teng ikkiga buklayman, sizlar ham oldingizdagi doiralarni xuddi mendek teng o'rtasidan buklang.

*(Bolalar doirani bo'lib, qaychi yordamida kesadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi bu ikkita yarimoyini oq qog'ozga yana bir butun qilib yopishtiramiz.

*(Bolalarda bu amaliy ishni bajarish natijasida predmetning butuni va yarmi degan tushuncha shakllanadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar endigi mashqimizni chizish orqali bajaramiz.

1. Butun olma rasmini chizing va uning yarmini chizing.



2. Butun shaftoli rasmini chizing, keyin yarmini chizing.
3. Butun anor rasmini chizing, keyin yarmini chizing.
4. Butun qovun rasmini chizing, keyin yarmini chizing.

*(Bolalar jarayonda rag'batlantirib boriladi).*

**Tarbiyachi:** – Ofarin, aqlli va zukko bolalarim, endi monitorga qarang.

*(Monitorda 4 ta olma qo'shuv 3 ta olma, 2 ta tipratikon qo'shuv 8 ta tipratikan, 5 ta stul qo'shuv 1 ta stul, 6 ta daftar qo'shuv 2 ta daftar suratli misollar ko'rsatiladi, bolalar javobini aytishadi).*

**5-bola:** – 7 ta olma.

**6-bola:** – 10 ta tipratikan.

**7-bola:** – 6 ta stul.

**8-bola:** – 8 ta daftar.

**Tarbiyachi:** – Rahmat bolajonlar, bugun juda faol ishtirok etdingiz.

## O'YINCHOQ TRANSPORTLAR YORDAMIDA FAZODA O'LCHAM OLISHGA O'RGATISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda fazoviy o'lcham olish ko'nikmalarini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** baland-past, oldinga-orqaga, o'ngga-chapga ko'nikmalarini mustahkamlash;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarda mehnatsevarlik qobiliyatini rivojlantirish, guruh bo'lib ishlash malakasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, o'yinchoq mashina, tarqatma materiallar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizni savollar bilan boshlamoqchiman.

Osmon qayerda?

Yer qayerda?

**1-bola:** – Osmon tepada, yer pastda.

**Tarbiyachi:** – Endi mana bu o'yinchoqlarga qarang. Kapalak turib-



di, uni xonamizdan gulni topib, ana o'sha gul ustiga qo'yib qo'yishimiz, mana bu mashinani esa garajiga tomoni yo'naltirishimiz, fartukni ona qo'g'irchoq oldiga borib taqib qo'yishimiz, soch to'g'nog'ichni qo'g'irchoq Lolaxonning sochiga taqib qo'yishimiz, asal idishini Ayiqpolvonning yoniga olib borib qo'yishimiz kerak bo'ladi. Qani, xonani qidiringlar-chi, gul qayerda ekan?

**2-bola:** – Tarbiyachi opa, gul javonning ustida ekan.

**Tarbiyachi:** – Undan pastroqda ham gullar bor, yaxshilab qaranglar.

**3-bola:** – Mana men topdim, javonning pastidagi guldonda gul bor ekan. Kapalakni bering, uni o'sha yerga qo'yib qo'yaman.

**Tarbiyachi:** – Mana bu mashinani esa o'z garajiga olib borib qo'yishimiz kerak. Xonada ikkita uchta garaj bor, bu mashina ko'k rangdagi garajga kirishni istayapti. Qani, ko'k rangdagi garajni topinglar-chi?

**4-bola:** – Men krovatim yaqinida yashil garajni ko'rdim.

**5-bola:** – Men eshikka yaqin joydagi javonchada ko'k rangdagi garajni ko'rdim.

**Tarbiyachi:** – Ko'k garaj eshikka yaqin joydagi javonchani oldida ekanmi?

**5-bola:** – Ha, javonchani oldida ekan.

**Tarbiyachi:** – Barakalla. Bolalarim, endi ona qo'g'irchoqqa mana bu fartukni olib borib taqib qo'yishimiz lozim. Bolalar, fartuk qanaqa shaklda ekan?

**Bolalar:** – Fartuk to'rtburchak shaklda ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ona qo'g'irchoqimiz bugun qayerda ekan?

**6-bola:** – Qidirayapmiz, ammo topolmayapmiz.

**Tarbiyachi:** – O'ng tomondagi, chap tomondagi javonlarni qaranglar, javonning old tomonini, orqa tomonini ko'ringlar. O'sha yerda bo'lishi kerak.

**7-bola:** – Men topdim. U chap tomondagi javonning oldida ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, fartukni qo'g'irchoqning qaysi tomoniga taqamiz?

**Bolalar:** – Fartukni ona qo'g'irchoqning old tomoniga taqamiz.

**Tarbiyachi:** – Endigi ishimiz qo'g'irchoq Lolaxonning sochiga to'g'nog'ich ilib qo'yishimiz kerak. Qani, qo'g'irchoq Lolaxonni topinglarchi?



*(Bolalar qo'g'irchoq Lolaxonni rosa qidirishadi)*

**8-bola:** – Tarbiyachi opa, biz qo'g'irchoq Lolaxonni hech qayerdan topa olmadik.

**Tarbiyachi:** – Yaxshilab qaranglar, ehtimol javonning tagidadir, balki sandiqchanning ustidadir. Axir Lolaxon o'zi yura olmaydi-ku.

**9-bola:** – Tarbiyachi opa, men qo'g'irchoq Lolaxonni topdim, u mashinalar turadigan garaj yonida ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, shuning uchun ham hamma narsani joy-joyiga qo'yishimiz kerak. Bo'lmasa, tartibsiz odamdan hamma qochadi. Qani, Lolaxonni olib kelinglar. Qo'g'irchoqni meni oldinga olib kelasizlarmi yoki orqa tomonimgami?

**Bolalar:** – Qo'g'irchoq Lolaxonni sizning oldingizga olib boramiz, agar orqa tomoningizga olib borsak siz uni ko'rmaysiz va to'g'nog'ich qaday olmaysiz.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, judayam to'g'ri aytdinglar. Endi o'yinimiz shartiga ko'ra ayiqpolvonni topishimiz va unga asal solishi uchun xumchasini olib borib berishimiz kerak. Qani, bir qaranglar-chi, ayiqpolvon qayerda ekan?

*(Bolalar xonani rosa aylanishadi va ayiqpolvonni topa olishmaydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, taom yeydigan joyimizni, krovatlarning tagini, krovatlarning ustini, kitob javonining ustini yaxshilab qaranglar. Ke-chagina ayiqpolvon guruhda edi.

*(Bolalar rosa qidirishadi, lekin topisholmaydi).*

**10-bola:** – Tarbiyachi opa, hamma joyni qidirdik lekin hech qayerda ayiqpolvon o'yinchog'i yo'q-ku.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, axir tongda qo'shni guruhdagi do'stlaringizga o'ynash uchun ayiqpolvonimizni berib turgandik-ku. Ularning guruhi qaysi tomonimizda?

**Bolalar:** – Ularning guruhi o'ng tomonimizda.

**Tarbiyachi:** – Hozir yordamchi enagamiz bizga ayiqpolvonimizni olib chiqib beradilar. Biz esa ungacha jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

Men qo'limdagi kartochkada sonlar ko'rsataman, unda necha soni ko'rsatilgan bo'lsa, sizlar o'shancha marta o'tirib turasizlar.

*(Tarbiyachi 2,4,5,6 raqamlarini ko'rsatadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi esa ayiqpolvonimizni topib oldik. Uni guruhning



qaysi tomoniga qo'yganimiz ma'qul?

**Bolalar:** – Uni guruhimizning chap tomoniga devor yoniga qo'ysak yaxshi joylashadi.

*(Tarbiyachi va bolalar birgalikda ayiqpolvonni joylashtirib qo'yishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ayiqpolvon uchun xumni uning oldiga qo'yamizmi yoki boshining tepasiga qo'ysak ham bo'laveradimi?

**Bolalar:** – Xumni boshining tepasiga qo'ysak u tushib ketadi. Xumni ayiqpolvonning oldidagi stolchaga qo'yamiz.

**Tarbiyachi:** – Barakalla. Qoyilman, bugungi faoliyatga judayam yaxshi tayyorlanibsizlar. Endi esa men gaplar o'qiyman sizlar esa uni davom ettirasizlar.

Yulduzlar *(tepada joylashadi)*

Gullar *(yerda o'sadi)*

Kitob stol *(tepasida)*

Chelak stol *(pastida)*

Gilam uyning *(yerida)*

Yulduz *(osmonda, tepada)*

*(Tarbiyachi faol ishtiroq etganlarni rag'batlantiradi).*

## ATROFDAGI SONLARNI TOPISH VA ULARNI YOZISH

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda 1 dan 5 gacha bo'lgan sonlar haqidagi tasavvurini mustahkamlash, shu sonlarni o'zaro qiyoslash;

**Rivojlantiruvchi:** ikki guruhdagi buyumlar soniga qarab, ularning miqdorini aniqlaydi va taqqoslaydi, kam-ko'pligini, katta-kichikligini topadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda diqqat va hamdardlik hissi rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** Do'kon maketi, sabzi mulyajlari, tarqatma kartochkalar, koptok, AKT.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bir e'tibor bering-a, doskada qaysi sonlar



yo'qolib qolibdi.

(4, 7, 9 sonlari yo'qolib qolgan bo'ladi va bolalar bu sonlarni ayti-shadi).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, guruh bo'ylab tarqaling va shu sonlarni toping.

**1-bola:** – Men 7 sonini deraza yonidan topdim.

**2-bola:** – Men 4 sonini o'yinchoqlar turadigan javondan topdim.

**3-bola:** – Men 9 sonini qalamdon ustidan topdim.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi sonlar qatori to'liq bo'ldi. Raqam-lar yozilgan daftarimizni olib, suratlardagi predmetlarni sanab, uning to'g'risiga nechtaligini yozib chiqamiz.

(Bolalar 10 ta gilos to'g'risiga 10, 9 ta pomidor to'g'risiga 9, 8 ta anor to'g'risiga 8, 7 ta sabzi to'g'risiga 7, 6 ta non to'g'risiga 6, 5 ta konfet to'g'risiga 5, 4 ta limon to'g'risiga 4, 3 ta o'rik to'g'risiga 3, 2 ta piyola to'g'risiga 2, 1 ta samolyot to'g'risiga 1 sonini yozib chiqishadi).

**Tarbiyachi:** – Bunday topshiriqlarni yechish miyamizni charxlaydi. Kelinglar, endi monitorda rasm ko'rsataman. Siz esa ularning to'g'ri yoki noto'g'riligini topasiz.

(8 ta kapalak rasmi va 9 ta gul rasmi ko'rsatiladi). Ularning soni teng-mi?

**4-bola:** – Yo'q, gullar soni 1 ta ko'p.

(4 ta ayiq va 3 ta asal bochkasi ko'rsatiladi). Hamma ayiqlarga asal idishlari yetadimi?

**5-bola:** – Yo'q, 1 ta ayiqqa asal yetmay qoladi.

(6 ta bola va 8 ta daftar rasmi ko'rsatiladi). Hamma bolalarga daftar yetarlimi?

**6-bola:** – Hamma bolalarga daftar yetarli, faqat 2 ta daftar ortib qoladi.

Stol atrofida 4 ta bola o'tiribdi, piyolalar soni 5 ta. Hamma bolaga pi-yola yetadimi?

**7-bola:** – Hamma bolaga piyola yetadi, faqat 1 ta piyola ortib qoladi.

**Tarbiyachi:** – Ofarin, endi mana bu kartochkalarda suratlar berilgan, uning tagiga surat sonini yozishingiz kerak.

(Bolalar amaliy ish bajarish jarayonida tarbiyachi tomonidan kuzati-ladi).

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi stol ustidagi qalamlarni sanaymiz. 1-qa-



lamdondagilar soni nechta ekan?

**8-bola:** – 4 ta.

**Tarbiyachi:** – 2-qalamdondagilarchi?

**9-bola:** – 5 ta.

**Tarbiyachi:** – Endi ikkala qalamdondagi qalamlarni qo‘shamiz. Nechta qalam bo‘ldi?

**10-bola:** – 9 ta.

*(Topshiriq shu tariqa davom ettiriladi).*

## MAKTAB QURISH MISOLIDA GEOMETRIK SHAKLLAR BO‘YICHA O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta‘limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilarda doira, kvadrat, uchburchak, to‘rtburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlana-  
di;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik tuyg‘ulari rivojlana-  
di, mantiqiy fikrlashga o‘rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, doira, kvadrat, uchburchak shakllari, kartoch-  
kalar.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, stolga o‘tirib oq qog‘ozdan qirqib tayyor-  
langan geometrik shakllardan birini tanlang. Endi hamma xohlaganicha  
bu shakllariga ko‘z, quloq, burun chizsin. Qani kimning shakli qanday  
ko‘rinish olarkan?

*(Bolalar shakllarni chizish va bo‘yash jarayonida rag‘batlantirila-  
di. Har bir bola yakunlangan ishni ta‘riflaydi: qanday shakl ekanligini,  
nimalarni o‘ylayotganini, nimadan xafaligini, nimadan xursandligini...  
ta‘riflaydi).*

**Tarbiyachi:** – Rahmat mening jajji matematiklarim, sizlar har bir  
shaklni juda chiroyli qilib ta‘rifladingiz, endi qo‘lingizdagi shakllarni dos-  
kaga magnit yordamida yopishtirib qo‘ying.



Endi dam olish daqiqasi o'tkazamiz:

Doiracha dum-dumaloq,

To'rtburchakning to'rtta uchi.

Oval esa yapaloq,

Uchburchakda uch burchak.

*(Bolalar matnga mos harakatlarni bajaradi, 3-4 marta takrorlanadi).*

Yana stol atrofiga o'tirib olamiz va hamma o'z savatchasidan kesilgan geometrik shakllarni olsin.

**1-bola:** – Voy, bu doira yarimta-ku!

**Tarbiyachi:** – Barakalla, ziyrak bolam, savatchangizni yaxshilab qarasangiz, shu shaklning yarmini topasiz.

*(Topshiriq: bolalar savatchasidagi shakllarning yarmini topadi va oq qog'ozga yelimlaydi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, sizlar hamma shaklning yarmini topganingiz uchun, oq qog'ozda butun shakllar hosil bo'ldi. Endi qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markaziga o'tib, maktab binosini quramiz. Aytingchi bolalar, maktabda nimalar bo'ladi?

**1-bola:** – O'quvchilar o'qiydi, yozadi, dars tayyorlaydi...

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri, biz ham katta bo'lib, maktabga boramiz. Kelinglar, o'zimiz boradigan maktab binosini mana bu shakllardan foydalanib quramiz. Aytingchi, maktabning poydevoriga qanday shakl ishlatish mumkin?

**2-bola:** – To'g'ri to'rtburchak.

**Tarbiyachi:** – Unda poydevorga nechta to'g'ri to'rtburchak ketganini sanaymiz...

*(Maktabning devori, deraza va eshiklari ham shu tariqa quriladi va sanaladi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla. maktabimiz judayam chiroyli chiqdi. Endi hammamiz saf bo'lamiz va men qanday shaklni aytsam, siz uni so'zsiz harakatlar bilan tushuntirib berasiz.

*(Bolalar harakatlar yordamida shakllarning ko'rinishini ifodalaydi).*



## TO'G'RI VA TESKARI SANASHGA O'RGATISH. BUTUNNI 4 TA TENG QISMGA BO'LISHGA O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda 10 dan 1 gacha teskari sanash ko'nikmasini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, tasavvurlarini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** sanoq cho'plar, AKT, tarqatma materillar, kartochkalar.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir men bir deyman, yonimdagi bola 2 sonini aytadi, yonidagi keyingi sonni aytadi, qani ketdik...

*(Shu tariqa o'yin davom ettiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, stol ustida rangli qalamlarni sanaymiz: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10. Endi shu qalamlarni teskari sanashni o'rganamiz. Buning uchun har bir sonning joylashgan o'rini, qo'shni sonlarini yaxshi bilib olishimiz kerak. Shundagina biz teskari sanashga qiynalmaymiz.

Monitorga qarang, 3 sonining oldi bo'sh turibdi, o'sha joyda nechchi bo'lishi kerak?

**1-bola:** – 2 soni bo'lishi kerak.

**Tarbiyachi:** – Juda to'g'ri, 3 sonidan keyin qanday son kelarkan?

**2-bola:** – 4 soni keladi.

**Tarbiyachi:** – Demak, 3 sonining qo'shnilari 2 va 4 sonlaridir.

*(Tahlil shu tariqa olib boriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi hammamiz qator bo'lib turamiz, "bir" deb o'rtog'imizga qo'l uzatamiz, ikkinchi bola "ikki" deb keyingi o'rtog'iga qo'l uzatadi.

*(Shu tariqa ikki yoki uchta doira hosil qilinadi va hamma o'z sonini eslab qoladi. Doira aylangan holatda bolalar o'z sonlarini aytishadi va*



*ra harakatiga qarama-qarshi holatda aylanadi va o'z-o'zidan tartib 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1 tarzida sanaladi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla bolajonlar, endi magnitli sonlarni avval tartibdan, keyin esa teskarisiga yopishtiramiz.

*(Buning uchun bolalar tasodifiy tanlangan holatda doskaga taklif etiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, qo'llarimizni tepaga ko'taramiz va oldinga qaratamiz, qo'l barmoqlarimizni avval o'ngga qarab, keyin orqaga qarab, o'rovoz bo'lib sanaymiz.

*(Bu usul orqali bolalar sonlarni eslab qoladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu oyoqlarimizni uqalovchi yo'lakchadagi izlarni sanaymiz: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10. Endi shu yo'lakchadan orqaga qarab yuramiz va orqaga qarab sanaymiz.

*(Har bir bola yo'lakchada yuradi va o'ngga, teskariga sanaydi).*

**Tarbiyachi:** – Endi, mana bu tarelkadagi olmaga qarang. Nima yuz berdi?

**3-bola:** – Olma 2 ga bo'lindi.

**Tarbiyachi:** – Endi-chi?

**4-bola:** – 4 ga bo'lindi.

**Tarbiyachi:** – Endi esa qo'lingizdagi rangli qog'ozdan yasalgan doirani siz ham xuddi olmadek teng to'rt bo'lakka ajrating.

*(Topshiriq tarbiyachi yordamida amalga oshiriladi).*

## QO'SHNI SONLAR HAQIDA TUSHUNCHA BERISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga sonlar orasidagi bog'liqlikni tushuntirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalar sonlar ketma-ketligi misolida, qaysi son qaysinisidan katta yoki kichikligini o'rganadilar;

**Tarbiyaviy:** bolalar jamoa bo'lib ishlash malakasiga ega bo'ladilar.

**Kerakli jihozlar:** AKT, turli o'yinchoqlar, tarqatma materiallar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar endilikda birdan o‘ngacha bo‘lgan sonlar haqida yaxshi bilasiz. Ularni sanashni, farqlashni o‘rgandingiz. Bugun esa ana shu sonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganamiz. Bolajonlar qo‘limda nima ushlab turibman?

**Bolalar:** – Zanjir ushlab turibsiz.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri, zanjir xalqalari bir-biriga judayam bog‘langan. Ulardan bittasi tushib qolsa, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik yo‘qoladi. Chunki ularning biri bajargan ishni ikkinchisi xuddi uningdek bajara olmaydi. Xuddi shuning singari sonlar ham o‘zaro bog‘liq va ular xuddi ahil aka-ukalar kabi birga bo‘ladilar. Hozir hammangiz monitorga diqqat bilan qarang. Unda qaysi son tasvirlangan?

**Bolalar:** – 3 va 5

**Tarbiyachi:** – 3 qaysi sondan katta va qaysi sondan kichik?

**Bolalar:** – 3 ikkidan katta va to‘rt dan kichik.

**Tarbiyachi:** – Xo‘p, uch va besh soni o‘rtasida qaysi son yo‘qolib qolgan?

**Bolalar:** – To‘rt soni.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri.

**Tarbiyachi:** – Yana qarang, monitorda to‘rt va olti soni ko‘rinayapti, ularning o‘rtasida qaysi son yo‘qolib qolibdi?

**Bolalar:** – Besh soni yo‘qolib qolibdi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, besh soni bir tomondan to‘rt soni bilan qo‘shni, ikkinchi tomondanchi?

**Bolalar:** – Ikkinchi tomondan olti soni bilan qo‘shni.

**Tarbiyachi:** – Monitorda sakkiz soni ko‘rinayapti, u qaysi sonlar bilan qo‘shni?

**Bolalar:** – Sakkiz soni bir tomondan yetti bilan, ikkinchi tomondan to‘qqiz soni bilan qarindosh.

**Tarbiyachi:** – Barakalla. Hozir sizlarga tarqatma materiallar tarqataman. Sizlar ularni sonlar ketma-ketligida taxlaysiz. Bu ish uchun sizlarga besh daqiqa beraman.

*(Amaliy ish jarayonida bolalar sonlarni taxlaydilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Men stolning ustini taqqillataman, sizlar necha marta taqqillatgan bo‘lsam ana o‘shandan keyin keladigan songa mos qarsak chalasiz. Ham-



ma tayyormi?

**Bolalar:** – Tayyor.

*(Tarbiyachi ikki, to‘rt, olti, sakkiz marta stol ustini taqqillatadi, bolalar esa uch, besh, yetti va to‘qqiz marta qarsak chaladilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kecha biz yo‘g‘imizda kimdir kirib xonadagi narsalarimizning tartibini buzib ketibdi. Shuning uchun ham doskamizdagi ayrim sonlar yo‘q ekan. Qani qaranglarchi, qaysi son yo‘qolib qolibdi?

**Bolalar:** – 1, 3, 5, 7, 10 sonlari yo‘qolib qolibdi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, biz matematikadan ta‘limiy faoliyatda ularsiz qiynalib qolamiz, o‘zimizga kerakli sonlarni chiqara olmaymiz. Kelinglar, shuning uchun hozir yo‘qolgan sonlarni birgalikda yasaymiz.

*(Tarbiyachi va bolalar birgalikda yo‘qolgan sonlarni yasaydilar).*

## DOIRA, OVAL, SHAR, KUB, SILINDR

**Ta‘limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilarda doira, kvadrat, uchburchak, to‘rtburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik tuyg‘ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o‘rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, doira, kvadrat, uchburchak shakllari, kartochkalar.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi kungacha biz qanday geometrik shakllarni o‘rganganmiz?

(Monitorda kvadrat, uchburchak, to‘rtburchak, doira, oval shakllarining obrazli shakldagi suratlari ko‘rsatiladi).

**1-bola:** – Biz kvadrat, uchburchak, to‘rtburchak, doira, oval shakllarini o‘rgangan edik.

**Tarbiyachi:** – Bugun Geometrik shakllar mamlakatida yana ikkita yangi shakl paydo bo‘libdi. Kelinglar, bugun ular bilan tanishamiz.



**Kub:** – Bolajonlar, mening tanamni tepadan qarab kuzatsangiz, uchburchakka o‘xshaydi, lekin quyi qismimga mana bunday doira yopishtirib qo‘yilgan. Shuning uchun mening ichim puch emas, mana bunday baquvatman.

(Kubning hamma tomoni bolalarga ko‘rsatiladi).

**Tarbiyachi:** – Bolalar, aytingchi, kubga atrofimizdagi nimalar o‘xshaydi?

**Bolalar:** – (suratga qarab) Baliq tanasi kubga o‘xshaydi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu silindr maketiga qaraymiz va uning boshqa shakllardan nimasi bilan farqlanishini bilib olamiz.

**Silindr:** – Mening tanam esa trubaga o‘xshaydi, lekin puch bo‘lib qolmasligim uchun ikki tomonim doira yordamida berkitilgan.

(Silindr maketi atroflari bilan bolalarga ko‘rsatiladi).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, atrofimizdagi qaysi buyumlar silindrga misol bo‘la oladi?

**1-bola:** – Gul tuvagi, guldon, stakan silindrga misol bo‘la oladi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi doira va ovalning o‘xshashligi va farqini topamiz. Buning uchun monitorga qaraymiz.

(Monitorda doira shaklidagi predmetlarga va oval shaklidagi predmetlarga misollar ko‘rsatiladi).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar aytingchi, uchburchak bilan kubning farqi nimada ekan?

**1-bola:** – Uchburchakda hajm yo‘q, kubda esa hajm bor.

Shu tariqa o‘yin davom ettiriladi.

## POYEZDCHA YORDAMIDA HAFTA KUNLARINI O‘RGATISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarning hafta kunlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** hafta kunlari nomini nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasini shakllantirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlikka, boshlagan ishini oxirigacha yetkazishga o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochka, 1 va 8 sonlari.



### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu yerda kimdir raqamlarni aralashtirib qo'yib ketibdi. Bu yerda har biringizga yetadigan birdan yettigacha bo'lgan raqamlar bor. Qani, hammangiz stol yoniga keling va o'zingiz uchun birdan yettigacha bo'lgan raqamlarni olib, ularni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiring.

*(Bolalar topshiriqni bajaradilar).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, topshiriqni judayam yaxshi uddaladingiz. Endi aytinglar-chi, kecha qaysi kun edi?

**Bolalar:** – Kecha seshanba edi.

**Tarbiyachi:** – Bugunchi?

**Bolalar:** – Bugun chorshanba.

**Tarbiyachi:** – Bolalar diqqatingizni monitorga qarating.

U yerda yettita do'st-o'rtoq tasvirlangan. Hozir sizlar raqamini aytasiz, men esa o'sha raqamdagi kunlarni aytaman. Demak, birinchi raqamdagi kunimizning nomi dushanba, haftaning boshi sanaladi. Ikkinchi kuni seshanba, uchinchi kuni chorshanba, to'rtinchi kuni payshanba, beshinchi kuni juma, oltinchi kuni shanba va yettinchi kuni yakshanba.

Bolalar sizlar qaysi kunlari bog'chaga kelasizlar?

**Bolalar:** – Dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma kunlari bog'chaga kelamiz.

**Tarbiyachi:** – Qaysi kunlari dam olasizlar? Necha kun kelib, necha kun kelmas ekansiz?

**Bolalar:** – Shanba va yakshanba kunlari dam olamiz. Besh kun kelib, ikki kun kelmas ekanmiz.

**Tarbiyachi:** – Ota-onangiz qaysi kuni dam oladilar?

**Bolalar:** – Ota-onamiz yakshanba kuni dam oladilar.

**Tarbiyachi:** – Hozir sizlarga yetti xil rangdagi kartochkalarni tarqataman. Birinchi rang ko'k va u dushanbani bildiradi. Ikkinchi rang yashil va u seshanbani bildiradi, uchinchi rang sariq va u chorshanbani bildiradi, to'rtinchi rang zarg'aldoq va u payshanbani bildiradi, beshinchi rang to'q ko'k va u jumani bildiradi, oltinchi rang pushti va u shanbani bildiradi va yettinchi rang qizil va u yakshanbani bildiradi. Yakshanbani qizil rang-



da taqvimlarda ham belgilashadi. Monitorga qarasangiz qaysi rang qaysi sonligi rangli qilib qo'rsatib qo'yilgan. Men sizlarga suratlar ko'rsataman, sizlar uni qaysi kunga mos kelishini aytib berasizlar.

*(Suratda ona bilan bog'chaga kelayotgan bolakay, ota-onasi bilan istirohat bog'idagi qizaloq, dadasi bilan bog'cha eshigini ochayotgan bola, oila a'zolari daryo atrofida o'tirgani tasvirlangan bo'ladi, bolalar suratga mos kartochkalarni ko'taradilar)*

**Tarbiyachi:** – Endi esa men sizlarga raqam ko'rsataman, sizlar o'sha raqamdagi kun nomini aytasizlar.

*(Tarbiyachi 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 va 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1 raqamlarini ko'rsatadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana bu savollarimga javob bering.

Chorshanba qaysi kundan oldin keladi?

Payshanbadan keyingi kun qaysi?

Hafta kunlarini birma-bir sanab bering.

Haftaning yettinchi kunida bog'chaga kelamizmi?

Ota-onamiz qaysi kunlari ishlaydilar?

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu yerda o'yinchoq poyezdcha bor. Poyezd vagonlarining soni nechta ekan?

**Bolalar:** – 7 ta.

**Tarbiyachi:** – Biz vagonlarni hafta kunlariga qiyoslasak, birinchi vagon qaysi kun bo'ladi?

**Bolalar:** – Dushanba.

**Tarbiyachi:** – Ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi va yettinchi vagonlarni hafta kuni bilan nomlasak qanday bo'ladi?

**Bolalar:** – Seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri. Bolajonlar, qaranglar men vagonlardan ikkinchi va to'rtinchi vagonni olib qo'ydim. Demak, qaysi hafta kunlari yo'qolib qoldi?

**Bolalar:** – Seshanba, payshanba.

**Tarbiyachi:** – Poyezdning eng oxirgi vagoni qanday nomlanadi?

**Bolalar:** – Yakshanba.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizda juda faol ishtirok etdinglar. Ana, sonlarimiz tayyor bo'ldi, qani endi ularni



dloskaga ketma-ketlikda terib qo'yamiz. (*Shu payt monitordan kulgi ovozi eshitaladi*).

**Tarbiyachi:** – Bolalar, ko'rdinglarmi, sonlar oilasi jamuljam bo'lgani uchun xursandchilikdan rosa kulishdi. Sizlar ham har doim quvnoq va xursand bo'lib yuringlar.

## NUQTALARNI BIRLASHTIRISH ORQALI 10 GACHA BO'LGAN SONLARNING TARTIBINI O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** bolalarda 10 gacha bo'lgan sonlarni sanash malakalarini mustahkamlash, 10 soni bilan tanishtirish, son-sanoq ko'nikmalarini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** sonlar haqida tushunchalarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, diqqatni, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonli kartochkalar, magnitli sonlar, nuqtalarni birlashtirish bo'yicha didaktik material.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Mening zukko bolajonlarim, atrofga qarab, 1 dan 10 gacha yozilgan sonlar qatorini topingchi!

**1-bola:** – Opajon, kitob javoniga sonlar terib qo'yilgan ekan.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi hammamiz jo'r bo'lib, birgalikda sanaymiz: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10. Endi stolimizga o'tirib olamiz va qog'ozga e'tibor beramiz. Unda nima tasvirlangan?

**2-bola:** – Nuqtalar va tartibsiz yozilgan sonlar.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri, endi qalamlarimizni olamiz va sonlar ketma-ketligiga qarab, nuqtalarni bir-biri bilan birlashtiramiz.

(*Amaliy ish tarbiyachi nazorati ostida olib boriladi*).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, nimaning tasviri hosil bo'ldi?

**3-bola:** – Barg rasmi hosil bo'ldi.

**Tarbiyachi:** – Hozir rangli qalamlarimizni olamiz va barglarimizni



bo'yaymiz.

*(Bo'yab bo'lingan barglar doskaga magnit yordamida yopishtiriladi va 10 talab sanaladi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi men sizlarga son aytaman, sizlar esa savatchangizdagi sanoq cho'plardan o'shancha sanab olasiz.

*(10 gacha bo'lgan sonlar tartibi o'zgargan holda aytiladi, bolalar esa o'shancha sanoq cho'plarni oladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi o'rnimizdan turamiz va dam olish daqiqasi o'tkazamiz:

O'nta barmoq, ikki panja,

Bir-bir chapak chalamiz.

Ikki ko'zu ikki quloq,

Sizga kulib qo'yamiz.

*(Matnga mos harakatlar bajariladi, 3-4 marta takrorlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi yana stullarimizga joylashib olamiz va har birimiz nuqtalarni birlashtirib chiqamiz.

*(Tarbiyachi rahbarligida bolalar amaliy ishga yo'naltiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kimda qaysi rasm hosil bo'ldi?

*(Bolalar javobini aytishadi, hammada har xil shakl hosil bo'ladi).*

**Tarbiyachi:** – Endi men doskada nuqtalarni birlashtiraman, sizlar esa qaysi sondan keyin qaysi son kelishini menga aytib turasiz, "Xatoimni top" o'yinini o'ynaymiz.

*(Tarbiyachi jarayonda bolalarni yanglishtirishga urinadi, sonlar ketma-ketligini o'zgartirib aytadi).*

## MASHINALAR UCHUN TURARGOH YASASH ORQALI GEOMETRIK SHAKLLAR HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda chamalash, mo'ljall olish ko'nikmalarini shakllantirish, geometrik shakllar haqidagi tushunchalarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarni ijodkorlikka o'rgatish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirish;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantirish, guruh bo'lib



ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materillar, geometrik shakllar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hammamizning uyimiz bor-a?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Ekranga qarang-chi, unda nimalarning uyi tasvirlangan ekan?

**Bolalar:** – Ekranda kuchukcha va mushukchanning uychalari tasvirlangan, ular to'rtburchak shaklida ekan.

**Tarbiyachi:** – Ular bir-biriga o'xshar ekanmi?

**Bolalar:** – Kuchukning uyi kattaroq, mushukning uyi kichkinaroq ekan.

**Tarbiyachi:** – Yana qanday hayvon yoki parrandaning uyini ko'rgansizlar, u qanaqa shaklda edi?

**1-bola:** – Bizning uyda tovuqlar bor. Ularning uychasi to'rtburchak shaklda, atrofi teshiklari bor sim panjara bilan o'ralgan.

**Tarbiyachi:** – Nima uchun sim panjarani devor uchun tanlashgan ekan-a?

**Bolalar:** – Chunki tovuqlarga donni o'sha panjara teshiklaridan berib turishadi.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, juda to'g'ri topdingiz. Endi aytinglar-chi, ekranda nimani ko'ryapsizlar?

**Bolalar:** – Bitta mashinani.

**Tarbiyachi:** – Uning nechta g'ildiragi bor ekan va g'ildiraklar qanday shaklda?

**Bolalar:** – G'ildiraklar to'rtta va ular doira shaklida.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri. Endi diqqatingizni yana monitorga qaring. Unda nimani ko'ryapsizlar?

**Bolalar:** – Ko'p mashinalarni.

**Tarbiyachi:** – Ko'p mashinalarni son bilan sanang.

**Bolalar:** – 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10.

**Tarbiyachi:** – Endi o'ndan ortga qarab sanang.

**Bolalar:** – 10, 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mashinaning uyi bormi, u nima deb ataladi?



**Bolalar:** – Mashinaning uyi garaj deyiladi.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri. Suratdagi o‘nta mashina uchun turargoh qurishimiz kerak. Buning uchun o‘nqir-cho‘nqir yer tanlaymizmi? Yoki tekisroq yermi?

**Bolalar:** – Tekis yer bo‘lgani yaxshi, shunda mashina g‘ildiragi yedirilmaydi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, mashinalar uchun avtoturargohni qanday shaklda qurganimiz ma‘qul? Kelinglar, kubiklar yordamida avtoturargohni uchburchak shaklida qurib ko‘ramiz.

*(Geometrik kubiklar yordamida bolalar tarbiyachi bilan birga uchburchak avtoturargoh qurishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, eni avtoturargohimizga mashinalarni qo‘yib ko‘raylik-chi, ularga nechta mashina sig‘ar ekan?

*(Bolalar yettita mashinani avtoturargohga sig‘dirishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, uchburchak shakl avtoturargoh uchun qulay ekanmi?

**Bolalar:** – Unchalik qulay emas ekan, unga hamma mashina sig‘madi, ham mashinalar kirib-chiqishiga qiyinlik qildi.

**Tarbiyachi:** – Aylana shaklida avtoturargoh qursakchi?  
*(Bolalar aylana shaklida avtoturargoh qurishadi).*

**Tarbiyachi:** – Xo‘sh, bolajonlar, bu avtoturargoh sizlarga yoqdimi?

**Bolalar:** – Chiroyli chiqdi, lekin to‘g‘ri to‘rtburchak avtoturargoh judayam chiroyli bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Judayam to‘g‘ri fikrni aytdingiz. Hozir zamonaviy avtoturargohlar bir nechta qavatli qilib ham qurilayapti. Kelinglar, bizlar siz bilan hozir bir qavatli avtoturargoh yasaymiz.

*(Bolalar monitordagi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi avtoturargohni yasashadi).*

**Tarbiyachi:** – Ana, endi avtoturargohimiz rosa chiroyli bo‘ldi. Uning yoniga yana qanday binolarni qursak bo‘ladi?

**2-bola:** – Avtoturargohning o‘ng yoniga mashinalarni yuvadigan joy va chap yoniga mashinalar tuzatish ustaxonasi qurish kerak.

**Tarbiyachi:** – O‘rinli taklif. Bolajonlar, mashinalar yuvish joyi va ustaxona qurishdan oldin sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Tasavvur qiling, siz mashina haydayapsiz, yo‘ldan yo‘lovchi ko‘rina-



pti.

Qo'llarimiz rulda bip-bip-bip deymiz.

O'ngga qayrilamiz, o'ng qo'limiz tepaga o'ngga qaraymiz.

To'g'ri ketaveramiz, qo'llarimiz rulda.

To'xtab nafas rostlaymiz. Nafas olib nafas chiqaramiz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mashinalarni yuvish va mashina tuzatish ustaxonasining tayyor kartondan yasalganlari bor ekan. Kelinglar, ularni avtoturargohning o'ng va chap tomonlariga joylashtiramiz.

*(Bolalar tarbiyachi bilan birga kartonli maketlarni aytilgan joyga qo'yishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bu galgi ta'limiy faoliyatda har doimgidan ham faolroq bo'ldinglar. Sizlarga rahmat.

#### 4 QISMGA BO'LISH BO'YICHA KO'NIKMALARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda 10 gacha bo'lgan sonlarni sanash malakalarini mustahkamlash, predmetlarni teng 4 ga bo'lib ko'rsatish orqali tasavvurlarini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** sonlar haqida tushunchalarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, xotirasini charxlash;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, diqqatni, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonli kartochkalar, magnitli sonlar, kartochkalar, yarim va butun shakllar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, monitorga qarang. Bular qaysi ertak qahramonlari?

**Bolalar:** – Masha va ayiq multilmi qahramonlari.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bu ertakda ayiq qanday qahramon?

**Bolalar:** – Sodda, oqko'ngil, qo'pol, mehribon...

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri, bir kuni ayiq qizaloq Mashaga bo'tqa



**Bolalar:** – Mashinaning uyi garaj deyiladi.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri. Suratdagi o‘nta mashina uchun turargoh qurishimiz kerak. Buning uchun o‘nqir-cho‘nqir yer tanlaymizmi? Yoki tekisroq yermi?

**Bolalar:** – Tekis yer bo‘lgani yaxshi, shunda mashina g‘ildiragi yedirilmaydi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, mashinalar uchun avtoturargohni qanday shaklda qurganimiz ma‘qul? Kelinglar, kubiklar yordamida avtoturargohni uchburchak shaklida qurib ko‘ramiz.

*(Geometrik kubiklar yordamida bolalar tarbiyachi bilan birga uchburchak avtoturargoh qurishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, eni avtoturargohimizga mashinalarni qo‘yib ko‘raylik-chi, ularga nechta mashina sig‘ar ekan?

*(Bolalar yettita mashinani avtoturargohga sig‘dirishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, uchburchak shakl avtoturargoh uchun qulay ekanmi?

**Bolalar:** – Unchalik qulay emas ekan, unga hamma mashina sig‘madi, ham mashinalar kirib-chiqishiga qiyinlik qildi.

**Tarbiyachi:** – Aylana shaklida avtoturargoh qursakchi?

*(Bolalar aylana shaklida avtoturargoh qurishadi).*

**Tarbiyachi:** – Xo‘sh, bolajonlar, bu avtoturargoh sizlarga yoqdimi?

**Bolalar:** – Chiroyli chiqdi, lekin to‘g‘ri to‘rtburchak avtoturargoh judayam chiroyli bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Judayam to‘g‘ri fikrni aytdingiz. Hozir zamonaviy avtoturargohlar bir nechta qavatli qilib ham qurilayapti. Kelinglar, bizlar siz bilan hozir bir qavatli avtoturargoh yasaymiz.

*(Bolalar monitordagi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi avtoturargohni yasashadi).*

**Tarbiyachi:** – Ana, endi avtoturargohimiz rosa chiroyli bo‘ldi. Uning yoniga yana qanday binolarni qursak bo‘ladi?

**2-bola:** – Avtoturargohning o‘ng yoniga mashinalarni yuvadigan joy va chap yoniga mashinalar tuzatish ustaxonasi qurish kerak.

**Tarbiyachi:** – O‘rinli taklif. Bolajonlar, mashinalar yuvish joyi va ustaxona qurishdan oldin sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Tasavvur qiling, siz mashina haydayapsiz, yo‘ldan yo‘lovchi ko‘rina-



yapti.

Qo'llarimiz rulda bip-bip-bip deymiz.

O'ngga qayrilamiz, o'ng qo'limiz tepaga o'ngga qaraymiz.

To'g'ri ketaveramiz, qo'llarimiz rulda.

To'xtab nafas rostlaymiz. Nafas olib nafas chiqaramiz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mashinalarni yuvish va mashina tuzatish ustaxonasining tayyor kartondan yasalganlari bor ekan. Kelinglar, ularni avtoturargohning o'ng va chap tomonlariga joylashtiramiz.

*(Bolalar tarbiyachi bilan birga kartonli maketlarni aytilgan joyga qo'yishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bu galgi ta'limiy faoliyatda har doimgidan ham faolroq bo'ldinglar. Sizlarga rahmat.

#### 4 QISMGA BO'LIH BO'YICHA KO'NIKMALARNI MUSTAHKAMLASH

##### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda 10 gacha bo'lgan sonlarni sanash malakalarini mustahkamlash, predmetlarni teng 4 ga bo'lib ko'rsatish orqali tasavvurlarini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** sonlar haqida tushunchalarini mustahkamlash, mantiqiy fikrlashga o'rgatish, xotirasini charxlash;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, diqqatni, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonli kartochkalar, magnitli sonlar, kartochkalar, yarim va butun shakllar.

##### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, monitorga qarang. Bular qaysi ertak qahramonlari?

**Bolalar:** – Masha va ayiq multfilmi qahramonlari.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bu ertakda ayiq qanday qahramon?

**Bolalar:** – Sodda, oqko'ngil, qo'pol, mehribon...

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri, bir kuni ayiq qizaloq Mashaga bo'tqa



pishirib, tarelkaga suzib bermoqchi ekan, bexosdan uni sindirib qo'yibdi. Kelinglar, hozir stolingizdagi tarelka bo'laklarini oq qog'ozga yelimlab, uni butun qilishga urinamiz. Bu harakatimiz bilan biz ayiqpolvonga yordam bergan bo'lamiz.

*(Bolalar 4 bo'lakka bo'lingan tarelka bo'laklarini yelimlab, bir butunlik hosil qiladi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla bolajonlar, aytingchi, tarelka necha bo'lakka bo'linib, sinib qolgan ekan?

**Bolalar:** – 4 bo'lakka.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri, tarelkaning rangi qanaqa ekan?

**Bolalar:** – Sariq.

**Tarbiyachi:** – Mana bu tarelkaning yarmi hisoblanadi, mana bu esa to'rtadan biri hisoblanadi.

*(Tarbiyachi tarelka bo'laklarini qo'liga olgan holda tushuntiradi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlarga tarelkasini butunlab berganingiz uchun ayiqpolvon rahmat aytayapti. Ha aytgancha, Masha judayam harakatchan qiz bo'lgani uchun, u tarelkadagi bo'tqani bir zumda paqqos tushiribdi. Shuning uchun mana bu bananni ham yemoqchi bo'libdi. Lekin ayiqpolvonnikiga bo'ri va tulki ham mehmonga kelgan ekan. Topingchi, ayiqpolvonning uyidagilar soni nechta bo'ldi?

**Bolalar:** – Ayiqpolvon, Masha, tulki va bo'ri – jami 4 ta.

**Tarbiyachi:** – Endi aytingchi, bananni Mashaning bir o'zi yeb qo'yishi odobdanmi?

**Bolalar:** – Yo'q.

**Tarbiyachi:** – Unda nima qilish kerak?

**Bolalar:** – Bananni 4 ga bo'lib yeyish kerak.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, unda Mashaga bananni bo'lishga yordam beramiz.

*(Bolalarning har biri o'z savatchalaridagi banan suratini teng to'rtga bo'lib, kesishadi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, Masha ham mushkulini oson qilganlaringiz uchun sizlardan juda xursand bo'ladi.

**“XATONI TOP” MANTIQUIY O'YINI ORQALI KO'RSATILGAN  
YO'NALISH BO'YICHA HARAKATLANTIRISHGA O'RGATISH**



### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarni mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarni ijodkorlikka o'rgatish, ularda tasavvurni rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlik qobiliyatini rivojlantirish, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma kartochkalar, o'yinchoqlar, geometrik shakllar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qadrdon bolajonlarim! Diqqatingizni monitorga qarating, unda nima tasvirlanibdi?

**1-bola:** – Doira shaklining uchta qismi tasvirlanibdi.

**Tarbiyachi:** – Unga qanday shakl qo'ysak butun bo'ladi?

**3-bola:** – Unga bitta uchburchak shaklini qo'ysak bu shakl butun bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Endi mana yana monitorga qaranglar, unda nima tasvirlanibdi?

**Bolalar:** – Unda yarimta olma tasvirlangan ekan.

**Tarbiyachi:** – Olma butun bo'lishi uchun nima qilish kerak?

**4-bola:** – Yana yarimta olma qo'yish kerak.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar bilan “Xatoni top” o'yinini o'ynaymiz. Men sizlarga gaplar aytaman, sizlar u rost bo'lsa qarsak chalasiz, agar yolg'on bo'lsa oyog'ingizni yerga urasiz.

Daraxtning bo'yi guldan past.

Osmon yerdan pastda.

Bolaning bo'yi dadasinikidan baland.

Stol eshikdan katta.

Piyola choynakdan katta.

Qoshiq cho'michdan katta.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar xatolarni to'g'ri topib berdinglar, barakalla. Endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

O'ngga desam xuddi askarlardek o'ngga qadam tashlaysiz, chapga



desam chap tomonga qadam tashlaysiz. Oldinga desam old tomonga bir qadam, ortga desam orqaga bir qadam tashlaysizlar.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa diqqatingizni monitorga qarating. Unda surat tasvirlangan. Bir kuni bir odam uy yig'ishtiribdi, faqat ilgari hecham bunday ish qilmagani uchun rosa qiynalibdi. U buyumlardan nimaning qayerga qo'yishni bilmasdan, rosayam boshi qotibdi va to'g'ri kelgan joyga qo'liga tushgan buyumni qo'yaveribdi.

Suratga qarang va u yerdagi nima buyumlar xato qo'yilganini topib bering.

**5-bola:** – Suratda televizor ustiga gultuvakda gul qo'yilgan, televizor ustiga narsa qo'yish mumkin emas.

**Tarbiyachi:** – Unda gullar nechta ekan?

**6-bola:** – Ikkita ekan.

**Tarbiyachi:** – Xo'p, bolalar, gullarni qayerga qo'ygan ma'qul deb o'ylaysizlar?

**7-bola:** – Gullarni eshikka yaqin turgan to'rtburchak stolcha ustiga qo'ygan yaxshi. Chunki o'sha yerga quyosh nurlari tushib turibdi.

**Tarbiyachi:** – Xo'sh, yana qanday xatoliklarni ko'ryapsiz?

**8-bola:** – Pianinoning barmoqlar qo'yib chalinadigan joyiga kitob qo'yib qo'yilibdi, bu noto'g'ri. Kitobni suratda ko'rinayotgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi javonga qo'ygan yaxshiroq.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, xo'sh, yana qanday xatoliklar topdingiz?

**9-bola:** – Supurgi javon ustiga qo'yib qo'yilgan, uni xona tashqarisiga qo'ygan ma'qul.

**Tarbiyachi:** – Yana qandaydir xato payqadingizmi?

**10-bola:** – Suratda stol xonaning o'ng tomonida, uning to'rtta stullari esa undan anchagina uzoqda etib tasvirlangan. Stullar stol yonida bo'lishi kerak.

**Tarbiyachi:** – Sizlar judayam ziyrak bo'lib borayapsizlar. Bundan judayam xursandman, endi esa har biringizga tarqatma material beraman. Sizga bergan suratimda bola mushukcha ona mushukchani oldiga yo'l topolmayapti. Sizlar qalam yordamida o'ngga, chapga yuqoriga pastga belgilarini chizib, ona va bola mushukchani birga bo'lishiga yordam beringlar.

*(Amaliy ish jarayonida tarbiyachi bolalarni nazorat qilib turadi).*



## VAQT BILAN TANISHTIRISH (YIL FASLLARI MISOLIDA)

### **Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda yil fasllarini farqlash va ularning nomi-ni eslab qolishiga yordam beradigan didaktik muhit yaratish, vaqt haqida-gi bilimlarini mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** chamalaydi, diqqati rivojlanadi, kuzatuvchanligi or-tadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do'stlik, o'zaro hamjihatlik tuyg'ulari rivojlana-di, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, yil fasllariga doir plakat va kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizda bizni ajoyib sayohat kutmoqda. Qarang, 4 ta sehrli fasllar bizni mehmonga chorlamoq-da. Toppingchi, mana bu qaysi fasl shohi ekan?

**1-bola:** – Bu qish fasli ekan.

**Tarbiyachi:** – Demak, birinchi bo'lib kumush qishnikiga mehmonga boramiz.

**Qish:** – Bolajonlar, mening saroyimga xush kelibsiz, kumush qish mamlakatida uch oy qorli-qirovli kunlar hukm suradi. Mening sifatlarim-ni aytib beringchi.

**Bolalar:** – Qishda qor yog'adi, kunlar sovuq bo'ladi.

**Qish:** – Bolajonlar, mening qaysi xususiyatlarim sizlarga ko'proq yo-qadi?

**Bolalar:** – Qorbo'ron o'ynaymiz, chana uchamiz, yangi yil bayrami bo'ladi, qorbobo va qorqiz keladi...

*(Monitorda mazkur faslga mos suratlar ko'rsatiladi).*

**Qish:** – Barakalla, mening mamlakatimda kunduz kuni qisqaroq, ke-chasi uzoqroq bo'ladi. Qish fasli dekabr, yanvar va fevral oylarini qamrab oladi.



*(Bolalarga oy nomlari takror aytiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bizni bahor malikasi kutib turibdi, keling, endi Bahoroynikiga boramiz.

**Bahoroy:** – Bolajonlar, men Bahoroymen, aytingchi. mening mamlakatimda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

**Bolalar:** – Bahorda yomg'ir yog'adi, onajonlar bayrami, Navro'z bayrami bo'ladi, sumalak pishiriladi...

**Bahoroy:** – Judayam to'g'ri, mening mamlakatimda quyosh yerni qizdiradi, dalalarga ekinlar ekiladi, daraxtlar barg chiqaradi, gullaydi, kun va tunning uzunligi bir xil bo'ladi.

*(Monitorda mazkur faslga mos suratlar ko'rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa quyoshli yoz bizni intiqlik bilan kutmoqda.

**Yoz:** – Bolajonlar, mening mamlakatim turli mevalu sabzavotlarga boy va ajoyibdir. Aytingchi, mening qaysi xususiyatlarim sizlarga yoqadi?

**Bolalar:** – Yozda kunlar issiq bo'ladi, bolalar basseynlarda cho'miladi, mevalar pishadi...

*(Monitorda mazkur faslga mos suratlar ko'rsatiladi).*

**Yoz:** – Judayam bilag'on ekansizlar, bolajonlar, mening mamlakatimda quyosh nurlari kuchli nur sochadi, kunlar uzoq, tun esa qisqaroq bo'ladi. Aytingchi, yoz oylari qaysilar ekan?

**Bolalar:** – Iyun, iyul, avgust oylari.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi bizni oltin kuz o'z huzurida kutmoqda.

**Kuz:** – Bolajonlar, meni taniysizlarmi, kuzda nimalar ro'y beradi?

**Bolalar:** – Kuzda daraxtlar bargi sarg'ayadi, yomg'ir yog'adi, hosil yig'ib olinadi...

*(Monitorda mazkur faslga mos suratlar ko'rsatiladi).*

**Kuz:** – Judayam to'g'ri, kuzda mustaqillik bayrami, o'qituvchi va murabbiylar kuni va hosil bayramlari nishonlanadi. Mening mamlakatimda hamma yoq sarg'ish, qizg'ish tusga kiradi. Men sizlarni mana bunday bir-biridan shirin mevalar bilan siylayman.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana to'rt faslnikiga mehmonga bordik, sayohatimiz sizlarga yoqdimi? Unday bo'lsa, keling, endi monitorga qarab barcha oy nomlarini sanaymiz.

*(Tarbiyachi yordamida oy nomlari sanaladi).*



**Tarbiyachi:** – Demak, bir yilda 12 ta oy, 4 ta fasl bor ekan.

## 15 GACHA BO‘LGAN SONLAR BILAN TANISHTIRISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarga 15 gacha bo‘lgan sonlarni sanashni o‘rgatish, sonlar bo‘yicha o‘tilganlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** 15 soni ichida tartib bilan sanashni o‘rgatish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish;

**Tarbiyaviy:** guruhda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar, sanoq cho‘plar.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, biz sizlar bilan shu kungacha nechagacha bo‘lgan sonlarni o‘tdik?

**Bolalar:** – Birdan o‘ngcha bo‘lgan sonlarni o‘tdik.

**Tarbiyachi:** – Qani, ularni bir eslab olaylik-chi.

**Bolalar:** – 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri, endi esa sizlar bilan 15 gacha bo‘lgan sonlarni o‘rganamiz. Hozir stollaringiz ustida turgan qalamlaringizni oling va undan o‘n donasini ajratib, chap tomoningizga qo‘ying. Endi unga bitta sariq qalam qo‘shing. Qalamlarimiz o‘n bitta bo‘ldi. Endi yana bitta yashil qalam qo‘shing. Qalamlarimiz soni 12 ta bo‘ldi. Yana bitta ko‘k qalam qo‘shamiz, qalamlarimiz soni 13 ta bo‘ldi. Yana bitta oq qalam qo‘shamiz. Qalamlarimiz soni 14 ta bo‘ldi. Yana bitta och havorang qalam qo‘shamiz. Qalamlarimiz soni endi 15 ta bo‘ldi. Bolalar, endi birgalikda 15 gacha sanab ko‘raylik-chi. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizlar hozir juft bo‘lib o‘tiribsizlar. Bittangiz ikkita qo‘lingizni stol ustiga qo‘ying va sanang. Nechta barmog‘ingiz bor ekan?

**Bolalar:** – 10 ta.

**Tarbiyachi:** – Xo‘p, endi yoningizdagi do‘stingiz bitta qo‘lini olib stol ustiga qo‘ysin. Va sizning ikkita qo‘lingizdagi barmoqlar soniga do‘stin-



gizning bitta qo'lidagi barmoqlar sonini qo'shamiz. Birga hosil bo'lgan son nechtaligini ovoz chiqarib birgalikda aytamiz.

**Bolalar:** – 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi do'stimizning qo'lini qo'shmasdan hisoblasak necha soni qoladi?

**Bolalar:** – 10.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz. Bir-birimizga qaraymiz va sherigimizga koptokni 15 marta bo'lguncha otamiz. Masalan, birinchi bola otadi bir, sherigi qaytaradi ikki, yana koptok otiladi 3 va shu tariqa o'n besh marta bo'lguncha davom etadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir har biringizga 15 tadan sanoq cho'p tarqataman. Sizlar ana shu cho'plar yordamida geometrik shakllar yasaysizlar. Sanoq cho'plardan shunday foydalaninglarki, ulardan birontasi ham ortib qolmasin.

*(Bolalarga sanoq cho'plar tarqatiladi, bolalar undan o'zlari istagan geometrik shakllarni yasashadi).*

**Tarbiyachi:** – Xo'sh, kim qanday shakllar yasadi?

**1-bola:** – Men beshta uchburchak shaklini yasadim. Har bir uchburchak uchun uchtadan sanoq cho'p ishlatdim.

**2-bola:** – Men uchta to'rtburchak va bitta uchburchak shaklini yasadim. To'rtburchak shakli uchun 12 ta va uchburchak shakli uchun uchta sanoq cho'pdan foydalandim.

**3-bola:** – Men uchta uchburchak va bitta uy shaklini yasadim, shunda hamma sanoq cho'plarimdan ishlatdim.

**Tarbiyachi:** – Uy uchun nechta sanoq cho'p ishlatding?

**4-bola:** – Uy uchun oltita sanoq cho'p ishlatdim.

**5-bola:** – Men ikkita to'rtburchak va ikkita uchburchak shakli yasadim. Shunda 15 ta sanoq cho'pimning hammasini ishlatdim.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar 15 sonini judayam yaxshi bilib olibsizlar, endi aytingchi, bu sondan oldin necha soni keladi?

**Bolalar:** – 14.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana bu savollarimga javob bering-chi.

O'n ikkidan keyin qaysi son keladi?

O'n to'rt dan oldin qaysi son keladi?

O'n birdan keyin qaysi son keladi?



O'n uch va o'n beshning o'rtasidagi son qaysi?

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi monitorga qaranglar, unda qaysi son o'rsatilgan bo'lsa, o'shancha marta qarsak chalasizlar.

## TAYOQCHALAR YORDAMIDA TURLI GEOMETRIK SHAKLLAR HOSIL QILISH

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda doira, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do'stlik, o'zaro hamjihatlik tuyg'ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, doira, kvadrat, uchburchak shakllari, kartochkalar, tayoqchalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, men hozir sizlarga mana bu shakllarni ko'rsataman, sizlar esa ularning nomlarini aytasiz.

*(Tarbiyachi bolalarga doira, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak, oval, silindr, kub kabi shakllar maketini ko'rsatadi, tarbiyalanuvchilar esa ularning nomlarini aytadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi mana bu tayoqchalar yordamida geometrik shakllar yasashni o'rganamiz. Aytingchi, 3 ta tayoqchadan qaysi shaklni yasash mumkin?

**1-bola:** – 3 ta tayoqchadan uchburchak yasash mumkin.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu 2 ta kalta va 2 ta uzun tayoqchalardan nimalar yasash mumkin?

**2-bola:** – Bu tayoqchalardan to'g'ri to'rtburchak yasash mumkin. (Bolalar to'g'ri to'rtburchak yasashadi).

**Tarbiyachi:** – Bolalar, mana bu bir xil 4 ta tayoqchadan nima yasash mumkin?

**3-bola:** – Bu tayoqchalardan kvadrat yasash mumkin.



**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi kvadrat yasashga kirishamiz.

(Bolalar kvadrat yasashadi).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, biz yasagan geometrik shakllar biz uchun qayerlarda kerak bo‘ladi?

**4-bola:** – To‘rtburchak korobka yasashda, stollarni yasashda kerak bo‘ladi.

**5-bola:** – Doira childirmada, koptokda uchraydi.

**6-bola:** – Uchburchak archada, piramidada uchraydi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana shu aytganingiz geometrik shakllarning rasmini chizamiz.

*(Bolalar geometrik shakllarni chizish jarayonida ularni obrazli qilib tasvirlashiga tarbiyachi yo‘naltiradi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi chizgan geometrik shakllarning jami sonini sanaymiz.

*(Shakllar 10 talab sanaladi va doskaga magnit yordamida yopishtiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi shakllarni tur-turiga qarab ajratamiz. (Shakllar bolalar tomonidan ajratiladi).

**Tarbiyachi:** – Endi aytingchi, nechchi turdagi shakllar rasmini chizgan ekanmiz?

**5-bola:** – Doira, oval, uchburchak, to‘rtburchak va kvadrat chizdik.

## KUTUBXONA QURISH MISOLIDA CHAMALASHGA O‘RGATISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** kutubxona qurish misolida geometrik shakllar bo‘yicha o‘tilganlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni chamalash, mo‘ljal olishga o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularda kitob o‘qish madaniyatini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta’limiy faoliyatni bir topishmoq bilan boshlaymiz.

Qo‘l bilan ekiladi,

Ko‘z bilan teriladi,

Og‘iz bilan o‘riladi. Bu nima?

**1-bola:** – Bu kitob.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, to‘g‘ri aytayapsiz. Bolajonlar, mana qo‘limda ikkita kitob turibdi, ular qanday shaklda ekan?

**Bolalar:** – Kitoblar to‘rtburchak shaklda ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, birinchi kitobimiz ikkinchisidan qanday farq qilarkan?

**2-bola:** – Birinchi kitob ikkinchisidan kattaroq va qalinroq. Ikkinchi kitob esa yupqaroq va kichikroq.

**Tarbiyachi:** – Judayam to‘g‘ri. Bolalar, kitoblar qayerda bo‘ladi?

**3-bola:** – Kitoblar kutubxonada bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri, ular kutubxonada bo‘ladi. Hozir sizlar bilan kutubxona quramiz. Mana monitordagi kutubxonaga qarang-chi, unda nimalar bor ekan?

**4-bola:** – Kutubxonada turli kattalikdagi javonlar, kitoblar bor ekan.

**5-bola:** – Yana kompyuter bor ekan.

**6-bola:** – Kutubxonada o‘quvchilar uchun stol va stullar ham bor.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir hammamiz bir qavatli zamonaviy kutubxona quramiz. Kutubxonaning ko‘rinishi qanday shaklda bo‘ladi?

**7-bola:** – Kutubxona to‘rtburchak shaklda bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Xo‘p, bo‘lmasa hammangiz oldingizda turgan geometrik shakllardan kutubxona quring. Qani, bolalar qurishni boshlaymiz.

*(Tarbiyachi nazoratida bolalar kutubxona quradilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, monitorga qarang. Mana shu monitordagi buyumlar kutubxona uchun mo‘ljallangan. Faqat sizlar uni kutubxonaning qaysi joyiga qo‘yish kerakligini aniqlab berishinglar kerak.

*(Monitorda tuvakdagi gullar rasmi ko‘rinadi).*

**Bolalar:** – Gullarni deraza oldidagi burchakka qo‘yamiz.

**Tarbiyachi:** – Monitorda kitoblar surati ko‘rindi. Uni qayerga qo‘ygan ma’qul?

**Bolalar:** – Kitoblar javonlarga qo‘yiladi.



**Tarbiyachi:** – Kompyuterni qayerga qo‘ygan ma‘qul?

**Bolalar:** – Kompyuterni kutubxonachi o‘tiradigan stol ustiga qo‘ygan yaxshi. U kompyuterdan foydalanadi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar kutubxonaga yana qanday narsalar qo‘yish ma‘qul deb o‘ylaysiz?

**Bolalar:** – Kserokopiya apparati kerak, chunki ayrim hollarda kitoblardan nusxa ko‘chirishga to‘g‘ri keladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar qarang, monitorda parda surati ko‘rinayapti. Parda qayerga tutiladi?

**Bolalar:** – Parda deraza tepasiga tutiladi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar judayam to‘g‘ri mo‘ljal olayapsizlar. Endi sizlar bilan birga jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Men birorta son ko‘rsataman, sizlar esa ana o‘sha songa mos qarsak chalishinglar kerak.

**Tarbiyachi:** – Mana, ancha tetiklashib ham oldik. Endi esa men gaplar o‘qiyman, sizlar esa gaplardagi mening xatoyimni topib berishinglar kerak.

Uchburchakda beshta burchak bor.

To‘rtburchakda uchta burchak bor.

Aylananing burchagi bo‘lmaydi.

To‘g‘ri to‘rtburchakda to‘rtta, kvadratda ham to‘rttadan burchak bor.

Kitob daftardan qalin.

## **GUL YASASH MISOLIDA O‘NG-CHAP, YUQORI-PAST TOMONLAR HAQIDAGI BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH**

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** gul yasash asosida oldinga-orqaga, o‘ngga-chapga tushunchalarini mustahkamlash, bolalarni makonda mo‘ljal olishga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mo‘ljal olishga o‘rgatish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, mehnat-sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg‘ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, gul yasash uchun doiralar va oq qog‘oz, geometrik shakllar.



### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, har biringiz oldingizdagi oq qog'ozning o'rtasiga mana bu oq aylanani yopishtiramiz. Aylana atrofiga esa ovallarni yopishtiramiz. Oval-yaproqlarni raqamlaymiz. Eng so'nggida markazdagi doira 10 bo'ladi, demak, gul yaproqlari soni nechta ekan?

**Bolalar:** – Oval yaproqlar soni 9 ta.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi mana shu gullarimizga eng yoqimli so'zlarimizni aytamiz.

**1-bola:** – Sen judayam chiroyli gul ekansan!

**2-bola:** – Sening hiding judayam yaxshi ekan!

**3-bola:** – Sening ranging chiroyli ekan!

**Tarbiyachi:** – Barakalla, doskaning to'rt burchagida guldon turibdi. Hozir men harakatlarni og'zaki aytib turibman, sizlar esa qo'lingizdagi gulni o'sha guldon ustiga yopishtirasiz.

1. Gulni doskaning o'ng tomonidagi guldonga o'tqazing.

2. Gulni doskaning chap tomonidagi guldonga o'tqazing.

3. Gulni doskaning yuqorisidagi guldonga o'tqazing.

4. Gulni doskaning pastidagi guldonga o'tqazing.

*(Bolalar tarbiyachi yo'naltirishiga qarab, guldonlar o'rnini aniqlab, gullarni o'tqazishadi. Amaliy ish yakunini tarbiyachi nazorat qiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi oldingizdagi qog'ozlardagi rasmlarga qarab, matematik jumlar tuzamiz, masalan 1-savatchada 4 ta baqlajon bor edi, 2-savatchadagi 3 ta baqlajonni qo'shsak nechchi bo'ladi?

*(Tarbiyachi bolalarning har birining suratlarini shu tarzda ma'nolarini tushuntirib, natijasini so'raydi).*

### **DO'KON MISOLIDA 20 GACHA SANASHNI O'RGATISH**

#### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** 20 gacha bo'lgan sonlarni sanashni o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, turli kartochkalar, tarqatma materiallar.



**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, har biringizning oldingizga turli mevalar o'yinchoqlari qo'yilgan. Qani, ularni sanab ko'ring va nechtaligini ayting.

**Bolalar:** – O'yinchoq mevalar soni 15 ta ekan.

**Tarbiyachi:** – Endi unga bitta sabzavot qo'shsak, 16 bo'ladi. Monitor-da 16 sonining yozilishi ko'rsatilgan. 16 taga yana bitta meva qo'shsak, 17 ta bo'ladi. U ham monitorda qanday yozilishi ko'rsatilgan. 17 taga yana bitta meva qo'shsak, 18 ta bo'ladi. 18 taga yana bitta meva qo'shsak, 19 bo'ladi, 19 ning ko'rinishini monitordan ko'rishingiz mumkin. 19 ga yana bitta qo'shsak, 20 ta bo'ladi. Qani, bolajonlar, hozir hammamiz birgalikda yigirmagacha sanaymiz.

**Bolalar:** – 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20

**Tarbiyachi:** – Hozir diqqatingizni doskaga qarating. U yerda qaysidir sonlar qo'yilgan. Qaysidir sonlar tushib qolgan. Sizlar menga qaysi sonlar tushib qolganini aytib berishinglar kerak?

**Bolalar:** – 2, 6, 9, 16, 18, 20 sonlari yo'q.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Endi stolingiz ustiga qo'yib qo'yilgan piyoladagi no'xatlarga qarang. No'xatning shakli nimaga o'xsharkan?

**Bolalar:** – Doiraga o'xsharkan.

**Tarbiyachi:** – Endi, no'xatlarni stolingiz ustida turgan qizil ro'molchani yozib, uning ustiga 20 tadan qo'yib chiqinglar.

*(Amaliy ish jarayonida tarbiyachi bolalarni kuzatib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Men ishlaringizni kuzatdim, hammangizda 20 tadan no'xat chiqdimi?

**1-bola:** – Menda 18 ta ekan.

**Tarbiyachi:** – Demak, senga nechta no'xat qo'shamiz?

**Bolalar:** – 2 ta.

**2-bola:** – Menda 16 ta no'xat bor ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, bu do'stingizga nechta no'xat qo'shsak, ularning soni 20 ta bo'ladi?

**Bolalar:** – 4 ta.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, mana men qo'limni ko'tardim, bitta qo'limda nechta barmoq bor, ikkitasidachi?



**Bolalar:** – Bitta qo‘lingizda beshta barmoq bor, ikkinchisida ham besh-ta barmoq bor.

**Tarbiyachi:** – Ikkita qo‘limdagi barmoqlarimni qo‘shsam nechta bar-moq bo‘ladi?

**Bolalar:** – 10 ta.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, oyoqlarimda nechtdan barmoq bor?

**Bolalar:** – Har bir oyoqda beshtadan, ularni qo‘shsa o‘nta bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Judayam to‘g‘ri, endi aytinglar-chi, agar qo‘llarimdagi o‘nta va oyoqlarimdagi o‘nta barmoqni qo‘shsam nechta bo‘ladi?

**Bolalar:** – 20 ta bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi men sizlarga birorta son aytaman, sizlar esa o‘sha sonni qutichadan olib ko‘rsatishinglar kerak. 6, 3, 9, 2, 13, 15, 12, 4, 1.

**Tarbiyachi:** – Endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Hozir Odil Abdurahmonning “Qurbaqa” she‘rini o‘qiyman.

Qur-qur, qur-qur,

Qurbaqa.

Sening ishing qanaqa?

Suvga irg‘ib “shop” etdi,

Deya “ishim shunaqa”.

Sizlar esa endi qurbaqaga mos xatti-harakatlar bajarishingiz kerak. Ma-salan, turgan joyingizdan o‘ngga ikki marta sakraysiz, keyin chapga ikki marta sakraysiz.

*(Tarbiyachi qurbaqaga mos xatti-harakatlarni ko‘rsatib beradi, bo-lalar uni takrorlaydilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi diqqatingizni monitorga qarating, hozir u yerdagi oziq-ovqatlar sonini sanaymiz. Tuxumlar muzlatkichdan ko‘ri-nib turibdi, ular nechta ekan?

**Bolalar:** – 12 ta.

**Tarbiyachi:** – Shirinliklar ishtahani ochib turibdi, ular nechta ekan?

**Bolalar:** – 8 ta.

**Tarbiyachi:** – Hammangiz sevib iste‘mol qiladigan muzqaymoqlar nechta ekan?

**Bolalar:** – Muzqaymoqlar 15 ta ekan.

**Tarbiyachi:** – Nonlarni ham sanangchi.



**Bolalar:** – Nonlar 20 ta ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi mana bu savollarimga javob bering. Mana bu savatchadagi jo‘jachalar soni 13 tadan ko‘p, lekin 15 tadan kam. Demak, savatchada nechta jo‘jacha bor?

17 dan keyin qaysi son keladi?

15 ta olmaga yana 4 ta olma qo‘shsak, jami nechta olma bo‘ladi?

18 ta quyonning yana ikkita qarindoshi kelib qo‘shilsa, ularning umumiy soni nechta bo‘ladi?

## QUSH UYI MISOLIDA NAMUNADAGI NARSALARNI YASASH

**Ta‘limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilarda doira, kvadrat, uchburchak, to‘rtburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik tuyg‘ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o‘rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, doira, kvadrat, uchburchak shakllari, kartochkalar, tayoqchalar.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, stolingizda rangli qog‘ozdan kesilgan turli shakllar turibdi. Keling, hozir monitordagi rasmlarga qarab, ulardan nimalar yasash mumkinligini aniqlab olamiz.

*(Monitorda doira va uchburchak shakli birlashtirilib qush rasmi, uchburchak va doira shakli birlashtirilib mushuk shakli, to‘rtburchak va tayoqchalar birlashtirilib quvnoq shariklar multfillmi qahramonlari, oval va tayoqchalar birlashtirilib odamcha shakli hosil qilingan chizma ko‘rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, oldimizdagi shakllardan nimalarning shakllarini yasasak bo‘larkan?

**Bolalar:** – Qushcha shaklini yasash mumkin.

*(Bolalar oq qog‘ozga rangli qog‘ozlardan kesib tayyorlangan doira va*



*uchburchak shakllarini birlashtirib, qushcha shaklini yasaydilar va rangli qalam bilan qushchaning ko'zi, qanoti, oyoqchalarini chizishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana bu kubiklardan qushcha uyini yasaymiz, buning uchun bizga qanday shakllar kerak bo'ladi?

**Bolalar:** – Buning uchun to'rtburchak, uchburchak va doira (*uychaning derazasi uchun*) shakllari kerak bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri, endi yasagan qushchamiz uchun mos tushadigan uycha yasaymiz.

*(Bolalar uycha uchun ketgan kubiklar sonini jarayonda sanashadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar kelinglar, yasagan qushchamizga nom beramiz, uni qaysi qushga o'xshatyapsiz?

**Bolalar:** – Qushchamiz qaldirg'ochga o'xshayapti.

**Tarbiyachi:** – Unda Shukur Sa'dullaning qaldirg'ochlarimiz uchun atalgan "Qaldirg'och" she'rini o'qib beraman.

Mening otim qaldirg'och,

Eshigingni tezroq och!

Eshigingni ochmasang,

Don-duningni sochmasang,

Ashulalar aytmayman,

Uchib ketib, qaytmayman.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana bu qog'oz qiyqimlarini yaxshilab g'ijimlab, 20 dona don shakliga keltiramiz va uychamizning oldiga sepamiz. Uni qushlar sizlarga rahmat aytgan holda yeyishadi.

## KATTA-KICHIK, UZUN-KALTA, QALIN-YUPQA TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** katta-kichik, uzun-kalta, qalin-yupqa to'g'risidagi ma'lumotlarni mustahkamlash, bolalarni buyumlarni kuzatib, chamalashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mo'ljal olishga o'rgatish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mehnat-sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.



**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, geometrik shakllar maketlari.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mening qo'limdagi ikkita g'ishtga e'tibor bering, ularning farqi nimada?

**Bolalar:** – O'ng qo'lingizdagi g'isht katta, chap qo'lingizdagi g'isht kichkina.

**Tarbiyachi:** – Endi mana bu sharflarga qarang. Ularning farqi nimada?

**Bolalar:** – Chap qo'lingizdagi qalin sharf, o'ng qo'lingizdagi yupqa sharf.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu kitoblarda qanday farq bor?

**Bolalar:** – 1-si qalin, 2-si yupqa.

**Tarbiyachi:** – Mana bu lentalarning farqini aytingchi.

**Bolalar:** – Qizil lenta uzun, ko'k lenta kalta.

**Tarbiyachi:** – Bilag'on bolalarim, sizlarni stoldagi lentalarni kalta-sini alohida, uzunini alohida qilib taxlashga taklif etaman. Buning uchun sizlarga 2 daqiqa vaqt beraman.

*(Bolalar lentalarni ajratish jarayonida tezlik talab qilingani uchun guruh 2 ga bo'linishi maqsadga muvofiq).*

**Tarbiyachi:** – Juda yaxshi, endi esa hammaning oldida 20 tadan lego kubiklarini qo'ydim. Ularning ba'zilari katta, ba'zilari esa kichkina. Hozir 1-guruh katta legolarni mana bu savatchaga soladi, 2-guruh esa kichkina legolarni mana bu savatchaga soladi. Qani boshladik!

*(Bolalar amaliy ish jarayonida legolarni ko'zi bilan ko'radi, qo'li bilan ushlaydi, chamalaydi, farqlaydi).*

**Tarbiyachi:** – Chaqqon bolalarim, sizlar kubiklarning barchasini katta-kichikligiga qarab ajratdingiz. Ofarin! Endi esa bir o'yin o'ynaymiz. Men uzun desam, siz o'rningizdan turasiz, kalta desam o'tirasiz.

*(Bu harakat 7-8 marta takrorlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, monitorga diqqatingizni qarating, unda olmaxon va jirafa rasmi turibdi. Aytinglarchi, mana bu ko'ylakdan qaysi biri jirafaga, qaysi biri olmaxonga mos keladi?

**Bolalar:** – Jirafaga uzun ko'ylak mos keladi, chunki uning bo'yi uzun. Olmaxonga esa kalta ko'ylak mos keladi, chunki uning bo'yi kalta.



## PREDMETLAR VA INSONLARGA NISBATAN FAZODA MO'LJAL OLISHGA O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** bolalarga oldinga-orqaga, yuqoriga-pastga o'ngga-chapga kabi yo'nalishlarni kengroq tushuntirish, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** fazoda mo'ljal olishga, chamalashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi men hozir qayerda turibman?

**Bolalar:** – Doskaning yonida.

**Tarbiyachi:** – Juda to'g'ri, sizlar xonaning qayerida turibsiz?

**Bolalar:** – Xonaning o'rtasida, gilamning ustida.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri aytdingiz, aytingchi, kitob javon qayerda turibdi?

**Bolalar:** – Deraza yonida.

**Tarbiyachi:** – Zilola mening qaysi tomonimda turibdi?

**Bolalar:** – Sizning to'g'ringizda.

**Tarbiyachi:** – Sarvar Zilolaning qaysi tomonida turibdi?

**Bolalar:** – Sarvar Zilolaning yonida turibdi.

**Tarbiyachi:** – Qo'g'irchoq Lolaxon bizga yaqinda turibdimi, uzoqda turibdimi?

**Bolalar:** – Qo'g'irchoq Lolaxon bizga yaqinroq turibdi.

**Tarbiyachi:** – Derazadan qarang, daraxtlar bizdan uzoqda joylashganmi, yaqinda joylashganmi?

**Bolalar:** – Daraxtlar bizdan uzoqda joylashgan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar stolingizdagi kartočkaga diqqat bilan qarang, unda bizga yaqin bo'lgan predmetlar rasmini belgilang.

*(Bolalar qora qalam bilan stol, stul, doska, shkaf rasmlarini belgilaydi).*

**Tarbiyachi:** – Endi esa sizning atrofingizda bo'lmagan, sizdan uzoqda



joylashgan suratlarni belgilang.

*(Bolalar mashina, daraxt, stadion, do'kon rasmlarini belgilaydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar barakalla, sizlar topshiriqni juda to'g'ri bajar-  
dingiz. Endi bir harakatli o'yin o'ynaymiz. Bunda men monitordagi rasm-  
lar asosida to'g'ri gapni aytsam bir marta chapak chalasiz, noto'g'ri gapni  
aytsam ikki marta chapak chalasizlar.

1. Kuchukcha uychasidan uzoqda turibdi. (noto'g'ri)
2. Bola bog'chaning yonida turibdi. (to'g'ri)
3. Tog' qishloqqa yaqin turibdi. (noto'g'ri)
4. Mashina garajning yonida turibdi. (to'g'ri)
5. Qo'g'irchoq qizaloqdan uzoqda turibdi. (noto'g'ri)
6. Bolalar stadion yonida turibdi. (to'g'ri)
7. Kitob stolning tepasida turibdi. (noto'g'ri)
8. Samolyot uying pastida uchayapti. (noto'g'ri)
9. Qozon gazning ustida turibdi. (to'g'ri)
10. Koptok javonning pastida turibdi. (to'g'ri)

**Tarbiyachi:** – Rahmat bolajonlar, endi mana bu sehrli yo'lakchadan  
yo'nalishlar bo'ylab yuramiz. Qani aytingchi, yo'lakchamiz birinchi  
bo'lib qaysi tomonga qayrilibdi?

**Bolalar:** – Yo'lakcha chap tomonga qayrilibdi.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi qaysi tomonga qayrilibdi?

**Bolalar:** – O'ng tomonga qayrilibdi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi hammamiz avval chapga, keyin o'ngga  
sehrli yo'lakcha bo'ylab yuramiz.

## HAFTA KUNLARI QUSHCHANIKIDA MEHMONDA

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarning hafta kunlari haqidagi bilimlarini  
mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, turli rangdagi kartochkalar, qush uyasi.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta’limiy faoliyatimizni bitta she’r bilan boshlaymiz. Bu she’r muallifi I. Muslim bo’lib, she’rning nomi “Mitti o’rdak”.

Inkubatoridan kecha  
Chiqdi mitti o’rdakcha.  
Qurbaqadan u mitti.  
Oyisin so’rab ketdi.  
Keyin bordi ariga,  
Ari quvdi nariga.  
Ko’rib qoldi qarg’ani,  
So’radi:– Oyim qani?  
Keyin chumchuqni ko’rar:  
Oyim qani? – deb so’rar.  
Uchratib bir laychani,  
So’radi: – Oyim qani?  
Xo’tikka borib tunda,  
Oyisin so’rar undan.  
Yo’lda mushukni ko’rdi,  
U yeyman deb yugurdi.  
Kelib qoldi-yu G’ani,  
Qutqardi o’rdakchani.  
O’rdak g’ag’illar doim:  
Qanilar, mening oyim!

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, men bejizga ta’limiy faoliyatimizni she’r bilan boshlamadim. Bugun biz sizlar bilan qush uyasiga mehmonga kelgan hafta kunlari bilan tanishamiz. Hafta kunlari o’rdaklarga o’zlari haqida gapirib berishmoqchi ekan. Qani, hafta kunlari kelinglar.

*(Guruhga yetti xil rangdagi hafta kunlari kirib keladilar).*

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, hafta kunlari. Xush kelibsiz!

**Bolalar:** – Assalomu alaykum, kelinglar sizlarni qush uyasi yoniga joylashtiramiz.

Hafta kunlari: – Rahmat.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, qush uyasida nechta qushcha bor ekan?

**Bolalar:** – 7 ta qushcha bor ekan.



**Tarbiyachi:** – Buni qarang, hafta kunlari ham 7 kun. Bolalar qani hafta kunlari haqida o‘tilganlarni bir eslaylik-chi. Qani, hamamiz birga son va nom bilan hafta kunlarini aytib beramiz.

**Bolalar:** – Birinchi kun dushanba, ikkinchi kun seshanba, uchinchi kun chorshanba, to‘rtinchi kun payshanba, beshinchi kun juma, oltinchi kun shanba, yettinchi kun yakshanba.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, sizlar hafta kunlarini yaxshi eslab qolgan ekan-sizlar. Kelinglar, unda qushchalarni inidan chiqarib qo‘yamiz va so‘zni hafta kunlariga berib ularni tinglaymiz.

Dushanba deb yozilgan kun tilga kiradi:

– Men haftaning eng bosh kuniman. Ayrimlar meni og‘ir kun deb ataydi, lekin hamma muhim ishlar dushanbadan boshlanadi. Ishxonalar ham, oliy o‘quv yurti, maktab va bog‘chalar ham aynan dushanbadan boshlab ishlaydi. Ayrimlar meni birinchi kun deb ham ataydi. Sizlar sanoq cho‘pdan birni olganda meni eslanglar.

Seshanba tilga kiradi:

– Men seshanbaman, men boshlanishim unchalik qiyinmas, odamlar bir kun ishiga borib kelgan, o‘quvchilar bir kun oldin o‘qigan, bog‘cha bolalari ham bir kun oldin ham bog‘chaga borgani uchun ham nisbatan yengilroq o‘tadi. Men dushanbani eng katta akam deb bilaman. Sizlar sanoq cho‘pdan ikkini olganda meni eslab qo‘yinglar.

Chorshanba gapiradi:

– Mening kunimda ham hayot har kungidek davom etadi. Lekin buvimning aytishlaricha, chorshanbada kattagina fayz bormish. Yana kim biladi deysiz, men hamma qarindosh kunlar bilan ahil bo‘lib yashayman. Sanoq cho‘pdan uchni olganda meni eslayverasizlar.

Payshanba tilga kiradi:

– Men haftaning to‘rtinchi kuniman, bolalar bu kuni ham bog‘chaga boradilar. Har doimgidek hamma ish-yumushiga boradi. Sanoq cho‘pdan to‘rtini yasaganda meni eslayveringlar.

Juma kuni gapiradi:

– Men beshinchi kunman va bu kuni hamma ishga, o‘qishga boradi. Bog‘cha bolalari uchun esa juma haftadagi bog‘chaga boradigan so‘nggi kun. Bitta qo‘ldagi barmoqlaringizni ochganda meni eslaysizlar.

Shanba gapiradi:



– Men oltinchi kunman. Bunda ayrim odamlar ishlaymaydi, bolalar bog‘chaga bormaydi. Hamma dam olish kayfiyatida bo‘ladi. Sanoq cho‘pda yettini hosil qilganda meni eslayverasizlar.

Yakshanba tilga kiradi:

– Meni ko‘pchilik orziqib kutishadi. Chunki bu kuni hamma ishxonalar ham, odamlar ham dam olishadi. Bu kunda bolalar ota-onalari bilan birga istirohat bog‘iga borishadi. Hamma oilaviy dam oladi. Sizlar sanoq cho‘pda yetti sonini yozganingizda meni eslayveringlar.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar hafta kunlari haqida yaxshilab tushunib oldinglarmi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kelinglar sizlar bilan hozir jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Monitorda sizlarga o‘xshagan bitta bola tasvirlangan. Tasavvur qiling, shu bolakay konfet so‘rayapti.

Bitta desam kam deydi voy-voy-voy. (qarsak chalinadi)

Ikkita desam kam deydi voy-voy-voy. (qarsak chalinadi)

Uchta bersam mo‘ltirar, (nafas olib chiqarish jarayonida qo‘llarni tepadan pastga tushiradi)

To‘rtta bergach suyunar. (qarsak chalinadi)

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi mana bu savollarga javob bering.

Haftaning to‘rtinchi kuni qaysi?

Qaysi kun haftaning birinchi kuni hisoblanadi?

Payshanbadan keyingi kunni ayting.

Seshanbadan keyingi kunni ayting.

Yakshanbadan oldingi kun qaysi?

Bir haftada nechta kun bor ekan?

## 20 GACHA BO‘LGAN SONLAR BO‘YICHA O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** 20 gacha bo‘lgan sonlar ichida o‘tilganlarni sanashga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarni mantiqiy fikrlashga, chamalashga o‘rgatish.



**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantirish, o'zaro yordam tushunchasini singdirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar, sanoq cho'plar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizni she'r bilan boshlamoqchiman. Bu she'r Q. Nosirovaga tegishli bo'lib, "Oftob chiqdi olamga" deb ataladi.

"Oftob chiqdi olamga

Yugurib bordim xolamga"

Peshonasi jiqqa ter

Olov yoqib xolam der:

– Gulnora, qizim bugun –

Buvinglar tug'ilgan kun.

Kenjatoy evarasan?

Tabriklab ne oborasan?

Xolamga dedim shu choq:

– Gul terib quchoq-quchoq

Tutaman qo'llariga.

Sochaman yo'llariga...

Xolam yopib bir tandır –

Jizzali, kulcha, patir,

Yuzlarida marjon ter,

Yana menga shunday der –

Sanachi, nechta bari

Buvingni bolalari?

Birdan yigirmagacha

Sanab chiqdim bexato.

Naryog'iga o'tolmay

Adashib qoldim ammo.

Oftob mendan kulganday

Mazax qilib kulganday.

Rosa uyalib ketdim.



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, she'r qahramoni nimadan uyalib ketibdi?

**Bolalar:** – Sanashni uddalay olmaganidan.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Bolalar, sizlar 20 gacha sanashni bilasizlarmi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Qani, bo'lmasa, diqqatingizni monitorga qarating, unda sonlar tasviri ko'rsatilgan. Shularga qarab sanaymiz.

**Bolalar:** – 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, mana bu yerdagi javonlarga 20 gacha bo'lgan sonlar yozilgan. Sizlarning qo'lingizga kartochkalar tarqataman, sizlar o'sha kartochkada qaysi son yozilgan bo'lsa, ana o'sha son bilan bir xil raqam yozilgan javon ichiga qo'yasiz. Javonlarni o'rtaqa qo'yganman, bir-biringizga xalal bermasdan qo'yinglar.

*(Bolalar javonga mos raqamlarni javon ichiga qo'yadilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi esa hammangizning stolingiz ustida kartochkalarga 20 gacha bo'lgan sonlar yozib qo'yilgan va uning qarshisiga turli katta-kichiklikdagi lentalar terib qo'yilgan. Sizlar raqamlarning katta-kichikligiga qarab uning qarshisiga o'sha raqamga mos lentani qo'yasiz. Sizlarga yordam bo'lishi uchun men bir va ikki raqamlariga mos lentalarini qo'yib beraman.

*(Amaliy ish jarayonida tarbiyachi bolalarni kuzatib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

Men birorta son aytaman, sizlar esa o'shancha marta o'tirib-turasizlar. 5, 3, 2, 6, 8, 1. Endi o'ng tomonga qaraymiz va ikki marta Xa-xa, chap tomonga qaraymiz va uch marta Xo'-xo'-xo' deb qarsak chalamiz. Bolalar, endi monitorga qarang. U yerda nechta jo'jani ko'ryapsiz?

**Bolalar:** – 15 ta.

**Tarbiyachi:** – Jo'jalarning nechtasi katak ichida, nechtasi tashqarida?

**Bolalar:** – Jo'jalarning o'ntasi katak ichida, beshtasi tashqarida.

**Tarbiyachi:** – Endi monitorda tasvirlangan bolakaylarga qarang. Ularning nechtasi qizil rangdagi ko'ylak kiygan, nechtasi ko'k rangdagi ko'ylak kiygan?

**Bolalar:** – Bolalarning o'ntasi qizil ko'ylak kiygan, o'ntasi ko'k rangdagi ko'ylak kiygan.

**Tarbiyachi:** – Monitordagi toshbaqalar soni nechta?



**Bolalar:** – 18 ta.

**Tarbiyachi:** – Agar ularga ikkita toshbaqa qo‘shsam nechta bo‘ladi?

**Bolalar:** – 20 ta.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi sanoq cho‘plar yordamida yigirma sonini hosil qilamiz.

*(Amaliy mashq davomida o‘tilganlar mustahkamlanadi)*

## **20 GACHA BO‘LGAN SONLAR ASOSIDA O‘TILGANLARNI MUSTAHKAMLASH, ULARNI YOZUVDA FARQLASHGA O‘RGATISH**

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarga 20 gacha bo‘lgan sonlar asosida o‘tilganlarni mustahkamlash, sonlarni yozishga o‘rgatish, mayda motorikani rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** mayda motorika orqali bolalarda nutqni rivojlantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlik tuyg‘ularini shakllantirish, o‘zaro yordam tushunchasini singdirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, men qo‘lim bilan havoda bir nechta sonni chizaman, sizlar esa uning qaysi son ekanligini topasizlar.

*(Tarbiyachi havoda chizib ko‘rsatgan sonlarni bolalar topadilar).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bolajonlar, sizlar bir marta ham xato qilmadinglar. Endi aytinglarchi, nol shakli nimaga o‘xshaydi?

**Bolalar:** – Nol shakli dumaloq shakliga o‘xshaydi.

**Tarbiyachi:** – Bir shakli nimaga o‘xshaydi?

**Bolalar:** – Bir shakli ilmoqchali tayoqchaga o‘xshaydi.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri. Endi esa bolajonlar, oldingizga qo‘yilgan daftarda ko‘rsatilgan namunaga qarab turib sonlarni yozib chiqasiz. Namunadagi sonlar nuqtalar yordamida ko‘rsatib o‘tilgan. Siz undan foydalanib turib raqamlarni yozishingiz kerak.



*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarni kuzatib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Hozir hammangizning ishlaringizni kuzatdim, sizlar nafaqat sanoqda, balki yozuvda ham ancha o‘rganib qolibsizlar. Endi esa sizlar bilan bitta o‘yin o‘ynaymiz. Men istalgan raqam yozilgan kartochkani olaman, sizlar esa o‘sha sonning necha ekanligini topishinglar kerak. Masalan, 1, 12, 4, 14, 18, 20, 16, 7, 3, 5, 8.

**Tarbiyachi:** – Endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Men bulut deganimda sizlar qo‘lingizni musht qilib tugib olasiz, quyosh deganimda esa barmoqlaringizni ochasiz. Barmoqlaringiz xuddiki quyosh nurlari bo‘lib hammayoqni yoritadi.

*(Jismoniy daqiqa o‘tkaziladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, mana, ancha tetiklashib ham oldik. Endi aytinglarchi, bitta qutichada 20 ta olma bor bo‘lsa, ularning ikkitasi aynigani uchun olib tashlansa, qutichada nechta olma qoladi?

**1-bola:** – 18 ta.

**Tarbiyachi:** – Tasavvur qiling, guruhda 20 ta bola bor, lekin bilmasdan ularga 15 ta konfet olib kelib qo‘yishibdi. Guruhdagi hamma bolalarga konfet bittadan yetishi uchun yana nechta konfet qo‘shish kerak?

**2-bola:** – 5 ta.

**Tarbiyachi:** – Daraxtda 12 ta qush bor edi. Ularga yana 8 ta qush kelib qo‘shildi. Qushlar nechta bo‘ldi?

**Bolalar:** – 20 ta.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri, bolajonlar. Endi sizlarga sonlar yozilgan kartochkalar tarqataman. Kim o‘zida necha soni yozilgan bo‘lsa, ana o‘sha sonning oldidagi va undan keyingi sonni aytib berishi kerak. Masalan, 6, undan oldingi son 5, undan keyingi son 7.

*(Bolalar kartochkadagi raqamlarga qarab o‘z sonlarining oldi va ortidagi sonlarni aytadilar)*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, sizlar 20 gacha bo‘lgan sonlarni yaxshi o‘rganibsizlar.

## O‘YINCHOQ ROBOT YORDAMIDA HARAKAT YO‘NALISHINI O‘RGATISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**



**Ta'limiy:** o'yinchoq robot yordamida o'ngga-chapga, oldinga-orqaga, tepaga-pastga kabi yo'nalishlar bo'yicha o'tilganlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, mo'ljal olish va chamalashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** do'stona munosabatda bo'lish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening har narsaga qiziquvchan bolajonlarim! Bugungi ta'limiy faoliyatimizga o'yinchoq robot mehmon bo'lib kelibdi. Biz unga nima deyishimiz kerak?

**Bolalar:** – Xush kelibsiz!

**Tarbiyachi:** – Robot bugun bizga yo'nalishlar bo'yicha o'tadigan ta'limiy faoliyatimizni tushunishga yordam beradi. Qani, bo'lmasa robot bizga ko'rinib turishi uchun mening yonimga turadi.

**Tarbiyachi:** – Robot sening o'ng qo'ling qaysi?  
(Robot o'ng qo'lini ko'taradi).

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizning o'ng qo'lingiz qaysi?  
(Bolalar o'ng qo'lini ko'taradilar).

**Tarbiyachi:** – Robot chap qo'ling qaysi?  
(Robot chap qo'lini ko'taradi).

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizning chap qo'lingiz qaysi?  
(Bolalar chap qo'llarini ko'taradilar).

**Tarbiyachi:** – Endi hammamiz o'ng va chap qo'llarimizni birga ko'taramiz. Robot va bolalar birgalikda o'ng qo'l bilan chap quloqni, chap qo'l bilan o'ng quloqni ushlaymiz.

**Tarbiyachi:** – Qo'lingizni tushirishingiz mumkin. Endi esa robot sen javondagi ayiq o'yinchoq'ini olishing kerak.

**Robot:** – Men qayerga qarab yuraman?

**Tarbiyachi:** – Sen oldinga qarab olti qadam, chapga qarab yana sakkizta qadam tashlasang javon yoniga borasan. Javondan o'yinchoq ayiqchani olib orqaga sakkizta, o'ngga oltita qadam tashlasang, yana oldingi turgan joyingda bo'lib qolasan.

Robot oldinga emas, orqaga qarab yuradi.



**Bolalar:** – Robot sen oldinga yurishing kerak, sen orqaga yurayapsan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, to‘g‘ri tanbeh berdingiz, qani birgalikda robotga yo‘nalishini topishi uchun yordam beramiz.

*(Robot ayiqchani olib keladi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, senga rahmat. Endi sen chap tomon orqadagi stulga borib o‘tirib biroz dam olishing mumkin. Bolajonlar, endi bitta bola chiqsin va u bilan biz qiziqarli savol-javob o‘tkazmiz.

*(Tarbiyalanuvchilar orasidan bitta bola chiqadi).*

**Tarbiyachi:** – Men senga tezkor savol-javoblar beraman, sen esa to‘g‘ri gap uchun o‘ng qo‘lingni ko‘tarasan, noto‘g‘ri javob uchun chap qo‘lingni ko‘tarasan.

Yulduzlar yerda bo‘ladi. (Bola chap qo‘lini ko‘taradi)

Uyning tomi balanda bo‘ladi. (Bola o‘ng qo‘lini ko‘taradi)

Orqamizdagi narsalarni ko‘ra olamiz. (Bola chap qo‘lini ko‘taradi)

Oldimizdagi narsalarni ko‘ra olamiz. (Bola o‘ng qo‘lini ko‘taradi)

Osmon tepada, yer pastda. (Bola o‘ng qo‘lini ko‘taradi)

Ko‘p qavatli uylar osmonda bo‘ladi. (Bola chap qo‘lini ko‘taradi)

**Tarbiyachi:** – Senga rahmat, hamma savollarga to‘g‘ri javob berding. Bolajonlar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Bunda men bi-rorta fikr aytaman, sizlar esa o‘sha gapda qaysi son ifodalanganiga qarab turib stolni taqqillatasiz.

Azimjon teshachada bitta mix qoqdi.

Azimjon teshachada ikkita mix qoqdi.

Azimjon teshachada to‘rtta mix qoqdi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi diqqatingizni monitorga qarating. Unda mushukdan qochayotgan sichqon tasvirlangan, biz sichqonchaga yordam berishimiz uchun qaysi yo‘nalishni ko‘rsatganimiz ma‘qul?

**1-bola:** – Sichqon oldinga yursa, tuzoqqa tushadi. Agar orqaga yursa, mushuk yeb qo‘yadi. Shuning uchun ham sichqon o‘ngga burilishi, keyin uycha orqasiga berkinib turib mushukcha o‘tib ketishini kutishi kerak.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, sichqon uchun aynan chiqish yo‘lini topib berding.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, bugungi ta‘limiy faoliyatimizda judayam faol ishtirok etdinglar, buning uchun sizlarga katta rahmat.



## SODDA MASALALAR TUZISHNI O'RGATISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga arifmetik masalalar tuzishni va uni yechishni o'rgatish. Bolalarda ijodkorlik va tasavvur kengayishiga yordam berish;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bolalarni mustaqil ravishda masala tuzish ko'nikmasini shakllantirish;

**Tarbiyaviy:** guruh bo'lib ishlash, o'zaro yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, o'yinchoqlar, tarqatma materillar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, biz sizlar bilan shu kungacha ko'pgina masalalarni birga yechdik. Bugun ana shu o'tilganlarni mustahkamlaymiz va o'zimiz mustaqil holatda masala yechishni o'rganamiz. Hamma ta'limiy faoliyatga tayyormi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Tasavvur qiling, daraxt shoxida beshta qush o'tirgan edi. Ulardan ikkitasi uchib ketdi. Daraxt shoxida nechta qush qoldi?

**Bolalar:** – 3 ta.

**Tarbiyachi:** – Stol ustida ikkita anor bor edi, Akmal unga to'rtta anor qo'shib qo'ydi. Stoldagi anorlar soni nechta bo'ldi?

**Bolalar:** – 6 ta.

**Tarbiyachi:** – Akmal olib kelgan anorlar soni ko'pmi, stoldagi anorlar sonimi?

**Bolalar:** – Akmal olib kelgan anorlar soni ko'p.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Bolajonlar endi birgalikda masala tuzamiz. Sizlarga kartochka tarqataman. Uning tepasida ikkitadan koptok surati yopishtirilgan. Uning pastki qismiga esa yana to'rttadan koptok suratini yopishtiramiz. Xo'sh, siz nima qildingiz. Buni menga tushuntirib beringchi.



*(Bolalar kartochka tepasida ikkita surat borligi, uning pastiga to'rtta surat yopishtirilganidan keyin suratlar soni oltita bo'lganini aytadilar).*

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri. Lekin bu masalamizning sharti va savoli bo'lmadi. Agar biz bu masalaga ko'ptoklar qo'shilgandan keyin umumiy son qancha bo'ldi, qo'shilgan ko'ptoklar soni ko'pmi yoki o'zi kartochkada bori ko'pmidi degan savol qo'shsak, bu masalaga aylanadi. Bolajonlar, endi yana bitta masala tuzamiz. Sanobar, yoningdagi kubik shakllardan to'rtta olib kel. Men sen olib kelgan kubiklarga yana uchta kubiklar qo'shsam, kubiklar soni nechta bo'ladi?

**Bolalar:** – 7 ta.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Endi diqqatingizni monitorga qarating va undagi suratlar asosida masala tuzing.

*(Monitor da beshta quyon va ular uchun qurilgan to'rtta uycha tasvirlangan bo'ladi).*

**1-bola:** – Bu suratga mana shunday masala tuzish mumkin: Quyonlar soni beshta ekan. Lekin usta amaki adashib ularga to'rtta uycha qurib qo'yibdilar. Uychar hamma quyonlarga bittadan yetishi uchun yana nechta uycha qurish kerak?

**Tarbiyachi:** – Xo'sh, masalaning javobini kim aytadi, yana nechta uycha qurish kerak?

**Bolalar:** – 1 ta.

**Tarbiyachi:** – Endi diqqatingizni ikkinchi suratga qarating.

*(Monitor da yettita ayiqpolvon va uchta asal xumchasi surati ko'rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Xo'sh, bu surat asosida qanday masala tuzishimiz mumkin?

**2-bola:** – Ayiqlarning soni yettita. Asal xumchalari esa uchta. Hamma ayiqqa asal xumchalari bittadan yetishi uchun yana nechta asal xumchasi kerak?

**Bolalar:** – To'rtta.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, sizlar masala tuzish shartini ham tez o'zlashtirib olayapsiz. Qani hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

Uchta tovuq yugurar (“qu-qu-qu”lab, ikkala qo'l orqaga qilinadi)

Shoshilib hayron bo'zlar.

Kecha chiqqan jo'jalar (chi-chi-chi)



Bugun birdan yo'qolar.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi sizlarga bir nechta savollar beraman.

Mening to'rtta o'rtog'imda bittadan mashina bo'lsa, mashinalarning umumiy soni nechta?

Agar Omadjonni beshta mashina o'yinchog'i bo'lib, ularning ikkitasini do'stiga bersa, Omadjonning o'zida nechta o'yinchoq mashina qoladi?

Lagan ustida oltita limon bor edi, undan ikkitasini qo'shniga berib yuborsak, lagan ustida nechta limon qoladi?

Bog'chadagi guruhda o'nta pufak bor edi, ulardan beshtasi yorilib ket-sa, guruhda nechta pufak qoladi?



A decorative border surrounds the central text, consisting of various pink numbers (0-9) and mathematical symbols (+, x, /, =, %) arranged in a somewhat chaotic pattern.

**TAYYORLOV  
GURUHI**



## TELEMINORA QURISH ORQALI 10 GACHA BO'LGAN SONLARNI TO'G'RI VA TESKARI SANASH MALAKASINI MUSTAHKAMLASH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga 10 gacha to'g'ri va teskari sanashni o'rgatishni mustahkamlash, 10 gacha bo'lgan sonlarni to'g'ri va teskari sanashni esga olish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda diqqatni rivojlantirish, xotirani kuchaytirish;

**Tarbiyaviy:** Bolalarda mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantirish, o'zaro hamjihatlikni o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar, sanoq cho'plar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qani diqqatingizni monitorga qarating-chi. U yerda qirqilgan kartochkalar surati tasvirlangan. Masalan, pufak yoniga bir raqami yozilgan. Pufak bitta. Endi qaysi predmet yoniga qaysi raqam yozilgan bo'lsa, o'sha raqam va predmet nomini aytinglar.

**Bolalar:** – Ikki raqami oldida ikkita koptok, uch raqami oldida uchta o'yinchoq mashina, to'rt raqami oldida to'rtta qo'g'irchoq, besh raqami oldida beshta lego bo'laklari, olti raqami oldida oltita kubik, yetti raqami oldida yettita yulduzcha, sakkiz raqami oldida sakkizta bayroqcha, to'qqiz raqamining oldida to'qqizta uchburchak, o'n raqamining oldida o'nta ol-macha bor ekan.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri. Hozir raqamlar bizning ta'limiy faoliyatimizga kelishibdi, assalomu alaykum raqamlar.

**Raqamlar:** – Assalomu alaykum. Bilasizlarmi, bolajonlar, bizlarga sizlarning yordamingiz kerak. Nimagadir boshimiz aylanib ketma-ket-



Igimizni bilolmay qoldik. Sizlar bizlarni tartibimiz bilan turgizib qo'yinglar, iltimos.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, biz raqamlarga yordam beramizmi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Qani, unda orangizdan ikkita bola chiqsin va raqamlarni tartib bilan joylashtirsin.

*(Ikkita bola chiqib tartib bilan joylashtiradi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kelinglar, shu raqamlarni teskaridan ham sanab ko'ramiz.

**Bolalar:** – 10, 9, 8, 7, 6, 5, 4, 3, 2, 1.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir doskaga qaranglar, unda qaysi sonlar borligini eslab qolinglar. Endi ko'zingizni yuming, biroz turib oching. Doskada qaysi son yo'qolib qolibdi.

**1-bola:** – 5 yo'qolibdi.

**Tarbiyachi:** – 5 qaysi sondan keyin kelardi?

**2-bola:** – 5 to'rtidan keyin keladi.

**Tarbiyachi:** – Yana qaysi son yo'qolibdi?

**3-bola:** – Yana 8 soni yo'qolibdi, u yettidan oldin keladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir sizlarga raqamlangan jo'jalar beraman. Sizlar esa o'sha raqamlangan jo'jalarni o'ndan birga qarab teskariga qarab qo'yib chiqasizlar. Keyin esa sanab berasizlar.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarga yordam berib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Sizlar amaliy mashqni yaxshi bajardingiz, endi jismoniy daqiqaga o'tamiz.

O'nta bola o'nta qiz,

Chin o'rtoqmiz hammamiz.

Birga yursak biz zo'rmiz,

Ayrilsak ahvol chatoq. (Barmoqlar mashq qildiriladi)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi quyidagi savollarga javob bering.

2 va 8 sonlari orasida qanday son bor?

4 va 6 sonlari orasida qanday son bor?

10 va 8 sonlari orasida qanday son bor?

10 dan 1 gacha teskari sanab bering.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi kubiklardan teleminorani quramiz. Teleminorani qurishda o'nta dona geometrik shakl ishlatishga ruxsat beriladi.



Teleminora surati monitorida ko'rsatilgan. Suratga qarab kim teleminorani tez qursa, ana o'sha bola rag'batlantiriladi.

*(Bolalar har birlari geometrik shakllar yordamida teleminora quradilar).*

## ZAMONAVIY SHAHAR QURISH ORQALI KO'PBURCHAK BILAN TANISHTIRISH

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda ko'pburchak haqida tushuncha hosil qilish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do'stlik, o'zaro hamjihatlik tuyg'ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ko'pburchak shakli, kartochkalar, lego konstruksiyalari.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlarga suratlar ko'rsataman, ular ichidan ko'pburchaklarini tanlab aytishingiz kerak.

*(Bolalar to'rtburchak, uchburchak, kvadrat, doira, oval shakllari orasidan ko'pburchaklarni tanlab aytishadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi esa stolingizdagi plastmassa shakllar ichidan ko'pburchaklarni tanlab, ajratib oling.

*(Bolalar plastmassa geometrik shakllar to'plami orasidan ko'pburchaklarni ajratib oladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi stolingizdagi tarqatma kartoчка orqali "Ortiqchasini top" o'yinini o'ynaymiz.

Bolalar kartochkalarda berilgan shakllar orasidan ortiqchasini topadi. Bunda shakllar qatori quyidagicha beriladi:

1. Kvadrat, uchburchak, aylana.
2. To'rtburchak, doira, oval.
3. To'rtburchak, kvadrat, uchburchak.
4. Ko'pburchak, kvadrat, to'rtburchak.



**Tarbiyachi:** – Ofarin, hammangiz topshiriqni a'lo darajada bajardingiz. Endi qo'llarimizga dam beramiz.

Tap-tap etib, yuramiz,

Qo'llarimiz oldinda.

Engashamiz o'ng-chapga,

Doimo biz oldinda.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, maktabga borishga tayyor bo'lish uchun biz matematika orolchasidagi sinovlardan o'tadigan bo'lishimiz kerak. Buning uchun daftarimizda geometrik shakllarni chizamiz va bo'yaymiz.

*(Bolalar geometrik shakllarni namunaga ko'ra chizadi va bo'yaydi. Amaliy ish yakunida nechta shakl borligi, ularning nechta tomoni borligi har bir boladan so'raladi. Jarayonda ko'pburchak shakliga alohida e'tibor qaratiladi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi biz shunday shakllar yordamida zamonaviy shahar quramiz. Buning uchun mana bu legolar to'plamidan faqatgina uy maketini emas, uy atrofida joylashgan avtoturargoh, bolalar maydonchasi quramiz.

*(Bolalar zamonaviy shahar ko'rinishini burchaklardan foydalanib quradi).*

## TENG IKKI QISMGA BO'LISH BO'YICHA TUSHUNCHALARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga teng 2 qismga bo'lish kengroq tushuntirish, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shakli haqida tushuncha berish, chamalashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, geometrik shakllar maketlari, rangli qog'ozdan kesilgan doiralar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, qo'limdagi qalamni ikkiga bo'lsam



bo'ladimi?

**Bolalar:** – Yo'q, u bilan yozamiz.

**Tarbiyachi:** – Unda menga nimalarni bo'lishimiz mumkinligini aytib beringchi.

**Bolalar:** – Olmani bo'lib yeyishimiz mumkin, bananni bo'lib yeyishimiz mumkin, oq qog'ozni ikkiga bo'lishimiz mumkin.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, demak, predmetlarni 2 ga bo'lish biz uchun, hayotda juda zarur ekan. Shuning uchun bugun 2 ga bo'lish bo'yicha bilimlarimizni yana mustahkamlaymiz. Stolingizda nok rasmi va uning 2 ga bo'lingan surati turibdi. Uning yonida esa shu yarimtaga mos keladigan va mos tushmaydigan yarimta noklar surati bor. Hozir qalam bilan to'g'ri javobni topishga harakat qilamiz.

*(Bolalar mos javobni belgilashini tarbiyachi nazorat qiladi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi stolimiz ustidagi mana bu lego uyumini teng ikkiga ajratamiz.

*(Bolalar 20 ta lego kubikchalarini 2 ga ajratadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, kubiklarni ikkiga ajratganimizda nima ro'y berdi?

**Bolalar:** – Bir uyum lego 2 ta bo'ldi, lekin hajmi kichiklashdi.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri. Agarda biz legolarni teng ikkiga emas, bir bo'lagini ko'proq, 2-bo'lagini kamroq qilib bo'lganimizda qanday holat yuzaga kelardi?

**Bolalar:** – Bir uyum lego ko'p, ikkinchi bo'lak lego kam bo'lardi.

**Tarbiyachi:** – Bilag'on bolalarim, endi yana bir tajriba o'tkazib ko'ramiz. Buning uchun oldingizdagi rangli qog'ozdan kesib tayyorlangan doirani birinchi teng ravishda bo'lmaymiz, balki birinchi bo'lakni katta, ikkinchi bo'lakni kichikroq qilib bo'lamiz.

*(Bolalar doirani noteng bo'lakka bo'lishadi va ikki xil hajmdagi yarim oy shakli hosil bo'lganligini kuzatishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi ikkinchi doirani teng ikkiga buklaymiz va o'rtasidan kesamiz.

*(Bolalar amaliy ish jarayonida shaklning teng ikkiga bo'lingani tushuntiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, demak biror predmetni teng ikkiga bo'lsak, ikkita bir xil shakl hosil bo'ladi.



## NARSALARNING JOYLASHUVIGA QARAB VAZIYATINI ANIQLASH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** oldinga-orqaga, o'ngga-chapga, pastga-baland tushunchalarini mustahkamlash, bolalarni makonda mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mo'ljal olishga o'rgatish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mehnat-sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, oq qog'oz, geometrik shakllar.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu qog'ozning tepasini va pastini topish mumkinmi? Bu savolga o'zim javob beraman. Ha mumkin, buning uchun qog'ozni stolga qo'yamiz. O'zimiz turgan tomondan o'ng qo'limiz tomoni qog'ozning ham o'ng tomoni bo'ladi, chap qo'limiz tomoni esa qog'ozning ham chap tomoni bo'ladi.

Endi, qog'ozning o'ng tomoniga gul, chap tomoniga lola rasmini chizamiz.

*(Bolalar amaliy ish bajarayotganda tarbiyachi tushuntirish va nazorat olib boradi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi shu qog'ozning tepasini va pastini aniqlaymiz. Qog'ozni ushlaganimizda biz uchun baland bo'lgan tomon qog'oz uchun ham baland bo'ladi, aksincha, qog'ozga nisbatan biz uchun past bo'lgan tomon qog'oz uchun ham past tomon hisoblanadi.

Endi qog'ozning tepasiga quyosh, pastiga esa suv rasmini chizamiz.

*(Tarbiyachi bolalarga namuna sifatida o'zi ham varaqning tepa va pastiga rasm chizadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi aytingchi, qog'ozning o'rtasini qanday aniqlashimiz mumkin?

**Bolalar:** – Qog'ozning o'rtasi mana bu yer bo'ladi. *(Bolalar qog'oz*



*markazini ko'rsatishadi).*

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri, endi qog'ozimiz markaziga daraxt rasmini chizamiz.

*(Varaqning o'ng-chap, tepa-pasti va markazida hosil bo'lgan suratlar bir butunlik hosil qilganini tarbiyachi tushuntiradi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi dam olish daqiqasi o'tkazamiz:

O'ngga qara, chapga qara,

Tepayu pastga qara.

O'ngga qara, chapga qara,

Tepayu pastga qara.

*(Matnga mos harakatlar 4-5 marta takrorlanadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi har birimiz shu holatda safda turganimizcha o'ng tomonimizda kim borligini va chap tomonimizda kim borligini aytamiz...

*(Bolalar tengdoshlarining ismini aytgan holda "o'ngimda Farhod turibdi, chap tomonimda esa Nigora turibdi... shaklida davom etadi).*

Mustahkamlash uchun savollar?

**Tarbiyachi:** – Qog'ozning markazini qanday topish mumkin?

Qog'ozning ham o'ng va chap tomonlari bo'ladimi?

*(Bu savollarga bolalar qog'oz ustida amaliyot o'tkazgan holatda javob berishadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi men ko'rsatmagan holda aytib turaman, sizlar esa qog'ozning o'sha tomonini topasiz:

Qog'ozning o'ng tomoniga nuqta qo'ying.

Qog'ozning pastiga nuqta qo'ying.

Qog'ozning chap tomoniga nuqta qo'ying.

Qog'ozning tepasiga nuqta qo'ying.

Qog'ozning o'rtasiga nuqta qo'ying.

## ERTALAB, KUNDUZ, KECHQURUN HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda vaqt haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash, amaliy mashq jarayonida o'tilganlarni yodga solish;



**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarni chamalashga o'rgatish, ularda diqqat va xotirani kuchaytirish;

**Tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarni o'zaro yordam va xayrixohlik tuyg'ulari asosida tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:** AKT, turli kartochkalar, tarqatma materiallar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatni Malika Qahramonovaning quyidagi she'ri bilan boshlamoqchiman.

Eslab qol, qizim Yulduz,

Sutka bu – kecha-kunduz.

Kun boshi – bo'lur sahar,

Qushlar qanotin rostlar.

Quyosh qizdirgan mahal,

Ko'zim yo'lingga mahtal.

Sen maktabdan kelar payt,

Ne deyilar qizim, ayt.

Kunning o'rtasi – peshin,

Hamma qilar o'z ishin.

Yulduzlar chiqqan zamon,

Oy qiladi charog'on.

Oqshom – botganda quyosh,

Uxlab qol, qilmay ko'zyosh.

Osuda o'tsin tuning,

Yaxshi boshlanar kuning.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, bu she'r yordamida sizlar ertalab, kunduzi va kechqurun haqida o'tganlarimizni bir eslab oldingiz. Endi mana bu savolimga javob bering.

Bu inson har kuni hammadan erta uyg'onadi, ishga o'tlanadi, hamma ishiga va o'qishiga kelguncha u hamma joyni ozoda qilib supurib qo'yadi. U kim? Monitorga qarang va u yerda ko'rsatilgan soha vakillaridan men tanishtirgan soha vakilini ayting.

**Bolalar:** – Siz aytayotgan soha egasi bu farrosh.

**Tarbiyachi:** – U qaysi paytda ishga boradi?



**Bolalar:** – Ertalab tong saharda u ish boshlaydi.

**Tarbiyachi:** – Yana qaysi soha vakillari saharda ish boshlaydi?

**Bolalar:** – Oshpazlar, novvoylar.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, tong kunning eng muhim payti, agar tongni yaxshi qarshilasangiz kun bo‘yi kayfiyatingiz yaxshi bo‘ladi. Hozir sizlarga tarqatma materiallar tashlayman, ularning ichidan ertalabga taalluqli suratlar tagiga uchburchak shaklini qo‘yib chiqasiz.

*(Amaliy ish jarayonida bolalarni tarbiyachi kuzatib turadi, agar kimdir xato qilsa, uning xatosini tushuntirib beradi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, ertalab o‘z o‘rnini nimaga bo‘shatib beradi?

**Bolalar:** – Ertalab o‘z o‘rnini kunduzga bo‘shatib beradi.

**Tarbiyachi:** – Qarangchi, kunduzga oid yana qanday suratlar bor ekan monitorida?

**1-bola:** – Ona farzandi bilan tushlik qilayapti, bog‘chada bolalar uxlayapti, do‘konda tushlik vaqti bo‘lganligi uchun eshikni yopib qo‘yishgan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar kunduz kuni ham odamlar ishlashadi. Ishxonalar, oliy o‘quv yurtlari faoliyat yuritadi. Faqat bog‘chadagi bolalargina uxlab dam olishadi va yangi o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘ladilar.

Endi biroz tetik bo‘lishimiz uchun jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Ikki qo‘limiz belda, taq-taq-taq, (qo‘lni belga qo‘yib yerni taqqillatadi)

Shaxdam qadam bosamiz, taq-taq-taq. (oldinga bir qadam yuriladi)

Kecha kunduz demasdan, (qarsak chalinadi)

Doim xizmatga shaymiz. (qarsak chalinadi)

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir esa kechqurun bilan bog‘liq holatlarni birga topamiz. Buning uchun oq vatman qog‘ozni olaman. Sizlarga esa kunning turli vaqtlariga mos ishlangan suratlar tarqataman. Kimdagi suratlar kechqurunga mos kelsa, uni menga olib keladi va uni vatman qog‘oziga yopishtiramiz.

*(Amaliy ish jarayonida tarbiyachi har bir yopishtirilayotgan rasmga bolalardan izoh so‘raydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa men gaplar o‘qiyman, agar gapim rost bo‘lsa, sizlar + belgisi ifodalangan kartochkani ko‘rsatasizlar, agar yolg‘on bo‘lsa, – ko‘rsatilgan kartochkalarni ko‘tarasizlar.

Quyosh ertalab chiqadi +



Ertalab badantarbiya qilish kerak +  
Ertalab tushlik qilinadi –  
Ertalab tishlar yuvilmaydi –  
Kunduzi nonushta qilinadi –  
Kechqurun bolalar bog‘chaga boradi –  
Kunduzi ko‘chada chiroqlar yonadi –  
Kechqurun hammayoq qorong‘i bo‘ladi +  
Kun o‘z o‘rnini tunga bo‘shatib beradi +  
**Tarbiyachi:** – Qoyil, sizlar hamma savolimga to‘g‘ri kartochka ko‘rsatdinglar.

## MATEMATIKA MAMLAKATIGA SAYOHAT. KO‘PBURCHAK HAQIDAGI MA‘LUMOTLARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta‘limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilarda ko‘pburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik tuyg‘ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o‘rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, ko‘pburchak shakli, kartochkalar, lego konstruksiyalar.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, biz ko‘pburchakni bilamizmi, uning tomonlari nechta edi?

**Bolalar:** – 4 tadan ko‘p tomoni bor burchaklarni ko‘pburchak deymiz.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, kelinglar sizlarga matematika mamlakatidagi ko‘pburchak va uning qarindoshlarining sarguzashtlari haqida ertak aytib beraman.

Bir kuni ko‘pburchak bir o‘zi juda zerikishini, do‘stlari yo‘qligini o‘ylab xafa bo‘libdi va qarindoshlarini izlab yo‘lga tushibdi. U yo‘lda ketayotgan



ekan, xuddi o'ziga o'xshab ketadigan, biroq tomonlari ko'p ko'pburchakni ko'rib qolibdi (Tarbiyachi ko'pburchakning plastmassa shaklini bolalarga ko'rsatadi).

Ko'pburchak xursand bo'lib ketibdi va to'rtburchakka "biz sen bilan qarindoshmiz", – debdi.

**To'rtburchak esa:**

– Agarda o'zaro 3 xil o'xshash tomonimizni topib berolsang, men senga qarindosh bo'lishim mumkin, – debdi.

Shunda to'rtburchak... (bolalardan ko'pburchak va to'rtburchakning o'xshash tomonlari so'raladi).

Ko'pburchak va to'rtburchakda 4 ta tomon bor.

Ikkalasining ham burchaklari to'g'ri.

Ikkalasining ham 4 ta tomoni bor.

... o'xshash tomonlarini sanab beribdi.

Shunda ko'pburchak:

– To'rtburchak, haqiqatan ham sen mening qarindoshim ekansan, bizning yana boshqa qarindoshlarimiz ham bor deb, kvadrat, uchburchak (tarbiyachi bolalarga ko'rsatadi)larni ham chaqiribdi.

Shundan beri bu qarindoshlar – ko'pburchak, uchburchak, to'rtburchak va kvadrat birga o'ynab, hecham zerikmasdan insonlarga yordam berib kelayotgan ekan.

*(Ertak tahlil qilinadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi stolingiz ustidagi geometrik shakllar orasidan ko'pburchakni ajratib oling va ularni hayotda qayerlarda uchratishimiz mumkinligini ayting.

*(Bolalar bilan rivojlantiruvchi suhbat olib boriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana bu katrochkalardagi qaysi chiziqlarni o'zaro birlashtirsa, ko'pburchak hosil bo'lishini belgilang.

*(Bolalar bilan mustahkamlovchi savol-javob olib boriladi).*

## MATEMATIK DIKTANT. 4 QISMGA BO'LISH HAQIDA

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga teng 4 qismga bo'lish kengroq tushuntirish, katak



varaqda matematik diktant olish, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shakli haqida tushuncha berish, chamalashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, geometrik shakllar maketlari, rangli qog'ozdan kesilgan doiralar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, stolingizda kvadrat shaklida kesilgan rangli qog'ozni teng ikkiga buklaymiz, yana bir marta buklaymiz. Qanday shakl hosil bo'ldi?

**Bolalar:** – Kvadrat.

**Tarbiyachi:** – Demak, shakllarni teng 2 ga va teng 4 ga bo'lganda hamma kesilgan shakllar bir xil chiqarkan.

*(Tarbiyachi bolalarga shakllarni buklab, kesib, shu kesilgan bo'lakni yana kesib ko'rsatadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi doira shaklini teng 4 ga bo'lamiz.

*(Bolalar doirani ham xuddi kvadrat kabi birinchi teng o'rtasidan, so'ngra uni ham teng o'rtasidan buklab kesamiz).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi dam olish daqiqasi o'tkazamiz:

Oldinga-orqaga,

U yonga, bu yonga.

Yuramiz o'n qadam,

Yuramiz besh qadam.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, rasm chizish sizlarga yoqadimi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Katak varaqqa rasm chizish judayam qiziqarli. Bugun sizlar bilan shunday rasm chizishga urinib ko'ramiz. Buning uchun stolingizdagi katak varaqqa men aytganidek chizing:

Varaq markaziga belgilangan nuqtadan uchta katak chapga.

Shu joydan ikkita katak tepaga.

Uchta katak o'ngga.

Ikkita katak tepaga.

Uchta katak o'ngga.



Ikkita katak pastga.

Uchta katak o'ngga.

Ikkita katak pastga.

Ikkita katak orqaga.

Ikkita g'ildirak chiziladi va ular birlashtiriladi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, nimaning rasmi hosil bo'ldi?

**Bolalar:** – Mashinaning rasmi hosil bo'ldi.

**Tarbiyachi:** – Bu sizlarga yoqqan bo'lsa, uyda aka-opalaringiz, ota-onangiz yordamida ham boshqa predmetlarning shaklini ham shu usulda chizishingiz mumkin.

## XONA BUYUMLARINING JOYLASHUVIGA QARAB O'RNINI ANIQLASHGA O'RGATISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** oldinga-orqaga, o'ngga-chapga, pastga-baland tushunchalarini mustahkamlash, bolalarni makonda mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mo'ljal olishga o'rgatish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mehnat-sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, geometrik shakllar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, eshikka qarang, kim kelibdi?

**Bolalar:** – Ota Smurf (*multfilm qahramoni*) kelibdi.

**Tarbiyachi:** – Ota Smurf nevaralarini bizning guruhdan izlamoqchi ekan. Unga yordam beramizmi?

**Bolalar:** – Yordam beramiz.

**Tarbiyachi:** – Barakalla bolajonlar, ota Smurf, bolalarim juda zukko va aqli, o'ng, chap, orqa-oldi, tepa-pastlarni yaxshi ajratishadi, sen smurfchalarni izlashda ulardan yordam so'rashing mumkin.

Ota Smurf: – Rahmat, bolajonlar, aytingchi, to'g'ridagi javonning orqasida Smurfchalar ko'rinmaydimi?



**Bolalar:** – Yo‘q, o‘yinchoqlar turgan javonning o‘ng tomonida smurfcha ko‘rinayapti.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar aytingchi, o‘yinchoq javoni doskadan uzoqda turibdimi, yaqinda?

**Bolalar:** – Doskadan uzoqroqda turibdi.

Ota Smurf: – Bolalar, kompyuter stolining tagida smurfchalar ko‘rinmaydimi?

**Bolalar:** – Yo‘q, smurfchalar kompyuter yonidagi stolning tagida.

**Tarbiyachi:** – Bu stol kiyim shkafaridan uzoqda joylashganmi, yaqinda?

**Bolalar:** – Bu stol kiyim shkafidan uzoqroqda joylashgan.

Ota Smurf: – Voy, smurfchalar uxlash xonasidagi krovatlar tagida ko‘rinmaydimi?

**Bolalar:** – Yo‘o‘o‘q, smurfchalar san‘at markazidagi stol tagida.

**Tarbiyachi:** – Bu stol eshikka yaqin joylashganmi?

**Bolalar:** – Yo‘o‘q, bu stol eshikdan uzoqda joylashgan.

*(O‘yin shu tariqa davom ettiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, o‘yiniz juda qiziqarli o‘tdi, endi monitorga qaraymiz va xona bumlarining joylashgan joyini aytamiz.

Mustahkamlash uchun monitordagi surat asosida quyidagi savollar beriladi:

Doska o‘yinchoq shkafchadan uzoqda joylashganmi, yaqinda?

Kitob javoni monitordan uzoqda joylashganmi, yaqindami?

Kompyuter stoli deraza yonida joylashganmi, deraza orqasida?

Stul stolning chap yonidami, o‘ng yonidami?

## SUTKA QISMLARI HAQIDAGI BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** bolalarga kun va tun, ularda kundalik faoliyatlar haqidagi misollar bilan o‘tilganlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mo‘ljal olishga o‘rgatish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, mehnat-



sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir men sizlarga topishmoq aytaman. Siz o'sha topishmoqning javobini topasiz.

Bir semirib, bir ozar, kun kirganda nur sochar. Bu nima?

**Bolalar:** – Bu Oy.

**Tarbiyachi:** – Oy kunning qaysi qismida chiqadi?

**Bolalar:** – Kechqurun.

**Tarbiyachi:** – Kechasi ochilur,

Osmonga sochilur. Bu nima?

**Bolalar:** – Bu yulduz, u ham kechqurun osmonga chiqadi.

**Tarbiyachi:** – Bir vaqtda ikki til,

Ertayu kech “chiq” deydi.

Yotaverma tong otdi,

Tur bog'chaga chiq deydi.

Bolalar, bu nima?

**Bolalar:** – Bu soat

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, soat. U bizga vaqtni ko'rsatib turadi. Endi savollarda davom etaman.

Bu vaqtda xo'roz uyg'onib bo'lib qichqiradi. (tong, sahar)

Bu vaqtda bog'chada nonushta qilamiz. (ertalab)

Bu vaqtda tushlikni yeb bo'lib, bolalar dam olish uchun yotadilar. (peshin)

Bu paytda kechki ovqatni yeb, dam olish uchun yotadilar. (kechqurun)

Bu paytda quyosh bo'y ko'rsatadi. (tong, sahar)

Bu vaqtda odamlar ishdan qaytadi, ko'pchilik oila davrasida televizorda kechki dasturlarni tomosha qiladi. (kechqurun)

**Tarbiyachi:** – Bolalar hozir sizlarga 1, 2, 3 raqamlari va uchtadan kartochka tarqatiladi. Sizlar ertalabga mos surat tasvirlangan kartochkani 1 raqamiga, peshinga mos surat tasvirlangan kartochkani 2 raqamiga va kechqurunga mos kartochkalarni 3 raqamiga qo'yishingiz kerak.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarni kuzatadi, amaliy ish tu-*



*gagach, bolalardan izoh so'raydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir men sizlarga sutka qismlari haqida bir ertak aytib bermoqchiman. Bir kuni ertalab, kunduzi va kechqurun o'zaro kelisholmay qolishibdi. Ulardan kunduzi birinchi bo'lib norozilik bildiribdi. “Men hammangizdan ko'p ishlayman, sizlar menchalik ishlamaysizlar, mendek mashaqqat tortmaysizlar” debdi. Kun va tun har qancha o'zlarini oqlashga urinishmasin, kunduzi ularni eshitmabdi. “Biringiz akam, biringiz ukam bo'lsangiz ham sizlarga rahm qilmayman. Ertaga men yer yuziga chiqmayman” debdi. Kun va tun unga har qancha yalinib yolbormasin kunduzi o'z aytganida turaveribdi.

Ertasi kuni tong o'z vaqtida chiqibdi, u o'z vazifasini tugatgach, qaytib ketaman deganida kunduzi kelavermabdi. Noiloj qolgan tong tunga “o'zing kelaqol, men sahardan chiqqanman, boshqa yer yuzida turishga majolim yo'q” debdi. Tun kunduzi arazlaganini bilgach, noiloj yer yuziga chiqibdi. Bir zumda hammasi chalkashib ketibdi. Ishga otlanganlar ishga borolmabdi, bolalar bog'chaga kelmabdi, ishxonalar ishlamagan, oftobni kutayotgan qariyalar tunga qarab ma'yus tortib qolibdi. Eng yomoni non pishmay qolibdi. Odamlar uyda ko'p yegulik bo'lsa ham nonsiz rosa qiynalishibdi. Kasalxonadagi bemorlar kunduzi sayrga chiqsak tezroq tuzalardik, endi yana dimiqib yotaveramizmi deb yig'lab yuborishibdi. Eng yomoni non yo'qligidan butun shahar aholisi ko'chalarga chiqib bir-biridan non so'rab yuraveribdi. Bularni ko'rib turgan tong kunduziga rosa yalinibdi, “ayniqsa, oynaga termulgan, o'rnidan turolmaydigan keksalarga rahm qil” debdi. Kunduzi kasalxonadan qarab turgan bemorlarga, non so'rab yugurgan odamlarga bir nigoh tashlabdi-yu, o'zi qilgan ishidan uyalibdi. U ertasidan vaqtida o'z joyini egallaydigan bo'libdi. Bolajonlar, sutkaning uchchala vaqti ham o'z o'rniga ega va ular ahil aka-ukalardek ish tutishsa, hammasi joyida bo'ladi.

## **SONLARNING QO'SHNISINI TOPISH VA ULARNING O'ZARO ALOQADORLIGINI TUSHUNTIRISH**

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda 10 soni ichida oldin va keyin keladigan sonlar haqida tasavvur hosil qilish. 10 gacha bo'lgan sonlarni oldingi va



keyingi sonlar bilan bog'lanish tartibini tushuntirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni sanashga, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** guruh bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sanoq cho'plar, lentalar, kartochkalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, biz o'n soni haqida bilamiz. Bugungi ta'limiy faoliyatimizda ana shu son haqida bilganlarimizni mustahkamlaymiz. Hozir monitorga qarang, u yerda Akmaljon ismli bolaning ekan gullari tasvirlangan. Akmaljon har kuni bittadan gul ekibdi va ular kunma-kun ochilibdi, sizlar hozir ularni ochilganiga qarab raqamlashda menga yordam berishinglar kerak. Qani, gullarning o'sishiga va tuvaklarning rangiga qarab ularni tartiblaymiz.

**Bolalar:** – Qizil tuvakdagi gul birinchi, yashildagisi ikkinchi, siyohrang tuvakdagisi uchinchi, oq tuvakdagisi to'rtinchi, sariq tuvakdagisi beshinchi, qora tuvakdagisi oltinchi, jigarrang tuvakdagisi yettinchi, ko'k tuvakdagisi sakkizinchi, pushti tuvakdagisi to'qqizinchi va havorang tuvakdagisi o'ninchi kuni ekilgan.

**Tarbiyachi:**– Hozir sizlarga bo'yash uchun tarqatma material tarqataman. Sizlar uning ichidan soni o'nta bo'lgan buyumlarni topib bo'yashinglar va ularni raqamlab chiqishinglar kerak.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarni yo'naltirib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizlarga raqam ko'rsataman, sizlar uning qo'shnisi qaysi son ekanligini aytishinglar kerak. 5, 2, 8, 4, 3.

*(Bolalar ushbu sonlarning qo'shnilarini aytadilar).*

**Tarbiyachi:** – Bir oilaning o'nta qiz farzandi bor ekan. Qizlar judayam chiroyli, ko'rgan odamlarning havasi kelarkan. Faqatgina bitta keksa ayol ularni doim kim kimdan keyin tug'ilganini adashtirib qo'yarkan. U qizlarning ismini aytmay, yettinchi, oltinchi, uchinchi deb gapirarkan. Bolajonlar, kelinglar, keksa buviga yordam bo'lsin deb qizchalarga ularning nechanchiligini bildirib turish uchun yoshiga qarab lentalar kesamiz. Hammangiz ikkitadan songa lenta kesavering.

*(Amaliy ish jarayonida tarbiyachi bolalarni kuzatib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi bu lentalarni qizchalarga sovg'a qila-



miz. Bunda uch yoshli qiz uchta lenta taqib oladi, besh yoshli qiz beshta lenta taqib oladi, sakkiz yoshli qiz sakkizta lenta taqib oladi.

Bolajonlar, kelinglar, hozir o'ngacha bo'lgan sonlarni qo'shnilarini yana bir marta eslab olamiz.

**Bolalar:** – 1 ning qo'shnisi 2, 2 ning qo'shnisi uch, 3 ning qo'shnisi 4, 4 ning qo'shnisi 5, 5 ning qo'shnisi 6, 6 ning qo'shnisi 7, 7 ning qo'shnisi 8, 8 ning qo'shnisi 9, 9 ning qo'shnisi 10.

**Tarbiyachi:** – Endi sizlar bilan birga jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

O'nta o'rtoq tepaga, (qo'llarimizni qo'tarib, barmoqlarimizni qimirlatamiz)

O'nta inoq o'ngga. (qo'llar o'ng tomonga qaraydi)

O'nta botir chapga, (qo'llar chop tomonga qaraydi)

Endi tushar pastga. (qo'llar pastga qaraydi)

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi mana bu savollarga javob beringlar.

8 sonining ikki tomondan qo'shnisini ayting.

6 sonining ikki tomondan qo'shnisini ayting.

5 soni qaysi raqamlar bilan qo'shni hisoblanadi?

10 dan oldingi raqamning qo'shnisi qaysi?

10 dan 1 gacha teskari sanang.

## GEOMETRIK SHAKLLARNING TURLI KO'RINISHLARI BORLIGINI TUSHUNTIRISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** geometrik shakllar haqidagi o'tilganlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** AKT, tarqatma materiallar, geometrik shakllar maketlari, rangli qog'ozdan kesilgan doiralar;

**Tarbiyaviy:** mantiqiy fikrlashni o'rgatish, jamoada o'zaro yordam berish ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, geometrik shakllar, tarqatma materiallar, kartochkalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, bolajonlar, mana bu doskada chizil-



gan shakllarga qarang. Ana shu shakllar o'rnidagi geometrik figuralar yo'qolib qolibdi. Siz doskaga qarang va qaysi shakl yo'qolganini aniqlab bering. Demak, birinchidagi shakl nima?

**1-bola:** – Uchburchak.

**Tarbiyachi:** – Uchburchak ekanligini qanday aniqlading?

**1-bola:** – Uchburchakning uchta burchagi bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Ikkinchi rasmdagi shakl nimani bildiradi?

**2-bola:** – Kvadratni bildiradi. Kvadratning to'rtta burchagi bor.

**Tarbiyachi:** – Bolalar qaysi geometrik shaklda burchak yo'q?

**3-bola:** – Doira shaklida burchak yo'q.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir sizlar bilan “O'xshashini top” o'yinini o'ynaymiz. Men sizlarga bitta geometrik figura ko'rsataman, sizlar esa xuddi shunga o'xshash biror buyumni xonadan topib berishinglar kerak.

*(Tarbiyachi kvadrat suratini ko'rsatadi, deraza, oyna, stol, shkaf misollarini aytadi).*

**Tarbiyachi:** – Endi doira shakliga mos buyumlar topinglar.

*(Bolalar soat, lagancha, koptokni aytadilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir hammangizga bittadan oq qog'oz va geometrik shakllar tarqataman. Sizlar uning tepasiga kvadrat va to'rtburchak, pastiga esa doira shakllarini yelim yordamida yopishtirishinglar kerak.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarni kuzatib, ularni yo'naltirib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi jismoniy daqiqa o'tkazamiz. Men T. Husainovning “Kapalak” nomli she'rini o'qiyman. Sizlar esa kapalakka mos xatti-harakatlar qilib qo'llaringizni tepaga ko'tarib tushirasiz va uchburchak shaklida xonani aylanib chiqasizlar.

Kapalakjon, kapalak,

Bahordan berding darak.

Nusxangdan tikdim palak,

Jajji go'zal kapalak.

Bog'ni kezib tinimsiz,

Charchashni hech bilmaysan.

Menga tutqich bermaysan,

Jajji go'zal kapalak.



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir men bolg'achada stolni uraman. Sizlar avvaliga necha marta urganimni aytasiz, keyin esa o'sha songa qaysi geometrik figuraga teng burchak hosil qilish mumkinligini aytasiz.

*(Bolalar tarbiyachi uch marta urganida uchburchak, to'rt marta urganida to'rtburchak, yana to'rt marta urganida kvadrat shakli yasash mumkinligini aytadilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi quyidagi savollarga javob beringlar.  
To'rtburchak shaklining kvadratdan qanday farqi bor?  
Uchburchak shakliga mos predmetlar nomini ayting.  
Doira shakliga mos narsalar nomini sanab bering.

## **PREDMETLARNI 4 GA VA 8 GA BO'LISH NATIJALARI BILAN TANISHTIRISH**

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga teng 4 qismga bo'lish kengroq tushuntirish, katak varaqda matematik diktant olish, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shakli haqida tushuncha berish, chamalashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, geometrik shakllar maketlari, rangli qog'ozdan kesilgan doiralar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bir kuni o'rmonda hayvonchalar o'rtasida kelishmovchilik kelib chiqibdi. Buning sababi, ular o'rmonda bir notanish va juda chiroyli bo'lgan mevani topib olishibdi. Lekin meva bitta, hayvonlar esa 8 ta ekan. Shunda o'rmon shoxi Sherxon o'rmondagi eng kuchli jonivorlardan 4 tasi – sher, yo'lbars, sirtlon va bo'ri bu mevani bo'lib yesa bo'ldi, chunki biz narsalarni teng 4 ga bo'lishni o'rganganmiz, lekin 8 ga bo'lishni bilmaymiz, debdi. Sherxonning bu qaroridan boshqa mayda hayvonlar norozi bo'lishibdi. Shunda tulki shunday debdi:

– 8 ga bo'lishni bilmaymiz deb, loqaydlik qilish yaramaydi. Uning o'rniga 8 ga bo'lishni o'rganaylik, shunda mayda hayvonlar ham bu noyob



mevadan tatib ko'radi, – debdi. Lekin hayvonlarga 8 ga bo'lishni o'rgatadigan yo'q ekan. (*Monitorida o'rmon hayvonlari rasmi ko'rsatiladi*).

**Bolajonlar, kelinglar, biz hozir birgalikda o'rmon hayvonlariga 4 ga va 8 ga teng bo'lishni o'rgatamiz.**

Buning uchun stolingizdagi kvadratni olasiz va uni teng 2 ga kvadratni uchburchak shaklida buklab, bo'lasiz. Aytingchi, nima hosil bo'ldi?

**Bolalar:** – 2 ta teng yarim hosil bo'ldi.

**Tarbiyachi:** – Endi esa shu qog'ozni yana teng ikkiga buklaymiz. Nima hosil bo'lganini ayting.

**Bolalar:** – Qog'ozni kessak, 4 qismga bo'linadi.

**Tarbiyachi:** – Unda mana shu qog'ozni yana teng 2 ga buklab, buklangan chiziqlar bo'ylab qog'ozni qaychi yordamida kesamiz.

(*Bolalar chiziqlar bo'ylab qog'ozni kesayotganda qog'oz necha bo'lakka bo'lingani, nechta qism hosil bo'lgani haqida tarbiyachi tushuncha berib o'tadi*).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi bo'laklarni sanaymiz: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8. Demak, o'rmon hayvonlari, noyob mevani ham shu tarzda bo'lib yeyishlari mumkin. Endi, jismoniy daqiqa o'tkazamiz:

Biz bilamiz o'zimiz,

Mana ikki qo'limiz.

Mana ikki belimiz,

Aylanamiz har tomon.

(*Mashqlar 4-5 marta bajartiriladi*).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi stolingizdagi kartochkalarni oling va ruchka yordamida qaysi bo'laklar qaysi butunniki ekanligini topib, bir-biriga chiziqlar yordamida bog'lab chiqing.

(*Bolalar topshiriqni bajarayotganda, orqada qolayotgan bolalarga amaliy yordam va tushunchalar beradi*).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar aytingchi, mana bu plastmassa chelakchani teng 4 ga yoki 8 ga bo'lish mumkinmi?

**Bolalar:** – Yo'q.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri, chunki chelakchadan bo'lingan holda foydalanib bo'lmaydi. Lekin bo'lib foydalanadigan predmetlar uchun bilganlarimiz juda foydalidir.



## KATAKLI DAFTARDA GRAFIK DIKTANT YOZISHGA O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** katak varaqda matematik diktant olish, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shakli haqida tushuncha berish, chamalashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, geometrik shakllar maketlari, kartochkalar.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, katakli kartochkalarni tarqataman va unda kataklar bo'ylab chizilgan grafik suratlar bor. Sizga qaysi bir surat yoqsa, o'sha surat ustidan ruchkangizni yurgizing va kataklar bo'ylab qanday harakat qilinganiga e'tibor qarating.

*(Kartochkada kuchukcha, mashina, uy va stol rasmi beriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, rasmi diktant orqali rasm chizishni eslab oldikmi? Unday bo'lsa, men sizlarga kataklar bo'ylab harakatni aytib turaman, sizlar esa chizishda davom etamiz.

1. Varaqning chaprog'ida belgilab qo'yganim nuqtadan o'ng tomonga qarab 20 ta katak.

2. Shu to'xtamdan tepaga qarab 10 ta katak.

3. Shu to'xtamdan orqaga qarab yana 20 ta katak.

4. Shu to'xtamdan pastga qarab 10 ta katak.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, qanday shakl hosil bo'ldi?

**Bolalar:** – To'g'ri to'rtburchak hosil bo'ldi.

**Tarbiyachi:** – Aytingchi, bu shakllarni davom ettirgan holda qanday suratlar chizishimiz mumkin?

*(Bolalar shkaf, stol, uy, monitor... kabi javoblarni berishadi va ularning xohishlariga qarab tanlab olinadi).*

**Tarbiyachi:** – Demak, matematik diktantni yozishda davom etamiz.

5. To'rtburchak ustiga tom chizish uchun 5 ta katak tepadan 8 ta o'ng



tomonga qarab chiziq tortamiz.

6. Shu to'g'ri chiziqni bino qismiga ulab qo'yamiz.

7. Bino o'rtasidan eshik chizamiz va ikki yoniga deraza chizamiz.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi dam olish daqiqasi o'tkazib olamiz:

Men kuchli bo'laman,

Tayoqchalar ko'tarib.

Bir, ikki, uch,

Bilak to'la kuch.

(Harakatlar 4-5 marta takrorlanadi).

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlar oldingizdagi toza katak varaqqa belgilangan nuqtadan boshlab o'zingiz xohlagan surat rasmini kataklar bo'ylab chizishingiz mumkin.

## HAFTA KUNLARI BO'YICHA MA'LUMOTLARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarning hafta bilimlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarda mo'ljal olish, chamalash, diqqatni rivojlantirish malakasini shakllantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda mehnatsevarlik qobiliyatini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizni Malika Qahramonovanning quyidagi she'ri bilan boshlashni lozim topdim.

Bir haftada – yetti kun,

Ularni sana Gulgun.

– Dushanba – hafta boshi,

Seshanbadir yondoshi.

Murodbaxsh kun – Chorshanba,

Osh damlaymiz Payshanba.



Juma – muborak bizga!

Ezgulik tilar sizga.

So'ngra keladi Shanba,

Hafta yakuniga manba.

Yakshanba hordiq kuni –

Yaxshi o'tkazing uni.

**Tarbiyachi:** – Bolalar she'rimiz nima haqida ekan?

**Bolalar:** – Hafta kunlari haqida.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, qani kim hafta kunlarini sanab beradi?

**1-bola:** – Dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi orangizdan kim hafta kunlarini teskaridan sanab bera oladi.

**2-bola:** – Yakshanba, shanba, juma, payshanba, chorshanba, seshanba, dushanba.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir ikki guruhga bo'linasiz. Har biringizga birdan yettigacha bo'lgan raqamlar boshingizga tojdek kiydiriladi. Sizing vazifangiz mening yordamimsiz hafta kunlariga mos ravishda ketma-ketlikda turib olishdan iborat. Qaysi guruh bolalari tezroq turib olsa, ana o'sha guruh g'olib hisoblanadi.

*(Bolalar o'yin davomida hafta kunlaridek turib oladilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hafta kunlari navbati bilan keladi va hech qachon bir-biri bilan to'qnashmaydi. Bir kun tugaganidan keyin ikkinchi kun boshlanadi.

Hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz. Qani, hammamiz doira bo'lib turib olamiz va o'zimizni ari deb tasavvur qilamiz. Aytgancha, ari-ning qanoti nechta?

**Bolalar:** – 2 ta.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Ari uchayotganida qanday ovoz chiqaradi?

**Bolalar:** – Ari "viz-viz" degan ovoz chiqarib uchadi.

**Tarbiyachi:** – Men Quddus Muhammadiy qalamiga mansub "Bolari" she'rini o'qiyman, sizlar esa xuddi aridek doira bo'lib qo'llaringizni ikki yonga ko'tarib tushirib yurasizlar.

**BOLARI**

G'uv-g'uv uchar bolari,



Duv-duv uchar bolari.  
Guldan-gulga qo'nishib,  
Sharbat ichar bolari.  
Bolari, hoy bolari,  
G'uv-g'uv nag'mang chal.  
Bog'imizda yayrashib,  
Uchib o'yin sol, ari!  
Sen qadrdon do'stimiz.  
Asaling yeb o'sdik biz,  
Bog'chamizda qol ari!

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi mana bu savollarga javob bering.

Bir hafta necha kundan iborat?

Seshanbadan oldin qaysi kun keladi?

Seshanbadan keyin-chi?

Qay biri ko'proq: haftami yoki oymi?

Bir sutka necha qismdan iborat?

Hafta qaysi kundan boshlanadi?

Qaysi kuni bolalar bog'chaga bormasdan dam oladilar?

Payshanba kundan keyin qaysi kun keladi?

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi hafta kunlari haqidagi namoyish bilan ta'limiy faoliyatimizga yakun yasaymiz.

+ va – BILAN TANISHTIRISH.

### SONLARNI QO'SHISH VA AYIRISH BO'YICHA MALAKALARNI MUSTAHKAMLASH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga kichik sonlarni bir-biriga qo'shib katta sonlar hosil qilish yo'llarini o'rgatish. + va – amali bilan tanishtirish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda matematikaga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, ularda mantiqiy fikrlashni kuchaytirish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonlar rasmlari, – va + belgilari, turli geometrik shakllar.



## Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening qiziquvchan, beg'ubor bolajonlarim! Bugungi ta'limiy faoliyatimizni bitta ertakdan olingan parcha bilan boshlamoqchiman. Bu ertakni Janni Rodari degan chet ellik yozuvchi yozgan. Monitorda ertakka bag'ishlangan turli suratlarini kuzatib boringlar.

Kunlardan bir kuni Besh ko'chada orqa oldiga qaramay yugurib borarkan:

- Hoy, kim bor, yordam beringlar! – deb qichqiribdi.
- Senga nima bo'ldi? Tinchlikmi?
- Orqamdan ayirish belgisi quvib kelayotganini nahotki ko'rmayapsizlar? Agar u menga yetib olsa, shunday musibat yuz beradiki!...
- Voy, shu ham musibat bo'ldimi?

Ammo musibat baribir yuz beribdi. Ayirish belgisi bechora Beshning orqasidan kelibdi-da, yoqasidan bo'g'ib, o'tkir shamshiri bilan qiymalay ketibdi. Uning shamshirini hamma odatdagi ayiruv belgisi deb o'ylarkan. Bechora Beshning tit-piti chiqib ketibdi, agar baxtiga yonginasidan uzundan-uzun chet el mashinasi o'tib qolmaganida, undan bir raqami ham qolmas ekan. Ayirish belgisi mashinani sal kaltaroq qilish mumkinmi yo'qmi deb atrofga bir zum alanglab qarabdi. Besh ziyraklik qilib, birinchi uchragan uyga lip etib kiribdi-yu, yashirinib olibdi. Biroq u endi Besh emas, To'rt bo'lib qolgan ekan, buning ustiga burni pachoq bo'libdi.

- Bolalar, besh qachon to'rtga aylanadi?

**Bolalar:** – Agar undan bir raqamini olib tashlasak.

**Tarbiyachi:** – Agar to'rt raqamiga bir raqamini qo'shsakchi?

**Bolalar:** – Unda yana 5 soni hosil bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri. Bolajonlar, endi monitorga qarang. U yerda qo'shish va ayirish belgilari ko'rsatilgan. Agar biz ikkita sonni bir-biriga qo'shishimiz kerak bo'lsa, + belgisini yozamiz, agar ayirishimiz kerak bo'lsa, – belgisini qo'llaymiz. Ulardan hosil bo'lgan natijani yozish uchun esa =, ya'ni teng belgisidan foydalanamiz. Qani, monitorga qarang va unda yozilgan misollarni birga o'qiymiz.

$$3+3=6$$

$$5+5=10$$



$$4+4=8$$

$$7+2=9$$

$$6+2=8$$

– Bolajonlar, endi diqqatingizni yana monitorga qarating. Unda ayirish belgisi bor. Ayirish belgisi sonlarni ayirishda ishlatiladi. Uning shakli to‘g‘ri chiziqchaga o‘xshaydi.

Hozir ekranda ayirish belgisiga mos misollar ko‘rsatilgan, qani ularni birgalikda o‘qiylik-chi.

$$10-3=7$$

$$8-4=4$$

$$10-4=6$$

$$9-7=2$$

$$8-3=5$$

– Bolalar, to‘g‘ri o‘qidinglar. Endi esa sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

O‘nta quyon qo‘lga chiqdi, voy-voy-voy, (uch qadam oldinga yuramiz)

Yo‘lda horib charchab qoldi, voy-voy-voy. (o‘tiramiz)

Bo‘rini ko‘rib ular (o‘rnimizdan turamiz)

Shoshilib qochib qoldi, voy-voy-voy (uch qadam ortga yuramiz)

– Bolalar, hozir har biringizga misollar yozilgan kartochkalar tarqataman. Ulardagi misollarning javobini teng belgisi yoniga yozasizlar.

*(Amaliy ish jarayonida tarbiyachi bolalarni kuzatib boradi).*

Bolalar, hozir men sizlarga mavzuga doir savollar beraman.

Muhayyoning 5 ta qo‘g‘irchog‘i bor edi, unga oyisi yana bitta qo‘g‘irchoq sovg‘a qildi. Muhayyoning qo‘g‘irchog‘i nechta bo‘ldi, bu yerda qo‘shish belgisi qo‘yiladimi yoki ayirish?

Sizning bitta qo‘lingiz barmoqlari soniga bitta oyog‘ingiz barmoqlari sonini qo‘shsak, necha soni hosil bo‘ladi?

Teng belgisini hosil qilish uchun nechta cho‘p ishlatiladi?

Ayirish belgisini hosil qilish uchun nechta cho‘p ishlatiladi?

Azimjonning 3 ta koptogi bor edi. U do‘stiga bitta koptogini berib yubordi. Azimjonda nechta koptok qoldi?

Anvarjon 8 ta to‘ti boqayotgan edi, dadasi unga yana 2 ta to‘ti olib berdi. Anvarjondagi to‘tilar soni nechta bo‘ldi?



## 8 GACHA TENG QISMGA BO'LIH KO'NIKMALARNINI MUSTAHKAMLASH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga 8 gacha teng qismga bo'lishni kengroq tushuntirish, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shakli haqida tushuncha berish, chamalashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, geometrik shakllar, rangli qog'ozdan kesilgan doiralar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir “Sanab ber” o'yinini o'ynaymiz. Buning uchun men doskaga qaldirg'ochlar suratini yopishtiraman, sizlar esa ularning soni nechta bo'lsa, o'sha raqamni ko'tarasiz.

*(Doskaga tarbiyachi 20 gacha bo'lgan qaldirg'ochlarni sonini aralash holda yopishtiradi, masalan, birinchi 5 ta qaldirg'och, keyin 3 ta qaldirg'och... Bolalar esa ularga teng bo'lgan raqamlarni ko'taradi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, biz sanash mashqlarini o'tkazib oldik. Endi esa predmetlarni teng 2 ga, teng 4 ga, teng 8 ga teng bo'lishni o'rganamiz. Buning uchun monitorga qarang va nimani ko'rayapsiz?

**Bolalar:** – Pirog.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bu pirogni 8 nafar bolaga teng bo'lishimiz kerak. Buning uchun biz avvalo plastilindan doira shaklidagi pirogni yasab olamiz va uni maxsus plastilin pichoqchasida kesamiz.

*(Amaliy ish doirasida tarbiyachi bolalarning plastilindan to'g'ri foydalanishini nazorat qiladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bo'lish jarayonini men bilan birgalikda amalga oshirasizlar. Qani boshladik.

*(Doira teng ikkiga bo'linadi).*

**Tarbiyachi:** – Qarang, doira teng ikkiga bo'lindi va bitta yarimta bo'lak pirog butun pirogning bir qismi deyiladi.

*(Bolalarga bu tushuncha tahlil qilib tushuntiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Endi esa pirogni yana teng qismga bo'lamiz. Pirogimiz



nechta qismga bo'lindi?

**Bolalar:** – 4 ta qismga.

**Tarbiyachi:** – To'ppa-to'g'ri, bu bo'laklarning bir qismi butunning to'rtidan bir qismi yoki chorak qismi deyiladi.

*(Bu tushuncha misollar yordamida tushuntiriladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bu pirog bo'laklari hamma bolalarga yetmaydi, shuning uchun pirogimizni bo'lishda davom etamiz. Endi nechta bo'lak paydo bo'ldi?

**Bolalar:** – 6 ta bo'lak paydo bo'ldi.

**Tarbiyachi:** – Ha, bir plastilin pirogimizga teng 3 ta chiziq tortish orqali, uni teng 6 ga bo'ldik. Bu bo'lak pirogning oltidan bir qismi deyiladi. Lekin hali ham uning soni bolalarga yetmaydi. Shuning uchun pirogimizni teng 8 bo'lakka bo'lish uchun yana bitta chiziq tortamiz. Endi sanab ko'ringchi, pirog nechta bo'lakka bo'lindi?

**Bolalar:** – 8 ta bo'lakka bo'lindi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, biz teng qismga bo'lgan bo'laklarimiz soni 8 ta bo'ldi. Bu bo'lak 8 dan bir qism deyiladi. Bolajonlar, endi hamma pirog bo'laklari bolalarga yetadigan bo'ldi.

## INSONLARGA NISBATAN PREDMETLARNING JOYLASHUVINI O'RGATISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish, mo'ljal olish ko'nikmasini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlashni kuchaytirish, xotira va diqqatni rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda hamdardlik tuyg'usini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma kartochkalar, o'yinchoqlar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sichqonchani ko'rgansizlar-a?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Tasavvur qiling, bo'ri quyovni quvib ketayotgan edi, be-



chora quyon jon talvasasida yerga yiqilib tushdi. Agar yana ozgina vaqt o'rnidan turmay tursa, bo'ri uni quvib yetishi aniq. Quyon va bo'ring joylashgan joyi monitorida ko'rsatilgan. Qarangchi, quyon qayerga borgan ma'qul?

**1-bola:** – Quyon oldinda, bo'ri orqada.

**2-bola:** – Quyon chap tomonga yursa bo'lmaydi, chunki u yerda eshik qulflangan turibdi.

**3-bola:** – Quyon o'ng tomonga yursa ham bo'lmaydi, u yerda tulki turibdi.

**4-bola:** – Quyon oldinga yugurishi kerak, u yerdagi eshik ochiq turibdi.

**Tarbiyachi:** – Quyon shunda o'zidan old tomonga yugursinmi yoki orqaga?

**5-bola:** – Quyon o'zidan oldingi tomonga yugursin. Orqaga yugursa, bo'riga yem bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir xonaning turli yerlariga o'yinchoqlar, geometrik shakllar qo'yib chiqamiz. O'zimiz ham xona bo'ylab yoyilib turamiz. Endi, esa sizlar bilan adashib qoldim o'yinini o'ynaymiz. Tasavvur qiling, bunda siz adashib qoldingiz va o'zingiz turgan joyni tasvirlab bersangizgina sizni topishadi. Yaqinlaringiz sizning oldingizga kelish uchun o'sha joyni aniq bilib olishlari kerak.

Masalan, mening o'ng tomonimda bitta yigitcha, chap tomonimda ayiq o'yinchog'i, oldimda telefon budkasi, orqamda uchburchak shakli bor deb ta'riflashingiz mumkin.

**Tarbiyachi:** – Bolalar endi sizlar bilan tezroq top o'yinini aytamiz. Men sizlarga o'ng desam, o'zingizdan o'ng tomondagi, chap desam o'zingizdan chap tomondagi narsalarni aytib berishinglar kerak. O'ngga yaqinroq, chapdan uzoqroqdagi narsa deb ham so'rab qolishim mumkin. Shuning uchun tayyorlanib turinglar.

*(O'yin davomida tarbiyachi bolalarga ko'zi bilan imo qilib, narsalar joylashuvini ko'rsatib yordam berishi mumkin).*

– Endi esa sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

O'ng qo'lim har ishda mohir, *(o'ng qo'l tepaga ko'tariladi)*

Chap qo'lim ham undan qolishmas. *(chap qo'l tepaga ko'tariladi)*

Ikki oyoq go'yo uchqur ot, *(turgan joyda yuriladi)*

Meni manzilga yetkazmay qo'ymas. *(oyoq bilan yer do'pirilatadi)*



– Bolajonlar, hozir guruhimizga Robot kirib keladi. Biz unga topshiriq aytamiz, u bajaradi. Agar topshiriqni to‘g‘ri aytsak, u qabul qilindi deb javob beradi, agar noto‘g‘ri berilsa, bu topshiriq xato deydi.

**5-bola:** – Robot, oldinga o‘ng qadam yur.

Robot: – Topshiriq xato, oldinga o‘n qadam yursam derazaga urilaman.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, robotga topshiriq berayotganda mo‘ljalni aniq olib, keyin aytinglar, bo‘lmasa u topshiriqni bajarmaydi.

*(Bolalar robotga topshiriq beradilar, u o‘ng, chap, orqa, oldinga yurib bolalarning topshirig‘ini bajaradi).*

– Bolajonlar, robot deyarli hamma topshirig‘imizni xatosiz bajardi. Kelinglar, uni qarsaklar bilan olqishlab qo‘yamiz. Qarsak chalish uchun nechta qo‘limiz kerak bo‘ladi?

**Bolalar:** – 2 ta.

**Tarbiyachi:** – To‘ppa-to‘g‘ri. Bolajonlar, bugungi ta‘limiy faoliyatimizda faol ishtirok etdinglar, sizlarga katta rahmat.

## SANA, HAFTA KUNI, OY NOMLARI BILAN TANISHTIRISH

### Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta‘limiy:** tarbiyalanuvchilarni o‘tayotgan oynning nomlanishi, oy kunlarining raqam bilan yozilishi va hafta kunlarini farqlashga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalar o‘tayotgan oy va sana haqidagi tushunchalarga ega bo‘ladilar, diqqat va xotira rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlik tuyg‘usini rivojlantirish, o‘zaro xamjihatlikda ishlashga o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, tarqatma materillar.

### Ta‘limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir men sizlarga bitta jumboqli savol bera-man. Bir shahar, shaharda 12 minora bor. Bu nima?

**Bolalar:** – Bu bir yil va 12 oy.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, har birimizning ismimiz bo‘lganidek, oylar va kunlar ham o‘z nomiga ega. 12 oynning har birining o‘z nomi bor. Har bir faslda uchtdan oy bor. Har bir oy esa 1 dan 31 gacha bo‘lgan raqam-



larga ega. Hozir qaysi fasl?

**Bolalar:** – Qish fasli.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri, hozir qish fasli. Biz ... oyining 14 kunidamiz. Kecha chorshanba edi, bugun payshanba, ertaga esa juma bo‘ladi. Xo‘sh, kim aytadi, ertaga qaysi sana va haftaning qaysi kuni bo‘ladi?

**1-bola:** – Ertaga sana 15 va juma kuni bo‘ladi.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri. Bolalar, hozir yanvar va bu yilning birinchi oyi hisoblanadi. Bu oyda kunlar sovuq bo‘ladi.

**2-bola:** – Tarbiyachi opa, biz qaysi kun va sana ekanligini qayerdan bilamiz?

**Tarbiyachi:** – Biz sana, hafta kunlari haqidagi barcha ma‘lumotlarni taqvimga qarab bilib olamiz. Hozir monitorga qarang, unda taqvimning surati ko‘rsatilgan. Taqvim qanaqa shaklda ekan?

**Bolalar:** – To‘g‘ri to‘rtburchak shaklida ekan.

**Tarbiyachi:** – Unda varaqlar soni ko‘p ekanmi yoki kam?

**Bolalar:** – Undagi varaqlar soni ko‘p ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, taqvim odatda ikki xil bo‘ladi. (Tarbiyachi qo‘liga taqvim olib ko‘rsatadi). Birinchi taqvim stolga qo‘yishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Uni ishlayotgan stol ustiga qo‘yish mumkin. Ikkinchi taqvim esa yirtiladigan taqvim bo‘lib, u devorga osib qo‘yiladi. Bunday taqvimda har kun tugashi bilan yirtib olinadi va o‘z-o‘zidan ertangi kun ko‘rinadi. Taqvimda o‘sha oy va kunga mos qiziqarli ma‘lumotlar, dalillar o‘rin olgan bo‘ladi. Istaysizlarmi, hozir sizlar bilan taqvim yasaymiz. Buning uchun sizlarga raqam yozilgan kartochkalar tarqatib chiqiladi. Sizlar esa monitorga qaragan holda yakshanbani qizil doirachaga olasiz. Chunki aksariyat taqvimlarda yakshanba dam olish kuni bo‘lgani uchun boshqacha rangda tasvirlanadi.

*(Amaliy ish jarayonida tarbiyachi bolalarni kuzatib turadi).*

– Bolalar, kelinglar endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Men qaysi raqam yozilgan kartochkani ko‘rsatsam sizlar o‘sha raqamga mos hafta kunini aytasiz va o‘shancha marta o‘tirib turishingiz kerak. Bolalar, o‘rnimizdan turib, orada biroz masofa qoldirib turamiz.

*(Bolalar jismoniy daqiqa o‘tkazishadi).*

– Bolalar, endi mana bu savollarga javob bering.

Bir yilda nechta fasl bor?



Bir yilda nechta oy bor?  
Bugun biz sizlar bilan qaysi oy haqida tanishdik?  
Bir haftada nechta kun bor?  
Payshanbadan keyin qaysi kun keladi?  
Seshanbadan oldingi kun qaysi?  
Shanbadan keyin qaysi kun keladi?

## 10 ICHIDA QO'SHISH VA AYIRISHGA O'RGATISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarning matematik tasavvurini shakllantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularda diqqatni xotirani rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda sanash malakasini paydo qilish, 10 ichida qo'shish va ayirishni o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, sanoq cho'plar, tayoqchalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, mening bilimga chanqoq, sho'x quvnoq bolajonlarim! Hozirgina kiraverishda eshigimiz yonida kimdir xat tashlab ketibdi. Ana shu xatni hozir sizlarga o'qib beraman.

“Bolalar, hammangiz yaqinda maktabga borasizlar. Maktabda yaxshi o'qishingiz uchun mana bu tavsiyalarni bajaringlar. Notanish bobongiz sizni hammadan ham kuchli, bilimli bo'lishingizni istaydi. Demak, birinchi topshiriq. Har biringizning stolingiz ustida barcha raqamlar birlashib yotibdi. Ularni birma-bir tartib bilan joylashinglar kerak”.

Tarbiyachi bolalarni sonlar qo'yilgan stol atrofiga taklif qiladi.

*(Bolalar, sonlarni ketma-ketlikda qo'yib chiqadilar).*

– Qani, bolajonlar xatning davomini o'qiy-chi. “Bolalar, monitorga qarang va unda ko'rsatilgan mevalar soniga 2 tadan qo'shing”.

**1-bola:** – To'rtta olma bor ekan, unga 2 ta olma qo'shsak 6 ta bo'ladi.

**2-bola:** – Monitorda 3 ta kartoshka bor, unga 2 qo'shsak 5 bo'ladi.

**3-bola:** – Monitorda 7 ta sabzi bor, unga ikkita qo'shsak 9 ta bo'ladi.

**4-bola:** – Monitorda 4 ta karam bor ekan, unga 2 ta qo'shsak 6 ta bo'la-



di.

**Tarbiyachi:** – Endi esa monitorda boshqa suratlar berilayapti. Endigi vazifangiz shu suratdagilardan 3 ni ayirishinglar kerak.

**Bolalar:** – Monitorda 10 ta olma bor, 3 ta olmani ayirsak 7 ta qoladi.

**Bolalar:** – Monitorda 9 ta mandarin bor, 3 tasini olib tashlasak 6 ta qoladi.

**Bolalar:** – Monitorda 7 ta banan bor, 3 tasini ayirsak 4 ta banan qoladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir men sizlarga sanab beraman. Qaysi son tushirib qoldirilganini sizlar aytishinglar kerak. 3, 5, 7, 8, 9

**5-bola:** 1, 2, 4, 6, 10.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi men sizlarga bitta hikoya aytib beraman. “Bir kuni hamma sonlar yig‘ilishib, kim zo‘r deb rosa bahslashishibdi. Bir men zo‘rman, mendan yaxshisi yo‘q desa. Ikki menga yetadigani yo‘q, baribir juft son yaxshida deb o‘zini maqtarmish. Shunda ularni bir chekkada kuzatib turgan to‘qqiz kelibdi-da, qani bitta yoki ikkita barmog‘ingda bir ish qila olasanmi deb so‘rabdi. Sonchalar har qancha urinishmasin, hamma barmoqsiz hatto biror musht ham qilisholmabdi, hatto qalamni ushlab yozish uchun ham uchta barmoq birlashishi kerakligini tushunishibdi. Urushqoq sonlar barmoqlarini birlashtirganlaridan keyingina uning faqatgina birgalikda kuchli ekanligini tushunishibdi va bir-birlaridan uzr so‘rashibdi”.

– Bolajonlar, endi esa men sizlarga she‘riy topishmoq aytaman, sizlar uning javobini topishingiz kerak.

Shaklim mening dumaloq,

Bir o‘zim yo‘q narsaman.

Oldimda turgan sonni,

O‘n marta oshiraman.

**6-bola:** – Bu 0.

**Tarbiyachi:** – Eng oldinda turaman,

Bo‘yimga bir qarab qo‘y.

Tartib sonlar ichida

Birinchiman, bilib qo‘y.

**7-bola:** – Bu bir soni.

**Tarbiyachi:** – Qomatimni ko‘rganlar

Qiyos etar oqqushga.



Mendan dir-dir titraydi,

Ixlosi yo'q o'qishga.

**8-bola:** – Bu 2 soni. Akam maktabda o'qiydi. U 2 baho olishdan qo'rqadi.

**Tarbiyachi:** – Qornim semiz dumaloq,

Beshdan keyin uraman.

Juft sonlar qatorida,

Uchinchisi bo'laman.

**9-bola:** – Bu 6.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar juda ham topqir ekansizlar. Qani aytingchi, bizda ikkitadan bo'lgan a'zolar qaysilar?

**Bolalar:** – Ko'z, qosh, oyoq, qo'l.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz. Hammamiz doira shaklida turib olamiz. Men bitta sonni aytib koptokni bitta bolaga otaman, u esa o'shandan keyingi sonni aytib koptokni sheringiga otishi kerak.

– Bugungi faol bo'lgan bolalarni qarsak bilan olqishlaymiz. Hammaningizga rahmat.

## EYFEL MINORASI MISOLIDA UCHBURCHAKLARDAN TURLI NARSALAR YASASHNI O'RGATISH

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda uchburchak, to'rtburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do'stlik, o'zaro hamjihatlik tuyg'ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kvadrat, uchburchak shakllari, kartochkalar, mayqochalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum, bilimga chanqoq bolajonlar! Bugun



biz siz bilan geometrik figuralar olamiga sayohat qilamiz. Mana bu qopchada turli xil geometrik figuralar bor. Keling, ularni birgalikda olamiz va nima ekanligini topamiz. Mana bu uchburchak. Uning rangi qanaqa ekan?

**1-bola:** – Qizil.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri. Uchburchakni siz uycha rasmini chizganingizda tom shaklini chizish uchun ishlatgansiz.

Mana bu esa to‘rtburchak. Xo‘sh, kim menga to‘rtburchak shakldagi buyumlar nomini aytib beradi?

**2-bola:** – Xontaxta, daftar, kitob.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu shaklimiz esa aylana deyiladi. Qani orangizdan kim aylana shakliga mos keladigan narsalar nomini ayta oladi?

**3-bola:** – Quyosh, oy, qurt, koptok.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri aytding, bolakay. Endi aytinglarchi, yulduz qanaqa shaklda?

**4-bola:** – Besh burchak shaklida.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri.

**Tarbiyachi:** – Hozir sizlar bilan ikki guruhga bo‘linamiz va qopchani ichidagi shakllarni yerga ag‘daramiz. Yerga tushgan shakllarni birinchi guruh to‘rtburchak, ikkinchi guruh uchburchak, uchinchi guruh aylana shaklni kim birinchi yig‘sa, ana o‘sha guruh g‘olib sanaladi.

*(Guruhdagilar qopcha ichidagi shakllarni tezlikda yig‘ib oladilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi esa men sizlarga surat ko‘rsataman. Sizlar ana o‘sha suratdagi buyumning qaysi shaklda ekanligini topasizlar.

*(Tarbiyachi aylana, to‘rtburchak, uchburchak shaklidagi narsalar rasmini ko‘rsatadi, tarbiyalanuvchilar esa o‘sha buyumning shakli qandayligini aytishlari kerak).*

– Bolajonlar, monitorga e‘tibor qarating, dunyoga mashhur Eyfel minorasi qanday shakllardan qurilgan ekan?

*(Monitorda Eyfel minorasining to‘rtburchak va uchburchak shakllaridan qurilgani tasvirlangan namoyish ko‘rsatiladi).*

**Bolalar:** – Uchburchak va to‘rtburchak shakllaridan yasalgan ekan.

**Tarbiyachi:** – Kelinglar, biz ham mana bu shakllardan foydalanib Eyfel minorasini quramiz.

*(Jarayonda tarbiyachi bolalarga uchburchak shaklida qurilgan binolar rasmini ko‘rsatadi: Misr ehromlari, Toshkent viloyatidagi Beldersoy dam*



## PREDMETLARNING BO'YI VA ENINI TAQQOSLASHGA O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** uzun-kalta, keng va tor to'g'risidagi ma'lumotlarni mustahkamlash, bolalarni buyumlarni kuzatib, chamalashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mo'ljal olishga o'rgatish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mehnat-sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, geometrik shakllar maketlari.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolalar, mana bu sharflarning qaysi biri keng, qaysi biri torligini topamiz. Buning uchun 2 ta sharfni solishtiramiz. Aytingchi, qaysi bir sharf keng va uzun?

*(Sharflar ustma-ust qo'yiladi va kengligi, torligi bolalarga ko'rsatiladi).*

**Bolalar:** – Qizil sharf keng va uzun ekan.

*(Monitorida ayiqpolvon va sichqoncha rasmi ko'rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Aytingchi, qizil sharfni qaysi hayvonga, ko'k sharfni qaysi hayvonga o'rash mumkin?

**Bolalar:** – Qizil sharfni ayiqpolvonga, ko'k sharfni sichqonchaga o'rash kerak.

**Tarbiyachi:** – Nima uchun?

**Bolalar:** – Chunki qizil sharf keng va uzun, ko'k sharf tor va kalta.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu shkaflar rasmiga diqqat qiling, qaysi bir shkaf keng va qaysi biri tor.

**Bolalar:** – Kitoblar turgan shkaf keng, idishlar turgan shkaf tor.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri. Endi hammamiz 1, 2 deb sanaymiz va 1 deganlar 1-guruhga, 2 deganlar 2-guruhga bo'linamiz. 1-guruh katta hayvonlar uchun sharf kesadi, 2-guruh kichik hayvonlar uchun sharf kesadi.



Har bir bola qaysi hayvonga sharf kesganini aytib beradi.

*(Monitorda yirik va mayda hayvonlar rasmi ko'rsatiladi).*

**Tarbiyachi:** – Rahmat bolajonlar, endi mana bu harflar kassasidan foydalangan holda kartochkadagi suratlar rasmini raqamlaymiz. Masalan, kartochkada 10 ta koptok rasmi bo'lsa, harflar kassasidan 10 raqamini olib, shu kartochka ustiga 10 sonini yopishtiramiz.

*(Bolalar kartochkalar ustiga raqamlarni qo'yib chiqishadi).*

– Barakalla, endi mana bu stollarning qaysi biri keng-torligini suratga qarab aniqlaymiz.

*(Monitorda keng va tor shakldagi stollar rasmi ko'rsatiladi).*

– Bolajonlar, endi “Kengmi, tor?” harakatli o'yinini o'ynaymiz. Buning uchun men sizlarga biror predmet nomini aytaman, agarda u predmet keng bo'lsa, qulochingizni keng yozasiz, agarda u predmet tor bo'lsa, ikki qo'lingizni bir-biriga birlashtirasiz.

Uy. (keng)

Irmoq. (tor)

Daryo. (keng)

Shoh ko'cha (keng)

Yo'lakcha (tor)....

– Barakalla, bolajonlar, endi aytingchi, keng ko'ylak uchun mato ko'p ketadimi? Yoki tor ko'ylak uchun mato ko'p ketadimi?

**Bolalar:** – Keng ko'ylak uchun ko'p, tor ko'ylak uchun kam mato ketadi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, bugun mashg'ulotda juda faol qatnashdingiz!

## TEVARAK ATROFDA O'Z O'RNINI TOPISHGA O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** bolalarga oldinga-orqaga, o'ngga-chapga kabi yo'nalishlarni kengroq tushuntirish, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** fazoda mo'ljal olishga, chamalashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, sonlar maketi.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun har birimizning turgan o‘rnimizni aniqlashga o‘rgatuvchi yangi bilimlarni o‘rganamiz. Buning uchun guruhimizga turli hayvonlar mehmonga kelgan. Ular yordamida biz har xil o‘yinlar o‘ynab, joyini bilib olamiz. Kelinglar, hozir hayvonchalar bekinnachoq o‘ynaydi, biz esa ularning qayerga bekinganini topamiz.

Holatlar:

1. Quyuncha shkaf orqasiga yashirinadi.
2. Tulkixon kitob javoni yoniga yashirinadi.
3. Quyuncha stol tagiga yashirinadi.
4. Maymuncha parda orqasiga yashirinadi.
5. Tulkixon stul orqasiga turib oladi.
6. Maymuncha shkaf tepasiga yashirinadi.

*(Bolalar hayvonchalarning yashiringan joylarini aniqlash orqali makondagi o‘rnini topish ko‘nikmalarini egallaydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sanash orqali ikki guruhga bo‘linamiz va 1-guruh bolalari turgan joyni 2-guruh bolalari, 2-guruh bolalari turgan joyni 1-guruh bolalari aytishadi.

*(Jarayonda tarbiyachi bolalarga yordam beradmi).*

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi mana bu sonlar maketlariga qarangchi, ularning hammasi to‘liqmi?

**Bolalar:** – Yo‘q, 6, 9, 11 sonlari yo‘q ekan.

**Tarbiyachi:** – Unda guruhni yaxshilab izlangchi, yo‘qolgan sonlar qayerlarda yashirinib turgan ekan?

**1-bola:** – 6 soni qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazidagi legolar orasiga yashirinib olibdi.

**Tarbiyachi:** – Topag‘on bolalarim, yana izlangchi, 9 soni qayerda ekan?

**2-bola:** – 9 soni san‘at markazidagi stolning yonida ekan.

**Tarbiyachi:** – 11 sonini ham topishga urinib ko‘raylik.

**3-bola:** – 11 soni kompyuter stoli tagiga yashirinib olibdi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar barakalla, hammamiz joylashgan o‘rnimizni topa olayapmiz. Endi esa yo‘nalish bo‘yicha harakatlanishni o‘rganib olamiz.

1. Gilam atrofi bo‘ylab yuramiz.



2. Gilamning o'rtasiga borib, ikki qadam chapga burilamiz.
3. Gilamning o'rtasiga borib, ikki qadam o'ngga burilamiz.
4. Kitob javoni tomonga yurib, keyin o'ngga qayrilamiz.
5. Eshikka qarab 10 qadam yurib, keyin chap tomonga qayrilamiz.
6. Doska tomonga 15 qadam yurib, 5 qadam o'ngga yurib, keyin orqaga qayrilamiz.

*(Bu kabi yo'nalishlar turli tomonlarga ko'ra o'zgartirilib, yana davom ettirilishi mumkin).*

## **BOLALARNI KECHA, BUGUN, ERTAGA QANDAY KUN EKANLIGINI FARQLASHGA O'RGATISH**

### **Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda kecha, bugun, ertagani farqlash va ularning nomini eslab qolishiga yordam beradigan didaktik muhit yaratish, vaqt haqidagi bilimlarini mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** chamalaydi, diqqati rivojlanadi, kuzatuvchanligi ortadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do'stlik, o'zaro hamjihatlik tuyg'ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kunlarga moslangan poyezdcha va kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, mana bu poyezdchaga qarang, 3 xil rangdagi poyezdchalar bugun, ertaga va kecha ma'nolarini bildiradi. Biz hozir kecha amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilamiz va "Kecha" vagoniga joylaymiz. Aytingchi, biz kecha nima ishlar qildik?

**Bolalar:** – Rasm chizdik, she'r yodladik, ovqat yedik, o'yin o'ynadik, uxladik...

*(Bolalar kechagi faoliyatining barchasini sanashga undaladi).*

**Tarbiyachi:** – Demak, biz kecha bajargan ba'zi ishlarimizni "Kecha" vagoniga joylaymiz. Mana bu chizilgan suratlarimizni kecha chizganimiz uchun ham biz uni "Kecha" vagoniga joylaymiz. Endi aytingchi, kecha



uyingizda nimalar qildingiz?

*(Bolalar uyda bajargan ishlarini sanaydi, jarayonda har bir bola sanashiga e'tibor qaratish kerak).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kecha siz shuncha ishlarni amalga oshiribsiz, endi bugun nimalar qilmoqchisiz?

**Bolalar:** – Bugun plastilindan narsa yasaymiz, lego o'ynaymiz, yoza-miz...

*(Bolalar imkon qadar har bir gapni bugun... deb boshlashlari kerak).*

**Tarbiyachi:** – Biz bugun yaratgan, tayyorlagan narsalarni “Bugun” poyezdiga joylaymiz. Endi aytingchi, ertaga nima ishlar qilamiz?

**Bolalar:** – Bog'chaga kelamiz, o'ynaymiz, yozamiz, narsalar yasay-miz, ovqatlanamiz...

*(Bolalar imkon qadar gaplarni ertaga iborasi bilan boshlashga unda-ladi).*

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozircha kecha bajargan ishlarimiz bilan “Kecha” poyezdini yuk bilan to'ldirdik. Endi bugun bajaradigan ishlari-mizni amalga oshiramiz va “Bugun” poyezdini ham yuk bilan to'ldiramiz. Buning uchun hozir “Bu qachon bo'ladi?” o'yinini o'ynaymiz.

*(Dokaga kecha, bugun, ertaga deb yoziladi va har bir kun qaysi hafta kuniga to'g'ri kelishi va oy sanasi yoziladi).*

– Bu o'yinni o'ynash uchun men bajargan ishlarni aytaman, sizlar esa uning qachon bajarilganini aniqlab, o'sha kunning to'g'risiga bittadan sa-noq cho'p qo'yasiz.

Kecha qo'g'irchoq teatri tomosha qildik.

Bugun nonushta qildik.

Ertaga sirkka boramiz.

Bugun rasm chizdik.

Kecha buvim keldilar.

Ertaga haftaning chorshanba kuni.

Bugun ukamning tug'ilgan kuni.

Kecha onam pirog pishirdi.

Ertaga bozorga boramiz.

Bugun uyimizga mehmon keladi.

*(Bolalar gapni eshitib, u qachon bo'lganini aniqlab, o'sha qatorga sa-noq cho'pni qo'yadi va o'yin oxirida sanoq cho'plarni sanab, qaysi kunda*



*nechta ish bajarilganini topishadi).*

## QO'SHISH VA AYIRISH AMALLARINI 1 DAN 10 GACHA BO'LGAN SONLAR O'RTASIDA BAJARISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar ichida qo'shish va ayirish amallarini bajarish ko'nikmasini mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda tasavvur qilish, mo'ljal olish ko'nikmalarini shakllantirish;

**Tarbiyaviy:** jamoada xamjihatlikda ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sonlar, kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizlar 1 dan 10 gacha sanashni bilasizlar. Qani, hozir birgalikda monitorga qaraymiz. U yerdagi daraxtda birinchi kun ikkita barg chiqibdi. Ikkinchi kuni daraxtda yana ikkita barg chiqsa, unda o'sha daraxtdagi barglar soni qancha bo'ladi?

**Bolalar:** – 4 ta.

**Tarbiyachi:** – Ana, suratda barglar soni ham 4 ta bo'ldi. Endi uchinchi kuni unga yana 6 ta barg qo'shilsa, daraxtning umumiy bargi soni nechta bo'ladi?

**Bolalar:** – 10 ta.

**Tarbiyachi:** – Bolalar endi men sizlarga bitta ertak aytib beraman. “Bir kuni matematika saltanatiga harflar yig'indisi mehmonga kelishibdi. Harflar va sonlar birga o'ynashibdi, raqsga tushishibdi, rosa vaqtichog'liq bo'libdi. Ammo nimagadir harflar va sonlar o'rtasida kelishmovchilik chiqibdi. Sonlar harflardan xafa bo'lib arazlashibdi. “Bo'ldi, endi sizlar bilan o'ynamaymiz” deyishibdi sonlar jahli chiqqancha. “Ha, mayli” deyishibdi harflar. Lekin harflar sonlarsiz o'zlariga qiyin bo'lishini keyin bilib qolishibdi. Ularning joyi o'zgargach, hammasi tartibsiz, kim qayerda turishini bilmay rosa qiynalishibdi. Ana shundan keyingina ular sonlardan uzr so'rashibdi”. Ana shunaqa, bolajonlar, sonlar har kuni, har soat va har



daqiqada bizga kerak bo'ladi.

– Bolalar, oldingizga raqamlar qo'yilgan, ana o'sha raqamlarni ketma-ketlikda tartib bilan joylashtiringlar.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarni kuzatib turadi).*

– Bolajonlar, endi hammamiz jismoniy daqiqa o'tkazamiz. O'n marta quyondak sakraymiz, o'n marta o'tirib turamiz.

Bolalar, endi mana bu savollarga javob beringlar. Tasavvur qiling, baliqchining to'riga o'nta baliq ilingandi, undan ikkitasi sakrab tushib ketdi. Baliqchining to'rida nechta baliq qoldi?

Bolada 4 ta koptok bor edi, u koptogini 2 tasini o'rtog'iga berdi. Endi unda nechta koptok qoldi?

Anor daraxtida 8 ta anor bor edi, undan 1 donasi yerga uzilib tushdi. Endi daraxtda nechta anor qoldi?

Xonada uchta dugona bor, biz ularning har biriga bittadan olma va bittadan banan bersak, umumiy nechta meva bergan bo'lamiz?

Qo'g'irchoqning uchta ko'ylagi bor edi. Qizcha unga oyisiga aytib yana 1 ta ko'ylak tiktirdi. Endi qo'g'irchoqning ko'ylagi nechta bo'ldi?

Stol ustida 7 ta muzqaymoq bor edi. Undan 3 tasi yeyilgach, nechta muzqaymoq qoladi?

## VARRAK YASASH ORQALI TAYOQCHALARDAN TURLI SHAKLLAR YASASH USULLARINI O'RGATISH

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda doira, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak haqidagi bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shaklini farqlaydi, diqqati rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do'stlik, o'zaro hamjihatlik tuyg'ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, doira, kvadrat, uchburchak shakllari, kartochkalar, tayoqchalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**



**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, har birimiz savaptchamizdagi sanoq cho‘plardan mayda geometrik shakllar yasashimiz mumkin. Buning uchun monitorda namuna ko‘rsatiladi, sizlar esa xohlagan shaklingizni yasaysiz.

*(Monitorda uchburchak va doiradan iborat mushukcha, doira va uchburchakdan iborat qushcha, uycha shakllari tayoqchalardan yasalgan holda namoyish etiladi).*

– Barakalla, endi hamma yasagan shaklini ishtirok etdirgan holda matematik masala tuzsin, masalan, kimdir mushukcha yasagan bo‘lsa, quyidagicha masala tuzishi mumkin:

Ona mushukning 4 ta bolachasi bor edi, ularning ikkitasi yo‘qolib qoldi. Mushuklar sonini toping?

*(Bolalarga masala tuzishda tarbiyachi ko‘mak beradi).*

– Barakalla, endi jismoniy daqiqa o‘tkazamiz:

Ikki bizga do‘st emas,

Uchni yomon ko‘ramiz.

To‘rt bo‘lsa ham mayliga,

Beshdir bizning do‘stimiz!

*(Bolalar qo‘l panjalari orqali sonlarni ko‘rsatib, harakat qilishadi).*

– Bolajonlar, endi mana bu katta tayoqchalar yordamida varrak shaklini yasaymiz. Aytingchi, sizlar varrak uchirganmisiz, u nima o‘zi?

*(Bolalar fikri so‘raladi).*

– Bolajonlar, tayoqchalarni o‘zaro birlashtirish orqali katta varrakni yasash mumkinligini bilib oldingiz, endi esa rangli qog‘ozlardan varrak shaklini kesamiz.

*(Bolalar amaliy ish bajarayotganda varrak shakli to‘rtburchak ekanligi, uchburchaklardan foydalanib bezak berish mumkinligini tarbiyachi tushuntiradi).*

*(Jarayonda bolalarga varrak haqida she‘r, topishmoq, maqol aytish bolalarning bu haqdagi tasavvurlarini boyitadi).*

## **JUDA MAYDA NARSALAR VA SUYUQLIKNI O‘LCHASHGA O‘RGATISH**

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarga shartli o‘lchov yordamida o‘lchashni o‘rgatish,



uzunlikni shartli ravishda o'lchashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** sochiluvchi va suyuq jismlarni shartli o'lchov yordamida aniqlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatish, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** No'xat, guruch, mosh, piyola, tog'oracha, lentalar, turli geometrik shakllar, raqamli kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, stol ustiga qo'g'irchoqlar taxlab qo'yganman. Qarangchi, qo'g'irchoqlar soni nechta ekan?

**Bolalar:** – Qo'g'irchoqlar soni 10 ta.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, bu safargi ta'limiy faoliyatimizda biz biroz boshqacharoq sanash va sanash natijasida o'lchashni o'rganamiz.

Tarbiyachi stolga no'xat solingan idishni qo'yadi va "no'xatning qanchaligini qanday bilish mumkin?" deb so'raydi.

**1-bola:** – Oyim no'xat, mosh, guruchni piyolada o'lchab, keyin ovqatga soladilar.

**Tarbiyachi:** – Juda to'g'ri. Hozir men bitta tog'orachadagi no'xatni piyolaga to'ldirib, ikkinchi idishga solib turaman. Sizlar esa no'xat umumiy miqdorda nechta piyola bo'lganini aytishinglar kerak. E'tibor bilan qarab turing, har bir piyola no'xatni boshqa idishga to'kkanimda sizlar yoningizdagi raqamni chap tomondan o'ng tomonga olib qo'ying. Xo'sh, no'xatimiz necha piyola ekan?

**Bolalar:** – No'xat 10 ta piyola ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizlarning orangizdan ikkitangiz chiqib xuddi shunday shaklda no'xatni o'lchab ko'rasizlar, boshqalar esa ularni kuzatadi. Har bir piyola xuddi men qilganimdek to'la bo'lishiga e'tibor beringlar.

*(Guruhdagi 2 ta bola no'xatni bitta idishdan ikkinchi idishga piyola yordamida o'lchaydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, diqqatingizni monitorga qarating. Undagi predmetlar qaysi kasb egasiga tegishli?

**2-bola:** – Monitorda qaychi, metr, tugmacha, matolar surati turibdi. Bu narsalar tikuvchilikka tegishli.



**Tarbiyachi:** – Bolalar, tikuvchi matoni nima yordamida o‘lchashini ko‘rganlar bormi?

**3-bola:** – Mening oyim tikuvchi, u ko‘ylak tikayotganida matolarni metr yordamida o‘lchaydi.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri, uzunlik metr yordamida o‘lchanadi. Ayrimlar esa qo‘l kafti yordamida ham uzunlikni o‘lchashi mumkin. (Tarbiyachi kafti yordamida uzunlikni qanday o‘lchaganini ko‘rsatib beradi).

Hozircha esa biz lentalar yordamida o‘lchaymiz. Masalan, mana bu stolning enini qizil rangli lentada, bo‘yini ko‘k rangli lentada o‘lchaymiz. Sizlar biroz katta bo‘lganingizdan keyin metr yordamida o‘lchashni o‘rganib olasizlar.

**Tarbiyachi:** – Endi shu yerda sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Tasavvur qiling, siz sap-sariq jo‘jachasiz. Men A. Laptevning “Jo‘ja” she‘rini o‘qiyman, sizlar esa menga qarab, men bajargan harakatlarni takrorlab turasizlar.

Meni yaxshi ko‘rib qo‘y: (boshlar tepaga, qaddi kerilgan holat)

Uch kunlikman, bilib qo‘y. (uch sonini ko‘rsatib bosh ustiga qo‘yiladi)

Chuvalchangni tutaman, (o‘ng qo‘l ilon izi qilinadi)

Sira qo‘rqmay yutaman. (chap qo‘l ilon izi qilinadi)

– Bolalar, hamma qator boshiga bittadan bankada suv va bittadan stakan qo‘yib qo‘yganman. Hozir men o‘zimning yonimdagi bankadagi suvni stakanga solib, uning nechta stakan ekanligini bilib olaman, sizlar meni kuzatib turasizlar. Keyin esa har bir qator boshiga ikkitadan kelib siz ham ushbu tajribani takrorlab ko‘rasizlar.

*(Bolalar tarbiyachi aytgan tajribani takrorlab ko‘radilar).*

– Bolalar, suvni stakanda o‘lchaganda hammangizda bir xil miqdorda chiqdimi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Barakalla. Endi mana bu savollarga javob bering.

No‘xatni o‘lchaganimizda u necha piyola chiqdi? Guruchni ham shunday o‘lchashimiz mumkinmi?

Sharbatni ham stakanda o‘lchasa bo‘ladimi?

Uzunlikni nima yordamida o‘lchadik.

**O‘RMONGA SAYOHAT MISOLIDA HARAKAT YO‘NALISHINI**



## O'ZGARTIRISHGA O'RGATISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga fazoda o'lcham olish, yurish vaqtida yo'nalishni o'zgartirishni o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** tasavvurni kengaytirish, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashni o'stirish;

**Tarbiyaviy:** jamoada o'zaro yordam berish ko'nikmasini shakllantirish, hamdardlik tuyg'usini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, o'rmonga xos bo'lgan kartondan daraxtlar, gullar, hayvonlarning yumshoq o'yinchoqlari.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizda biz o'rmonga sayr qilamiz. Bizga buning uchun yo'l boshlovchi kerak edi. Yo'l boshlovchilik vazifasini hozircha men olaman. Bolalar, kim biladi o'rmonga qanday buyumlarni o'zimiz bilan olishimiz kerak?

**1-bola:** – Suv, non, yeguliklar, kompas, xarita.

**Tarbiyachi:** – Judayam to'g'ri. Siz aytgan buyumlar bitta xaltachaga solingan va men ularni o'zim bilan birga oldim. Qani, hamma tayyor bo'lsa o'rmonga ketdik. Qo'limdagi xaritada ko'rsatilishicha, biz hozir oldinga o'ng qadam yurarkanmiz. Qadamlaringizni ichingizda sanang va o'nta bo'lganida o'sha joyda to'xtang.

*(Bolalar o'n qadam yurib, keyin to'xtashadi).*

**Tarbiyachi:** – Xaritada ko'rsatilishicha, endi o'ng tomonga qayrilamiz va yana yetti qadam yuramiz.

*(Bolalar o'ngga qayrilishadi va yana yetti qadam yurishadi).*

**2-bola:** – Tarbiyachi opa, biz yetti qadamda to'xtadik. Qarang, bu yerda buloq bor ekan.

*(Bolalarning buloq surati tasvirlangan joyda to'xtaydi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, ha yo'lning chetida buloq bor ekan. Bolalar, o'ng tomonda nima bor ekan?

**Bolalar:** – Yo'lning o'ng tomonida ayiqpolvon uxlab qolgan ekan.

**Tarbiyachi:** – Endi xaritada to'g'riga yana besh qadam yurishimiz kerakligi yozilgan ekan. Demak, yana besh qadam yuramiz.



*(Bolalar tarbiyachi bilan birgalikda yana 5 qadam yurishadi).*

**Bolalar:** – Tarbiyachi opa, bu yerda judayam ko‘p gullar bor ekan, ular rosayam chiroyli ekan.

**Tarbiyachi:** – Gullardan o‘tgach, chapga o‘n qadam yurishimiz kerak ekan.

*(Gullardan o‘tgach, chap tomonga yana o‘n qadam yuriladi)*

**Bolalar:** – Tarbiyachi opa, qarang, bu yerda sandiqcha bor ekan.

**Tarbiyachi:** – Sandiqcha yo‘lning o‘rtasidami yoki chekkasidami?

**Bolalar:** – Yo‘lning chap tomonida turgan ekan.

**Tarbiyachi:** – Sandiqchanning shakli qanaqa ekan?

**Bolalar:** – Sandiqcha to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida ekan.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kelinglar, sandiqchani birgalikda ochamiz.

*(Sandiqchani ochadilar, uning ichidan har bir bolaga yetadigan raqamlar jamlanmasi chiqadi).*

– Bolalar, bu raqamlar jamlanmasi sizlarning har biringizga bittadan qilib solingan ekan. Endi, sovg‘alarni qo‘lga olamiz va ortga qaytamiz.

*(Tarbiyachi aytgan yo‘l bo‘ylab bolalar o‘rmondan qaytishadi).*

– Bolalar, charchamadingizmi? Unda mana bu savollarga javob bering. Samolyot tepada uchadimi yoki pastda?

Poyezd qayerda yuradi?

## “NIMA O‘ZGARDI?” O‘YINI ORQALI YIL FASLLARINI O‘RGATISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarning fasllar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, fasllardagi farqlarni ajratishga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** mantiqiy fikrlash, diqqat va xotirani rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarni mehnatsevarlikka o‘rgatish, ularda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, fasllar haqidagi suratlar.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir ta’limiy faoliyatimizni bitta hikoyacha



bilan boshlamoqchiman. Bu hikoya “To‘rt istak” deb nomlanadi. Uning muallifi K. Ushinskiy hisoblanadi.

“Mitya qor tepaliklaridan pastga qarab chanada uchdi. Toshdek qattiq muzlagan ariq va hovuzlarda o‘rtoqlari bilan yaxmalak otdi. Uyga qip-qizarib, tetik va quvnoq qaytib keldi-da, otasiga qarab:

– Otajon, qish qanday yaxshi-ya? Men hamma vaqt qish bo‘lishini istar edim, – dedi.

Otasi uning istagini o‘zining yon daftariga yozib qo‘ydi.

Bahor keldi. Mitya ko‘m-ko‘k maysazorlarda rohatlanib o‘ynadi. Binafshalar terdi. Bahri dili ochilib ketdi. Yana otasiga:

– Otajon, bahor qanday ko‘ngilli, men hamma vaqt bahor bo‘lishini istar edim, – dedi.

Otasi Mityaning bu istagini ham yon daftariga yozib qo‘ydi.

Yoz keldi. Mitya yozning issiq kunlarida bog‘larda quvnab o‘ynadi. O‘rik, giloq, shaftolilardan to‘yib-to‘yib yedi. Kechqurun otasining oldiga kelib:

– Otajon, yoz qanday go‘zal! Men hamma vaqt yoz bo‘lishini istar edim, – dedi.

Otasi uning bu istagini ham yon daftarchasiga yozib qo‘ydi.

Kuz keldi. Bog‘larda uzumlar, dalalarda qovun tarvuzlar yetilib pishdi. Paxta terildi. Mitya bularni ko‘rib quvonib:

– Otajon, kuz qanday yaxshi-ya! Men hamma vaqt kuz bo‘lishini istardim, – dedi.

Otasi yon daftarchasini ochib, Mitya qish, bahor, yoz fasllari haqida ham xuddi shu niyatlarni bildirganini unga ko‘rsatdi”.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hikoya qahramoniga hamma fasl yoqarkan. Xo‘sh, sizlarga qaysi fasl yoqadi?

**Bolalar:** – Bizga ham hamma fasl yoqadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, monitorga qarang. Unda to‘rt fasl haqida tasvirlangan suratlar bor. Bahor uyg‘onish fasli, unda tabiat uyg‘onadi, daraxtlar barg chiqaradi, qushlar uchib keladi. Aytgancha, qushlar osmonda qanday shakl hosib qilib uchadilar?

**Bolalar:** – Uchburchak.

**Tarbiyachi:** – Bolalar bahorda varraklar uchirayaptilar, dehqon bobo yerga ko‘chat ekayapti. Bularning hammasi bahorga tegishli lavhalar.



Esingizdan chiqmadimi, bahor oylari qaysilar?

**Bolalar:** – Mart, aprel, may.

**Tarbiyachi:** – Endi, yozning belgilari tasvirlangan suratga qarang. Qani, kim bu suratni ta'riflab beradi?

**2-bola:** – Yozda mevalar pishadi, hammayoqda kun isib ketadi, bolalar anhorlarda maza qilib cho'miladilar.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, yozda qanday oylar bor edi?

**3-bola:** – Iyun, iyul, avgust yoz oylari hisoblanadi.

**Tarbiyachi:** – Uchinchi rasmimizda kuz tasvirlangan. Qani, kim menga kuzdagi tasvirlarni ta'riflab bera oladi?

**4-bola:** – Kuzda barglar sariq rangga kiradi, daraxtlar birin-ketin o'z barglarini to'ka boshlaydi. Bu faslda odamlar sal qalinroq kiyinadilar, bolalar maktabga chiqadilar. Yomg'ir yog'adi, kunlar soviy boshlaydi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kuz oylari nechta va ular qaysilar?

**5-bola:** – Kuz oylari ham uchta. Ular sentabr, oktabr, noyabr oylaridir.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, to'rtinchi rasmimizni kim ta'riflab beradi?

**6-bola:** – Qishda archa bayramlari o'tkaziladi, qor yog'adi, daraxtlardagi barglar butunlay to'kilib ketgan bo'ladi. Hamma qalin kiyinadi, kun sovuq bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – To'g'ri, endi kim qish oylarini aytib bera oladi?

**7-bola:** – Dekabr, yanvar, fevral qish oylari hisoblanadi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi hammangizga daraxt surati chizilgan qog'ozlar tarqatamiz. Rasmda to'rtta daraxt bor. Sizning yoningizda rangli qalamlar bor. O'z tasavvuringizga tayanib, daraxtga barg chizishingiz mumkin, meva chizishingiz mumkin, istasangiz qaysidir faslda uni ochiq qoldirishingiz ham mumkin.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarni kuzatib, ularning xatolari bo'lsa to'g'rilab turadi, bolalar fasllarda nimadan keyin nima o'zgarганиni tushuntirib beradilar).*

– Hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz. Men T. Ilhomov qalamiga mansub bir she'r aytaman, sizlar esa o'shanga mos xatti-harakatlar qilaszlar. Tasavvur qiling, men she'rda tasvirlangan buvijonman. Sizlar esa nabiralarimsiz.

**BUVIJONIM**

Hassa do'q-do'q qilyapti,



Buvijonim kelyapti.  
Men ochaman eshikni!  
Men ochaman eshikni!  
Uyga kirdi buvimiz,  
Nurga to'ldi uyimiz,  
Men qo'yaman yostiqni!  
Men qo'yaman yostiqni!  
Buvim yuzi marjon ter,  
Yelpig'ichni menga ber.  
Men yelpiyman buvimni!  
Men yelpiyman buvimni!

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi mana bu savollarga javob bering.  
Yozdan oldin qaysi fasl keladi?  
Qishdan keyingi fasl nomini ayting.  
Qaysi faslda qushlar uzoq o'lkalarga uchib ketadi, ular qaysi faslda qaytishadi?  
Bahordan keyin qaysi fasl keladi?

### 1 DAN 10 GACHA BO'LGAN SONLARNING YOZUVDA IFODALANISHI

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga 1 dan 10 gacha bo'lgan raqamlarni yozishga o'rgatish, mayda motorikani rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** yozishga qiziqish uyg'otish, tasavvurni kengaytirish;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlikka o'rgatish, jamoada ishlash malakasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, magnitli cho'plar, tarqatma materiallar, kartochkalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, biz sizlar bilan sonlar haqida juda ko'plab mashg'ulotlar o'tdik. Ayrim sonlarni yozilishini ham o'rganib oldinglar.



Bugun esa ana shu sonlarni qanday yozilishini mashq qilamiz.

Avvaliga men raqamlarni magnitli tayoqchalarda yasab ko'rsataman. Sizlarning oldinglarga sanoq cho'plar qo'yilgan, menga qarab sizlar ham xuddi mendek sonlarni yasab ko'rsatasizlar.

Bitta cho'pni tik qo'yib, uning ustiga yana bitta cho'p qo'ysam 1 soni hosil bo'ladi.

Beshta cho'pdan 2 sonini hosil qilamiz.

To'rtta cho'pdan 3 sonini hosil qilamiz.

To'rtta cho'pdan 4 sonini hosil qilamiz.

Beshta cho'pdan 5 sonini hosil qilamiz.

Oltita cho'pdan 6 sonini hosil qilamiz.

To'rtta cho'pdan 7 sonini hosil qilamiz.

Yettita cho'pdan 8 sonini hosil qilamiz.

Oltita cho'pdan 9 sonini hosil qilamiz.

Beshta cho'pdan 10 sonini hosil qilamiz.

*(Bolalarning amaliy ishi kuzatiladi va zarur o'rinlarda ularga yordam beriladi).*

– Bolalar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

O'nta o'rtoq o'tloqda ( ikkita qo'lni ko'tarib, o'nta barmoqni ochamiz)

Maza qildi, o'ynadi. (barmoqlarni qimirlatamiz)

Tinim bilmay sakrashib (turgan joyda sakraladi)

Kechqurun uxlab qoldi. (barmoqlar yumiladi)

– Bolalar, endi mana bu savollarga javob beringlar.

Besh raqamini yasash uchun nechta sanoq cho'p ishlatdingiz?

To'rt raqamini yasash uchun nechta sanoq cho'p ishlatdingiz?

Uch raqamini yozish uchunchi?

– Bolajonlar, endi daftarlarni olamiz va nuqtalarni birlashtirish usuli bo'yicha sonlarni yozishni yana bir marta mashq qilamiz. Bolalar, e'tiborli bo'ling, sonlar nuqtalardan chiqib ketmasin.

## **“ORTIQCHA SHAKLNI TOP” O‘YINI ORQALI MANTIQUIY TOPSHIRIQLARNI YECHISHGA O‘RGATISH**

**Ta'limiy faoliyat ishlanmasining maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda mantiqiy tafakkurni o'stirish, mantiqiy



topshiriqlarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish, didaktik muhit yaratish;

**Rivojlantiruvchi:** diqqati rivojlanadi, kuzatuvchanligi ortadi;

**Tarbiyaviy:** bolalarda do'stlik, o'zaro hamjihatlik tuyg'ulari rivojlanadi, mantiqiy fikrlashga o'rganadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kunlarga moslangan poyezdcha va kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, aytingchi, olma daraxtida 12 ta nok mevasi pishgan edi, ulardan 4 tasi yerga to'kildi. Daraxtda nechta nok qoldi?

*(Tarbiyachi savolni o'qiyotganida bolalar diqqatini jamlab, mevalar nomlarini aytishda alohida urg'u beradi).*

**Bolalar:** – Olma daraxtida nok o'smaydi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bunday misollar ziyraklik va donolikni talab qiladi. Keling, hozir monitorda shunday qiziqarli masalalarni yechishni mashq qilamiz, so'ngra kartochkalar orqali topshiriqlarga javob topamiz.

*(Monitorda oval, doira va uchburchak shakli rasmi ko'rsatiladi).*

– Bolajonlar, bu yerda oval va doiraning burchaklari bo'lmagani uchun uchburchak ortiqcha shakl hisoblanadi.

*(Monitorda to'rtburchak, kvadrat, uchburchak shakllari ko'rsatiladi).*

– Bolajonlar, bu yerda to'rtburchak va kvadratning to'rtta tomoni bor, uchburchakda esa uchta tomon bor, shuning uchun bu yerda uchburchak ortiqcha.

*(Monitorda palto, etik, yozgi shippak rasmi ko'rsatiladi).*

– Bolalar, bu yerda palto va etik qishgi kiyim, shippak esa yozgi kiyim bo'lgani uchun shippak ortiqcha.

– Endi kartochkalar orqali topshiriqlarni bajaramiz. Figuralar nimaga o'xshaydi?

**Maqsad:** tarbiyalanuvchilarning geometrik figuralar haqidagi tasavvurlarini boyitish.

Tarbiyachi avvaldan tayyorlab qo'yilgan geometrik shakllarni stol ustiga qo'yadi va boladan o'sha shaklning juftini topishni so'raydi. Bola uchburchakni uchburchak yoniga, aylanani aylana yoniga, to'rtburchakni



to'rtburchak yoniga qo'yadi. Tarbiyachi har bir shakl nimaga o'xshashini aytadi. Masalan, to'rtburchak g'ishtga, uchburchak esa uy tomiga, oval tuxumga, beshburchak yulduzga o'xshaydi. Ayni narsalarning suratini avvaldan tayyorlab bolaga surat orqali izoh berilsa, bu narsa bolaning xotirasida uzoq saqlanadi.

Nima o'zgardi?

**Maqsad:** bolalarga geometrik shakllar haqida tushuncha berish.

Tarbiyachi doskaga aylana, oval, uchburchak, to'rtburchak shakllarini yopishtirib qo'yadi. Bolajonlardan biri unga qaraydi, so'ng ko'zini qo'llari bilan yopadi. Tarbiyachi shakllardan birini doskadan olib, qolganlarining joyini almashtirib qo'yadi. Tarbiyalanuvchi aynan qaysi shakl yo'qolgani ni topishi kerak bo'ladi.

Bu o'yinni sonlar misolida ham olib borish mumkin. Masalan, tarbiyachi doskaga birdan o'ngacha bo'lgan raqamlarni tartib bilan joylashtiradi. Bolalar unga qarab sanab berishgach, tarbiyachi raqamlardan birini olib qo'yadi. Bolalar qaysi raqam yo'qolganini aytib berishlari shart.

## NARSALARNING BO'YI VA ENINI SHARTLI O'LCHOV ORQALI O'LCHASHGA O'RGATISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** uzun-kalta, keng va tor to'g'risidagi ma'lumotlarni mustahkamlash, bolalarni buyumlarni kuzatib, chamalashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mo'ljal olishga o'rgatish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mehnat-sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, geometrik shakllar maketlari.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Biz hayotda turli xil narsalardan foydalanamiz: o'yinchoqlar, musiqa asboblari, darsliklar, uy jihozlari, oshxona anjomlari. Qarangki, ularning turi har xil bo'lgani bilan bir-biriga o'xshash shakllar asosida ajratilishi mumkin. Masalan: osmondagi Oy va Quyosh, koptok,



globus, mevalar dumaloq shar shaklida.

Uylar, kitoblar, stollar, shkaflar ko'pincha to'rtburchak, kub shaklida bo'ladi.

Tabiatdagi barcha narsalar o'zining o'lchamiga ega. Biz Quyosh, Oy, yulduzlarni haqiqiy o'lchamini tasavvur qila olmaymiz, ular juda ham ulkandir. Hayotda har bir foydalanilayotgan narsalarning inson ehtiyojiga qarab o'lchamlari yaratilgan. Koptoklar o'yin turiga qarab turli xil o'lchamda bo'ladi. Kublar ham shular jumlasidandir.

Masalan, hozirda urf bo'layotgan telefonlarni olaylik. Biz ularni qo'limiz bilan bemalol ushlaymiz va uni cho'ntagimizga yoki sumkamizga solib qo'yishimiz uchun kichik o'lchamli va ixcham yaratilgan.

Agar biz uni kitobday o'lchamidan oydalansak, u bizga noqulaylik tug'diradi.

*(Tabiatdagi barcha narsalarning o'lchamlari, shakli va ranglari solishtiriladi).*

– Endi bolajonlar dam olish daqiqasi o'tkazamiz:

Matematika o'zim

Quyoshday issiq yuzim.

Raqamlardan boshlanar,

Tinglasangiz gar so'zim.

– Bolajonlar, biz hozir mana bu lenta yordamida bo'yimizni o'lchaymiz.

*(Bolalar lenta yordamida o'z bo'ylarini o'lchab ko'rishadi).*

– Endi esa shu lenta yordamida daftarimizning uzunligini, stolimizning enini o'lchaymiz.

*(Bolalarga o'lchash davomida har bir predmetning bo'yi va eni har xil bo'lishini tushuntiradi).*

– Endi daftarimizga uzun va kalta, keng va tor bo'lgan lentalar rasmini chizamiz.

*(Monitorda turli hajmdagi predmetlarning suratlari ko'rsatiladi va bolalar ularga qarab, chizishadi).*

## **PREDMETLARNING BIR-BIRIGA NISBATAN JOYLASHUVINI ANIQLASHGA O'RGATISH**



### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarni atrofdagi narsalarning qayerdaligini aniqlashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** uzoqda, yaqinda, pastda, ketma-ket, qarama-qarshi kabi yo'nalishlar bo'yicha o'tilganlarni mustahkamlash;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, geometrik shakllar, tarqatma materillar, kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun biz siz bilan predmetlarning bir-biriga nisbatan joylashuvini aniqlashga doir o'tgan mavzularimizni mustahkamlaymiz. Kelinglar, hozir gilamni uy deb o'ylaymiz. Uning to'rtta burchagiga belgi qo'yib, devor deb o'ylaymiz. Sizlarning har biringizning stolingiz ustiga bittadan buyum qo'yilgan. Bizning vazifamiz ana shu buyumlar bilan uyni bezatishdan iborat. Faqat uyni shunchaki yuzaki emas, balki did bilan o'ylab bezatish talab qilinadi. Qani, navbat bilan buyumlarni qo'yamiz. Buyumni qo'yganda uni nima uchun bu yerga qo'yayotganimizni tushuntirib o'tishimiz kerak bo'ladi.

*(Bolalar o'yinchoq predmetlarni olib uyni bezatadilar).*

**1-bola:** – Biz xonaning o'ng tomoniga javon qo'yamiz. Chap tomoniga qo'ysak, deraza berkilib qoladi.

**2-bola:** – Javonning ustiga katta tuvakdagi gullarni qo'ya olmaymiz. Chunki gul javonning ustida bo'lsa, biz unga suv quya olmaymiz.

**3-bola:** – Kitoblarni javonning tepadan eng birinchi qismiga qo'yamiz. Chunki kitoblarni pastga qo'ysak, ular kir bo'lib ketadi.

**4-bola:** – Men o'yinchoqni javonning o'rtadagi qismiga joylashtiraman. Chunki shu holatda biz uni olishimiz qulay bo'ladi.

**6-bola:** – Men yelim idish-tovoqlarni javonning eng pastki qismiga joylashtiraman. Shu vaziyatda uni olib o'ynash oson bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, uyning o'rtasiga biror buyum qo'yishimiz mumkinmi?

**7-bola:** – Qo'ysak bo'ladi, faqat unda yo'ldan o'tish uchun joy noqulay bo'lib qoladi. Shuning uchun uyning o'rtasini bo'sh qoldiramiz.



**Tarbiyachi:** – Xo‘p, qani tuvakdagi gullar kimda ekan?

**8-bola:** – Tuvakdagi gullar menda. Uni deraza oldiga qo‘yaman, shunda unga quyosh nuri tushib turadi.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarni kuzatib, ularni yo‘naltirib turadi).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

O‘ng tomonda o‘ng quloq, (chap qo‘l bilan o‘ng quloq ushlanadi)

Chap tomonda chap quloq. (o‘ng qo‘l bilan chap quloq ushlanadi)

Yomon gapni eshitmas, (qo‘llar pastga tushiriladi)

Ular zo‘r doim inoq. (qarsak chalinadi)

– Bolalar, hozir sizlarga sanoq cho‘plar va oq qog‘oz tarqataman. Sizlar oq qog‘ozning tepasiga quyosh suratini, chap tomoniga uyning shaklini yasashinglar kerak. Sizlarga namuna sifatida monitorda uy va quyoshning cho‘pdan yasalgan varianti ko‘rsatilgan.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi boallarni kuzatib turadi).*

– Bolalar, endi mana bu savollarga javob beringlar.

Sizga eng yaqin turgan narsa nima?

Stoldan pastroqda nimalar turibdi?

Xonamizning o‘ng tomonida katta shaklda nima bor?

Javonning pastiga nima buyumlar qo‘yilgan?

Monitor qayerga joylashtirilgan? Tepadami yoki pastda?

## **BIR YILDA NECHTA OY BORLIGI VA KALENDAR HAQIDA TUSHUNCHA BERISH**

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** bolalarda fasllar va kalendar haqida o‘tilgan bilimlarni mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarni oy nomlari bilan tanishtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materillar, kartochkalar, katta taqvim.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**



**Tarbiyachi:** – Assalomu alaykum. Bolajonlar, hozir sizlar bilan tezkor savol-javob o‘tkazamiz. Bir yil katta oila. Unda nechta fasl bor?

**Bolalar:** – 4 ta.

**Tarbiyachi:** – To‘g‘ri. Har bitta faslda nechtdan oy bor?

**Bolalar:** – 3 tadan.

**Tarbiyachi:** – Bir oyda nechtdan hafta bor?

**Bolalar:** – Bir oyda to‘rttadan hafta bor.

**Tarbiyachi:** – Bir haftada nechtdan kun bor?

**Bolalar:** – Bir haftada yettitadan kun bor.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, bugun biz sizlar bilan oylar haqida suhbatlashamiz. Bir yilda o‘n ikkita oy bo‘lib, ular navbatma-navbat keladi. Bir xil oylar 30 kundan. Yana boshqasi 31 kundan iborat, faqat fevral oyi 28 kundan iborat. Hozir e‘tiboringizni monitorga qarating. Unda har bir faslga mos oylar suratlarda aks etgan.

Birinchi suratda bahor oylari aks etgan, ya‘ni mart, aprel, may.

Ikkinchi suratda yoz oylari aks etgan, ya‘ni iyun, iyul, avgust.

Uchinchi suratda kuz – sentabr, oktabr, noyabr tasvirlangan.

To‘rtinchi suratda qish oylari – dekabr, yanvar, fevral ko‘rsatilgan.

Bolalar kelinglar, hozir oylar nomini ikki martadan takrorlaymiz.

– Bolajonlar, hozir sizlar bilan bir o‘yin o‘ynaymiz. Men oy nomini aytaman, sizlar uning qaysi faslga taalluqli ekanligini topib berishinglar kerak.

May – bahor.

Noyabr – kuz.

Fevral – qish.

Iyul– kuz.

– Bolajonlar kelinglar, hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz. Bunda men oy nomini aytaman, sizlar esa uni taqvimda nechani o‘rinda ekanligini aniqlab, o‘shancha marta qarsak chalasizlar. Sizlarga yordam bo‘lishi uchun doskaga taqvim ilib qo‘yaman.

Mart (bolalar uch marta qarsak chaladilar)

Avgust (bolalar sakkiz marta qarsak chaladilar)

Oktabr (bolalar o‘n marta qarsak chaladilar)

Fevral (bolalar ikki marta qarsak chaladilar)

– Hozir sizlar bilan amaliy ish o‘tkazamiz. Sizlarga to‘rtga bo‘lingan



qog'ozlar tarqataman. Sizlar uning har birini fasl sifatida bo'yaysiz. Qaysi rangga bo'yashingiz monitordagi suratda ko'rsatilgan. Qog'ozni bo'yab bo'lganingizdan keyin uning har biriga 1 dan 3 gacha bo'lgan raqam yozib chiqasiz. Amaliy ish so'ngida har biringiz qaysi faslda qanday oylar borligini tahlil qilib berishinglar kerak.

*(Amaliy ishni tarbiyachi kuzatib, bolalarga yo'nalish berib turadi).*

– Bolalar, endi sizlarning bo'yagan suratlaringiz ichidan eng chiroylisini tanlab olaman va bu bizning taqvimni birinchi beti bo'ladi.

Bolalar, hozir mana bu savollarga javob beringlar.

Mart oyi qaysi oydan keyin keladi?

Fevral yanvardan keyin kelishi rostmi?

Bir yilda o'nta oy bormi?

Qaysi oylar yoz fasliga to'g'ri keladi?

Sentabr oyi qaysi faslda keladi?

## TARTIB BILAN SANASH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarning 15 gacha sanash bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarga 15 soni ichida sanashni o'rgatish, diqqat va xotirani rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sanoq cho'plar, kartochkalar, tarqatma materiallar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugun sizlar bilan 15 gacha tartib bilan sanashni o'rganamiz. Har biringizning stolingizda yelim meva o'yinchoqlari turibdi. Siz o'nta mevani chap tomoningizga qo'yib oling.

(Bolalar o'ntadan sanab mevalarni chap tomonlariga qo'yib oladilar).

Endi, unga 1 ta meva qo'shamiz. Mevalarimiz soni 11 ta bo'ldi. Hammamiz ovoz chiqarib qaytaramiz – 11. Monitorda 11 sonining ko'rinishi tasvirlangan. Eslab qolinglar.



Bolalar, endi 11 ta mevaga yana 1 ta meva qo'shamiz. Endi mevalarimiz soni nechta bo'ldi?

**Bolalar:** – 12ta.

**Tarbiyachi:** – 12 ta mevaga yana bitta meva qo'shamiz. Endi mevalarimiz soni 13 ta bo'ldi. Qani, hammamiz ovoz chiqarib aytamiz – 13. Monitorida 13 sonining tasviri ko'rsatilgan.

13 ta mevaga yana bitta meva qo'shamiz. Mevalarimiz soni 14 ta bo'ldi. Ovoz chiqarib aytamiz – 14. Monitorga diqqat qiling, 14 sonining ko'rinishi bilan tanishib oling.

14 ta mevaga 1 ta meva qo'shdik va u 15 ta bo'ldi. Endi montiorda hamma sonlar tartib bilan ko'rsatilgan. Unga qarab turib 1 dan 15 gacha bo'lgan sonlarni birgalikda qaytaramiz.

1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15.

Bolalar, endi stolingiz ustida turgan sanoq cho'plar yordamida 1 dan 15 gacha bo'lgan sonlarni ketma-ketlikda qo'yib chiqinglar.

*(Tarbiyachi bolalarni kuzatib ularga yordam berib turadi).*

Bolalar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

Tasavvur qiling, siz toychoqning ustidasiz, uni minib ketayapsiz. Ikki qo'lingizni toychoq ustiga qo'yib, cho'v-cho'v deb ovoz chiqarib qo'yasiz.

*(Chavandozlar va otlar dupuri ovozi eshittiriladi).*

– Bolalar, endi esa oldingizda turgan meva va sabzavotlardan faqat sabzavotlarning o'zidan 15 tadan ajrating. Keyin esa geometrik shakllardan 15 tadan ajratasiz.

*(Tarbiyachi bolalarning ishlarini kuzatib turadi).*

Bolalar, endi mana bu savollarga javob bering.

15 dan oldin qaysi son keladi?

8 dan keyin qaysi son keladi?

13 ga ikkini qo'shsak, qaysi son hosil bo'ladi?

13 va 15 sonining o'rtasida qaysi son bor?

10 dan keyin qaysi son keladi?

12 dan keyin qaysi son keladi?

14 dan oldingi va keyingi son qaysi?



## BUTUNNI VA QISMNI FARQLASHGA O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** butun va qism to'g'risidagi ma'lumotlarni mustahkamlash, bolalarni buyumlarni kuzatib, chamalashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mo'ljal olishga o'rgatish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mehnat-sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, geometrik shakllar maketlari.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, sizlar bilan geometrik shakllarni ikkiga va ko'p qismlarga teng bo'lib o'rgangan edik. Aytingchi, butun doira kattami, yoki doiraning yarmi kattami?

**Bolalar:** – Butun doira katta, yarmi esa kichkina bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi aytingchi, qo'limdagi koptokni ikkiga bo'lish mumkinmi, keyin undan foydalana olamizmi?

**Bolalar:** – Yo'q, koptokni ikkiga bo'lib ishlatish mumkin emas.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, barchangizning oldingizda kartondan qilingan kvadrat va uchburchak shakllari turibdi. Shu kartonlardan foydalanib 2 xil: katta va kichik uycha yasang. Endi oldingizdagi oq qog'ozga katta va kichik uychalarni qo'yamiz va qalamda atrofni yurgizib chiqamiz.

*(Bolalar tarbiyachi aytganidek bajaradilar).*

**Tarbiyachi:** – Mana, tayyor shakllar chizildi. Katta uyning tomini to'q yashilga, qolgan qismini och yashilga bo'yaymiz. Kichik uyning tomini to'q ko'kga, qolgan qismini och yashilga bo'yaymiz. qani, kimning uy-chasi chiroyli chiqdi?

*(Tarbiyachi har bir bolaning ishini kuzatib, uy-chani chizishda qanday shakldan foydalandingiz? qaysi uycha kichik? qaysi uycha katta? kabi savollarni beradi).*

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

1. Mashina kattami, avtobusmi?
2. Jo'ja kichikmi, xo'rozmi?



3. It kattami, mushukmi?

4. Qaysi uyga qaysi tom to'g'ri keladi? Uy va tomlarni chiziq yordamida birlashtiring va bir xil rangga bo'yang.

– Endi tetiklashtiruvchi mashq o'tkazamiz:

Tarbiyachi o'g'il bolalarga katta koptoklarni, qizlarga kichik koptoklarni otishlarini aytadi. So'ng bolalar katta va kichik koptoklar bilan mashqlar bajaradilar.

– Bolajonlar, endi monitorga qarang va butun shakl va uning bo'laklarini kuzating. Monitorda quyidagi materiallar namoyish etiladi:

1. Doira va uning qismlari.
2. Banan va uning qismlari.
3. Daftar va uning qismlari.
4. Kompyuter monitori va uning qismlari.
5. Deraza va uning qismlari.
6. Uycha va uning qismlari.

## MATEMATIK DIKTANT. KO'PBURCHAK CHIZISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga teng 4 qismga bo'lish kengroq tushuntirish, katak varaqda matematik diktant olish, mo'ljal olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** buyumlarning shakli haqida tushuncha berish, chamalashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, geometrik shakllar maketlari, rangli qog'ozdan kesilgan doiralar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, katakli varaqqa rasm chizishni yoqtiramizmi?

**Bolalar:** – Ha.

**Tarbiyachi:** – Unday bo'lsa, boshladik, men yo'nalishni aytib turaman, sizlar qalamni o'sha bo'yicha yurgizasiz.

1. Daftarimizdagi belgilangan nuqtadan orqaga 2 ta katak.
2. 2 katak burchak bo'ylab tepaga.



shadi.

*(Tarbiyachi bolalar papka tutib maktabga ketayotgan rasmini ko'rsatadi).*

**3-bola:** – Bu kuz fasli va sentabr oyi. Chunki shu oyda maktab boshlanadi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, biz xalqaro bolalarni himoya qilish bayramini qachon nishonlaymiz?

**4-bola:** – Iyun oyining birinchi kunida.

**Tarbiyachi:** – Biz she'riyat mulkinging sultoni Alisher Navoiyning tug'ilgan kunini qaysi oyda nishonlaymiz?

**5-bola:** – Fevral oyida.

**Tarbiyachi:** – Amir Temur bobomizning tavallud kunini qaysi oyda nishonlaymiz?

**6-bola:** – Aprel oyida.

**Tarbiyachi:** – Yil boshidan sanaganda aprel nechanchi oy?

**7-bola:** – 4-oy.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz. Tasavvur qiling siz samolyotsiz. Ko'kda bulutlar orasida parvoz qilayapsizlar. Men esa sizlarga samolyot haqida A.Rahmat qalamiga mansub she'rni o'qib beraman.

Hoy, samolyot, samolyot,

Seni yaxshi ko'ramiz.

Uchib o'tsang osmondan,

Quv nab qarab turamiz.

Osmonda ham ko'rinmay,

Varillab sen ketasan.

Baland tog'lardan oshib

Uzoqqa tez yetasan.

– Bolajonlar, kim qaysi oyda tug'ilgan?

*(Bolalar tug'ilgan kunlarini aytadilar).*

– Bolalar, endi mana bu savollarga javob beringlar.

Bir yilda nechta fasl bor?

Har bir faslda nechtdan oy bor?

Bir yildan nechta oy bor?



12 ta oyni sanab bering.  
Noyabrdan keyin qaysi oy keladi?  
Martdan oldingi oy nomini ayting?  
Apreldan keyin qaysi oy keladi?

## QIZIQARLI MASALALAR TUZISHGA O'RGATISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarga arifmetik masalalar tuzilishi haqida ma'lumot berish, masalani yechishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mustaqil ravishda turli mavzularda to'g'ri masala yechish ko'nikmasini shakllantirish, diqqat va xotirani kuchaytirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, sanoq cho'plar, turli o'yinchoqlar, kartochkalar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, biz sizlar bilan qo'shish va ayirish haqida juda ko'p narsalarni o'rgandik. Bugungi ta'limiy faoliyatimizda esa masala tuzish haqida suhbatlashamiz.

Qani Munisa, javonda turgan qo'g'irchoqlardan to'rttasini stol ustiga olib kel. Nargiza esa yana ikkita qo'g'irchoq olib kelsin.

Bolalar Munisa olib kelgan qo'g'irchoqlar ko'pmi? Yoki Nargiza olib kelgan qo'g'irchoqlar ko'pmi?

Munisa va Nargiza olib kelgan qo'g'irchoqlarni qo'shsak nechta qo'g'irchoq bo'ladi?

*(Bolalar Munisa 4 ta va Nargiza 2 ta qo'g'irchoq olib kelganligi, ularni qo'shsa 6 ta bo'lishini aytadilar).*

– Bolalar, men hozir masala tuzdim, sizlar uni yechdinglar. Men masalani bunday tuzdim: Munisa nechta qo'g'irchoq olib kelganini so'radim, keyin Nargiza nechta qo'g'irchoq olib kelganini so'radim. Siz savolga to'g'ri javob berdingiz.

Endi sizlarga amaliy ish topshiraman. Stolning o'ng tomoniga uchta



bodring va chap tomoniga 1 ta pomidor o'yinchog'ini qo'ying. Nima qilganingizni tushuntirib bering.

*(Bolalar o'ng va chap tomonga nima qo'yganliklarini gapirib beradilar).*

– Siz o'ng tomonga uchta bodring va chap tomonga bitta pomidor qo'yganingizni yaxshi tushuntirib berdingiz. Lekin bu masala emas. Endi buni masalaga aylantiramiz. O'ng tomondagi 3 ta bodring va chap tomondagi 1 ta pomidorni qo'shsak qaysi son hosil bo'ladi? Ana shu savolga javob bersangiz masala yechilgan bo'ladi.

**Bolalar:** – 4 ta sabzavot hosil bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, tasavvur qiling menda 8 ta daftar bor, undan 3 tasini berib yuborsam nechta nechta daftar qoladi?

**Bolalar:** – 5 ta qoladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, oldingizda turli o'yinchoqlar turibdi. Shular yordamida masalalar tuzinglar.

**1-bola:** – Menda uchta ayiqcha bor, unga ikkita mushukcha qo'shsam o'yinchoqlarim soni beshta bo'ladi.

**2-bola:** – Mening 6 ta o'yinchoq mashinam bor, undan uchtasini do'stinga bersam menda uchta qoladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi quyidagi savollarga javob beramiz.

Ra'noning 4 ta o'yinchog'i bor edi, unga dadasi yana 1 ta o'yinchoq olib berdi. Unda jami nechta o'yinchoq bo'ldi?

Agar Olimjonda 3 ta koptok bo'lsa, men unga yana 5 ta koptok sovg'a qilsam undagi koptoklar soni nechta bo'ladi?

Azizada 10 ta konfet bor, u dugonasi Guliga 5 ta konfetini berib yuborsa, undagi konfetlar nechta qoladi?

## ROMB SHAKLI HAQIDA TASAVVUR UYG'OTISH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** romb shakli haqida ma'lumot berish, bolalarni buyumlarni kuzatib, chamalashga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mo'ljal olishga o'rgatish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish, mehnat-



sevarlik, kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, kartochkalar, geometrik shakllar maketlari.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, kvadrat shakli qandayligini topingchi!  
(*Bolalar monitordan kvadrat shakli qaysi ekanligini geometrik shakllar qatoridan topib aytishadi*).

– Barakalla, bu shaklning boshqa tomonlardan farqini topamiz:

1. Kvadratning hamma tomonlari teng.
2. Kvadratning hamma burchaklari teng.
3. Kvadratning to'rtta burchagi ham bir xil.

– Barakalla bilag'onlarim, endi monitorga diqqatingizni qarating.  
(*Monitorda kvadratning burchagi tepaga qarab burib ko'rsatiladi*).

– Bolalar, mana bu shakl ham xuddi kvadratga o'xshaydi, faqat uning burchagi tepada bo'ladi.

(*Rombning rasmi chiziladi va bo'yab, rangli shaklda ko'rsatiladi*).

– Bolajonlar, e'tibor bering, mana bu ikkita geometrik shakl obrazli chizilibdi. Ularning farqi nimada?

(*Monitorda kvadrat va rombning obrazli tarzda – ko'zlari, quloqlari oyoq-qo'llari bor holati namoyish etiladi*).

**Bolalar:** – Kvadrat to'rtburchak va semiz ekan, romb uzunchoqroq ekan.

**Tarbiyachi:** – Ofarin! Demak, biz geometrik shakllardan turli ko'rinishlar hosil qilishimiz mumkin ekan.

Hozir stolingizda har xil rangli qog'ozlardan kesilgan geometrik shakllar turibdi. Ulardan turli shakllar yasashni o'rganamiz.

(*Bolalar to'rtburchakni ikkiga bo'lib uchburchak hosil qilishni, to'rtburchakdan romb hosil qilishni o'rganishadi*).

– «Kvadratni yig'» o'yinini o'ynaymiz.

O'yindan maqsad: sodda geometrik shakl va uning bir necha qismlari kombinatsiyasidan kvadrat yasash kerak.

Bolajonlar, dam olish daqiqasi o'tkazib olamiz.

Kulrang g'ozlar uchdilar,

Ko'lmakchaga qo'ndilar.



U yon-bu yon qarashib,  
Yana uchib ketdilar 1,2,3.

**Tarbiyachi:** – Qarang, shamol bir necha kvadratning qismlarini arastirib yubordi. Biz hozir shakllarning qismlarini topib, butun shaklga aylantiramiz.

## 20 GACHA BO‘LGAN SONLARNI AYIRISH VA QO‘SHISH

**Ta’limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta’limiy:** tarbiyalanuvchilarga 20 gacha to‘g‘ri va teskari sanashni o‘rgatishni mustahkamlash, 20 gacha bo‘lgan sonlar ichida qo‘shish va ayirishga o‘rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda diqqatni rivojlantirish, xotirani kuchaytirish;

**Tarbiyaviy:** bolalarda mehnatsevarlik tuyg‘ularini shakllantirish, o‘zaro hamjihatlikni o‘rgatish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, kartochkalar, sanoq cho‘plar.

**Ta’limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, predmetlar nomini ayting va sanang.

*(Ekranida yoki rasmlar orqali predmetlar navbat bilan ko‘rsatiladi).*

**Bolalar:** – Bitta koptok, ikkita quyon, uchta choynak, to‘rtta anor, beshta nok, oltita olma, yettita jo‘ja, sakkizta o‘rdak, to‘qqizta qo‘ng‘iz, o‘nta kubik...

*(Ularning ketma-ketligini aniqlash uchun “Quyondan avval nima turibdi? Undan keyinchi? Jo‘ja nechanchi o‘rinda turibdi?” kabi savollar beriladi. Berilgan predmetlarning rangi ham o‘quvchilar bilan birgalikda savol-javob qilinadi. Shu o‘rinda koptokdan qanday maqsadda foydalaniladi, mevalarning inson hayotidagi o‘rni haqida suhbat o‘tkazish maqsadga muvofiq. Quyon qanday hayvon ekanligi, jo‘ja va o‘rdak nimasi bilan o‘xshashligi so‘raladi).*

“Nima o‘zgardi?” o‘yini o‘tkaziladi.

Har xil rangdagi, kattaligi har xil bo‘lgan meva va shakllarning rasmi



stol ustiga qo'yiladi. Bola teskari qarab turadi. Tarbiyachi stoldagi predmetlarning birortasini oladi yoki turgan o'rnini o'zgartiradi. Bola nima o'zgartirganini topishi kerak bo'ladi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

So'ng "Matematika daftari" bilan ishlanadi. Dastlab tarbiyachi tomonidan berilgan topshiriqlar doskada tushuntiriladi, so'ng bolalar tomonidan bajartiriladi. Bolalarga amaliy yordam berib boriladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar monitorda 20 sonining tashkil bo'lishi bilan tanishamiz.

1. 10 ta baqlajon = 5 ta baqlajon + 5 ta baqlajon
2. 15 ta baqlajon = 5 ta baqlajon + 5 ta baqlajon + 5 ta baqlajon
3. 20 ta baqlajon = 5 ta baqlajon + 5 ta baqlajon + 5 ta baqlajon + 5 ta baqlajon

baqlajon

Endi esa suratli misollar berilgan, ularga qarab javobini topamiz.

1. 12 ta jo'ja – 6 jo'ja = 6 jo'ja.
2. 15 ta qalam + 5 ta qalam = 20 ta qalam.
3. 10 ta limon – 5 ta limon = 5 limon.
4. 8 ta pomidor + 4 ta pomidor = 12 ta pomidor.

Endi dam olish daqiqasi o'tkazib olamiz:

Osmon qadar boshimiz,

Quyoshga bo'y cho'zamiz.

G'ir-g'ir shamol esadi,

Kundan-kunga o'samiz.

Bolajonlar, endi stolimizdagi sanoq cho'plardan qo'shish va ayirish amaliyoti o'tkazamiz. Buning uchun men qaysi sonlarni hosil qilish kerakligini aytaman, sizlar amaliy bajarasiz.

1. 3 va 8 ta sanoq cho'pni birlashtiring, nechchi hosil bo'ladi?
2. 7 va 3 ta sanoq cho'pni birlashtiring, nechchi hosil bo'ladi?
3. 12 va 8 ta sanoq cho'pni birlashtiring, nechchi hosil bo'ladi?
4. 16 va 4 ta sanoq cho'pni birlashtiring, nechchi hosil bo'ladi?
5. 18 ta sanoq cho'pdan 3 ta sanoq cho'pni ayirsak natija nechchi bo'ladi?
6. 20 ta sanoq cho'pdan 6 ta sanoq cho'pni ayirsak, natija nechchi bo'ladi?
7. 7 ta sanoq cho'pdan 5 ta sanoq cho'pni ayirsak, nechchi bo'ladi?
8. 10 ta sanoq cho'pdan 2 ta sanoq cho'pni ayirsak, nechchi bo'ladi?



## TAYOQCHALARNI OLIB SHAKLLARNI O'ZGARTIRAMIZ

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga tayoqchalar yordamida shakllar yasashni, shakllarni bir yoki ikkita tayoqcha bilan o'zgartirish mumkinligini o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** ma'lum miqdordagi tayoqchalardan geometrik shakllar yasash orqali ularda ijodkorlikni rivojlantirish, tasavvurni kuchaytirish;

**Tarbiyaviy:** jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tayoqchalar, kartochkalar, turli sonlar yozilgan raqamlar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, har birimiz tayoqchalardan shakllar yasashni bilamiz. Oldingizga tayoqchalar qo'yilgan, ularni sanab ko'ring-chi, nechta ekan?

**Bolalar:** – Tayoqchalar soni 10 ta ekan.

**Tarbiyachi:** – Qani, hozir to'rtburchak shaklini tayoqchalar yordamida yasaymiz. Endi esa unga 2 ta tayoqcha qo'shish yo'li bilan uni uychaga aylantiramiz.

*(Tarbiyachi bolalarga o'zi ko'rsatib tushuntiradi).*

– Bolajonlar, endi tayoqchalar yordamida uchburchak shaklini hosil qiling. Endi esa ikkita uchburchak shaklini birlashtirib, bitta to'g'ri to'rtburchak shaklini hosil qilamiz.

*(Tarbiyachi doskada ikkita uchburchakdan bitta to'g'ri to'rtburchak shaklini hosil qilishni ko'rsatib beradi).*

– Bolalar, qani endi monitorda bayroqcha shakli ko'rsatilgan. Xuddi namunadagidek qilib tayoqchalardan bayroqcha shaklini yasab olamiz. Endi esa bayroqchaga ikkita cho'p qo'yib, undan ikkita to'g'ri to'rtburchak shaklini hosil qilishimiz mumkin.

*(Tarbiyachi buni amalda ko'rsatib beradi).*

– Bolalar, endi dam olish daqiqasi o'tkazamiz. Ko'zlarimizni yumamiz, chuqur nafas olamiz, nafasni tutib turib qo'llarimizni tepaga ko'taramiz. Nafasni chiqarib ko'llarimizni pastga tushiramiz. Bu mashqni 5 marotaba



bajaramiz.

– Bolajonlar, anchagina tetiklashib oldinglarmi? Endi esa doira shaklini olamiz va uning o'rtasiga bitta chiziqcha qo'ysak, u olmaning teng bo'linganiga o'xshab qoladi.

*(Tarbiyachi bolalar bilan amaliy ish o'tkazadi).*

Bolajonlar, endi quyidagi savollarga javob bering.

Kvadrat shaklini yasash uchun nechta sanoq cho'p kerak bo'ladi?

To'g'ri to'rtburchak shaklini yasash uchun nechta sanoq cho'p zarur bo'ladi?

Uchburchak shaklini yasash uchun nechta sanoq cho'p kerak bo'ladi?

### SOAT QANDAY ISHLAYDI?

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga soatning qanday ishlashi haqida tushuncha berish;

**Rivojlantiruvchi:** tarbiyalanuvchilarda chamalash, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, diqqat va kuzatuvchanlikni oshirish;

**Tarbiyaviy:** o'zaro hamdardlik tuyg'usini rivojlantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, soat, raqamlar, kartochkalar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, biz sizlar bilan soat haqida avvalgi ta'limiy faoliyatlarimizda suhbatlashgan edik. Qani kim aytadi, o'zi soat bizga nima uchun kerak?

**1-bola:** – Soat vaqtni bildirish uchun kerak.

**Tarbiyachi:** – Soatning qanday shakldagilarini ko'rgansiz?

**Bolalar:** – Dumaloq, oval, to'g'ri to'rtburchak shakldagilarni ko'rganmiz. Yana devorga osadigan va qo'l soatlari ham bor.

**Tarbiyachi:** – Hozir sizlarga soatni necha bo'lganini bilishni o'rgataman. Tarbiyachi doskaga qo'yilgan katta soat maketining yoniga boradi. Mana bu soatdagi biri uzun, biri kalta ko'rsatkichlar. Ularning kaltasi birni, uzuni 12 raqamini ko'rsatayotgan bo'lsa, soat 1 bo'lgan bo'ladi. Agar kalta ko'rsatkich soat 2 bo'lganini va uzun ko'rsatkich soat 12 bo'lganini ko'rsatsa, soat 2 bo'lgan bo'ladi. Bordi-yu, kalta ko'rsatkich 3 ni, katta



ko'rsatkich 12 ni ko'rsatgan bo'lsa, soat 3 bo'lganini bilishimiz mumkin. Endi aytinglar-chi, kalta ko'rsatkich soat 5 da katta ko'rsatkich soat 12 da turgan bo'lsa, soat necha bo'lgan bo'ladi?

**Bolalar:** – Soat 5 bo'lgan bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, kalta yo'nalish soat 7 ni, uzun yo'nalish soat 12 ni ko'rsatsa, soat necha bo'lgan bo'ladi?

**Bolalar:** – Soat 7 bo'lgan bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Bolalar, o'tgan galgi yasagan soatlarimizni oldimizga qo'yamiz. Men sizlarga soat nechalgini aytaman, sizlar esa uni o'z soatlaringizda to'g'irlaysizlar.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarni kuzatib turadi).*

– Bolalar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

Soatim tez yurgin deydi, (tap-tap-tap)

Shoshilish zarur deydi. (tap-tap-tap)

Mashinam shoshilmaydi,

Mashinalar ko'p deydi. (bip-bip-bip)

– Bolajonlar, endi mana bu savollarga javob beringlar.

Agar soat 8 bo'lsa, ko'rsatkich qayerda turadi?

Hozir soat necha bo'ldi?

Soat 11 bo'lganida uzun ko'rsatkich qayerda, kalta ko'rsatkich qayerda turadi?

Soat 4 bo'lganini biz qanday bo'lamiz?

Soat 1 bo'lishi uchun uzun ko'rsatkich qayerda, kalta ko'rsatkich qayerda turishi kerak bo'ladi?

## 20 GACHA SONLARNI YOZUVDA FARQLASH

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarda 20 gacha bo'lgan sonlarni yozuvda farqlashni va sanash malakalarini mustahkamlash;

**Rivojlantiruvchi:** diqqat va xotirani kuchaytirish.

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlikka o'rgatish, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, turli sonlar yozilgan kartochkalar.



## Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolalar, bugungi ta'limiy faoliyatimizda 20 gacha bo'lgan sonlar haqidagi bilimlarimizni mustahkamlaymiz. Hozir diqqatingizni monitorga qarating. Unda 20 gacha bo'lgan sonlar yozib ko'rsatilgan. Qani, bir sonlarni ovoz chiqarib o'qiylik-chi.

**Bolalar:** – 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, endi sizlar bilan “Do'stimni top” o'yinini o'ynaymiz. Monitorda ikkita son ko'rsatiladi, sizlar esa uning o'rtasidagi son qaysi ekanligini topishinglar kerak.

**1-bola:** – 14 soni va 16 soni ko'rsatilgan, ularning o'rtasidagi son 15 bo'ladi.

**2-bola:** – 7 va 9 soni ko'rsatilgan, ularning o'rtasidagi son 8 bo'ladi.

**3-bola:** – 18 va 20 soni ko'rsatilgan, ularning o'rtasidagi son 19 bo'ladi.

**4-bola:** – 11 va 13 soni ko'rsatilgan, ularning o'rtasidagi son 12 bo'ladi.

**5-bola:** – 17 va 19 soni ko'rsatilgan, ularning o'rtasidagi son 18 bo'ladi.

**6-bola:** – 6 va 8 soni ko'rsatilgan, ularning o'rtasidagi son 7 bo'ladi.

**7-bola:** – 12 va 14 soni ko'rsatilgan, ularning o'rtasidagi son 13 bo'ladi.

**8-bola:** – 4 va 6 soni ko'rsatilgan, ularning o'rtasidagi son 5 bo'ladi.

**Tarbiyachi:** – Qoyil, to'g'ri topdinglar. Endi esa biz ikki guruhga bo'linamiz. Birinchi guruh bolalari o'zlarini 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar deb tasavvur qiladilar, ikkinchi guruh bolalari esa o'zlarini 10 dan 20 gacha bo'lgan son deb o'ylaydilar. Xonaga 2 ta uycha qurilgan – uchburchak va to'g'ri to'rtburchak. Men sizlarga qarab turib istalgan sonni aytishim mumkin. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar uchburchakka, 10 dan 20 gacha bo'lgan sonlar esa to'g'ri to'rtburchakka kirishlari kerak. Qaysi geometrik shaklga kirsangiz ham kirishdan oldin o'z raqamingizni aytishingiz kerak.

*(O'yin davomida tarbiyachi bolalarni kuzatib turadi).*

– Bolalar, endi jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

O'n marta qarsak chalamiz. O'n marta turgan joyimizda yuramiz. O'n marta o'tirib turamiz.

– Bolalar, hammangizga 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlar beriladi. Sizlar uni tartib bilan stolingiz ustiga terib chiqishingiz kerak bo'ladi.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalarni kuzatib turadi).*



– Bolajonlar, endi mana bu savollarga javob bering.

6 dan kichik 4 dan katta son qaysi?

10 dan 1 gacha teskari sanab bering.

1 dan 20 gacha sanab bering.

12 dan kichik 10 dan katta son qaysi?

19 dan keyin qaysi son keladi?

18 ga 2ni qo'shsak, qaysi son hosil bo'ladi?

17 ga 3 ni qo'shsak, qaysi son hosil bo'ladi?

## CHAMALASHGA O'RGATISH

### Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:

**Ta'limiy:** tarbiyalanuvchilarni o'ziga tanish o'lchamdagi narsalarni ajratib farqlay olishga o'rgatish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarga har bir narsaga kuzatuvchanlik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish, diqqat va xotirani kuchaytirish;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlikka o'rgatish, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, tarqatma materiallar, o'yinchoqlar, geometrik shakllar.

### Ta'limiy faoliyatning borishi:

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, hozir biz sizlar bilan turli binolar quramiz. Buning uchun bizga turli geometrik shakllar kerak bo'ladi. Men sizlarga qaysi shakllarni olishni aytmayman. O'zingiz ko'z bilan chamalab, no'ljallab geometrik shakllarni tanlab olinglar.

*(Bolalar geometrik shakllardan tanlab oladilar).*

– Bolalar, qizlar sartaroshxona, oziq-ovqat do'koni qurasizlar. O'g'il bolalar esa mashina uchun garaj, sport maydonchasi quradilar. Sizlarga qurilishni yakunlash uchun 10 daqiqa beraman. Sizlarga yordam bo'lishi uchun monitorda oziq-ovqat do'koni, mashina uchun garaj, sartaroshxona, sport maydonchasi surati ko'rsatilgan. Qani, ko'raylik-chi, qizlar birinchi ishni yakunlarmikan yoki o'g'il bolalar?

**(O'g'il bolalar va qizlar bir xil vaqtda ishni tugatadilar)**



– Bolalar, ikkala guruh ham bir xil vaqtda ishni tugatgani uchun do‘stlik g‘olib bo‘ldi, deb baholaymiz. Endi esa sizlarni yana ikkita guruhga bo‘laman va har biringlarni qo‘linglarga turli geometrik shakllar bera-man. Do‘stingni top deganimda, sizniki bilan bir xil geometrik shakli bor do‘stingizni yoniga borasiz va ikkovingiz qo‘lingizdagi geometrik shakl-larni tepaga ko‘tarasiz.

**(Tarbiyachi o‘yin davomida bolalarga yordam berib turadi).**

– Bolalar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o‘tkazamiz.

Men sizlarga Q. Abdullayevaning “Sochiq” nomli she‘rini aytaman. Sizlar esa mening xarakterlarimga qarab ularni takrorlashinglar kerak.

Kir bo‘lsa qo‘lu yuzim, (ikki qo‘l ko‘rsatilib yuz ushlanadi)

Yuvib artaman o‘zim. (yuzni yuvgandek xatti-harakat qilinadi)

Minnatdorman, ochig‘i (ikki qo‘l ko‘krakka qo‘yiladi)

Rahmat senga sochig‘im. (bosh xiyol egib ta‘zim qilinadi)

**Tarbiyachi:** – Bolalar, endi quyidagi savollarga javob bering.

Narsalarning shakli ularning katta-kichikligiga bog‘liqmi?

O‘zingiz qurgan binolardan qaysi biri eng baland?

Siz qurgan binolardan eng kattasi qaysi?

Qaysi binoingiz uchun hammasidan ko‘p geometrik shakl ishlatildi?

## GEOMETRIK SHAKLLARNI GURUHLASH

**Ta‘limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta‘limiy:** bolalarda katak daftar varag‘iga turli shakllarni chiziqlar bi-lan belgilash ko‘nikmasini hosil qilish, ularda mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalar katta katak qog‘ozda kvadrat, uchburchak shakllarini chizishni o‘rganadilar, ularda, diqqat, xotira rivojlanadi;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlik tuyg‘ulari shakllanadi.

**Kerakli jihozlar:** AKT, geometrik shakllar, katta katakli daftar va ruchka.

**Ta‘limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolalar, qani monitorga qarang, u yerda geometrik



shakllar mamlakatiga sayohat qilish ko'rsatilgan. Bizga raqamlangan geometrik shakllar peshvoz chiqadi, biz esa ularning raqami va nomini aytib berishimiz kerak.

**Bolalar:** – 1 raqamdagi shakl kvadrat, 2 raqamdagi shakl doira, 3 raqamdagi shakl uchburchak, 4 raqamdagi shakl oval, 5 raqamdagi shakl to'g'ri to'rtburchak.

**Tarbiyachi:** – Barakalla, to'g'ri topdingiz. Endi hammangizning oldingizda turlicha geometrik shakllar qo'yilgan. Xona o'rtasida esa ularni topish uchun xuddi o'zlarining shaklida qutichalar qo'yilgan. Siz yoningizdagi geometrik shakllarni olib, mana shu qutichaga solishingiz kerak.

*(Bolalar ishini tarbiyachi kuzatib turadi).*

– Bolalar, hozir sizlar bilan to'rtburchak shaklini chizishni o'rganamiz. Hammangizning yoningizga katak daftar qo'yilgan. Daftarimiz har bir rangning chap tomonidan 4 ta katak sanab, ruchkada nuqta belgilab berilgan. Yuqoridan pastga qarab 4 ta katak sanab tushamiz va birinchi nuqtaga to'g'rilab belgilaymiz. Nuqtadan o'ng tomonga qarab 10 ta katak sanab, nuqta qo'yamiz. Chap tomondagi nuqtadan pastga qarab 10 ta katak sanab, nuqta qo'yamiz. Mana kvadrat shakli hosil bo'ldi. Endi nuqtalar orasini kalta chiziqalar bilan belgilab chiqamiz.

– Bolalar, endi kataklardan chiqmagan holda o'zinglar uchburchak shaklini chizib ko'rishinglar mumkin. Buning uchun chamalab oldin uchta nuqta qo'yib olasiz, keyin esa ularni birlashtirasiz, bitta chizganingizda uchburchak o'xshamasa, yana bir marta chizishingiz mumkin.

Charchab qolmadinglarmi, bolajonlar. Unda sizlar bilan jismoniy harakatlar o'tkazamiz.

Ikki qo'lim tepada, (qo'llar tepaga ko'tariladi)

Menman eng botir deydi. (qo'llar pastga tushiriladi)

Ikki oyog'im pastda, (oyoq do'pirlatiladi)

Bizmiz eng kuchli deydi. (turgan joyda yuriladi)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, bugungi ta'limiy faoliyatimizni quyidagi savollarga javob berishinglar bilan tugatamiz.

To'rtburchakda nechta burchak bor?

Uchburchakda nechta burchak bor?

Doirada burchak bormi?



## SONIYA VA DAQIQA HAQIDA TUSHUNCHA BERISH

### **Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarga soniya va daqiqa haqida tushuncha berish;

**Rivojlantiruvchi:** vaqtning eng kichik birliklari haqidagi ma'lumotlarini o'rgatish, xotira va diqqatni rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, soat, turli o'yinchoqlar.

### **Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, monitordagi surat nima va u bizga nima uchun kerak?

**Bolalar:** – Monitordagi surat soatniki va u bizga vaqtni aniqlashimizga yordam beradi.

**Tarbiyachi:** – Vaqtni soat yordamida aniqlashimiz uchun vaqt nimalarda o'lchanishini bilishimiz kerak. Vaqtning eng kichik birligi bu soniya. Soniya juda qisqa vaqt, u bir zumda o'tib ketadi. Soniyadan keyin esa daqiqa keladi. Bir daqiqa 60 soniyadan iborat. Soniyalar daqiqani, daqiqalar soatni soatlar sutkani tashkil qiladi. 1 sutkamiz 24 soatdan iborat. Bolajonlar, hozir, men soatga qarab turaman, sizlar bir soniya davomida qog'ozga nuqtalar qo'yasiz.

Endi esa bir daqiqa davomida qog'ozga nuqtalar qo'yasiz, men soatga qarab bir daqiqa bo'lganida to'xtanglar deyman.

*(Bolalar bir soniya va bir daqiqa mobaynida qog'ozga nuqtalar qo'yib qo'yadilar).*

**Tarbiyachi:** – Bolalar, sizlar bir soniya vaqt davomida ko'proq nuqta qo'ydinglarmi yoki bir daqiqadami?

**Bolalar:** – Bir soniya juda tez o'tarkan. Biz bir daqiqada ko'proq nuqta qo'ydik.

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi sizlarga bitta hikoyacha aytib beraman. Sizlar esa o'z oldingizdagi soatga qarang va undagi soatni mening aytganim bo'yicha to'g'rilab turasizlar. “Malika ertalab soat 7 da uyg'ondi. Soatingizni aynan 7 ga to'g'rilang. Malika keyin nonushta qildi. Soat 8 da onasi uni bog'chaga olib bordi. Soatingizni 8 ga to'g'rilang. Soat 10



u mashg'ulotlarda qatnashadi. Qani, soatning kalta yo'nalishini 10 ga, uzunini 12 ga to'g'rilang. Soat 1 da Malika tushki uyquga yotadi. Soatingizni soat 1 ga to'g'rilang. Soat 4 da u uyqudan uyg'ondi. Soatni 4 ga to'g'rilang. Soat 5 da u uyiga keldi. Soatni 5 ga to'g'rilaymiz. U soat 7 la kechki ovqatni yedi. Soatni 7 ga olib boring. Malika soat 9 da uyquga yotdi. Soatni 9 ga to'g'rilaymiz.

– Bolalar, sizlar Malikaning kuni bilan tanishdinglar. Endi guruhimizdagi soatga qaraymiz va o'zimizdagi soatlarni o'sha soatdagi vaqtga to'g'rilaymiz.

Bolalar, hozir sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

Soniyalar yurar tez, (turgan joyimizda yuramiz)

Sira yetib bo'lmaydi. (orqaga ikki qadam tashlaymiz)

Sira charchab tolmasdan (oldinga ikki qadam yuramiz)

Bir zum to'xtab qolmaydi. (qarsak chalamiz)

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar, endi mana bu savollarga javob beringlar.

Soniya ko'pmi yoki daqiqa?

Bir daqiqada necha soniya bor?

Bir soatda necha daqiqa bor?

Soat nima uchun kerak?

## SHARTLI O'LCHASH NATIJALARI

**Ta'limiy faoliyatning maqsadlari:**

**Ta'limiy:** bolalarda suyuq va to'kiladigan jismlarning miqdorini o'lchash haqida tasavvur hosil qilish;

**Rivojlantiruvchi:** bolalarni mantiqan fikrlashga o'rgatish, diqqat va e'tiborini rivojlantirish;

**Tarbiyaviy:** mehnatsevarlikka o'rgatish, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

**Kerakli jihozlar:** AKT, oshxona jihozlari, turli donlar, suyuqliklar.

**Ta'limiy faoliyatning borishi:**

**Tarbiyachi:** – Bolajonlar sizlar qanday kasblarni bilasizlar?

**Bolalar:** – Shifokor, quruvchi, o'qituvchi, dizayner, duradgor.



**Tarbiyachi:** – Bolalar, ovqatni kim pishiradi?

**Bolalar:** – Oshpazlar.

**Tarbiyachi:** – Bugungi ta'limiy faoliyatimizga oshpaz opamiz mehmonga kelibdilar. Assalomu alaykum, oshpaz opa. Xush kelibsiz! Qo'lingizda yuklaringiz ko'p-ku, bizga nimalar olib keldingiz?

Oshpaz opa: – Men sizlarga oshxonada ishlatadigan buyumlarimni, yana allaqancha don-dunlar olib keldim. Bugun sizlar bilan bilganlarimni o'rtoqlashmoqchiman.

**Tarbiyachi:** – Juda vaqtida keldingiz-da. Bugungi mavzuimiz ham aynan suyuq jismlarni o'lchashga mo'ljallangan edi. Aytingchi, siz yog'ni nimada o'lchaysiz?

*(Oshpaz opa butilkadagi yog'ni cho'michda o'lchab ko'rsatadi).*

– Siz bir qozon ovqatga qancha suv solasiz?

*(Oshpaz opa oshxonadagi qozonga chelaklab, bu yerdagi kichkina qozonga esa cho'michlab suv solishini aytadi).*

– Ovqatning mazasini aynan tuz belgilab beradi. Uning kamligi yoki ko'pligi bir zumda oshpaz mehnatini yo'qqa chiqarishi mumkin. Aytingchi, tuzni nimada o'lchaysiz?

*(Oshpaz opa tuzni kichik va katta qoshiqlarda solishini aytib beradi).*

– Bolalar, endi bittangiz stolingizga qo'yilgan qum va chelakcha belkurakni oling. Tasavvur qiling, siz oshpaz yordamchisiz. Yoningizdagi do'stingiz esa oshpaz. Vazifangiz sizdan so'ralgan guruch, no'xat, loviya, un kabi mahsulotlarni idishga to'ldirib berishdan iborat. Agar idishga mahsulotni kamroq solsangiz ovqat mazali chiqmaydi.

*(Amaliy ish davomida tarbiyachi bolalar ishini kuzatib turadi).*

– Bolajonlar, endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

Qo'limizda tuz oldik. (barmoqlar bilan tuzni olgandek harakat qilamiz)

Uni salatga sepamiz. (sekin-sekin tuz sepayotgandek harakat qilamiz)

Salat mazali chiqdi. (salatni qoshiqda aralashtiramiz)

Salatdan olib yeymiz. (qoshiqda olib yeymiz)

– Bolalar, ana endi mana bu savollarga javob beringlar.

Suyuq jismlar nimalar?

Donlarni nima bilan o'lchash mumkin?

Suyuq jismlarni nima bilan o'lchash mumkin?



## MUNDARIJA

Kubik va g'ishtchalardan "bog'cha quramiz" o'yini orqali predmetlarni guruhlashga o'rgatish.....	4
"Do'kon quramiz" o'yini yordamida guruhdan predmetni ajratishga o'rgatish.....	6
"Mening krovatim" o'yini orqali vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.....	8
O'rtoqlarim uchun zinacha.....	10
"Kuzgi maydonchalar" o'yini orqali ko'p, kam tushunchalarini shakllantirish.....	12
Kuzgi hosilni yig'ish uchun yuk mashinasi o'yini orqali geometrik shakllar bilan tanishtirish.....	14
Non mashinasi yasash orqali doira haqida tushuncha berish.....	16
Paxta terish mashinasi yasash orqali kvadrat bilan tanishtirish.....	18
Poyezd yasash misolida doira va kvadrat haqidagi bilimlarni mustahkamlash.....	21
Svetofor yasash misolida geometrik shakllar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.....	22
"Tez yordam" mashinasini yasash orqali predmetlarni taqqoslashga o'rgatish.....	24
"Ko'prik qurish" orqali uzunlik bo'yicha taqqoslashni o'rgatish.....	26
Ertak qahramonlariga uy qurish misolida kenglik va uzunlik haqidagi bilimlarni mustahkamlash.....	28
Bolalar o'yingohi yasash orqali balandlik haqida tushuncha berish.....	30
Qo'g'irchoq uchun kiyim shkafi yasash.....	32
Katta kichik archalar yasash orqali predmetlarni taqqoslash.....	33
Chana yasash yordamida predmetlarni guruhlash, ularni ajratish bo'yicha bilimlarini mustahkamlash.....	35
Tank va mashina yasash.....	37
"Mening xona jihozlarim" o'yini orqali ko'p kam tushunchalarini mustahkamlash.....	39
"Do'stimning orzusidagi uy" o'yini orqali son – sanoq haqida tushuncha berish.....	41
"Kuchukchaga uycha yasaymiz".....	43



Shakli bir xil, o'lchami har xil bo'lgan shakllar bilan tanishtirish.....	43
Baland va past kubikchalarni farqlashga o'rgatish.....	45
Derazali uycha yasaymiz.....	46
O'z uyingni o'zing top.....	48
Doira, kvadrat va uchburchak shakllarini farqlashga o'rgatish.....	49
Varraklar yasash orqali o'lchami har xil bo'lgan shakllarni farqlashga o'rgatish.....	51
Doirani ikki bo'lakka bo'lish.....	53
Kichkinalar va kattalar.....	54
Buyumlarning katta kichikligini farqlash.....	56
Uyquramiz.....	57
Uyimiz uchun mebel yasaymiz o'yini orqali mo'ljal olishga o'rgatish.....	59
“Lipopcha yasaymiz” o'yini orqali geometrik shakllar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.....	60
Kubiklardan televizor va kompyuter yasash yordamida predmetlarni o'lchamini aniqlashga o'rgatish.....	63

### O'rta guruh

5 gacha sanaymiz. Men yashaydigan uy.....	66
O'ng va chap. Darvoza quramiz.....	68
5 ichida taqqoslaymiz. Shahar ko'chalaridagi uylar.....	70
Eni va bo'yiga ko'ra qiyoslaymiz.....	72
Doira, kvadrat, uchburchak. “Bu nima?” pazldan yig'ish.....	73
Predmetlarning qalin-yupqaligini qiyoslash.....	75
Doira, kvadrat, uchburchak.....	77
Qog'ozdan korobka yasaymiz.....	77
6 soni. Kubiklar yordamida 6 ichida amaliy ish.....	79
Bir xil, qalin, yupqa. Qiyoslash yordamida buyumlarni turiga ajratish.....	81
Ajoyib xaltacha yordamida kun va tun tushunchalarini to'g'ri qo'llashga o'rgatish.....	83
Xona buyumlari asosida oldinga-orqaga, o'ngga-chapga tushunchalarini mustahkamlash.....	85
Qo'g'irchoq Lolaxon ishtirokida vaqt haqidagi tasavvurlarni shakllan-	



tirish.....	87
10 soni bilan tanishtirish.....	89
Mitti qushcha yordamida vaqt haqida tasavvur uyg'otish.....	92
Mebellar yordamida fazoda mo'ljal olishga o'rgatish.....	93
10 soni ichida sonlarni taqqoslash.....	94
Buyumlar yordamida miqdor kattalik (Tor, torroq, keng, eng keng) haqida tushuncha berish.....	96
Doira va ovalni ajratishga o'rgatish.....	98
Sonlar bilan yozish amaliyoti (7 sonigacha).....	99
Geometrik shakllarni topishga o'rgatish.....	100
Vaqt haqida tasavvur uyg'otish (kun-tun, ertalab-kechqurun).....	102

## Katta guruh

“Maktab”, “Bog'cha” mavzulari asosida 1 dan 10 gacha to'g'ri sanashni mustahkamlash.....	106
Kvadrat va to'g'ri to'rtburchak shakllaridan shahrimizdagi zamonaviy uylarni quramiz.....	108
10 tagacha bo'lgan qurilish materiallari asosida uy qurish.....	109
Qo'g'irchoq uchun uy yasash orqali fazoviy tasavvurlarni mustahkamlash (o'ng-chap, oldinda-orqada, uzoqda-yaqinda).....	111
Bolalar maydonchasi misolida ertalab, kunduzi, kechqurun, tun kabi tushunchalarni mustahkamlash.....	113
Meva va sabzavotlar yordamida 10 dan 1 gacha teskari sanashni o'rgatish.....	115
“Matematika mamlakati”da tayoqchalardan turli shakllar hosil qilishni o'rgatish.....	116
Matematik diktant. Narsalarni teng qismga bo'lishni o'rgatish.....	118
O'yinchoq transportlar yordamida fazoda o'lcham olishga o'rgatish.....	119
Atrofdagi sonlarni topish va ularni yozish.....	122
Maktab qurish misolida geometrik shakllar bo'yicha o'tilganlarni mustahkamlash.....	124
To'g'ri va teskari sanashga o'rgatish.....	126
Butunni 4 ta teng qismga bo'lishga o'rgatish.....	126
Qo'shni sonlar haqida tushuncha berish.....	127



Doira, oval, shar, kub, silindr.....	129
Poyezdcha yordamida hafta kunlarini o'rgatish.....	130
Nuqtalarni birlashtirish orqali 10 gacha bo'lgan sonlarning tartibini o'rgatish.....	133
Mashinalar uchun turargoh yasash orqali geometrik shakllar haqidagi tushunchalarni mustahkamlash.....	134
4 qismga bo'lish bo'yicha ko'nikmalarni mustahkamlash.....	137
“Xatoni top” mantiqiy o'yini orqali ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha harakatlantirishga o'rgatish.....	138
Vaqt bilan tanishtirish (yil fasllari misolida).....	141
15 gacha bo'lgan sonlar bilan tanishtirish.....	143
Tayoqchalar yordamida turli geometrik shakllar hosil qilish.....	145
Kutubxona qurish misolida chamalashga o'rgatish.....	146
Gul yasash misolida o'ng-chap, yuqori-past tomonlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash.....	148
Do'kon misolida 20 gacha sanashni o'rgatish.....	149
Qush uyi misolida namunadagi narsalarni yasash.....	152
Katta-kichik, uzun-kalta, qalin-yupqa to'g'risidagi ma'lumotlarni mustahkamlash.....	153
Predmetlar va insonlarga nisbatan fazoda mo'ljal olishga o'rgatish.....	155
Hafta kunlari qush uyasidagi mehmonda.....	156
20 gacha bo'lgan sonlar bo'yicha o'tilganlarni mustahkamlash.....	159
20 gacha bo'lgan sonlar asosida o'tilganlarni mustahkamlash, ularni yozuvda farqlashga o'rgatish.....	162
O'yinchoq robot yordamida harakat yo'nalishini o'rgatish.....	163
Sodda masalalar tuzishni o'rgatish.....	166

### **Tayyorlov guruhi**

Teleminora qurish orqali 10 gacha bo'lgan sonlarni to'g'ri va teskari sanash malakasini mustahkamlash.....	170
Zamonaviy shahar qurish orqali ko'pburchak bilan tanishtirish.....	172
Teng ikki qismga bo'lish bo'yicha tushunchalarni mustahkamlash..	173
Narsalarning joylashuviga qarab vaziyatini aniqlash.....	175



Ertalab, kunduz, kechqurun haqidagi tushunchalarni mustahkamlash.....	176
Matematika mamlakatiga sayohat. Ko'pburchak haqidagi ma'lumotlarni mustahkamlash.....	179
Matematik diktant. 4 qismga bo'lish haqida.....	180
Xona buyumlarining joylashuviga qarab o'rnini aniqlashga o'rgatish.....	182
Sutka qismlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash.....	183
Sonlarning qo'shnisini topish va ularning o'zaro aloqadorligini tushuntirish.....	185
Geometrik shakllarning turli ko'rinishlari borligini tushuntirish.....	187
Predmetlarni 4 ga va 8 ga bo'lish natijalari bilan tanishtirish.....	189
Katakli daftarda grafik diktant yozishga o'rgatish.....	190
Hafta kunlari bo'yicha ma'lumotlarni mustahkamlash.....	192
+ va - bilan tanishtirish. Sonlarni qo'shish va ayirish bo'yicha malakalarni mustahkamlash.....	194
8 gacha teng qismga bo'lish ko'nikmalarini mustahkamlash.....	196
Insonlarga nisbatan predmetlarning joylashuvini o'rgatish.....	198
Sana, hafta kuni, oy nomlari bilan tanishtirish.....	200
10 ichida qo'shish va ayirishga o'rgatish.....	202
Eyfel minorasi misolida uchburchaklardan turli narsalar yasashni o'rgatish.....	204
Predmetlarning bo'yi va enini taqqoslashga o'rgatish.....	206
Tevarak atrofda o'z o'rnini topishga o'rgatish.....	207
Bolalarni kecha, bugun, ertaga qanday kun ekanligini farqlashga o'rgatish.....	209
Qo'shish va ayirish amallarini 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar o'rtasida bajarish.....	211
Varrak yasash orqali tayoqchalardan turli shakllar yasash usullarini o'rgatish.....	212
Juda mayda narsalar va suyuqlikni o'lchashga o'rgatish.....	213
O'rmonga sayohat misolida harakat yo'nalishini o'zgartirishga o'rgatish.....	215
"Nima o'zgardi?" o'yini orqali yil fasllarini o'rgatish.....	217
1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning yozuvda ifodalanishi.....	220



“Ortiqcha shaklni top” o‘yini orqali mantiqiy topshiriqlarni yechishga o‘rgatish.....	221
Narsalarning bo‘yi va enini shartli o‘lchov orqali o‘lchashga o‘rgatish.....	223
Predmetlarning bir-biriga nisbatan joylashuvini aniqlashga o‘rgatish.....	224
Bir yilda nechta oy borligi va kalendar haqida tushuncha berish.....	226
Tartib bilan sanash.....	228
Butunni va qismni farqlashga o‘rgatish.....	229
Matematik diktant. Ko‘pburchak chizish.....	231
Yilning 12 oyi haqidagi bilimlarni mustahkamlash.....	233
Qiziqarli masalalar tuzishga o‘rgatish.....	235
Romb shakli haqida tasavvur uyg‘otish.....	236
20 gacha bo‘lgan sonlarni ayirish va qo‘shish.....	238
Tayoqchalarni olib shakllarni o‘zgartiramiz.....	240
Soat qanday ishlaydi?.....	241
20 gacha sonlarni yozuvda farqlash.....	242
Chamalashga o‘rgatish.....	244
Geometrik shakllarni guruhlash.....	245
Soniya va daqiqa haqida tushuncha berish.....	247
Shartli o‘lchash natijalari.....	248



# TARBIYACHI KITOBI

## MATEMATIKA

Amaliy qo'llanma

Muharrir: S. G'ofurov

Nashriyot litsenziyasi AI №015. 20.07.2018  
Bosishga ruxsat etildi 28.01.2020. Bichimi 70x90 1/16  
Ofset bosma. "Times New Roman" garniturasini.  
Hajmi 16 bosma tab. Nashr tab. 9  
Adadi 1000 nusxada  
Buyurtma № 100-200 Shartnoma № 0031

Murojaat uchun telefon:  
99897-746-71-73, 99894-665-83-06

"Zamin nashr" nashriyoti  
100000. Toshkent sh. Bog'ishamol k. 160-uy.  
Tel: 71-235-44-86, 71-235-44-82  
Elektron pochta: zamin.nashr@gmail.com

"Credo Print" MCHJ kitob fabrikasida chop etildi.  
Toshkent sh. Bog'ishamol k. 160-uy.  
Tel: 71-235-44-01, 71-235-44-05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)



Ushbu qo'llanma "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida belgilangan elementar matematik malakalarni rivojlantirishga mo'ljallangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir bolada sodda matematik malakalarni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ta'limiy faoliyat beshta asisiy yo'nalishni qamrab oladi :

Geometrik shakllar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlar shakllantirish.

Fazoda mo'ljal olish ko'nikmalarini hosil qilish.

Vaqt haqidagi tasavvurlar hosil qilish.

Miqdor-kattalik haqida tasavvurlar hosil qilish.

Son-sanoq haqida tushunchalar hosil qilish.

ISBN 978-9943-5893-5-3



9|789943|589353|

